



Суёнов Дилмурод Холмуродович

Иқтисод фанлари доктори, профессор.

Бельгия давлатининг Антверпен университети, Ўзбекистон-Америка академияси, АКШларининг Нью-Йорк ва Баффало университетлари ва Германиянинг "Менежмент" академияси, Европа менежмент ва технологиялар мактаби, Жанубий Кореянинг Хондонг Глобалл, Гачон, Солбиридж университетларида ўз малакасини оширган. Голландия давлати Маастрихт университетининг MBA (Бизнесни бошқариш магистри) дипломини олган. Ҳозирги кунда 135 дан ортиқ илмий мақолалар ва ўқув-услубий ишлар, шунингдек, "Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини самарали бошқариш муаммолари",

"Ўзбекистонда корпоратив бошқарув муаммолари", "Хизмат кўрсатиш соҳасида корпоратив муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари", "Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар" каби илмий монографиялар ҳамда "Корпоратив ташкилот назарияси", "Корпоративное управление в хозяйствующих субъектах", "Акционерлик жамиятларида корпоратив бошқарув", "Корпоратив менежмент", "Толлинг операцияларини ташкил этиш ва уни бошқариш", "Пособие по корпоративному управлению" номли ўқув қўлланмаларининг ҳаммуаллифи.

Ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартриш вазирлиги ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактабида "Корпоратив бошқарув назарияси ва амалиёти" кафедраси мудири лавозимида фаолият юритмоқда.



Элмирзаев Самариддин Эшкuvatович

Иқтисодий фанлари доктори, профессор.

2008 йилда Тошкент молия институтини тугатган. 2020 йил Америка қўшма штатларининг Колумбия университетиди ва 2018-2019 йилларда Россия Федерациясининг Молиявий мониторинг федерал хизмати ҳузуридаги Молиявий мониторинг халқаро ўқув-услубий марказида ўз малакасини оширган. Ҳозирги кунга қадар бевосита муаллифлигида корпоратив молия, молия бозори ва корпоратив бошқарувга оид 8 та дарслик, 3 та электрон дарслик, 3 та ўқув қўлланма, 5 та илмий монография, 50 дан ортиқ илмий мақолалар ва 50 га яқин маъруза тезислари чоп этилган, шунингдек 4 дастурий маҳсулотига Интеллектуал мулк агентлиги томонидан муаллифлик гувоҳномалари берилган.

Ҳозирда Тошкент молия институти "Корпоратив молия ва қимматли қоғозлар" кафедраси мудири лавозимида фаолият юритмоқда.

DILMUROD SUYUNOV
SAMARIDDIN ELMIRZAEV

KORPORATIV
BOSHQARUV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT VA
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI**

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI



**DILMUROD SUYUNOV
SAMARIDDIN ELMIRZAYEV**

KORPORATIV BOSHQARUV

Darslik

TOSHKENT - 2021

*Ўзбекистон Республикаси
мустақиллигининг 30 йиллиги
ва Олий бизнес мактаби ташкил
этилганлигининг 20 йиллигига
бағишланади*



Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. - Korporativ boshqaruv, – Toshkent: Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2021. - 448bet.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. D.V.Rasulova
i.f.d., prof. D.N.Raximova

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Ilmiy kengashi tomonidan 2020 yil 30 oktyabrdagi (№2 sonli bayonnoma) qarori bilan chop etishga tavsiya qilingan.

Darslik Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv” fani dasturi asosida nashrga tayyorlangan. Unda korporativ boshqaruvning nazariy asoslari, korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublari va modellari, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv organlari, korporativ nizolarning oldini olish, korporativ boshqaruvda ichki nazorat tizimi, korporativ boshqaruvda hisobdorlik, axborotlarni oshkor etish va shaffoflik, minoritar aksiyadorlar huquqlarini ta’minlash, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv, korporativ moliyaviy siyosat, korporativ boshqaruvda qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq munosabatlar tizimi, korporativ birlashmalar va ularda korporativ boshqaruv mexanizmi, korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash mexanizmi, korporativ boshqaruv tizimini baholash, yirik bitimlar tuzish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat, aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish va tugatish kabi masalalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan atroflicha yoritilgan.

© D.X.Suyunov, S.E.Elmirzayev, 2021

KIRISH

Bozor qonuniyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yoʻnalishlari belgilangan davlatlarda korporativ boshqaruv amaliyotiga doimiy ravishda diqqat-eʼtibor qaratilgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shu boisdan mazkur masala xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ham eʼtiboridan chetda qolmasdan kelmoqda. Xususan, Jahon banki guruhi tomonidan har yili eʼlon qilib kelinayotgan “Biznes yuritish” (Doing Business) hisobotlarida biznes yuritishga taʼsir etuvchi muhim omil sifatida minoritar investorlar huquqlarini himoya qilish holati alohida davlatlar kesimida tahlil qilinib, reyting tuzib chiqilmoqda. Shuningdek Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2015-yilda hozirgi real shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda “Korporativ boshqaruv prinsiplari” qayta eʼlon qilinganligi¹ korporativ boshqaruv amaliyotining milliy va jahon iqtisodiyoti uchun qay darajada muhimligini koʻrsatmoqda.

Respublikamizda ham iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash maqsadida korporativ tuzilmalar, xususan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qator islohotlar oʻtkazilmoqda. 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida “korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish”² masalasi alohida belgilab qoʻyildi. Bunda korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor qilish va faoliyat shaffofligini taʼminlash, aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kabi jihatlarga ustuvor darajada eʼtibor qaratilmoqda. Keltirilayotgan jihatlar mamlakatimizdagi aksiya-dorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini taʼminlashda alohida ahamiyat kasb etishini ham shu oʻrinda qayd etib oʻtish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy sohalar boʻyicha tayyorlanayotgan mutaxassislarining zamonaviy korporativ boshqaruv xususida yetarli darajada bilim, malaka va koʻnikmalarga ega boʻlishini taʼminlash iqtisodiy oliy oʻquv yurtlari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda esa aksiyadorlik jamiyatlari (umuman, barcha korporativ tuzilmalar) faoliyati boʻyicha real amaliyot va bu boradagi ilgʻor xorij

¹ <http://www.doingbusiness.org>, <https://www.oecd.org/daf/ca/Corporate-Governance-Principles-ENG.pdf>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi 4947-sonli Farmonidan.

tajribalari asosida o‘quv adabiyotlari yaratish va ta’lim tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Respublikamizda tayyorlanib kelinayotgan 5A230602 – “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori”, 5A230603 – “Investitsiyalarni boshqarish” 5A231701 – “Kapital bozori va birja ishi” magistratura mutaxassisliklari uchun mo‘ljallab nashrga tayyorlangan va taqdim etilayotgan “Korporativ boshqaruv” darsligi aynan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning amaldagi mexanizmi, rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribalari, xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan korporativ boshqaruv prinsiplarini qamrab olgan.

Fan dasturi asosida darslikda korporativ boshqaruvning nazariy asoslari, korporativ boshqaruvning xalqaro modellari, korporativ tuzilma sifatida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tashkiliy asoslari, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv organlari, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish, o‘tkazish va rasmiylashtirish, korporativ boshqaruvda nazorat tizimi, korporativ nizolarning oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini samarali boshqarish, korporativ boshqaruvda axborotlarni oshkor etish va shaffoflik, minoritar aksiyadorlar va ularning huquqlarini ta’minlash, korporativ boshqaruvda davlatning ishtiroki, korporativ moliyaviy siyosat va uning asosiy yo‘nalishlari, korporativ boshqaruvda qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq munosabatlar tizimi, korporativ birlashmalar tashkil etish va ularda korporativ boshqaruv mexanizmi, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan yirik bitimlar tuzish, korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash mexanizmi, korporativ boshqaruv tizimini baholash, korporativ ijtimoiy mas’uliyat, aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etish va tugatish masalalari atroflicha o‘rganilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Har bir bob bo‘yicha amaliy misollar, xorijiy tajribalardan misollar keltirilganligi darslikning mazmunan boyishiga xizmat qilgan.

Xususan, darslikning “Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari” birinchi bobida korporativ boshqaruvning mohiyati, maqsadi va vazifalari, korporativ boshqaruv ishtirokchilari, korporativ boshqaruv nazariyalari, korporativ boshqaruv va korpo-rativ menejment, korporativ boshqaruv prinsiplari, O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning tashkiliy va huquqiy asoslari, korporativ boshqaruv kodeksining qo‘llanish xususiyatlari xususida fikr yuritilgan.

Darslikning “Korporativ boshqaruv modellari” nomli ikkinchi bobida xalqaro darajada tan olingan korporativ boshqaruv modellariga umumiy tavsif, anglo-amerika modeli xususiyatlari, korporativ boshqaruvning nemis

modeli, korporativ boshqaruvning yapon modeli, korporativ boshqaruvning oilaviy modeli kabilar batafsil yoritilgan.

Darslikning “Korporativ tuzilma sifatida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tashkiliy asoslari” nomli uchinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarining vujudga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasi, aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari va kamchiliklari, aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy asoslari bayon qilingan.

Darslikning “Aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv organlari” nomli to‘rtinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv organlari tarkibi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va uning vakolat doirasi, kuzatuv kengashi va uning korporativ boshqaruvdagi roli, ijroiya organi tashkiliy tuzilishi va faoliyat mexanizmi yoritilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Darslikning “Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish, o‘tkazish va rasmiylashtirish” nomli beshinchi bobida aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining tashkil etilishi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish va ovoz natijalarini rasmiylashtirish, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazishning amaldagi holati atroflicha tadqiq qilingan.

Darslikning “Korporativ boshqaruvda nazorat tizimi” nomli oltinchi bobida nazorat tizimining tashkiliy jihatlari va amal qilish mexanizmi, taftish komissiyasi faoliyat mexanizmi, korporativ amaliyotda ichki va tashqi audit xizmati faoliyati mexanizmi hamda ularning roli, komplaens tizimi faoliyat xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Darslikning “Korporativ nizolar va ular oldini olish” nomli yettinchi bobida korporativ nizolar, ularning yuzaga kelish sabablari va tasniflanishi, manfaatlar to‘qnashuvini samarali boshqarish prinsiplari, manfaatlar qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish, manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish va bartaraf qilish kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan.

Korporativ boshqaruvda axborotar oshkoraligi va shaffoflik masalalari darslikning sakkizinchi bobida yoritilgan bo‘lib, korporativ boshqaruvda axborotlarni oshkor etish va shaffoflikni ta‘minlashning tashkiliy xususiyatlari, axborotlar oshkoraligini ta‘minlash maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ veb-saytlarida e‘lon qilinadigan axborotlar, aksiyadorlik jamiyatlarining emitent sifatida axborotlarni oshkor etishlari bo‘yicha talablar, muhim faktlar va emitent hisobotlarining e‘lon qilinishi bayon qilingan.

Darslikning “Minoritar aksiyadorlar va ularning huquqlarini ta‘minlash” nomli to‘qqizinchi bobida aksiyadorlarning huquqlari va ularga

amal qilishi, minoritar aksiyadorlar va ular huquqlarini himoya qilish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish tartiblari keltirilgan. Bu boradagi xalqaro reytinglariga e'tibor qaratilgan.

Darslikning "Korporativ boshqaruvda davlatning ishtiroki" nomli o'ninchi bobida korporativ boshqaruvda davlat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari, oltin aksiya amaliyoti va uning O'zbekistonda qo'llanilish xususiyatlari o'rganilgan, aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ishtirokining amaldagi holati tahlil qilingan.

Darslikning "Korporativ moliyaviy siyosat va uning asosiy yo'nalishlari" nomli o'n birinchi bobida korporativ moliyaviy munosabatlar tizimi, korporativ moliyani boshqarishning tashkiliy xususiyatlari va konsepsiyalari, korporativ moliyaviy siyosat asosiy yo'nalishlari tadqiq qilingan.

O'n ikkinchi bobda "Korporativ boshqaruvda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq munosabatlar tizimi" yoritib berilgan va unda aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar muomalasining nazariy va tashkiliy jihatlari, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish hamda olish tartibi bayon etilgan, aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar muomalasi amaldagi holati tahlil qilingan. Shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish o'tkazish bosqichlari va bu borada mamlakatimizda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti keltirilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

"Korporativ birlashmalar va ularda korporativ boshqaruv mexanizmi" nomli darslikning o'n uchinchi bobida korporativ birlashishlarning iqtisodiy mohiyati, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va amalga oshirilishi, korporativ birlashmalarning turlari, O'zbekistonda xoldinglar faoliyat mexanizmi bayon qilingan.

Darslikning "Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan yirik bitimlar tuzish" nomli o'n to'rtinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarida yirik bitimlar tuzish tartibi, aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish amaliyoti keltirilgan.

"Korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash mexanizmi" nomli darslikning o'n beshinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash va dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari keltirilgan va aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatining amaldagi holati tahlil qilingan.

Darslikning "Korporativ boshqaruv tizimini baholash" nomli o'n oltinchi bobida korporativ boshqaruv tizimini baholashning tashkiliy jihatlari, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari o'rganilgan, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlil qilingan.

O‘n yettinchi bobda korporativ boshqaruvning jamonaviy konsepsiyalaridan biri hisoblangan korporativ ijtimoiy mas’uliyat, uning ahamiyatli jihatlari, qo‘llanish xususiyatlari borasidagi tadqiqot natijalari bilan tanishish mumkin.

Darslikning “Aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish va tugatish” nomli o‘n sakkizinchi bobida aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish, mamlakatimizda qo‘shib yuborish, qo‘shib olishga oldindan rozilik berish tartibi, aksiyadorlik jamiyatlarini tugatish tartibi bayon qilingan.

Darslikni tayyorlashda mahalliy olimlar qatori xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot ishlaridan, xalqaro hisobotlardan keng foydalanilganligini ham qayd etib o‘tish zarur.

Har bir bob yuzasidan amaliyot darslari uchun keltirilgan qator topshiriqlar talaba va magisrntlarni masala yuzasidan mustaqil mushohada yuritishga undaydi va fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda klasterli topshiriqlar, T-sxema bo‘yicha topshiriqlar, muammoli vaziyatlar bo‘yicha fikrlar bildirishga yo‘naltiradigan masalalar o‘rganuvchining o‘z fikrini bayon etishini rivojlantirishida ham ahamiyatga ega.

Har bir mavzu bo‘yicha keltirilgan nazorat savollari, test variantlari, amaliyot darslari uchun topshiriqlar talabalarning mavzu bo‘yicha bilimlarini mustaqil tekshirish imkonini beradi va ma’ruza darslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darslik 5A230602 – “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori”, 5A230603 – “Investitsiyalarni boshqarish”, 5A231701 – “Kapital bozori va birja ishi” magistratura mutaxassisliklari uchun mo‘ljallab nashrga tayyorlangan bo‘lsa-da, undan boshqa iqtisodiy yo‘nalishlar va mutaxassisliklar, xususan 5231900 – “Korporativ boshqaruv” bakalavriat yo‘nalishi, 5A231901 – “Korporativ boshqaruv” magistratura mutaxassisligi talabalari, korporativ boshqaruv, moliyaviy menejment, korporativ moliya sohalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

I bob. KORPORATIV BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Korporativ boshqaruvning mohiyati, maqsadi va vazifalari

Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri shak-shubhasiz korporativ boshqaruv tushunchasidir. "Korporativ boshqaruv oldindan mavjud, shuningdek ushbu atama yangi hamdir"³. Bunga korporativ boshqaruv organlari tomonidan faoliyati samarali tashkil etilib kelinayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalari, transmilliy korporatsiyalar va hokazolarning milliy va jahon iqtisodiyotidagi o'rni sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, xususan mamlakatimizda ham korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Keltirilayotgan jihatlar sabab korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati, uning maqsad va vazifalarini to'g'ri anglash maqsadga muvofiq.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda va bu borada tadqiqotchilarning fikrlari xilma-xilligiga guvoh bo'lish mumkin.

Masalan M.Xamidulin esa "Korporativ boshqaruv – korpo-ratsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir"⁴, deb izoh-laydi. Tashkiliy huquqiy shakl sifatida korporatsiyalar barcha mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda qo'llanilmaydi. Shu nuqtayi nazardan korporatsiyalar, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari va boshqalarni umumlashtirgan holda korporativ tuzilma tushunchasi bilan ifodalaymiz.

A.Xoshimovning ta'kidlashicha "Korporativ boshqaruvning asosiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga jalb etilgan turli shaxslar manfaatlarini muvozanatini o'rnatishdan iborat"⁵. Mazkur izohda korporativ

³ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 4.

⁴ Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. –204 с.

⁵ Хашимов А.А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш.: Иқтисод фанлари доктори илмий даражаси учун дисс.иши. – Т.: 2007. – 338 б.

boshqaruv faqatgina aksiyadorlik jamiyatlari bilan bog‘langan. Vaholanki korporativ boshqaruv yirik mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarda ham joriy etilishi mumkin.

D.Suyunov tomonidan “Korporativ boshqaruv – bu mulk shaklidan qat’i nazar amaldagi huquqiy-me’yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma’lum bir tamoyillari asosida korxonaga maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir”⁶, deya berilgan ta’rif korporativ boshqaruvning mohiyatini nisbatan to‘liqroq ochib berilgan.

Bob Trikker esa korporativ boshqaruv tushunchasini operatsion, o‘zaro aloqadorlik, aksiyadorlar, moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazarlardan ta’riflaydi⁷.

Xususan, operatsion nuqtayi nazardan korporativ boshqaruvga kompaniyalar boshqariladigan va nazorat qilinadigan tizim sifatida qaraladi va bunda direktorlar kengashi kompaniyani boshqarishga mas’ul hisoblanadi. Boshqaruvda aksiyadorlarning roli esa direktorlar va auditorlarni tayinlash va o‘z manfaatlarini qanoatlantiradigan darajada boshqaruv tarkibini shakllantirishdan iborat.

O‘zaro aloqadorlik nuqtayi nazaridan esa korporativ boshqaruv tuzilmasi tashkilotdagi turli xil ishtirokchilar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar taqsimotini belgilab beradi. Bunda aksiyadorlar, kengash a’zolari, menejerlar va boshqa hissadorlar o‘rtasida qaror qabul qilishdagi jarayonlar va tartiblar belgilab beriladi.

Aksiyadorlar nuqtayi nazaridan korporativ boshqaruv kengash faoliyati hamda uning aksiyadorlar, menejerlar, tashqi auditorlar va boshqalar bilan aloqadorligini nazarda tutadi. Korporativ boshqaruv kompaniyaning ta’rischilar (aksiyadorlar) oldidagi javobgarligi va huquqlarini ifodalovchi jarayon sifatida ifodalanadi.

Moliyaviy-iqtisodiy nuqtayi nazardan korporativ boshqaruv kompaniyaning moliyaviy ta’minotchilari va ularning mablag‘lari qaytib kelishi o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Bunda egalik huquqi va investorlar huquqlari himoyasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan korporativ boshqaruv ijtimoiy va iqtisodiy hamda jamoa va individual maqsadlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash bilan izohlanadi.

⁶ Суѳунов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2007. – 319 б.

⁷ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 29-31.

Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi – past qiymatda investitsiyalar jalb qilish, aksiyadorlarga to‘lanadigan dividendlarni maksimalashtirish, kompaniyaning bozordagi ulushi va kapitallashuv darajasini oshirib borishdir. Shuningdek umumiylik nuqtayi nazaridan korporativ boshqaruvning maqsadini korporativ tuzilma mulkidan samarali foydalanish ustidan mulkdorlarning nazorati hamda istiqbolni belgilab berishi sifatida ham ifodalash mumkin.

Korporativ boshqaruvning asosiy vazifalari esa quyidagilardir:

- korporativ tuzilma joriy moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilib borish;
- aksiyadorlar (shu jumladan minoritar aksiyadorlar) huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirib borish orqali biznes qiymatini maksimalashtirish;
- rivojlanish strategiyalarini belgilash va ularni amalga oshirib borish ustidan nazorat o‘rnatish va boshqalar.

Korporativ boshqaruvning tarixan rivojlanishi korporativ boshqaruv nazariyalari shakllanishiga ham xizmat qildi. Bunday nazariyalar quyidagilar:

- aksiyadorlar nazariyasi;
- agentlik nazariyasi;
- shartnomalar nazariyasi;
- manfaatdor tomonlar nazariyasi;
- korporativ ijtimoiy mas’uliyat nazariyasi.

Aksiyadorlar nazariyasiga ko‘ra aksiyadorlik jamiyatida menejerlarining eng asosiy majburiyati aksiyadorlar moddiy farovonligini, boyligini muntazam oshirib borishi lozim. Bunga sabab sifatida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlar mulki asosida faoliyat yuritishi, aksiyalar bo‘yicha yuqori risk aynan aksiyadorlar zimmasiga tushishi bilan izohlanadi.

Agentlik nazariyasi korporativ boshqaruvning rivojlanib borishi natijasida mullka egalik qilishning korporativ tuzilmani boshqarishdan ajratilishi natijasida yuzaga kelgan (1.1-rasm).


Atsiyadorlar sonining va faoliyat ko‘lamining kengayishi avvalo birgalikda boshqaruvda murakkablikni yuzaga keltirdi. Boshqa tomondan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat doirasining kengayishi o‘ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltirdi va professional boshqaruvchilarni jalb qilishni shart qilib qo‘ydi. Natijada korporativ boshqaruvda agentlik

nazariyasi shakllandi. Bu nazariya agentlarni, ya'ni professional boshqaruvchilarni faoliyatga jalb qilishni nazarda tutadi.



1.1-rasm. Agentlik nazariyasi yuzaga kelishiga sabab

Professional boshqaruvchilarning yirik aksiyadorlar tomoni-dan saylanishi (yoki tayinlanishi) natijasida professional bosh-qaruvchilar bilan manfaatlar to'qnashuvi hamda mayda aksiyadorlar bilan muammo yuzaga keltirdi (1.2-rasm):



1.2-rasm. Korporativ boshqaruvga agentlarni jalb qilish natijasida yuzaga keladigan muammolar

Aksiyadorlik jamiyatlarida professional boshqaruvchilar bilan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda mayda aksiyadorlar bilan muammoni bartaraf etish maqsadida shartnomalar nazariyasi yuzaga keldi.

Shartnomalar nazariyasiga ko‘ra kapital egalari hisoblangan aksiyadorlar hamda boshqaruvchi sifatida jalb qilingan menejerlar o‘rtasida shartnoma tuzilishi shart va shartnomada tomonlarning barcha huquqlari va o‘zaro munosabatlari shartlari aniq ko‘rsatilishi lozim. Ayniqsa mukofotlar tizimining shartnomada aniq aks etishi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining kengayishi bevosita manfaatdor tomonlar sonining ham ortishiga xizmat qiladi. Dastlabki holatlarda faqat aksiyadorlar manfaatdor tomon sifatida qaralgan bo‘lsa, keyinchalik davlat, kreditorlar, ishchi-xodimlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqalar ham manfaatdor tomonlar sifatida qarala boshlandi. Bu o‘z navbatida qarorlar qabul qilishda ular manfaatlarini ham hisobga olishni shart qilib qo‘ydi. Natijada esa manfaatdor tomonlar nazariyasi shakllandi.

Bevosita manfaatdor tomonlarga qo‘shimcha ravishda bilvosita manfaatdor tomonlar ham yuzaga keldi. Bunda faoliyat yuritayotgan hudud aholisi, ilmiy tadqiqot muassasalari, jamoat tashkilotlari va boshqalar, ya’ni butun jamiyat korporativ tuzilmadan manfaatdor tomonga aylandi. Keltirilayotgan jihatlar asosida korporativ ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyasi (nazariyasi) yuzaga keldi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat kontsepsiyasi

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, korporativ tuzilmalarning jamiyat oldidagi mas'uliyati ortib boradi. Boshqa tomondan korporativ tuzilmalarning turli ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki ma'lum darajada korporativ madaniyat bilan bog'liq. Shuningdek korporativ ijtimoiy mas'uliyat doirasida korporativ tuzilmalarning ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki brendni reklama qilish vazifasini o'tab beradi. Shu o'rinda ijtimoiy reklamani ta'sir darajasi iqtisodiy reklamaga nisbatan bir necha barobar yuqori ekanligini ham qayd etib o'tish zarur.

1.2. Korporativ boshqaruv ishtirokchilari.

Korporativ boshqaruv va korporativ menejment

Bizga ma'lumki, korporativ tuzilma va uning ishtirokchilari o'rtasida korporativ munosabatlar o'rnatiladi. Bunday muno-sabatlar korporativ tuzilmani boshqarishda yaqqol ko'zga tashlanadi hamda majburiylik va boshqaruv xususiyatlariga ega hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv obyekti sifatida esa korporativ munosabatlar va korporativ mulk qaraladi. Korporativ tuzilmalar o'z faoliyati davomida turli subyektlar munosabatlarga kirishadi. Bunda munosabatlarga kirishuvchi subyektlar o'z manfaatlari, faoliyat xususiyatlari va boshqa jihatlarga ko'ra tasniflanishi mumkin. Umuman korporativ boshqaruv subyektlari quyidagilar:

- emitent sifatida aksiyadorlik jamiyatlari;
- aksiyadorlar, ya'ni investorlar;
- korporativ tuzilma menejerlari;
- davlat;
- kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar.

Umumiy holda munosabatga kirishuvchi birinchi navbatdagi subyekt bu aksiyadorlar (ulushga ega shaxslar) hisoblanadi. Hozirgi kunda davlat, jismoniy va yuridik shaxslar aksiyador bo'lishlari mumkin. Ular mulkdor sifatida o'z kapitallarini aksiyadorlik jamiyatlariga kiritadilar va albatta bundan manfaat (foyda, samara) kutadilar. Bundan tashqari eng asosiy jihat bu aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatini umumiy boshqarish huquqini o'z zimmalarida qoldirishidir.

Aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatini umumiy boshqargan holda maxsus boshqaruvni, joriy moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarishni menejerlarga shartnoma asosida yuklaydi. Natijada menejerlar ham korporativ munosabatlarga kirishadi hamda faoliyatni samarali tashkil etish

maqsadida xodimlar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirib boradi. Xodimlar korporativ tuzilma bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ma’lum bir funksional vazifalarni bajaradilar va tegishli ravishda ish haqlari hisoblanishi va to‘lanishi natijasida moliyaviy munosabatlarga kirishadilar. Agarda xodim aksiyadorga aylanadigan bo‘lsa, munosabatlar doirasi yanada kengaygan holda boshqaruv munosabatlaridagi ishtiroki ham yuzaga keladi.

Korporativ tuzilmalar, jumladan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatni tashkil qilish yoki kengaytirib borish nuqtayi nazaridan turli moliyaviy tuzilmalar, xususan fond birjalari, banklar, sug‘urta kompaniyalari bilan ham munosabatlarga kirishadilar. Moliya institutlari bir tomondan o‘zlarining asosiy faoliyatlaridan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmalar bilan munosabatlarga kirishsa, boshqa tomondan qo‘shimcha faoliyat sifatida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini xarid qilish orqali aksiyadorga aylanishi natijasida korporativ boshqaruvda ham ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi. Bunda moliya institutlari asosiy faoliyati orqali korporativ tuzilmalar bilan munosabatlar deyilganda aksiyalarni joylashtirish nuqtayi nazaridan fond birjalari bilan, qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish nuqtayi nazaridan banklar bilan, risk darajasini kamaytirish maqsadida sug‘urta kompaniyalari bilan nazarda tutilmoqda.

Yana bir eng asosiy jihat bu korporativ tuzilmaning o‘z asosiy faoliyatini oshirishi uchun hamkor tadbirkorlik tuzilmalari bilan yuzaga keladigan munosabatlaridir. Ular ham korporativ tuzilma faoliyatidagi ishtirokidan kelib chiqqan holda manfaatdor tomonga aylanadi va bilvosita bo‘lsada korporativ boshqaruv jarayonida ma’lum holatlarda ishtirok etadi.

Korporativ boshqaruvda davlat bilan munosabatlar ham jiddiy e’tibor talab qiladigan masalalardan biri hisoblanadi. Bunda davlat tomonidan qo‘yilayotgan atrof-muhit muhofazasi, bandlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi masalalar korporativ tuzilma mulkdorlari tomonidan strategik qarorlar qabul qilishda hisobga olinishi talab etiladi. Davlat bilan munosabatlarda soliq munosabatlari qamrovi kengligi va majburiy va davomli ekanligi bilan ham xarakterli hisoblanadi. Yuqoridagilardan tashqari davlatning aksiyador sifatidagi faoliyati korporativ boshqaruvda davlatning ishtirokini kafolatlaydi va bu amaliyot dunyo miqyosida keng qo‘llanilishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Korporativ tuzilma faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar hamda korporativ munosabat-lar ishtirokchilari affillangan shaxslar deb ataladi. Bunda ma’lum bir qarorlar affillangan shaxslar roziligi asosida qabul qilinadi.

Korporativ munosabatlarda subyektlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda quyidagilar bo'yicha muammoli holatlar uchraydi:

- pul oqimlarini boshqarish;
- foydani taqsimlash;
- faoliyat yo'nalishlarini kengaytirish va hokazolar.

Korporativ boshqaruvda eng asosiy subyektlar shubhasiz mulkdorlar (aksiyadorlar) va menejerlardir. Shu nuqtayi nazardan korporativ munosabatlarda korporativ boshqaruv va korporativ menejment umumiy va xususiy tarzda ko'rib chiqiladi.

Korporativ boshqaruv umumiy tarzda korporativ menejmentni ham o'z ichiga oladi va yaxlit boshqaruv tizimini o'zida aks ettiradi. Korporativ menejment esa maxsus shartnoma asosidagi boshqaruv sifatida korporativ tuzilma joriy faoliyatini boshqarib boradi.

Korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan eng muammoli munosabatlar aynan aksiyadorlar va menejerlar o'rtasida yuzaga keladi. Menejerlar aksiyadorlarning agentlari sifatida foliyat yuritishi tufayli fanda agentlik nazariyasi shakllangan. "Tadbirkorlikda professional menejmentga XX asrdan boshlab alohida e'tibor qaratilgan. Bosh ijrochi direktor yoki bosh menejer jami menejerlar ustidan nazorat qiladi va javobgarlikni o'z bo'yniga oladi. Rahbarlik va javobgarlik yuqoridan pastga, hisobdorlik esa pastdan yuqoriga tartibda amal qiladi"⁸.

1.3. Korporativ boshqaruv prinsiplari

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti korporativ boshqaruvning quyidagi prinsiplarini ajratib ko'rsatadi⁹:

1. Samarali korporativ boshqaruv tuzilmasi uchun asoslarni ta'minlash. Mazkur funksiya davlat tomonidan korporativ boshqaruv samarali amal qilishi uchun shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi.
2. Aksiyadorlar huquqlari, aksiyadorlarga nisbatan bir xil munosabatda bo'lish va asosiy mulkdorlar funksiyalari.
3. Institutsional investorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar.
4. Korporativ boshqaruvda manfaatdor tomonlarning roli.
5. Axborotlar oshkoraligi va shaffofligi.

⁸ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 42.

⁹G20/OECD Principles of Corporate Governance. OECD 2015. <https://www.oecd.org/daf/ca/Corporate-Governance-Principles-ENG.pdf>

6. Direktorlar kengashining javobgarligi.

Umumiy holda korporativ boshqaruvning prinsiplari quyidagilar:

- qonuniylik;
- adolatlilik;
- hisobdorlik;
- javobgarlik;
- oshkoralik;
- shaffoflik.

Korporativ boshqaruvning qonuniylik prinsipi davlat tomonidan belgilangan qonunchilik asosida korporativ boshqaruv tashkil qilinishi, korporativ tuzilma faoliyatining qonuniy bo'lishi lozimligini ifodalaydi.

Adolatlilik prinsipi esa korporativ tuzilmada aksiyadorning ulushidan qat'i nazar bir xil munosabatda bo'lish, minoritar aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini ta'minlash lozimligini nazarda tutadi.

Korporativ boshqaruvda boshqaruv va nazorat organlarining belgilangan tartibda aksiyadorlarga yoki aksiyadorlar vakillariga hisobot berishi hisobdorlik prinsipi asosida tashkil etiladi.


Korporativ tuzilma joriy moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha ijroiya organi, ijroiya organ faoliyatini nazorat qilish bo'yicha Direktorlar (kuzatuv) kengashi javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va bu amaliyot javobgarlik prinsipi asosida tashkil etiladi.

Korporativ tuzilma o'z faoliyati natijalari bo'yicha, shuningdek investitsiyalar jalb qilish maqsadida oldindan belgilab qo'yilgan axborotlar (hisobotlar)ni e'lon qilib boradi. Bunda ma'lumotlar axborotlar oshkoraligi prinsipiga rioya qilish maqsadida e'lon qilib boriladi.

Shuningdek, ma'lum bir holatlar yoki moliyaviy qarorlar (operatsiyalar) bo'yicha korporativ tuzilmalar tomonidan muhim faktlar e'lon qilib boriladi. Bu amaliyot bevosita aksiyadorlarni xabardor qilib borish maqsadida korporativ tuzilma faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratiladi hamda bu jarayon shaffoflik prinsipining talabi hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv prinsiplariga qat'i amal qilish iqtisodiy va ijtimoiy hayotda quyidagilarga imkon beradi (1.4-rasm).

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, korporativ boshqaruv prinsiplarining ta'minlanishi milliy va xalqaro iqtisodiy taraqqiyoti uchun hamda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.



1.4-rasm. Korporativ boshqaruv prinsiplariga rioya qilishning ahamiyatli jihatlari

1.4. O'zbekistonda korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari. Korporativ boshqaruv kodeksining qo'llanish xususiyatlari

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini samarali tashkil etish orqali xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali aholining turmush darajasi va farovonligini oshirib borish maqsadida mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan xususiylashtirish masalalariga, biznes faoliyatini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Bunda korporativ tuzilmalar, xususan aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida huquqiy asoslar yaratildi.

O'zbekistonda korporativ boshqaruv amaliyotining dastlabki bosqichi 1990-yillarga to'g'ri keldi. Bu davrda davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog'liq turli yondashuvlar o'rganildi va O'zbekiston sharoitiga to'g'ri keladigan xususiylashtirish yo'llari ishlab chiqildi. Mulkiy munosabatlarning

huquqiy asoslari shakllantirildi¹⁰. Dastlab 1991-yil 19-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Natijada xususiy mulkchilikka imkoniyat berilgan holda ayrim sohalar bo‘yicha davlat mulkini xususiylashtirish amaliyoti boshlandi va bu amaliyot korporativ munosabatlarga ham yo‘l ochib berdi hamda aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi “Tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy mulk himoya-sini ta’minlash, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqulashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq 1994-yil 8-aprelda Toshkent respublika fond birjasi tashkil etildi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solib borish maqsadida 1996-yil 26-aprelda O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun asosida aksiyalar muomalasi, aksiyalar paketlarini yirik investorlarga sotish orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyoti keng yo‘lga qo‘yildi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 1998-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi (2014-yilda yangi tahrirda qabul qilingan), “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi. Natijada chet el kapitali ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari soni va ularning faoliyat ko‘lami kengayib bordi.

2014-yil 6-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unga ko‘ra ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari bir xil aksiyadorlik jamiyati deb yuritila boshlandi. 2014-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra yangi tahrirdagi qonun asosida korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirildi.

Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

¹⁰ Суюнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2007. – Б. 100.

yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mah-kamasining majlisida Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan oʻzgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy eʼtiborni talab qiladi”¹¹, deya qatʼi taʼkidlab oʻtdi va aksiyadorlik jamiyati faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot yoʻnalishi sifatida belgilandi. Bunda korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab koʻrish zarurligi alohida belgilandi.

Belgilangan vazifadan kelib chiqqan holda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 31-martdagi “Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 2327-sonli Qarori qabul qilindi. 2015-yil davomida komissiya tomonidan barcha aksiyadorlik jamiyatlari-ning faoliyati toʻliq inventarizatsiyadan oʻtkazildi, natijada 462 ta jamiyatni yoki ularning 43 foizini tugatish yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga oʻzgartirish toʻgʻrisida qarorlar qabul qilindi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, bu borada xorijiy menejerlarni faol jalb qilishni taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida etakchi xorijiy kompaniyalarda boshqaruvni tashkil yetish tizimini chuqur oʻrganish asosida ishlab chiqilgan aksiyadorlik jamiyatining namunaviy tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

2015-yilning 1-iyulidan aksiyadorlik va boshqa xoʻjalik jamiyatlari nomlarida ularning ustav kapitalida davlat ulushidan qatʼi nazar, «davlat» soʻzidan foydalanishga yoʻl qoʻyilmasligi belgilandi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq toʻlash fondidan yagona ijtimoiy toʻlov toʻlashdan, xorijiy mutaxassislarning boshqaruv xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad soligʻi, toʻlov manbaidan olinadigan daromad soligʻi, shuningdek, fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasi

¹¹ Каримов И.А. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2015. – 72 б.

Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy sug'urta badallaridan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2454-sonli Qarori asosida esa aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida xorijiy investorlarning ulushi 15 foizdan kam bo'lmasligidan iborat tartib joriy etildi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida korporativ boshqaruv kodeksi ichki hujjat bo'lsada, aksiyadorlik kompaniyalari faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ boshqaruv kodekslari amalda 1990-yillardan qo'llanila boshlangan¹². O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-aprelda "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4720-sonli Farmoni talablari asosida respublikamizda ham Korporativ boshqaruv kodeksi namunaviy tarzda ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Unga ko'ra korporativ boshqaruv kodeksi quyidagi qismlardan iborat:

I. Umumiy qoidalar.

II. Faoliyat ochiqiligini ta'minlash.

III. Samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish.

IV. Aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlash.

V. Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi va vazifalarni belgilash.

VI. Ijroiya organining aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro samarali hamkorligining mexanizmlarini joriy etish.

VII. Manfaatlar qarama-qarshiligi.

VIII. Namunaviy tashkiliy tuzilmani joriy etish.

IX. Axborotlarni audit va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida e'lon qilish.

X. Kodeks tavsiyalarini joriy etish monitoringi.

XI. Yakuniy qoidalar.

Ayni paytda respublikamizdagi barcha aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv kodeksi ishlab chiqilgan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan holda amaliyotga joriy etilgan.

2020 yil 27 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6096 sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish

¹² Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 14.

hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra Korporativ boshqaruv va moliyaviy audit joriy etiladigan, operasion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi korxonalar ro'yxati tasdiqlandi. Ro'yxatga kiritilgan 39 ta korporativ tuzilmada 2021 yil 1 iyulga qadar xaridlar va boshqaruv tizimlarini auditdan o'tkazish hamda «muvofiqlik tizimi» (kompliens) va korrupsiyaga qarshi xizmatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etish masalalri belgilab qo'yildi.

AMALIYOT DARSII UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyatini tavsiflang.
2. Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadini qanday izohlaysiz?
3. Korporativ boshqaruvning asosiy vazifalarini sanab va har birini tavsiflang.
4. Korporativ boshqaruv ishtirokchilarini guruhlang.
5. Korporativ boshqaruv va korporativ menejmentning umumiy va farqli jihatlarini izohlang.
6. Turli xalqaro tashkilotlar tomonidan keltirilgan korporativ boshqaruv prinsiplarining umumiy va farqli jihatlarini izohlang.
7. Sizningcha, O'zbekistonda korporativ boshqaruvning qaysi prinsiplariga mukammal darajada amal qilinadi?
8. O'zbekistonda korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari qaysi qonunchilik hujjatlarida belgilangan?
9. Rivojlangan mamlakatlarda korporativ boshqaruv kodeksining qo'llanish xususiyatlari.
10. O'zbekistonda korporativ boshqaruv kodeksining qo'llanish xususiyatlari.

Testlar

1. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

a) amaldagi huquqiy me'yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma'lum bir prinsiplari asosida korporativ tuzilmalarda muntazam foydaga erishish uchun amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyati;

b) kompaniyaning bozordagi ulushi va kapitallashuv darajasini oshirib borish orqali aksiyadorlar daromadligini aniqlash;

- c) aksiyadorlar mulki ustidan nazoratni amalga oshirib, kapital tarkii teng taqsimlanishiga qaratilgan boshqaruv faoliyati;
- d) aksiyadorlik jamiyatlaridan erishilgan foydani mulkdorlar va menejerlar o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan faoliyat.

2. Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi qaysi javobda keltirilgan?

- a) kompaniyaning bozordagi ulushi va kapitallashuv darajasini oshirib borish orqali aksiyadorlar daromadligini ta'minlash;
- b) korporativ tuzilmada xarajatlarning maqsadli yo'naltirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- c) boshqaruvning xalqaro talab va standartlariga muvofiqligini ta'minlash;
- d) aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda davlat tomonidan boshqaruv sifatini oshirish.

3. Qaysi javobda korporativ boshqaruv obyekti to'g'ri berilgan?

- a) korporativ munosabatlar;
- b) korporativ prinsiplar;
- c) korporativ ishtirokchilar;
- d) aksiyadorlik jamiyati zararlarini taqsimlash.

4. Korporativ boshqaruv subyektlari qaysi javobda keltirilgan?

- a) aksiyadorlik jamiyatlari, aksiyadorlar, menejerlar, davlat, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar;
- b) qimmatli qog'ozlar bozori, fond bozori, qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;
- c) barcha korporativ munosabatlarga nisbatan korporativ boshqaruv subyektlari sifatida qaraladi;
- d) korporativ boshqaruv amaliyotida alohida subyektlar mavjud emas;

5. Aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatini umumiy boshqargan holda joriy moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarishni kimlarning zimmasiga yuklaydi?

- a) shartnoma asosida menejerlarga;
- b) imtiyozli aksiyalar egalariga;
- c) ichki nazorat organlariga;
- d) ish yurituvchilarga.

6. Aksiyadorlik jamiyati va xodim-aksiyador o'rtasidagi korporativ munosabatlar ko'lami qaysi javobda to'liq berilgan?

- a) mehnat shartnomasi asosidagi hamda mulkdorlik nuqtayi nazaridan munosabatlar;
- b) mehnat shartnomasida belgilab qo'yilgan majburiyatlar yuzasidan munosabatlar;
- c) aksiyadorlik jamiyati va xodim-aksiyador o'rtasida alohida korporativ munosabatlar tizimi yuzaga kelmaydi;
- d) egalik qilib turgan ulushi asosida yuzaga keladigan munosabatlar.

7. Aksiyadorlik kompaniyalari faoliyatida professional menejmentga qachondan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlangan?

- a) XX asrdan;
- b) 1980-yillardan;
- c) XXI asrdan;
- d) 1950-yillardan.

8. Korporativ boshqaruvning prinsiplari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan?

- a) qonuniylik, adolatlilik, hisobdorlik, javobgarlik, oshkoralik, shaffoflik;
- b) itoatkorlik, qonuniylik, majburiylik, ta'minlanganlik, to'lovlilik;
- c) manfaatdorlik, muddatlilik, asoslanganlik, maqsadlilik, qonuniylik;
- d) xalqaro amaliyotda korporativ boshqaruv prinsiplari qabul qilinmagan, O'zbekistonda mustaqillik va liberallik prinsiplari mavjud.

9. Korporativ boshqaruvning qaysi prinsipi aksiyadorlik kompaniyalarida aksiyadorning ulushidan qat'i nazar, bir xil munosabatda bo'lish, minoritar aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini ta'minlash lozimligini nazarda tutadi?

- a) adolatlilik prinsipi;
- b) hisobdorlik prinsipi;
- c) shaffoflik prinsipi;
- d) oshkoralik prinsipi.

10. O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblangan eng asosiy qonunchilik hujjatini ko‘rsating.

- a) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun;
- b) “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun;
- c) Korporativ boshqaruv kodeksi;
- d) Soliq kodeksi va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun.

11. Rivojlangan davlatlarda qo‘llaniladigan Korporativ boshqaruv kodeksi qanday hujjat hisoblanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinib, aksiyadorlik jamiyatida rioya qilinishi majburiy hisoblangan hujjat;
- b) davlat qonun chiqaruvchi hokimiyati tomonidan qabul qilinib, barcha rioya qilishi majburiy bo‘lgan hujjat;
- c) jamoat tashkilotlari tomonidan qabul qilinib, barcha rioya qilishi majburiy bo‘lgan hujjat;
- d) Jahon banki tomonidan qabul qilinib, barcha davlatlardagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan rioya qilinishi majburiy hujjat.

12. O‘zbekistonda Korporativ boshqaruv kodeksi qaysi holatda majburiy hujjat hisoblanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangach, tegishli aksiyadorlik jamiyatida;
- b) Korporativ boshqaruv kodeksi har qanday holatda majburiy amal qilinishi lozim bo‘lgan hujjat hisoblanadi;
- c) aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangach, ijroiya organi amal qilishi majburiy hisoblanadi;
- d) ijroiya organi tomonidan tasdiqlangach, barcha xodimlar tomonidan rioya qilinishi majburiy hisoblanadi.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Xalqaro tashkilotlar tomonidan korporativ boshqaruvga berilgan ta’riflarni quyidagi jadvalda aks ettiring.

Jahon banki	Xalqaro valyuta jamg‘armasi	Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

2. Xalqaro tashkilotlar tomonidan keltirilgan korporativ boshqaruv prinsiplarini quyidagi jadvalda aks ettiring.

Jahon banki	Xalqaro valyuta jamg‘armasi	Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

3. Korporativ boshqaruvning rivojlanishi bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

XV asr	
XVI asr	
XVII asr	
XVIII asr	
XIX asr	
XX asr	
XXI asr	

4. O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning rivojlanishi bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

1-bosqich	
2-bosqich	
3-bosqich	
4-bosqich	
5-bosqich	
.....	

5. O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Qabul qilingan hujjat nomi	Qabul qilingan sana, tegishli moddalar raqami
O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari	
....
O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari	
....
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari	
....
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Farmoyishlari	
....
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi Qarorlari, Farmoyishlari	
....
Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar	
...

II bob. KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARI

2.1. Xalqaro darajada tan olingan korporativ boshqaruv modellariga umumiy tavsif

Korporativ boshqaruv rivojlanib borishi bu borada tajribalar orttirilishiga olib keldi. Ma'lum bir korporativ tuzilma faoliyatida ijobiy natijalarga sabab bo'lgan korporativ boshqaruv tajribalari boshqa korporativ tuzilmalar uchun namuna vazifasini o'tay boshladi. O'z navbatida korporativ boshqaruv ijobiy tajribalarining ommalashishi yuz berdi va bu jarayon mamlakatlarni ham qamrab ola boshladi. Natijada yangi tashkil etilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ boshqaruv yangidan yo'lga qo'yilayotgan mamlakatlar uchun namuna sifatida korporativ boshqaruv modellari yuzaga keldi. Korporativ boshqaruv modellari shakllanishida etnik aholining turmush-tarzidan kelib chiqqan holda korporativ madaniyat ham ham ta'sir ko'rsatganligini alohida ta'kidlashimiz lozim.


Korporativ boshqaruv modeli quyidagi elementlarning yaxlit birligini o'zida aks ettiradi:

- korporativ nazorat mexanizmi;
- qarorlar qabul qilish tartibi;
- amaldagi moliya tizimi bilan bevosita bog'liq holda kompaniya ichki boshqaruviga kapital bozorining ta'siri;
- korporativ qonunchilik;
- aholining iqtisodiy taraqqiyot natijasida shakllangan iqtisodiy xulq-atvor me'yorlari.

Korporativ boshqaruv modeli shakllanishiga mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining aniq shart-sharoitlari, turmush-tarzining tarixiy an'analari, qonunchilik asoslari holati, jamiyatdagi asosiy qadriyatlar, xo'jalik subyektlarining faoliyat yuritish qoidalari va me'yorlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham turli davlatlardagi korporativ boshqaruv modellari o'rtasida ma'lum darajada farqlar mavjud. Hozirgi kunda tadqiqotchilar o'zaro keskin farqlardan kelib chiqqan holda korporativ boshqaruvning uchta asosiy modelini ajratib ko'rsatadi. Ular anglo-amerika, nemis va yapon modellaridir.

Anglo-amerika, german va yapon modellari ichki boshqaruvning turli-tuman tuzilmalariga namuna sifatida asos hisoblanadi. Bu modellardan har biri agent va prinsipal o'rtasidagi munosabatlardagi muammolarga javobni, shuningdek korporativ tuzilma faoliyat samaradorligini baholashni o'zida

aks ettiradi. Ular o‘rtasidagi prinsipial farq nazoratning ichki va tashqi mexanizmlari amal qilishida ko‘zga tashlanadi. Biror mamlakatda qo‘llash uchun korporativ boshqaruv modellaridan birini aynan olish mumkin emas, chunki korporativ boshqaruv tuzilmasi har bir mamlakatdagi shart-sharoitlar va xususiyatlardan kelib chiqqan holda rivojlanib borish xususiyatiga ega hisoblanadi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Korporativ boshqaruv modeli shakllanishiga ta'sir etgan omillar

Umumiy holda har bir korporativ boshqaruv modelining asosiy belgilari yoki elementlari quyidagilar:

- aksiyadorlik jamiyatining muhim ishtirokchilari;
- muhim ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmi;
- model bo‘yicha aksiyalarga egalik qilish tarkibi;
- moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati;
- direktorlar kengashi tarkibi;
- qonunchilik doirasi;
- axborotlarni oshkor qilish bo‘yicha talablar;
- aksiyadorlar ma’qullashi talab etiladigan korporativ xatti-harakatlar.

“Jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning beshta tan olingan bazaviy modellari mavjud. Ular:

- amerika modeli;
- Birlashgan Qirollik (umum tan olingan tamoyillarga asoslangan) modeli;
- ikki pog'onali kontinental yevropa modeli;
- yapon modeli;
- oilaga tayangan osiyo modeli"¹³

Amerika modeli va Birlashgan Qirollik modeli bir-biriga yaqinligi, shuningdek ikki pog'onali kontinental yevropa modelining asosi german modeli ekanligidan kelib chiqqan holda quyida xalqaro darajada tan olingan korporativ boshqaruv modellari sifatida anglo-amerika, german, yapon, oila modellarning har biri xususida alohida to'xtalib o'tamiz.

2.2. Anglo-amerika modeli xususiyatlari

Anglo-amerika modeli Buyuk Britaniya, Amerika qo'shma shtatlari, Kanada, Avstraliya mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Mazkur modelda korporativ boshqaruv ishtirokchilari direktorlar, boshqaruvchilar, aksiyadorlar, hukumat tuzilmalari, birjalar, konsalting tashkilotlari hisoblanadi.

Bu model qo'llaniladigan mamlakatlarda korporativ tuzilmalar kapitalining tarqoq ekanligi, ya'ni markazlashmaganligiga guvoh bo'lish mumkin. Aksiyadorlik kompaniyalarida o'n minglab, yuz minglab aksiyadorlarning ishtiroki, aksiyalarning yirik paketlari bor-yo'g'i bir necha foizni tashkil etishi kuzatiladi. O'n foizdan ortiq aksiyalar paketiga egalik qiluvchi insayderlar korporatsiyalar faoliyatida kamdan kam uchraydi. Ya'ni aksiyadorlardan biri real holatda nazoratni qo'lga olishi deyarli mavjud emas. Shuning uchun ham mazkur model korporativ boshqaruvning autsayderlik modeli, deb ham yuritiladi.

Anglo-sakson modelida aksiyadorlar tomonidan ma'qullanishi shart-bo'lgan jihatlar bu direktorlar kengashini saylash, auditorni tayinlash, ustavga o'zgartirishlar kiritish, aktivlardagi o'zgarishlar va boshqa masalalardir.

O'z tarkibida yirik institutsional yoki individual investorlarga ega bo'lmagan aksariyat korporatsiyalar biznesni moliyalashtirish uchun fond bozorlaridan foydalanadilar.

Qonunchilikka muvofiq, banklarning sanoat kompaniyalari aksiyalariga egalik qilish ta'qiqlangan. Boshqa moliyaviy institutlarning ham bunday munosabatlarga kirishishi bo'yicha chegaralar mavjud. Bunday

¹³ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 151.

chora-tadbir 1929–1933-yillardagi inqirozdan so‘ng banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan ommaviy ravishda spekulyatsiyalariga qarshi reaksiya sifatida joriy etilgan. Bunday sharoitda moliyaviy institutlar sanoat kompaniyalari faoliyatiga hech qanday aralashish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

Amerika-amerika modelining amaldagi o‘ziga xos xususiyati mustaqil tashqi aksiyadorlar (autsayderlar) sonining doimiy o‘sishi, shu jumladan hozirda amerika korporatsiyalari (pensiya fondlari va boshqalar) aksiyalarining yarmiga egalik qilayotgan institutsional investorlar va ularning korporatsiya ustidan nazoratdagi rolining o‘sib borishidan iborat. Amerika modelidagi yana bir xususiyati bu aksiyadorlarning strategik qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligidir. Menejerlar va xodimlar aksiyadorlarning korporatsiyalarni boshqarish bo‘yicha ma’lum huquqlarga ega agentlari sifatida ishtirok etadi. Ular ishonchnoma bo‘yicha ovoz berish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari mumkin. Xususan aksiyadorlar o‘zlarining nomidan ovoz berish vakolatini direktorlar kengashi raisiga berish holatlari ko‘p uchraydi. Korporatsiya faoliyati, menejerlar, direktorlar va aksiyadorlar huquq va majburiyatlari qonunchilikda aniq tarzda belgilab berilgan.

Anglo-amerika modeli kompaniyaning qiymatini oshirishga va uning qisqa muddatda foydaliligiga yo‘naltirilgan. Bu boshqaruv tizimidan tashqi muhitdagi jiddiy o‘zgarishlarga moslashish, innovatsion va riskli loyihalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha professionallikni talab qiladi.

Mazkur modelda korporativ boshqaruv jarayoni unitar (bitta darajali) direktorlar kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Kengash o‘rtacha 12 ta a’zo va bitta ham kengash a’zosi hisoblangan bosh boshqaruvchi (prezident) dan tashkil topadi. Ular tomonidan barcha asosiy qarorlar qabul qilinadi.

Amerika qo‘shma shtatlari qonunchiligi direktorlarning boshqaruv va kuzatuv funksiyalari alohida ajratilmaydi, lekin korporatsiya yaxlit faoliyati bo‘yicha javobgarlik aynan direktorlar kengashiga yuklatilgan. Funksiyalarning bo‘linishi bo‘yicha masala aksiyadorlar tomonidan hal qilinadi va mustaqil boshqaruvga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ko‘plab direktorlar mustaqil direktorlar hisoblanib, boshqa kompaniyalarning amaldagi yoki sobiq menejerlaridir. Odatda kengashning to‘rt dan uch qismini mustaqil direktorlar tashkil qiladi. Lekin amaliyotning ko‘rsatishicha qimmatli qog‘ozlar bozoridagi holat (pasayish)dan kelib chiqqan holda bosim natijasida bosh direktorning iste’fosi ehtimoli, tashqi direktorlarnikiga nisbatan yuqori. Aksariyat amerika kompaniyalarida direktorlar kengashi raisi sifatida bosh direktor faoliyat yuritadi. Lekin yirik

korporatsiyalarda direktorlar kengashi raisi va bosh ijrochi direktor (prezident) – turli shaxslar bo‘lib, ularning majburiyatlari o‘zaro farq qiladi.

AQShda direktorlar kengashining asosiy majburiyati aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va ular kapitalining har tomonlama o‘rishini ta‘minlash hisoblanadi. Shuning uchun ham menejerlarni rag‘batlantirishning asosiy shakli sifatida kompaniya aksiyalari bo‘yicha opsiyonlarni, ya‘ni aksiyador bo‘lish imkoniyatini taqdim etish keng qo‘llaniladi.

Korporativ siyosat va strategiya asosida direktorlar kengashi shakllantiriladi, kengash tomonidan mansabdor shaxslar majburiyatlari belgilanadi, moliyaviy nazorat, bosh direktor faoliyati baholash, qonunchilik va korporativ etikaga rioya qilish amalga oshiriladi.

Direktorlar kengashida ikkita tipdagi qo‘mitalar tashkil etiladi:

- operatsion (ijroiya, moliyaviy, strategik) qo‘mitalar. Ular ijroiya direktorlardan shakllantiriladi, faoliyati davomida menejerlarga maslahat berib boradi, qarorlarni amalga oshirishga javobgar bo‘ladi, qo‘yilgan masalalar bajarilish jarayonini nazorat qiladi;

- nazorat qo‘mitalari (tayinlash va rag‘batlantirish bo‘yicha auditorlik) tashqi direktorlardan tarkib topadi.

“Mazkur modelda direktorlar kengashi va ijrochi direktor vakolatlari qat‘i tartibda ajratilgan. Bu amaliyot birinchi marta Exxon Mobile korporatsiyasi tomonidan qo‘llanilgan”¹⁴.

Amerika qo‘shma shtatlarida korporativ tizim tomonidan amal qilinishi shart bo‘lgan korporativ boshqaruvning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Hisobdorlik. Menejment va direktorlar kengashi a‘zolari aksiyadorlar oldida hisobdor sanaladi va har qanday so‘rov, hattoki biografik ma‘lumotlargacha taqdim etishga majbur hisoblanadi. Amerika qo‘shma shtatlarida axborotlarni oshkor qilish bo‘yicha dunyodagi eng qat‘i talab belgilangan.

2. Aksiyadorlar bilan munosabatlarda shaffoflik, ochiqlik va hisobotlarning umumtan olingan xalqaro standartlaridan foydalanish.

3. Barcha aksiyadorlarga, shu jumladan xorijiy aksiyadorlarga nisbatan bir xilda adolatli munosabatda bo‘lish.

4. Ovoz berishning aniq, haqqoniy metodikasi amal qilishi shartligi.

5. Aksiyadorlar bilan o‘zaro munosabatlar qat‘i ravishda amal qilinishi talab qilinadigan kodeksga asoslanishi lozim.

¹⁴ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 154.

6. Strategik rejalashtirish.

Erishilgan foyda va aksiya kursi prezident va uning jamoasi boshqaruv sifati va samaradorligini baholash mezonlari hisoblanadi. Agar foyda va aksiya kursi pasaysa, fond bozorida investorlar o'zalariga tegishli qimmatli qog'ozlardan qutulishga intiladilar. Natijada g'arazli birlashish va qo'shib olish xavfi yuzaga keladi.

Investorlarning qisqa muddatli manfaatlarga ortiqcha darajada yo'naltirilganligi, aksiyalarning haqiqiy bahosidagi xatoliklar, menejerlarni rag'batlantirishda oqlanmagan o'sishning kuzatilishi kabilar korporativ boshqaruvning anglo-amerika modeli kamchiliklari sifatida keltiriladi. Axborot olish imkoniyati yuqoriligi, munosabatlardagi shaffoflik tufayli investorlarning qisqa muddatli manfaatlarga ortiqcha darajada yo'naltirilishi kuzatiladi. Bunday holatda axborotlardagi xatoliklar qimmatli qog'ozlar bozorida ko'piklar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi va fond bozoriga bosimni kuchaytiradi. Yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan aksiyalar haqiqiy bahosidagi xatoliklar va menejerlarni rag'batlantirishda oqlanmagan o'sish 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablari qatorida keltirilganligini ham shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozim. Chunki menejerlar tomonidan risklarning to'g'ri baholanmaganligi, o'z navbatida yuqori miqdorda mukofotlar olish maqsadida aksiyalar bahosi o'sishiga xizmat qiluvchi axborotlarning menejerlarning e'lon qilib borilishi oxir-oqibat moliya bozorida parokandalikka olib keldi. Keltirilayotgan jihatlar asosida mazkur model kamchiliklardan holi emasligiga yana bir bor guvoh bo'lish mumkin.


2.3. Korporativ boshqaruvning nemis modeli

Korporativ boshqaruvning german modeli kontinental-yevropa modeli deb ham ataladi. Bu model korporatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar barcha manfaatdor shaxslar – aksiyadorlar, moliyaviy tuzilmalar, xodimlar, davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi bilan xarakterlidir. Ko'pincha ular yirik aksiyalar paketiga egalik qiladilar, korporatsiyalarga o'z vakillarini qo'yadilar va boshqalar. Ular korporativ tuzilmalarning tarkibi sifatida qabul qilinadi va boshqaruvda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi, ya'ni ijtimoiy hamkorlik prinsipi amal qiladi.

Germaniyada aksiyadorlik kapital boshqa qator mamlakatlarga qaraganda sezilarli darajada markazlashgan. Bunda aksiyadorlik kapitaliga bir necha yirik yuridik shaxslar – banklar va korporatsiyalarning o'zaro egalik qilish amaliyoti kuzatiladi. Moliyaviy institutlar 70 foizgacha

aksiyalarni nazorat qiladi. Tashqi aksiyadorlar va individual investorlarning roli minimal darajada.

Banklar direktorlar kengashida o'z vakillari orqali monitoring va nazorat funksiyalarini amalga oshiradi, qimmatli qog'ozlar emissiyasini tashkil qiladi, ishonchnoma asosida aksiyalarni boshqaradi. Mazkur jihat german modelining eng asosiy xususiyati hisoblanadi (2.2-rasm).



2.2-rasm. *Korporativ boshqaruv nemis modelida banklar ishtiroki*

Kapital bozorining past darajada rivojlanganligi sababli banklar korporatsiyalarni tashqi moliyalashtirishning asosiy manbasi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu holat nodo'stona birlashish va qo'shib olishlarga imkon bermaydi. Aksariyat aksiyadorlar depozitariy vazifasini ham bajaruvchi banklar orqali aksiyalar sotib oladilar. Korporatsiyalar materiallari asosida banklar korporatsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini aksiyadorlarga yo'naltiradi. Agarda takliflar va tavsiyalar bo'yicha aksiyadorlarda e'tirozlar bo'lmasa, banklar o'z fikri bo'yicha masalani ovozga qo'yadi.

Shuning uchun korporatsiyalarni boshqarishda banklar iqtisodiy va ma'nan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Mazkur modelning boshqa xususiyatlariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- umumiy yig'ilishda aksiyadorlarning ovozlar soni chegaralanishi;
- individual aksiyadorlar ulushining pastligi;

- xorijiy investorlarning faol ishtiroki.

Korporativ boshqaruvning german modelida direktorlar kengashi ikki palatali, ya'ni mustaqil direktorlardan tashkil topgan kuzatuv kengashi va menejerlardan iborat ijroiya organi. Ular o'rtasida funksiyalar, vakolatlar, javobgarlik aniq taqsimlangan holda belgilab qo'yilgan. Kuzatuv funksiyasi qaror qabul qilish funksiyasidan ajratilgan.

Ikki palatali direktorlar kengashining amal qilishi autsayderlar manfaatlarini himoya qilishni kafolatlamaydi, shunga ko'ra ko'pincha kengash nazoratni amalga oshiruvchi emas, balki maslahatchi funksiyasini bajaruvchi boshqaruv raisi yonidagi organ sifatida ko'zga tashlanadi.

Germaniyada direktorlar kengashining bosh maqsadi aksiyadorlarning alohida guruhlari manfaatlarini himoya qilish emas, balki umumiy holda korporatsiya raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi.

Kengash tuzilmasi va son tarkibi korporatsiya ustavida emas, balki qonunchilik asosida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra kuzatuv kengashi a'zolari soni 20 kishi bo'lishi kerak va uning son tarkibi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank vakillari uning a'zolari bo'lishi mumkin.

Aksiyadorlar soni 500 tadan kam bo'lgan, faoliyat ko'lami yirik bo'lmagan korporatsiyalarda yalpi kuzatuv kengashi aksiyadorlar tomonidan saylanadi. Aksiyadorlar soni 500 tadan 2000 tagacha bo'lgan o'rta tipdagi korporatsiyalarda kuzatuv kengashi tarkibining uchdan bir qismi, 2000 dan ortiq aksiyadorlarga ega yirik korporatsiyalarda esa yarmi (20 tadan o'ntasi)ni aksiyadorlar saylaydi. Kengashning qolgan a'zolari mehnat jamoasi tarkibidan va kasaba uyushmalari tashkilotlaridan saylanadi. Ya'ni "kuzatuv kengashi a'zolarining yarmi ishchi-xodimlardan shakllantiriladi"¹⁵ va bunday yondashuv manfaatlar muvozanatiga erishish imkonini beradi. Kuzatuv kengashi ijroiya kengashi a'zolarini besh yillik muddatga tayinlaydi, lekin shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Ijroiya organi bevosita korporatsiya faoliyatiga javobgar sifatida umumiy nazoratni amalga oshiradi, korporatsiya hisobotlarini, katta miqdordagi kapital qo'yilmalarini, strategik qarorlarni, aktivlarni sotib olish yoki qo'shib olish amaliyotlarini tasdiqlaydi. Bunday qarorlar qabul qilish qonunga asosan tartibga solinadi. O'z navbatida ijroiya kengashi (boshqaruv) menejerlardan tashkil topadi va kuzatuv kengashi oldida hisobdor hisoblanadi.

¹⁵ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 157.

German modelida quyidagi masalalar aksiyadorlar tomonidan ma'qullanishi talab etiladi:

- sof foydani taqsimlash;
- katta miqdordagi xarajatlar to'g'risidagi qarorlar;
- ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- menejrlarni rag'batlantirishning yuqori chegarasini oshirish;
- birlashishlar, qayta tashkil etishlar va boshqalar.

German modeli insayderlar, kompaniya menejerlarining samarali nazorati, yuqori barqarorlikka ega ichki va tashqi munosabatlar, bankrotlik riski nisbatan pastligi, turli xil nizolar yuzaga kelish ehtimoli pastligi bilan ham tavsiflanadi. Shuning uchun kompaniyalarni uzoq muddatli rivojlantirish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratiladi. Yana bir xususiyat bu mutaxassislar, xususan menejerlar bilim va malakasiga juda yuqori darajada talablar qo'yilganligidir.

2.4. Korporativ boshqaruvning yapon modeli

Korporativ boshqaruvning yapon modeli ma'lum bir kesishma asosida aksiyalarga egalik qilish va nazoratga asoslangan. Natijada nihoyatda yirik moliya-sanoat korporatsiyalari (keyretsu) va ular asosida murakkab birlashma hisoblangan moliya-sanoat guruhlarini shakllangan. Moliya-sanoat guruhlarida ishtirokchilar manfaat-larini ichki muvofiqlashtirishning murakkab tizimi amal qilishini ham alohida qayd etib o'tish lozim. Bunda moliyaviy muassasalar (banklar, sug'urta va trast kompaniyalari), savdo firmalari, ishlab chiqarish korxonalarini ishtirokchilar hisoblanadi. "Bu model keyretsu modeli deb ham ataladi"¹⁶.


Moliya-sanoat guruhlarida boshqaruv organi bosh firma prezidenti yig'ilishi hisoblanadi. U muhim masalalar bo'yicha qaror qabul qiladi. Qarama-qarshi tarzda aksiyalar almashinuvi va resurslardan ichki foydalanish amaliyoti ko'p kuzatiladi.

Korporatsiyalarning aksiyalariga asosiy egalik qiluvchilar (aksiyadorlar) insayderlar hisoblanadi va ularning 70 foizi institutsional investorlar hisoblanadi. Bu yerda gap banklar va boshqa affillangan shaxslar haqida ketmoqda. "Yapon an'analaridan kelib chiqqan holda investorlar korporatsiyalar faoliyatida kichik ta'sirga ega. Bunda korporativ boshqaruv

¹⁶ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 157.

yapon klassik modeliga ko‘ra, ular aksiyadorlar bilan emas, balki manfaatdor tomonlar bilan birgalikda ish yuritadi”¹⁷.

Korporatsiyalar o‘rtasida tovar va xizmatlari almashinuvi (o‘zaro savdo) bilan birga menejerlar almashinuvi amaliyoti ham kuzatiladi. Bu jihat o‘zaro axborot almashinuvi hamda umumiy tajribadan samarali foydalanishga xizmat qiladi (2.3-rasm).



2.3-rasm. *Yaponiyada korporatsiyalar birgalikdagi taraqqiyoti*

Aynan keltirilayotgan jihatlar yapon korporatsiyalarining birgalikda taraqqiyotini ta'minlagan. Moliya-sanoat guruhlaridagi ichki korporativ shartnomaviy munosabatlar moliyaviy va sanoat resurslari, shuningdek ilmiy-texnik axborotlarni qamrab olgan. Bunda manfaatlar o‘zaro kesishmagan vaqtda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ixtisoslashuv prinsipi amal qiladi. Ya’ni ma’lum bir yangilikni birgalikda joriy etish orqali erishiladigan natijani teng taqsimlash masalasi o‘rtaga qo‘yiladi va har ikkala tomon bitta maqsad sari intiladi.


Yaponiyada ham Germaniyadagi singari banklar yirik aksiyadorlar hisoblanadi va ularga moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida qaraladi. Banklar direktorlar kengashi yoki prezidentlik instituti orqali boshqaruvda ishtirok etadi. Ular korporatsiya faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi va to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida qo‘llab-quvvatlaydi.

Davlat va jamoatchilik korporatsiyalarni va moliya-sanoat guruhlarini xorijiy investorlar tajovuzidan himoyalaydi. Ya’ni bir tomondan

¹⁷ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 159.

qonunchilik xorijiy investorlarning keskin faolligiga imkon bermaydi, boshqa tomondan milliy madaniyat vatanparvarlikka asoslanganligi korporativ madaniyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham yapon korporatsiyalarini qo'shib olish amaliyotlari deyarli uchramaydi.

Yaponiya iqtisodiyotida davlatning kuchli ta'siri mavjud bo'lsada, iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi yuqori emas. Bunda davlatning boshqaruvchilik kuchi emas, balki yo'nalishni belgilab beruvchilik xususiyati yuzaga chiqadi va bu jihat iqtisodiy taraqqiyotning o'ta istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish va belgilab olingan yo'nalishga iqtisodiyotni yo'naltirish (bunda davlat tomonidan uzoq muddatli prognozlar va o'rta muddatli rejalarni o'z ichiga olgan davlat dasturlari tizimi amal qilishini alohida qayd etib o'tish lozim), infratuzilmani yaratish, alohida firma va tarmoqlarga yordam ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligi va yapon tovarlari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida korporatsiyalar o'rtasidagi munosabatlarni qo'llab-quvvatlash kabilarda yaqqol ko'zga tashlanadi (2.4-rasm).



2.4-rasm. Yaponiyada davlatning yo'nalishni belgilab berish amaliyoti

Korporativ boshqaruvning yapon modelidagi asosiy prinsipial jihatlar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- boshqaruv tizimining asosiy bank, moliya-sanoat tarmog'i yoki keyretsu atrofida markazlashuvi;

- boshqaruv tizimi tomonidan doimiy aloqalarning qo'llab-quvvatlanishi;

- aksiyadorlar tomonidan direktorlar kengashining tayinlanishi. Bunda direktorlar kengashiga korporatsiya moliyaviy holatiga bog'liq holda 50 kishigacha kiritilishi mumkin bo'lib, unga kirish bo'yicha ichki a'zolar (ijrochi direktorlar) ustunlikka ega hisoblanadi. O'z navbatida ijrochi direktorlarning prezident oldida hisobdor ekanligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'zaro maslahatlashishi lozimligi belgilangan. Prezident nisbatan yuqori ta'sirga egaligini shundan ham bilish mumkin.

- korporatsiya bilan hamkorlik qiluvchi va bir vaqtda unga kredit taqdim etuvchi bank direktorlar kengashini nazorat qilib borishi. Faqatgina inqirozli holatlarda direktorlar kengashiga bank vakillari jalb qilinadi;

- mustaqil aksiyadorlar korporatsiya faoliyatiga ta'sir eta olmasligi;

- axborotlar ochiqligiga qo'yilgan talablar nisbatan yuqori emasligi;

- noformal birlashmalar, avloddan avlodga o'tuvchi va guruhlar (alohida ittifoqlar, klublar tashkil qilinishi) bo'yicha munosabatlar ahamiyatga ega ekanligi.

Mazkur modelda o'zaro axborot almashinuvining yuqoriligi, muhim qarorlarning o'zaro kelishuv asosida qabul qilinishi, bahs va nizoli holatlarning ichki tartibda hal qilinishi kabilar ham alohida ajratib ko'rsatiladi.

Korporativ boshqaruvning yapon modelining asosiy kamchiligi sifatida odatda raqobatning nisbatan chegaralanganligi, axborotlarni oshkor qilish bo'yicha yuqori darajadagi talabning mavjud emasligi, boshqaruvning avloddan avlodga o'tishi kabilar keltiriladi.

2.5. Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli

]Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli yoki oilaviy biznes guruhlar, dunyoning barcha mamlakatlarida amalda keng qo'llaniladi. Korporativ boshqaruvning bunday tizimiga Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida, Kanadada, Shvetsiya, Italiya, Fransiya kabi Yevropa davlatlarida tez-tez duch kelish mumkin. Bunda yirik korporatsiyalarni boshqarish yagona oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Kapital oila a'zolari o'rtasida markazlashadi va taqsimlanadi, shuningdek biznes ustidan nazorat to'liq oilaga tegishli bo'ladi.

Ko'pchilik davlatlarda oilaviy biznes mamlakat bo'yicha biznesning 70 foizidan ortiq qismini tashkil etib, iqtisodiy taraqqiyot va aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Ispaniyada biznesning

qariyb 75 foiziga oilalar yoki oilaviy biznes guruhlar tomonidan egalik qilinadi va ular tomonidan yaratilayotgan mahsulot mamlakat yalpi ichki mahsulotining 65 foizigacha qismini tashkil etadi¹⁸. Braziliyada o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlardan birida eng yirik kompaniyalar ro‘yxatidagi 200 ta kompaniyaning 51,5%i oilalar nazorati ostida ekanligi aniqlanganligi buning yaqqol dalilidir¹⁹.

Oilaviy bizneslar kichik va o‘rta kompaniyalardan tortib, turli sohalar va mamlakatlarda faoliyat yuritadigan yirik konglomeratlarni qamrab olgan. Natijada jahonda yirik ta’sirga ega bo‘lgan biznes imperiyalar aynan oilalar tomonidan tashkil etilganligini qayd etish lozim. Bunday shajaralar va biznes imperiyalarga misollar sifatida quyidagilarni o‘rsatish mumkin:

- Kanadadagi Bronfmanlar shajarasi;
- Italiyada Salvatore Ferragamo, Benetton, Fiat Group, Agnelli biznes guruhi;
- Frantsiyada L’Oreal, Carrefour Group, LVMH va Michelin;
- Janubiy Afrikadagi Oppengeymerlar oilaviy guruhi;
- Janubiy Koreyada Samsung, Hyundai Motor va LG Group;
- Germaniyada BMW va Siemens;
- Yaponiyada Kikkoman va Ito-Yokado;
- AQShda Ford Motors Co, Koch Industries, Inc va Wal-Mart Stores
- Shvetsiyadagi Valenberglar shajarasi;
- Tayvanddagi Li Kay Shi oilaviy guruhi.

Dunyodagi eng qadimiy bizneslar ham aynan oilaviy bizneslar ekanligi tarixiy haqiqat. Yaponiyadagi 717 yilda asos solingan 1300 yillik tarixga ega HOSHI kompaniyasi 46 ta avlod tomonidan boshqarilgan va egalik qilingan yoki Takenaka Corporation kompaniyasi 1610-yilda, Germaniyadagi Merck kompaniyasi 1668-yilda, Frantsiyadagi Wendel kompaniyasi 1704-yilda tashkil etilgani va bugungi kunda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda²⁰. “Yevropa oilaviy biznes barometri – 2017” hisobotida oilaviy bizneslarning 34 foizi 50 yildan ortiq, 45 foizi 20-50 yil davomida faoliyat yuritayotganligi qayd etilganligi ham fikrimizning isbotidir²¹. Shuningdek, oilaviy bizneslar biznesning asoschisi davrini hisobga olmaganda juda qisqa hayotiylik davriga egaligi va uchinchi

¹⁸The Family Business Network, www.fbn-i.org/fbn/main.nsf/doclu/facts

¹⁹Governance Challenges for Family-Owned Businesses, Practical Guide to Corporate Governance

²⁰EY Family Business Yearbook 2017

²¹European Family Business Barometer, Sixth Edition, KPMG International, 2017

avlodning egaligi davridagi aksariyat 95 foiz oilaviy bizneslar faoliyatini davom ettirmasligi (tugatilishi) ham haqiqatdir²². Bu ko‘pincha o‘sib borayotgan biznes va yirik oilaning talablariga javob beradigan munosib kelgusi avlodlarni tayyorlash amaliyotining va samarali korporativ boshqaruvning mavjud emasligi oqibatida yuzaga keladi. Oilaviy bizneslar to‘g‘ri boshqaruvni ta‘minlash, faoliyatni davom ettirishga munosib vorislarni tayyorlash, oilaviy ichki nizolarga yo‘l qo‘ymaslik orqali istiqbolli rivojlanishga erishishlari mumkin.

Bugungi kunda dunyodagi eng yirik pul tushumiga ega bo‘lgan oilaviy bizneslar Top – 25 taligi quyidagi jadvalda keltirilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

Dunyodagi eng yirik pul tushumiga ega bo‘lgan oilaviy bizneslar Top – 25 taligi²³

O‘r-ni	Kompaniya nomi	Bosh ofisi joylash-gan mamlakat	Faoliyat sohasi	Oxirgi e‘lon qilingan yillik tushumi (mlrd. AQSh doll)	Tashkil etilgan yili
1	Wal-Mart Stores, Inc.	AQSh	Chakana va ulgurji savdo	476.3	1962
2	Volkswagen AG	Germaniya	Avtosanoat	261.6	1937
3	Berkshire Hathaway, Inc.	AQSh	Aktivlarni boshqarish	182.2	1955
4	EXOR SpA	Italiya	Aktivlarni boshqarish	151.1	1927
5	Ford Motor Company	AQSh	Avtosanoat	146.9	1903
6	Cargill, Incorporated	AQSh	Chakana va ulgurji savdo	136.7	1865
7	Koch Industries Inc.	AQSh	Ko‘p tarmoqli sanoat mahsulotlari	115.0	1940
8	Bayerische Motoren Werke AG (BMW)	Germaniya	Avtosanoat	101.0	1916

²²The Family Business Network, www.fbn-i.org/fbn/main.nsf/doclu/facts

²³EY Family Business Yearbook 2017

O'ri	Kompaniya nomi	Bosh ofisi joylash-gan mamlakat	Faoliyat sohasi	Oxirgi e'lon qilingan yillik tushumi (mlrd. AQSh doll)	Tashkil etilgan yili
9	Schwarz Group	Germaniya	Chakana va ulgurji savdo	89.4	1930
10	Groupe Auchan	Frantsiya	Aktivlarni boshqarish	85.5	1961
11	Arcelor Mittal	Lyuksemburg	Ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	79.4	1989
12	LOUIS DREYFUS HOLDING B.V.	Gollandiya	Aktivlarni boshqarish	74.3	1851
13	Reliance Industries Limited	Hindiston	Neft va gaz	72.0	1966
14	PEUGEOT SA	Frantsiya	Avtosanoat	71.8	1810
15	Comcast Corp.	AQSh	Media va ko'ngilochar xizmatlar	64.7	1963
16	CASINO GUICHARD-PERRACHON	Frantsiya	Chakana va ulgurji savdo	64.6	1898
17	America Movil SA de CV	Braziliya	Telekommunikatsiya	61.6	2000
18	Itau Unibanco Banco Multiplo SA	Braziliya	Bank va kapital bozori	57.0	2008
19	The Long & Foster Companies, Inc.	AQSh	Ko'chmas mulk va qurilish	56.0	1968
20	Roche Holding AG (Roche Group)	Shveysariya	Fan va ta'lim	50.5	1896
21	Enterprise Products Partners LP	AQSh	Neft va gaz	47.7	1968
22	AP Moeller/Maersk Group	Daniya	Boshqa tarmoq	47.4	1904
23	Continental AG	Germaniya	Avtosanoat	44.3	1871

O'ri	Kompaniya nomi	Bosh ofisi joylashgan mamlakat	Faoliyat sohasi	Oxirgi e'lon qilingan yillik tushumi (mlrd. AQSh doll)	Tashkil etilgan yili
24	JBS SA	Braziliya	Iste'mol tovarlari	43.2	1953
25	Christian Dior SA	Frantsiya	Iste'mol tovarlari	42.0	1946

Xalqaro oilaviy biznes indeksi (Global Family Business Index) tomonidan e'lon qilingan dunyodagi eng qadimiy oilaviy bizneslar 25 taligi quyidagi jadvalda keltirilgan (2.2-jadval).

2.2-jadval

Dunyodagi eng qadimiy oilaviy bizneslar TOP – 25 taligi²⁴

Tashkil etilgan yili	Kompaniya nomi	Bosh ofisi joylashgan mamlakat	Faoliyat sohasi	Ishchilari soni (Bloomberg)	Oxirgi e'lon qilingan yillik tushumi (mlrd. AQSh doll)
1610	Takenaka Corporation	Yaponiya	Ko'chmas mulk va qurilish	9,7	7,335
1668	Merck KGaA	Germaniya	Fan va ta'lim	14,2	38,154
1704	Wendel SA	Frantsiya	Ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	8,5	71,985
1736	Wadia Group of Companies	Hindiston	ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	2,8	15000
1756	Franz Haniel & Cie, GmbH	Germaniya	ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	4,8	11,525
1786	Molson Coors Brewing Co.	AQSh	Iste'mol tovarlari	4,2	9250
1792	Jeronimo Martins SGPS SA	Portuga-liya	Chakana va ulgurji savdo	15,7	76810


²⁴EY Family Business Yearbook 2017

Tashkil etilgan yili	Kompaniya nomi	Bosh ofisi joylashgan mamlakat	Faoliyat sohasi	Ishchilari soni (Bloomberg)	Oxirgi e'lon qilingan yillik tushumi (mlrd.AQSh doll)
1799	Thomson Reuters Corp	AQSh	Media va ko'ngilochar xizmat	12,7	57800
1804	Schroders plc	Buyuk Britaniya	Aktivlarni boshqarish	2,8	3,304
1805	Dieteren SA	Belgiya	Avtosanoat	7,3	27,246
1806	J, Bunting Beteiligungs AG	Germaniya	Aktivlarni boshqarish	2,8	10700
1807	Bucher Industries AG	Shveytsariya	ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	2,9	11890
1810	PEUGEOT SA	Frantsiya	Avtosanoat	71,8	207,287
1816	Swire Pacific Ltd	Gong Kong	ko'chmas mulk va qurilish	6,6	75000
1820	Wieland-Werke Aktiengesellschaft	Germaniya	ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	3,7	6790
1822	Bolloré SA	Frantsiya	boshqa sektor	14,4	53,608
1828	Hutchison-Whampoa Ltd,	Gong Kong	Aktivlarni boshqarish	33	260000
1828	Globus Holding GmbH & Co, Kg	Germaniya	Chakana va ulgurji savdo	7,2	17000
1834	Ayala Corp	Filippin	ko'chmas mulk va qurilish	3,2	44000
1835	Bertelsmann SE & Co, KGaA	Germaniya	Media va ko'ngilochar xizmat	21,7	111,763
1837	Hermes International	Frantsiya	Iste'mol tovarlari	5	11,037
1837	Bonnier AB	Shvetsiya	Media va ko'ngilochar xizmat	4,2	9,226
1839	B.Braun Melsungen Aktiengesellschaft	Germaniya	Fan va ta'lim	6,9	48,264

Tashkil etilgan yili	Kompaniya nomi	Bosh ofisi joylashgan mamlakat	Faoliyat sohasi	Ishchilari soni (Bloomberg)	Oxirgi e'lon qilingan yillik tushumi (mlrd.AQSh doll)
1841	Wilh, Werhahn KG	Germaniya	Ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlari	3,9	9340
1841	C&A Mode AG	Germaniya	Chakana va ulgurji savdo	8,8	35,672

Shuni ta'kidlash kerakki, korporativ boshqaruvning oilaviy modeli anglo-sakson modeliga qarama-qarshi model hisoblanadi. Ya'ni oilaviy xolding kompaniyalar yaxlit firmalar tizimini nazorat qiladi, o'z navbatida xolding tizimidagi firmalar keyingi guruhdagi kompaniyalarni nazorat qiladi. Investorlar qo'shimcha daromad olish maqsadida oilaviy kompaniyalarga investitsiya kiritishlari mumkin, lekin ular oilaviy guruh kompaniyalarining hech birida yuqori ovozga ega bo'la olmaydilar.

Oilaviy biznes guruhidagi kompaniyalar ustidan nazorat guruh tomonidan shakllantirilgan piramidaga asoslangan boshqaruv tizimi vositasida o'rnatiladi. Bunda ikkilamchi toifadagi aksiyalar chiqarish va aksiyalarga o'zaro egalik qilish tizimi amal qiladi. Guruhlarning piramidaga asoslangan tuzilmasi amalda barcha oilaviy biznes guruhlar tashkil topishining asosi hisoblanadi. Aynan piramida tuzilmasi oilaviy kompaniyalarda kapital va resurslarni nazorat qilish imkonini beradi va oilaning real mulkidan kelib chiqqan holda oshirib boriladi (2.5-rasm).



2.5-rasm. Oilaviy biznes-guruhlarda piramida tuzilmasi

2.5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, oilaviy kompaniya A firmaning 51 foiziga egalik qiladi va uning faoliyatini nazorat qiladi. O‘z navbatida A firma B firmani nazorat qiladi. Bunda oilaviy kompaniya 25,5 foiz pul oqimlariga egalik qiladi, lekin A firma B firma faoliyati ustidan to‘liq nazoratni amalga oshiradi. Xuddi shu tarzda oila C firmani ham to‘liq nazorat qiladi, lekin foydaning 12,75 foiziga egalik qiladi. Piramida bo‘yicha pasayishda oilaviy kompaniyaning daromadlardagi ulushi kamayib borsada nazorat to‘liq saqlab qolinadi.

Boshqa firmalar ustidan nazoratni saqlab qolish uchun oilaviy biznes-guruhlar o‘zaro teng bo‘lmagan miqdorda ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalarni muomalaga chiqaradilar. Ya’ni birjada joylashtiriladigan aksiyalar bo‘yicha ovozlar soni oilaviy firma egalik qiladigan ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalar soniga nisbatan kam bo‘ladi. Barcha ovoz beruvchi aksiyalar oilaviy kompaniya nazoratida saqlab qolingan holda qo‘shimcha resurslar jalb qilish maqsadida imtiyozli aksiyalar muomalaga chiqarish holatlari ham ko‘p uchraydi. Bunday holatda direktorlar kengashiga a‘zolari saylash bo‘yicha hech qanday muammoli holat kuzatilmaydi. Oilaviy biznes guruhlarida piramida tuzilmasi bo‘yicha ikkilamchi toifadagi aksiyalar chiqarish amaliyoti nazorat tizimini mustahkamlash imkonini beradi. Oilaviy biznes guruhni tashkil etish bo‘yicha piramida (vertikal) tuzilmada o‘zaro aksiyaga egalik qilish orqali gorizontaal tuzilmadan ham foydalaniladi. Bunda quyi tizimdagi barcha firmalar o‘zaro aksiya almashinuvi orqali faoliyatini tashkil etadilar. Oilaviy kompaniya esa bosh kompaniya sifatida yuqoridan turib barcha kapitalga egalik qilgan holda to‘liq nazoratni amalga oshiradi. Pul oqimlarini qayta taqsimlash transfert narxlari shakllanishi usulida amalga oshiriladi. Bundan tashqari o‘zaro sug‘urtalash va bir-birini moliyalashtirish amal qiladi.

Umumiy holda “Ushbu kompaniyalarning ba’zilar yuqori diversifikatsiyalangan guruhlardan va katta kuchga ega bo‘lgan bo‘ysunuvchi firmalardan iborat bo‘lib, ularning yuqori turuvchi boshqaruvchi mulkdori oilaga asoslangan kichik guruhdan iborat bo‘ladi”²⁵.

Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli komponentlari va boshqaruv tuzilmasi oilaviy biznesning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda o‘zgarib boradi. Oilaviy biznes rivojlanishi va uni boshqarish odatda asosiy 3 ta bosqichga ajratiladi:

1. Asoschi davri.

²⁵ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 162.

2. Birodarlar (aka-ukalar) hamkorligi davri.

3. Qarindosh urug‘larning (3-avlod) konfederatsiyasi davri²⁶.

Lekin, barcha oilaviy bizneslar ham yuqoridagi uchta bosqichdan o‘tishi zarur yoki o‘tadi degani emas. Chunki, ba’zi bizneslar birinchi bosqichdayoq turli sabablarga ko‘ra bankrotlikka uchrashi va yopilib ketishi yoki biznes tuzilmalari tomonidan qo‘shib olinishi mumkin. Har bir bosqich xususiyatlari bo‘yicha quyida umumiy holda ko‘rib chiqamiz (2.3-jadval).

2.3-jadval

Oilaviy biznes rivojlanishi va uni boshqarish

Birinchi bosqich – asoschi davri	Ikkinchi bosqich – birodarlar (aka-ukalar) hamkorligi davri	Uchinchi bosqich – Qarindosh urug‘lar (3-avlod) konfederatsiyasi davri
<p>1. Biznes butunlay asoschilar tomonidan egalik qilinadi va boshqariladi.</p> <p>2. Aksariyat asoschilar tashqi maslahatchilar yoki biznes hamkorlardan maslahatlar oladi, ammo asosiy muhim qarorlarni o‘zlari qabul qilishadi.</p> <p>3. Biznes muvaffaqiyati uchun kuchli majburiyat va mos ravishda sodda boshqaruv tuzilmasi amal qiladi.</p> <p>4. Eng muhim masala bu - keyingi boshqaruvchini muvaffaqiyatli tanlash va rejalashtirishdir.</p>	<p>1. Egalik va boshqaruv asoschilarning farzandlariga o‘tadi.</p> <p>2. Biznesni boshqarish murakkablik kasb etadi.</p> <p>3. Birodarlar (aka-ukalar)-ning o‘zaro ahilligini saqlab qolish va biznes jarayon-larini rasmiy tusda bosh-qarishga e’tibor qaratiladi.</p> <p>4. Oila a’zolari o‘rtasida samarali aloqa kanallari yaratiladi va asosiy boshqaruv lavozimlari uchun munosib nomzodlar tanlanadi.</p>	<p>1. Biznesga egalik qiluvchilar doirasi yanada kengayadi va boshqaruv murakkablashadi.</p> <p>2. Biznesga egalik qilish bo‘yicha oilaviy ichki ziddiyatlar ortishi kuzatiladi.</p> <p>3. Umumiy strategiyani belgilash va boshqa moliyaviy qarorlar qabul qilish bo‘yicha murakkabliklar ortadi.</p> <p>4. Kelgusidagi maqsadlarni aniq belgilash talab qilinadi va oilaviy nizolarni hal qilish hamda oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi.</p>

Korporativ boshqaruv oilaviy modelida boshqaruv institutlari sifatida quyidagilar alohida ajratib ko‘rsatiladi:

- oilaviy uchrashuv;
- oilaviy yig‘ilish;

²⁶John Ward, *Creating Effective Boards for Private Enterprises* (Family Enterprise Publishers, 1991); Kelin E. Gersick, John A. Davis, Marion McCollom Hampton, Ivan Lansberg, *Generation to Generation: Life Cycles of the Family Business* (Harvard University Press, 1997).

- oilaviy kengash;
- oila idorasi;
- direktorlar kengashi;
- maslahat kengashi;
- qo‘mitalar;
- ijro etuvchi organ (menejment tizimi).
- yuridik xizmat.

Oilaviy uchrashuv (family meeting), oilaviy yig‘ilish (family assembly) va oilaviy kengash (family council)ning amal qilish xususiyatlari va ular o‘rtasidagi farqli jihatlar quyidagi jadvalda keltirilgan (2.4-jadval).

Direktorlar kengashi aksariyat bizneslar boshqaruvida bo‘lgani kabi oilaviy biznesda ham markaziy boshqaruv instituti hisoblanadi. Turli oilalarda direktorlar kengashining tuzilishi, roli, tarkibi bir-biridan farq qiladi. Bu odatda biznesning ko‘lami, murakkabligi va uni tashkil etgan oilaga bog‘liq holda belgilanadi. Odatda aksariyat oilaviy bizneslar ularning mavjudlik davrining birinchi bosqichidayoq qonuniy talablarga rioya qilish maqsadida direktorlar kengashini tashkil qilishadi. Qonun bo‘yicha kengash ruxsatini talab etuvchi kompaniyaning moliyaviy, dividend va boshqa jarayonlarini ma‘qullash uchun direktorlar kengashini tashkil etish zaruriy hisoblanadi. Odatda kengashlar yiliga bir yoki ikki marta yig‘iladi (mahalliy tartiblarga asosan) va ularning faoliyat yuritishi juda qisqa muddat davomida amalga oshiriladi.

Bu holatda kengash a‘zolari o‘ziga xos tarzda oila a‘zolaridan va ba‘zi hollarda ishonchli oila a‘zosi bo‘lmagan menejerlardan tashkil topadi. Biznesning egasi bo‘lgan holda ham menejmentda ham direktorlar kengashida xizmat ko‘rsatadigan ayrim shaxslarni ham uchratish mumkin.

Oilaviy biznes murakkablashib borgani sari, boshqaruv samaradorligiga javob berish va kompaniyaning strategiyasini belgilash kabi muhim masalalarda asosiy o‘rinni egallovchi direktorlar kengashini tashkil etish shart bo‘lib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda kengashdan kompaniya boshqaruvida masalalarni mustaqil hal qilish nuqtayi nazaridan yanada ko‘proq yig‘ilishni talab qiladi. Bu oilaviy biznes direktorlar kengashi yaxshi tashkil etilgan, ko‘proq mas‘uliyatli va tashqi mustaqil direktorlar uchun ochiq bo‘lgan holatda yuz beradi.

Biznesning manfaatlarini mukammal ta‘minlovchi professional direktorlar kengashiga o‘tishdan oldin, aksariyat oilaviy bizneslar menejment va asosiy nazorat qiluvchi aksiyadorlardan mustaqil ravishda ularning joriy direktorlarini tajriba va ma‘lumotiga baho beruvchi maslahat

2.4-jadval
Oilaviy uchrashuv, oilaviy yig'ilish (family assembly) va oilaviy kengashning amal qilish xususiyatlari

	Bosqich	Holati	Oilaning a'zolari	Soni	Yig'ilishlar soni	Asosiy faoliyati
Oilaviy uchrashuv (family meeting)	1-bosqich	Norasmiy	Butun oila (<i>a'zolik uchun qo'shimcha shartlar qo'yilishi ham mumkin</i>)	Ozchilik a'zolar Odatda 6-12 ta a'zo	Biznesning rivojlanish bosqichiga bog'liq. Odatda deyarli haftalik	Oilaning qadriyatlarini va qarashlarini birlashtirish Yangi biznes g'oyalarni muhokama qilish va yaratish Keyingi biznes boshqaruvchilarini tayyorlash
Oilaviy yig'ilish (family assembly)	2-3-bosqich	Rasmiy	Butun oila (<i>a'zolik uchun qo'shimcha shartlar qo'yilishi ham mumkin</i>)	Oilaning kattaligi va a'zolik shartlariga bog'liq	1 yilda 1 yoki 2 marta	G'oyalar, kelishmovchiliklar va qarashlarni muhokama qilish va birlashtirish Oilaga taalluqli asosiy siyosatlarini tasdiqlash Oila a'zolari biznes masalalari bo'yicha o'qitish Oilaviy kengash va boshqa qo'mita a'zolarini saylash
Oilaviy kengash (family council)	2-3-bosqich	Rasmiy	Oilaviy kengash tomonidan saylangan a'zolar (<i>a'zolik uchun tanlov shartlari oila tomonidan belgilanadi</i>)	a'zolik shartlariga bog'liq bo'ladi Ideal holat 5-9 ta a'zo	1 yilda 2 dan 6 martagacha	Nizolarni hal qilish Oilaga taalluqli asosiy siyosatlarini rivojlantirish Rejalashtirish Ta'lim Direktorlar kengash va menejmentni ishini muvofiqlashtirish va oila va biznesning balansini ta'minlash

kengashini tashkil etishadi. Bu holatda, maslahat kengashi biznes duch kelishi mumkin bo'lgan har qanday strategik masalalarni hal qilish maqsadida menejment va direktorlar kengashi bilan yaqindan ishlaydi.

O'z navbatida korporativ boshqaruv oilaviy modeli boshqaruv tizimida alohida qo'mitalar ham tashkil etiladi. Bunday qo'mitalarga misol sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- ta'lim qo'mitasi;
- ulushlarni qayta sotib olish qo'mitasi;
- lavozimlarni rejalashtirish qo'mitasi;
- audit qo'mitasi va boshqalar.

Ijroiya organi oila modeli boshqaruv tuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, uning faoliyat samaradorligi kompaniyaning faoliyat nitajalari va oilaning boyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijroiya organi biznesda joriy boshqaruvni amalga oshiradi va direktorlar kengashi tomonidan berilgan ko'rsatmalarni bajaradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, odatda dastlabki davrda oilaviy biznes korxonasi asoschisining o'zi tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi. Lekin bunda menejment tuzilmasi norasmiy tarzda qolishi mumkin va qaror qabul qilish asoschining yoki bir nechta qarindoshning qo'lida bo'ladi. Bunday boshqaruv tartibi kompaniya rivojining dastlabki bosqichida yaxshi ishlaydi va bu bosqichda asoschi kompaniya muvaffaqiyatining asosiy sababchisi hisoblanadi.

Kompaniyaning rivojlanishi, biznes operatsiyalari ko'lami kengayishi, boshqaruvning avloddan avlodga o'tishi boshqaruvning takomillashuviga, professional menejmentga hamda markazlashgan tartibda qaror qabul qilishdan chetlanishga xizmat qiladi. Afsuski, aksariyat oilaviy bizneslar ushbu jihatni inobatga olishmaydi va asosiy menejment lavozimlarini ustuvor ravishda oila a'zolariga beradi. Mazkur oila a'zolarining ko'pchiligi malakali boshqaruvchi bo'lsa ham ma'lum bir vazifalarni bajarish borasida muammo yuzaga keladi. Biznes muvaffaqiyati uchun uzoq muddatli istiqbolda ba'zi oila a'zolarini yanada professional va mahoratli tashqi boshqaruvchi bilan almashtirish amalga oshiriladi. Aslida oilaviy bizneslarning professional ijroiya organiga ega bo'lishlari oilaviy biznesning dastlabki bosqichidanoq muhimdir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oilaviy biznesda bandlik masalasi nuqtayi nazaridan oilani yoki biznesni ustun qo'yish holatlari ko'p kuzatiladi. Bunda quyidagilarga guvoh bo'lish mumkin (2.5-jadval).

***Oilaviy biznesdagi bandlik masalasida oilani yoki biznesni
ustun qo'yish holatlari***

Mavjud holatlar	Oila birinchi bo'lgan holatda	Biznes birinchi bo'lgan holatda
Oila a'zolarining bandligini ta'minlash	Malakasidan qat'i nazar oila a'zolarining bandligini ta'minlash	Har qanday ishga qabul qilinuvchilar uchun malakaga asoslangan ishga yollash
Rag'batlantirish	Tajriba va natijadorligidan qat'i nazar hammaiga bir xil to'lov	Tajriba va natijaga asoslangan ish haqi va rag'batlantirish tizimi
Rahbarlik	Munosiblik va malakasi-dan qat'i nazar oilada kattalar rahbarligiga asoslanish.	Kelib chiqishidan qat'i nazar munosiblik va malakaga asoslangan holda rahbarlikka tayinlash.
Resurslarni taqsimlash	Biznes resurslari shaxsiy ehtiyoj uchun ishlatiladi	Biznes resurslari faqat biznes uchun ishlatiladi – oila ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun alohida rezerv fondi tashkil etiladi
Qaror qabul qilish	Bir tomonlama va oilaning eng katta a'zosi markaz-lashgan.	Har tomonlama boshqaruv tuzilmasiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Oilaviy biznesda mulkdorlar o'rtasida ziddiyatlarga sabab bo'luvchi holatlar mavjud. Masalan, kompaniya foydasini dividend sifatida taqsimlamasdan reinvestitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilinganda turli oila a'zolarining fikri turlicha bo'lishi mumkin. Oilaviy biznesda ishlaydigan mulkdor mazkur qarorga u allaqachon kompaniyadan ish haqi olganligi bois umuman qiziqish bildirmasligi ham mumkin. Boshqa tarafdin asosiy daromad manbai oilaviy biznes tomonidan beriladigan dividend bo'lgan va oilaviy biznesda ishlamaydigan mulkdor nuqtayi nazaridan umuman boshqacha qaraladi. Mazkur mulkdor yanada ko'proq va doimiy dividend olish tarafdori bo'ladi.


Odatda oilaviy biznes rivojlanib borishi bilan hamda turli ehtiyoji mavjud oila a'zolarining turli rollarni bajarishi natijasida ushbu masala yanada murakkablashib boradi. Oilaviy biznesda mulkdor hisoblangan oila a'zosi boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin. Masalan quyidagicha:

- faqat mulkdor;
- mulkdor/menejer;
- mulkdor/oila a'zosi;
- mulkdor/oila a'zosi/menejer;
- mulkdor/direktor;

- mulkdor/oila a'zosi/direktor;
- mulkdor/oila a'zosi/direktor/menejer.

Oilaviy biznesning menejerlari biznes doirasidagi ularning boshqa rollariga bog'liq holda turli xildagi motivlari mavjud bo'ladi. Ushbu jahhada umumiy muammo oila a'zosi bo'lgan va bo'lmagan menejerlarga nisbatan turli xildagi munosabatdir. Aksariyat oilaviy bizneslarda asosiy menejment lavozimlarini barchasi yoki bir qismi qat'i ravishda oila a'zolari uchun band qilib qo'yiladi. Ushbu holat kelgusida qancha ishlashidan qat'i nazar hech qachon ijroiya organda ishlay olmasligini biladigan oila a'zosi bo'lmagan menejerlarning motivatsiyasi va samaradorligiga ta'sir qiladi. Natijada, ko'pchilik oilaviy bizneslar malakali tashqi menejerlarni jalb qilish va saqlab qolish masalasida doimo qiynalishadi. Aniq va adolatli (oila a'zosi bo'lgan va bo'lmaganlar uchun) bandlik siyosatining shakllantirilishi oilaviy biznesga ularning eng yaxshi va malakali xodimlarni rag'batlantirish va biznes rivojlanishidan manfaatdor tarzda ushlab turishni oson qilib qo'yadi. Bunday siyosat u oila a'zosi bo'lish bo'lmashligidan qat'i nazar ishchining xohishlarini ularning samaradorligiga bog'liq qilib qo'yadi.

Boshqaruv tizimining takomillashganligi nuqtayi nazaridan "Sizning oilaviy biznesingiz quyidagi mexanizm va amaliyotlarga egami?" nomli o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'lgan (2.6-rasm).



2.6-rasm. "Sizning oilaviy biznesingiz quyidagi mexanizm va amaliyotlarga egami?" nomli o'tkazilgan so'rovnoma natijalari²⁷

²⁷ European Family Business Barometer, Sixth Edition, KPMG International, 2017

So'rovnomana natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan mexanizm va amaliyotlarning aksariyati Yevropa oilaviy biznes vakillarida mavjud ekan. Xususan, so'rovnomada qatnashgan oilalarning 70%ida rasmiy direktorlar kengashi, 45%ida aksiyadorlar kelishuvi, 33%ida oilaviy kengash, 32%ida oila konstitutsiyasi, 20%ida rasmiy maslahat kengashi va boshqa mexanizmlar mavjud va bu ko'rsatkichlarni avvalgi yillarniki bilan solishtirganda o'sish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, korporativ boshqaru-
vning oilaviy modeli quyidagi afzalliklarga ega:

- biznes ustidan qat'i nazoratni amalga oshirish imkoniyati;
- asosiy mulkdorlar oila a'zolari ekanligidan kelib chiqqan holda qo'shib olish bo'yicha risklar darajasining pastligi;
- yirik loyihalarni amalga oshirish uchun kapital yo'naltirish imkoniyatining yuqoriligi;
- kompaniyalar barqarorligining yuqori darajasi va boshqalar.

O'z navbatida oilaviy modelning kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- biznesning asosiy maqsadi oila manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilganligi;
- minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish masalasiga nisbatan e'tiborning yetarli darajada emasligi;
- kompaniyalarda yangilikka intiluvchanlikning past darajadaliigi;
- biznes yuzasidan axborot shaffofligining past darajadaliigi va biznesga investitsiyalar kiritishning murakkabligi;
- biznesni boshqarish bo'yicha oilaviy ichki ziddiyatlar va boshqalar.

Yuqoridagilar asosida korporativ boshqaruv modellari afzalliklari va kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (2.6-jadval).

Ko'rinib turibdiki har bir model o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Shu boisdan ham bugungi kunga kelib korporativ boshqaruv modellarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida gibridd modellar ham keng miqyosda qo'llanilmoqda.

Korporativ boshqaruv modellarining afzalliklari va kamchiliklari²⁸

Korporativ boshqaruv modeli	Афзалликлари	Камчиликлари
Anglo-amerika modeli	fond bozori orqali shaxsiy jamg'armalarni yuqori darajada jalb qilish; investorlarning yuqori daromad darajasini ta'minlaydigan sohalarni izlashga yo'naltirilganligi; biznesning asosiy maqsadi kompaniya qiymatini oshirishdir. kompaniyalarda axborot shaffofligi juda yuqori darajadali.	jalb qilingan kapital qiymati yuqoriligi (yuqori dividendlar); fond bozorida aktivlar real qiymatini baholashdagi xatoliklar; Boshqaruv va nazorat funksiyalari aniq ajratilmasligi.
Nemis modeli	kapitalni jalb qilish qiymatining pastligi; investorlarning uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilganligi; kompaniya barqarorligining yuqori darajasi; boshqaruv va nazorat funksiyalari aniq chegaralari mavjudligi	fond bozorining tashqi boshqaruv vositasi sifatida ahamiyatsiz ahamiyati; kapitalning yuqori konsentratsiyasi va minoritar aksiyadorlarning huquqlariga yetarlicha e'tibor berilmasligi; investitsiyalar kiritishni qiyinlashtiradigan axborot shaffofligi darajasining pastligi
Yapon modeli	Kapitalni jalb qilish qiymati arzonligi; Uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilishi; Kompaniyalarning yuqori raqobatbardoshlikka yo'naltirilganligi; Kompaniya barqarorligining yuqori darajasi.	Investitsiyalarni kiritish qiyinligi; Investitsiyalar daromadliligiga yetarlicha e'tibor bermaslik va bank tomonidan moliyalashtirish-ning mutlaq ustunligi; Kompaniyalarning axborot shaffofligi pastligi; Minoritar aksiyadorlar huquqlariga e'tiborning pastligi.
Oila modeli	biznes ustidan qat'iy nazoratni amalga oshirish imkoniyati; asosiy mulkdorlar oila a'zolari ekanligidan kelib chiqqan holda qo'shib olish bo'yicha risklar darajasining pastligi;	biznesning asosiy maqsadi oila manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilganligi; minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish masalasiga nisbatan e'tiborning yetarli darajada emasligi;

²⁸ Дементьева А.Н. Модели корпоративного управления: опыт зарубежных стран и России. // Право и управление. XXI век. 2008. №3. – С.80. (74-82)

	yirik loyihalarni amalga oshirish uchun kapital yo'naltirish imkoniyatining yuqoriligi; kompaniyalar barqarorligining yuqori darajasi va boshqalar.	kompaniyalarda yangilikka intiluvchanlikning past darajadaliği; biznes yuzasidan axborot shaffofligining past darajadaliği va biznesga investisiyalar kiritishning murakkabliği va boshqalar.
--	---	---

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ boshqaruvning jahonda tan olingan modellarini sanang.
2. Korporativ boshqaruvning anglo-amerika modelining o'ziga xos xususiyatlariga izoh bering.
3. Korporativ boshqaruvning nemis modelining o'ziga xos xususiyatlariga izoh bering.
4. Korporativ boshqaruvning yapon modeli o'ziga xos xususiyatlariga izoh bering.
5. Korporativ boshqaruv modellaridagi umumiy xususiyatlarni sanab o'ting va ularga qisqacha izoh bering.
6. Korporativ boshqaruvning anglo-amerika modelidagi boshqa modelda kuzatilmaydigan alohida xususiyatlarga izoh bering.
7. Korporativ boshqaruvning nemis modelidagi boshqa modelda kuzatilmaydigan alohida xususiyatlarga izoh bering.
8. Korporativ boshqaruvning yapon modelidagi boshqa modelda kuzatilmaydigan alohida xususiyatlarga izoh bering..
9. O'zbekistonda korporativ boshqaruv amaliyoti qaysi modellarga asoslangan.
10. Korporativ madaniyatning korporativ boshqaruv modellari shakllanishidagi ahamiyatini izohlang.

Testlar

1. Korporativ nazorat mexanizmi, qarorlar qabul qilish tartibi, amaldagi moliya tizimi bilan bevosita bog'liq holda kompaniya ichki boshqaruviga kapital bozorining ta'siri, korporativ qonunchilik, aholining iqtisodiy taraqqiyot natijasida shakllangan iqtisodiy xulq-atvor me'yorlarini yaxlit tarzda qamrab olgan tushuncha qaysi javobda keltirilgan?

- a) korporativ boshqaruv modeli;
- b) korporativ nazorat modeli;
- c) moliya bozori modeli;
- d) iqtisodiy taraqqiyot modeli.

2. Aksiyadorlik jamiyatining muhim ishtirokchilari, muhim ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmi, model bo‘yicha aksiyalarga egalik qilish tarkibi, moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati, direktorlar kengashi tarkibi, qonunchilik doirasi, axborotlarni oshkor qilish bo‘yicha talablar, aksiyadorlar ma’qullashi talab etiladigan korporativ xatti-harakatlar:

- a) korporativ boshqaruv modelining asosiy belgilari yoki elementlari;
- b) korporativ boshqaruv modellaridagi o‘zaro keskin farqli jihatlar;
- c) korporatsiyalar rivojlanish evolyutsiyasida yuzaga kelgan amaliyotlar;
- d) kompaniyalarda amal qilish va e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar.

3. Jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning tan olingan bazaviy modellari qaysi javobda berilgan?

- a) anglo-amerika modeli, nemis modeli, yapon modeli, oilaga tayangan modeli;
- b) xitoy modeli, britan modeli, o‘zaro hamkorlik modeli;
- c) o‘zaro hamkorlik va agentlik modeli, italyan modeli, bozor modeli;
- d) bozor modeli, xitoy modeli, koreys modeli.

4. Axborotlarni oshkor qilish bo‘yicha eng qat’i talab qaysi modelda kuzatiladi?

- a) anglo-amerika;
- b) oila;
- c) yapon va nemis;
- d) xitoy;

5. Anglo-amerika modelida korporatsiyalarni moliyalashtirishning eng asosiy manbasi qaysi institut hisoblanadi?

- a) fond bozori;
- b) sug‘urta kompaniyalari;
- c) tijorat banklari;
- d) lizing kompaniyalari.

6. Korporativ boshqaruvning anglo-amerika modeliga xos xususiyat keltirilgan javobni belgilang.

- a) aksiyadorlik kapitali tarqoqligi;
- b) banklarning faolligi;
- c) institutsional investorlar ulushi keskin yuqoriligi;
- d) kapitalning nazorat paketi oila a'zolariga tegishli ekanligi.

7. Qaysi modelda kompaniya ishchi-xodimlari va kasaba uyushma a'zolarining Kuzatuv kengashida ishtirok etishi majburiy etib belgilangan?

- a) nemis;
- b) anglo-amerika;
- c) oila;
- d) yapon.

8. Qaysi model keyretsu modeli deb ham ataladi?

- a) yapon;
- b) xitoy;
- c) nemis;
- d) anglo-amerika.

9. Qaysi davlatda ham Germaniyadagi singari banklar yirik aksiyadorlar hisoblanadi va ularga moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida qaraladi?

- a) Yaponiyada;
- b) AQShda;
- c) Buyuk Britaniyada;
- d) O'zbekistonda.

10. O'zaro kapital almashinuvi (qarama-qarshi tarzda aksiyalarga egalik qilish) orqali korporativ boshqaruv tashkil etish amaliyoti qaysi modelga nisbatan ko'proq kuzatiladi?

- a) yapon modelida;
- b) bir pog'onali umumiy tan olingan tamoyillarga asoslangan modelda;
- c) kontinental modelda.
- d) oila modelida.

11. Biznesning asosiy maqsadi oila manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish esa past darajadali kuzatiladigan korporativ boshqaruv modelini ko'rsating.

- a) oila modeli;
- b) anglo-amerika modeli;
- c) o'zbek modeli;
- d) yapon modeli.

12. Korporativ boshqaruvning qaysi modelida boshqaruv piramida shaklida amalga oshiriladi?

- a) oila modelida;
- b) tarmoq modelida;
- c) nemis modelida;
- d) yapon modeli.

Qo'shimcha topshiriqlar

1. Korporativ boshqaruv modellarining qiyosiy tahlili bo'yicha quydagi jadvalni to'ldiring.

Model tavsifi	Anglo-amerika modeli	Nemis modeli	Yapon modeli
Ijtimoiy qadriyatlar tizimi			
Mehnat jamoasining roli			
Moliyalashtirishning asosiy usuli			
Axborot oshkoraligi bo'yicha asimmetriya			
Investitsiyalashning vaqt bo'yicha xususiyati			
Kapital bahosi			
Kapital bozori			
Asosiy iqtisodiy birlik (yirik biznesda)			
Investitsiyalar tiplari			
Menejment uchun to'lov			
Aksiyadorlik kapitali tarkibi			

2. Korporativ boshqaruv modellari afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha T-sxemani to'ldiring.

Afzalliklar	Kamchiliklar
Anglo-amerika modeli	
1.	1.
2.	2.
...	...
Nemis modeli	
1.	1.
2.	2.
...	...
Yapon modeli	
1.	1.
2.	2.
...	...

3. O'zbekistondagi korporativ boshqaruv amaliyoti o'ziga singdirgan boshqa modellar xususiyatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Anglo-amerika modelidan olingan xususiyatlar	
1.	3.
2.	4.
...	...
Nemis modelidan olingan xususiyatlar	
1.	3.
2.	4.
...	...
Yapon modelidan olingan xususiyatlar	
1.	3.
2.	4.
...	...

4. O'zbekistonda oilaviy biznesni rivojlantirish imkoniyatlari va to'sqinlik qilayotgan holatlar bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.


Mavjud imkoniyatlar	To'sqinlik qilayotgan holatlar
1.	1.
2.	2.
...	...

III bob. KORPORATIV TUZILMA SIFATIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINING TASHKILY ASOSLARI

3.1. Aksiyadorlik jamiyatlarining vujudga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasi

Aksiyadorlik jamiyatlari bir necha asr davomida tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan biznesning tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi. Ungacha ishlab chiqarish hajmining o'sib borishi va savdo ko'lamining kengayishi katta miqdorda kapital jalb qilish zaruratini keltirib chiqardi va biznesning zamonaviy shakllariga talabni yuzaga keltirdi. O'rtoqlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlardagi kapital miqdori va boshqaruv sifati zamonaviy texnologiyalar asosida yirik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish imkonini bermadi, chunki qo'shimcha moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar bunga to'sqinlik qildi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning o'z mablag'lari yirik loyihalar uchun yetarli bo'lmagan bir sharoitda kreditorlar ham risklilik darajasining yuqoriligidan kelib chiqqan holda katta miqdorda qarz kapitali taqdim etishdan o'zlarini olib qochdi.

Natijada javobgarlikning cheklanganligi prinsipi va kapitalga egalik qilishning uni boshqarishdan alohidalashuvi asosida mulkchilikning aksiyadorlik shakli dunyoga keldi hamda bu shakl iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishini ta'minlash, fan-texnika taraqqiyotini yanada yuksaltirish, yirik ishlab chiqarishlarni amalga oshirish, qo'shimcha aksiyalar hisobiga biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha kapital jalb qilish imkonini berdi. Bunda javobgarlikning cheklanganligi aksiyador (mulkdor, investor)ning javobgarligi faqatgina o'z kiritgan ulushi doirasidagina amal qilishi bilan izohlanishini alohida qayd etib o'tish zarur. Umumiy holda aksiyadorlik jamiyatlari bugungi kunda ham quyidagilarga imkon beradi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari imkon beruvchi jihatlar

Tarixan aksiyadorlik asosida biznesni tashkil etishning ilk shakli o'rta asrlarga to'g'ri keladi²⁹. Tadqiqotchilarning hisoblashi-cha, XV asrda tashkil etilgan Genuya banki birinchi aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Uning tashkil etilish jarayonida hozirgi kunda ham aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati bo'yicha asos bo'lib xizmat qilayotgan prinsiplardan foydalanilgan. Ya'ni ishtirokchilar yig'ilishi oliy boshqaruv organi hisoblangan va bir yilda bir marta yig'ilish o'tkazilgan. Yig'ilish qarorlari umumiy ovoz berish orqali qabul qilingan. Ijroiya organ funksiyalarini protektorlar kengashi bajargan va ular alohida kollegiya tomonidan saylangan. Protektorlar kengashi ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga bo'ysungan. Bankning kapitali teng ulushlarga bo'lingan va bu ulushlar erkin muomalaga chiqarilgan. Bank ishtirokchilariga egalik qilayotgan ulushlari asosida bank tomonidan olingan daromadlardan foizlar to'lab borilgan.

Genuya banki keyingi taraqqiyot bosqichlarida kolonial kompaniyalar uchun biznesni tashkil etish namunasi bo'lib xizmat qilgan. Birinchi bunday kompaniyalar XVI asrda yangi yerlarni qo'lga kiritish bo'yicha faol tarzda kolonial siyosat yuritgan mamlakatlar Gollandiya va Angliyada paydo bo'lgan. Hukumatda mablag' yetarli bo'lmagan bir vaqtda koloniyalarni o'zlashtirish katta miqdorda moliyaviy resurslar talab qilgan. Xususiy kapitallarni birlashtirish va bu amaliyotni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yangi bozorlarni o'zlashtirishning samarali iqtisodiy instrumentini yaratish imkonini bergan. Natijada qo'yilgan kapitalga 300 foizgacha dividend to'lagan 60 dan ortiq kolonial kompaniyalar (Buyuk Britaniya, Gollandiya, Frantsiyada Ost-Indiya, Vest-Indiya kabi) paydo bo'lgan. Bunday kompaniyalar sonining ortib borishi bilan bir vaqtda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslari ham shakllanib borgan.

XVIII asrda Yevropada mulkchilikning aksiyadorlik shakli faol tarzda rivojlangan. Aynan shu vaqtga kelib o'z boyligini oshirishga intiladigan firibgarlar hamda tavakkalchilar ham haddan tashqari ko'payib ketgan. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va kompaniyalarning o'zini-o'zi tartibga solish tajribasi mavjud emasligi Yevropaning qator davlatlari iqtisodiyotida jiddiy muammolarga sabab bo'ldi. Shunda ham bankrotlik to'lqini korporatsiyalar g'oyasiga bo'lgan ishonchni sindira olmadi. Mulchilikning bunday shakli bank ishi va qurilish sohalarida keng tarqalgan edi. Birinchi korporatsiyalar yuzlab

²⁹ Дементьева А.Г. Эволюция корпоративных структур и система корпоративного управления. // Менеджмент сегодня, 2008. - №1. - С.3.

aksiyadorlarga ega bo'lganligiga qaramasdan, ulardan ko'pchiligi yopiq tipdagi kompaniyalar hisoblangan.

XIX asr boshida Yevropa tajribasi asosida Shimoliy Amerikada ham korporatsiyalar tashkil etila boshlandi va biznesning bunday shakli rivojlanishi 1815-yildan yuqori sur'atlarga chiqdi. Bu davrda turli tarmoqlarda yuzlab korporatsiyalar tashkil etildi, banklar esa investitsion faoliyatning faol ishtirokchisiga aylandi. Ilk aksiyadorlik jamiyatlarining yaratilishi va faoliyat yuritishi ular faoliyat samaradorligini oshirish boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bir vaqtda aksiyalar bozorini boshqarish mexanizmi va infratuzilmasini ishlab chiqishni ham talab qildi. Natijada "1570-yildan London fond birjasi, 1602-yildan Amsterdam fond birjasi o'z faoliyatini boshlagan"³⁰. "Nyu-York fond birjasi Evropadagi o'tmishdoshlaridan ikki yuz yil keyin, 1792-yildan o'z faoliyatini boshlagan"³¹.

1844-yilda Buyuk Britaniyada ro'yxatdan o'tmagan kompaniyalarga aksiyalar chiqarishni ta'qiqlovchi birinchi qonun qabul qilingan. Amerika qo'shma shtatlarida korporatsiyalarni ro'yxatga olish jarayonini soddalashtirish bo'yicha maxsus qonun amaliyotga joriy etilgan. Qonunchilik asoslarining takomillashtirilishi va fond birjasining paydo bo'lishi mulkchilikning aksiyadorlik shakli yanada rivojlanishini qo'llab-quvvatladi.

XX asr boshida moliya bozorlarining yuqori darajada rivojlanishi ko'plab amerika korporatsiyalari faoliyat xususiyatini birdaniga o'zgartirdi. Aksiyador mulkchilik nihoyatda maydalashdi va ko'pchilik korporatsiyalarda yirik aksiyadorlar ulushi 10 foizdan oshmadi. 1930-yillarga kelib amalda menejerlar sinfi shakllandi va professional asosda korporatsiyalarni boshqarishga o'tish yuz berdi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, aksiyadorlik kompaniyalari iqtisodiyotda asosiy rol ni bajargan holda sanoat mahsulotlarining 90 foizgacha bo'lgan qismini ishlab chiqaradi. Firmalarning umumiy sonida ularning ulushi juda past bo'lsada, ular oladigan foyda miqdori keskin yuqori va bu jihat davlat byudjetining solikli daromadlarida ham o'z aksini topadi. Mamlakatimizda ham aksiyadorlik jamiyatlari soni oxirgi yillarda kamayib borayotgan bo'lsada ularning davlat byudjeti daromadlari, aholi bandligi, eksport ko'lami va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

³⁰ Mahoney P. The political economy of the securities act of 1933. UVA Law School, Legal studies working paper.#11. 2000. <http://ssrn.com/abstract=224729>.

³¹ Banner S. The origin of the New York stock exchange. Journal of legal studies. 1998. – P.1791-1860.

3.2. Aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari va kamchiliklari

Aksiyadorlik kompaniyalari faoliyatining rivojlanib borishi mulkdorlar (aksiyadorlar)ning guruhlanishiga olib keldi. Bunda biznesga boshqa mulkdorlar aralashuvining oldini olish maqsadida yopiq tarzda aksiyadorlar guruhining amal qilishi natijasida yopiq aksiyadorlik kompaniyalari shakllandi. Aksiyalar oldi-sotdisi orqali daromad olish imkoniyatining yuzaga kelishi esa ochiq aksiyadorlik kompaniyalari faoliyatiga asos bo'lib xizmat qildi va bunda kompaniyaning o'zi ham qo'shimcha aksiyalar joylashtirish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyati tug'ildi.

Umumiy holda aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar chiqarish orqali qisqa muddatda katta miqdorda pul mablag'lari jalb qilish va bu o'z navbatida keng ko'lamli biznes faoliyatini yuritish imkonini beradi. Bunda ustav kapitali va aksiyadorlar soni bo'yicha yuqori chegaralar mavjud emasligi ham cheklanmagan sonda aksiyadorlar birlashuviga imkon berishini alohida qayd etib o'tish lozim.

Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan katta miqdorda kapital jalb qilinishi o'z navbatida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng miqyosda joriy etish imkonini beradi.

Uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari bir birlik mahsulotga xarajatlarni pasaytirish, xomashyo va materiallarning yirik zaxirasiga egalik qilish, qulay shartlarda (foizlarda) qisqa va uzoq muddatli kreditlar jalb qilish, keng ko'lamli diversifikatsiyalangan innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, bozor ishtirokchilari uchun aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligi aksiyalar chiqarish bilan birga turli qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali ham kapital jalb qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Beshinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining mulki to'liqligicha aksiyadorlar mulkidan ajratilgan. Aksiyador o'zi uchun ma'qul risk darajasini o'zi belgilaydi va bankrotlik holatida aksiyaga kiritgan kapitalini yo'qotadi.

Oltinchidan, istalgan aksiyadorning jamiyatdan chiqishi, aksiyadorlik jamiyati faoliyatining to'xtatilishiga olib kelmaydi, shuning uchun

tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning boshqa shakllariga nisbatan taqqoslaganda faolit davomiyligi uzoq hamda chegaralanmagan bo‘ladi.

Yettinchidan, birlashgan kapitalni boshqarish professional asosda amalga oshiriladi.

Bizga ma’lumki, rivojlangan bozorlarga ega davlatlar kompaniyalar aksiyadorlik kapitaliga mablag‘lar jalb qilish imkonini beruvchi yuqori darajadagi ichki investitsion imkoniyatlar va infratuzilmaga ega hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, G‘arbiy Yevropada aksariyat xususiy mulkdorlar (xususiy kompaniyalar) aksiyalarni ochiq joylashtirishga intilmaydilar. Bunga sabab aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati bilan bog‘liq kamchiliklardir. Umumiy holda aksiyadorlik jamiyatlarining kamchiliklari sifatida quyidagi jihatlarni keltirish mumkin:

Birinchi, kapitalning haddan tashqari markazlashuvi aksiyadorlik jamiyatlarining tarmoq bozorlaridagi iqtisodiy ustunligi kuchayishini keltirib chiqaradi va ularning monopollashuvi salbiy oqibatlarga olib keladi. Kompaniyalar tez-tez mayda raqobatchilarni bozordan chiqarish maqsadida bosim o‘tkazishga intiladi, shuningdek o‘zining bozordagi ustunligini suiiste‘mol qiladi. Bu jihat kichik biznesning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi, aksiyadorlik jamiyatining ochiqligi va shaffofligi, barcha moliyaviy hisobotlarni e‘lon qilishga majburligi uning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun sezilarli darajada yuqori kuch talab qiladi.

Uchinchi, kapitalga egalik qilishning boshqaruvdan ajratilishi mulkdorlar tomonidan yollanma menejment ustidan samarali nazoratni ta‘minlash zarurati bilan bog‘liq risklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Professional boshqaruv tez-tez mulkdorlar boyligi va aksiya kursiga ta‘sir etuvchi nizolarga olib keladi. Bosh menejerlarning o‘z boyligini oshirish maqsadida yuqori riskli operatsiyalarni amalga oshirishi, ba’zida o‘z mansabini suiiste‘mol qilishi (masalan, qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq firibgarliklar) va boshqa holatlar inqirozli holatlarga olib keladi.

To‘rtinchidan, mayda va o‘rta darajadagi aksiyadorlar odatda ta‘sirli nazoratni amalga oshirish uchun zarur va yetarli darajada axborotga ega bo‘la olmaydi. Mayda investorlarning manfaatlari qanoatlantirilmadan qolish holatlari ko‘p uchrab turadi.

Beshinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida qaror qabul qilish jarayoni murakkab hisoblanadi. Strategik masalalar bo‘yicha ijroiya organ direktorlar kengashi va aksiyadorlarning roziligini olishi lozim, buning uchun esa umumiy yig‘ilish chaqirish talab etiladi.

Oltinchidan, kompaniya aksiyalarining erkin muomalasi uning boshqa kompaniyalar tomonidan qo‘shib olinishi yoki uning ustidan nazoratning almashinuviga imkoniyat yaratadi.

Yettinchidan, ochiq bozorga chiqish katta miqdordagi xarajatlarni talab qiladi. Aksiyalarni birlamchi ochiq joylashtirish (IPO) to‘g‘risida qaror qabul qilish vaqtida kompaniya operatsiyani o‘tkazish rejalashtirilayotgan birjaning barcha listing talablarini o‘rganishi shart.

Sakkizinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida foydani ikki marta soliqqa tortish kuzatiladi. Ya’ni hisobot davrida erishilgan foydadan yuridik shaxslar foyda solig‘i (rivojlangan davlatlarda korporativ soliq) undiriladi. Shuningdek soliqlar to‘langandan keyingi foyda aksiyadorlar o‘rtasida dividend tarzida taqsimlanganda ikkinchi marta soliqqa tortiladi. Mazkur jihat jahon amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi o‘ziga xos kamchilik sifatida tilga olinadi.

3.3. Aksiyadorlik jamiyatlarining tashkiliy asoslari

Aksiyadorlik jamiyatlari yuridik shaxsni ta’sis etish yoki qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) yo‘li bilan tashkil etilishi mumkin.

Ta’sis etish yo‘li bilan aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish muassislarning (muassisning) qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. Jamiyatni ta’sis etish to‘g‘risidagi qaror ta’sis yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat bir muassis tomonidan ta’sis etilgan taqdirda jamiyatni ta’sis etish haqidagi qaror shu muassis tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi.

Jamiyatning muassislari uni tashkil etish to‘g‘risida o‘zaro ta’sis shartnomasini tuzadilar, shartnomada ularning jamiyatni ta’sis etishga doir birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish tartibi, jamiyat ustav kapitalining miqdori, muassislar o‘rtasida joylashtirilishi lozim bo‘lgan aksiyalarning turlari, ular uchun to‘lanadigan haqning miqdori va uni to‘lash tartibi, muassislarning jamiyatni tashkil etishga doir huquq va majburiyatlari belgilanadi.

Jamiyatni ta’sis etish to‘g‘risidagi qaror muassislarning ovoz berish natijalarini hamda jamiyatni ta’sis etish, uning ustavini tasdiqlash, jamiyatning boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari yuzasidan muassislar qabul qilgan qarorlarni aks ettirishi kerak.

Jamiyatni ta’sis etish, uning ustavini tasdiqlash to‘g‘risidagi va muassis tomonidan jamiyatning aksiyalari haqini to‘lash uchun kiriti-

layotgan qimmatli qog'ozlarning, o'zga mulkiy huquqlarning yoki pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan boshqa huquqlarning pulda ifodalangan bahosini tasdiqlash haqidagi qarorlar muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

2015-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2454 sonli qaroriga asosan aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalidagi ulushi kamida 15-foizni tashkil etishi lozim bo'lgan chet ellik investorlar ishtirokida tashkil qilinishi belgilangan edi. Bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan hollar bundan mustasno. Xorijiy investorning ulushi ustav kapitalining 15 foizidan 33 foizigacha miqdorni tashkil etadigan aksiyadorlik jamiyatlariga yuridik shaxslar foyda solig'i, mulk solig'i, yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalar bo'yicha imtiyozlar berilgan.

Lekin xorijiy investorning aksiyadorlik jamiyatida 15 foizlik majburiy ishtiroki bo'yicha qo'yilgan talab bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga, aksiyadorlik amaliyotiga, xalqaro tajribaga zidligidan kelib chiqqan holda 2018-yil 13-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3852 sonli qarori bilan bu tartib 2018-yil 1-avgustdan bekor qilindi. Chet ellik investorlar ishtirokidagi jamiyatni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xususan, 2018-yil 1-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495 sonli Farmoniga asosan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi. Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to'g'risidagi talab bekor qilinib, xorijiy jismoniy shaxslar ishtirokiga ham ruxsat berildi. Qo'shimcha tarzda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdori 600 million so'mdan 400 million so'mgacha kamaytirilganligini ham qayd etib o'tish zarur.

Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda aksiyadorlik jamiyatini ta'ris etish to'g'risidagi qaror davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyati muassislari va aksiyadorlarining soni cheklanmaydi. Bundan kelib chiqadiki, bitta shaxs tomonidan ham aksiyadorlik jamiyati tashkil etilishi mumkin. Keyinchalik aksiyadorlik jamiyati faoliyati davomida yagona aksiyador tomonidan aksiyalarning bir qismini yoki to'liqligicha boshqa shaxslarga sotish amaliyotlari kuzatilishi mumkin.

Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning muassislari (muassisi) deb e'tirof etiladi.

Agar qonunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat organlari jamiyatning muassislari (aksiyadorlari) bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat muassislari jamiyatning tashkil etilishi bilan bog'liq majburiyatlar yuzasidan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilguniga qadar solidar javobgar bo'ladi. Jamiyat muassislarning jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq majburiyatlari yuzasidan muassislarning harakatlari keyinchalik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ma'qullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi. Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ jamiyatning muassisi bo'ladi.

Jamiyat muassislari o'rtasida aksiyalarni taqsimlash ta'sis hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Muassislarning ta'sis yig'ilishida quyidagilar ko'rib chiqiladi:

- jamiyatni ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qiladi va uning ustavini tasdiqlaydi;

- ta'sis etish jarayonida muassislar tomonidan tuzilgan shartnomalarni tasdiqlaydi;

- muassislar tomonidan aksiyalar haqini to'lash tartibini belgilaydi;

- chiqariladigan aksiyalarning turlarini va sonini belgilaydi;

- jamiyatning kuzatuv kengashini, taftish komissiyasini (taftishchisini) saylaydi;

- jamiyatning ijroiya organini tuzadi (saylaydi, tayinlaydi).

Ta'sis yig'ilishida ovoz berish muassislar kiritadigan ulushlarga muvofiq o'tkaziladi.

Ta'sis yig'ilishi qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi, bundan ta'sis shartnomasini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlar qabul qilinadigan hollar mustasno bo'lib, buning uchun barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Ta'sis yig'ilishining qarorlari jamiyatning barcha muassislari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Davlat tashkilotini aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirish davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan qaror asosida ta'sis yig'ilishini o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

Bir muassisdan iborat bo'lgan jamiyatda ta'sis yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Ustav aksiyadorlik jamiyatining ta'sis hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- jamiyatning to'liq (agar bo'lsa qisqartirilgan) firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- faoliyatining sohasi, asosiy yo'nalishlari va maqsadi;
- ustav kapitalining miqdori;
- jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);
- jamiyat boshqaruvining tuzilmasi, jamiyat kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a'zolari soni, bu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdori 2003-yil 24-yanvarda 50 ming AQSH dollari belgilandi. 2008-yil 18 noyabrda bu miqdor 400 ming AQSH dollari so'm ekvivalentiga oshirildi va natijada aksiyadorlik jamiyatlari soni va fond bozori aylanmasi keskin qisqarib ketdi. 2018-yil 1-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495 sonli Farmoniga asosan aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdorini 400 million so'm miqdorida belgilandi. 2019-yil 22 martdan minimal talab umuman bekor qilindi (3.1-jadval).

Aksiyadorlik jamiyati ustavida jamiyatning ustav kapitalidagi bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan ulushning eng ko'p miqdoriga cheklovlar belgilanishi mumkin.

Davlat tomonidan jamiyatni boshqarishda ishtirok etishga bo'lgan maxsus huquq («oltin aksiya») joriy etilayotgan jamiyat ustavida davlatning mazkur maxsus huquqdan foydalanishi to'g'risidagi qoidalar ko'rsatilishi kerak.

Jamiyat ustavida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitaliga minimal talabning o'zgarishi

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali bo'yicha talab belgilangan qonunchilik hujjati	Belgilangan minimal talab
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2003 yildagi PF-3202 sonli Farmoniga asosan	50 ming AQSh dollari so'm ekvivalentida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2008 yildagi PF-4053 sonli Farmoniga ko'ra	400 ming AQSh dollari so'm ekvivalentida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.09.2017 yildagi PF-5197 sonli Farmoniga ko'ra	1,6 milliard so'm
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2018 yildagi PF-5495-sonli Farmoniga ko'ra	400 million so'm
O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 20 martdagi "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-531-son Qonuniga asosan	Minimal talab bekor qilindi

Aksiyadorlik jamiyatlari ustavi namunaviy shakli O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2016-yil 20-dekabrda 294-mh-sonli «Tijorat tashkilotlari ta'sis hujjatlarining namunaviy shakllarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2848, 20.12.2016 y.)da berilgan.

Jamiyat aksiyadorning yoki har qanday manfaatdor shaxsning talabiga ko'ra uch ish kuni ichida ularga jamiyatning ustavi, shu jumladan ustavga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra unga jamiyat ustavining ko'chirma nusxasini berishi shart.

Jamiyat yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga jamiyatning ustavini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarini taqdim etadi. Davlat tashkilotini o'zgartirish yo'li bilan tashkil etilgan, shuningdek bitta muassis tomonidan tashkil etilgan jamiyat jamiyatning ustavini taqdim etadi. Adliya vazirligi aksiyadorlik jamiyatlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi davlat organi hisoblanadi.

Jamiyatni tashkil etishning qonunda belgilangan tartibini buzish yoki uning ustavi qonunga muvofiq emasligi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad

etishga olib keladi. Jamiyatni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan uni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish muddatlarining buzilishi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan uch oy muddatda quyidagi hujjatlarni tayyorlashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlashi shart:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizom;
- kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom;
- ijroiya organi haqidagi (tegishincha direktori, boshqaruvi, ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi) nizom;
- taftish komissiyasi (taftishchisi) to'g'risidagi nizom.

Aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar, shu jumladan jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi jamiyatni ro'yxatdan o'tkazish uchun nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Ustavga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

Jamiyatning ustav kapitali jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

Jamiyat davlat mulki negizida tashkil etilayotganda tashkilotning (mol-mulkning) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati jamiyat ustav kapitalining summasini tashkil etadi.

Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav kapitalining 20 foizidan oshmasligi kerak.

Aksiyadorlik jamiyati ta'sis etilayotganda uning barcha aksiyalari jamiyat muassislari o'rtasida joylashtiriladi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Dastlabki aksiyadorlik jamiyatlari qayerda paydo bo'lgan va ularning faoliyatiga nima sabab bo'lgan?
2. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish tartibini aniq tavsif asosida keltiring.
3. Milliy aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish va boshqarishning asosiy prinsiplarini sanab o'ting va tavsifini bering.
4. Biznesning tashkiliy-huquqiy shakli sifatida aksiyadorlik jamiyatlarining asosiy ahamiyatli xususiyatlarini izohlang.
5. Aksiyalarni ochiq obuna va yopiq obuna tartibida joylashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etishning umumiy va farqli jihatlarini keltiring.
6. Aksiyadorlik jamiyatlarini turli xususiyatlariga ko'ra tasniflang.
7. Aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishda tuziladigan hujjatlar va ularni rasmiylashtirish tartibi.
8. Aksiyadorlik jamiyatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.
9. Aksiyalar chiqarish va joylashtirish tartibi.
10. Aksiyadorlik jamiyatlari ustavi va unda belgilab qo'yiladigan masalalar.
11. Aksiyadorlik jamiyatlarining tugatilish tartibi.

Testlar

- 1. Javobgarlikning cheklanganligi prinsipi va kapitalga egalik qilishning uni boshqarishdan alohidalashuvi asosida mulkchilikning qaysi shakli yuzaga kelgan?**
 - a) aksiyadorlik;
 - b) davlat;
 - c) xususiy;
 - d) aralash.
- 2. Aksiyadorlik jamiyatlari yuzaga kelishiga aynan qaysi omillar sabab bo'lgan?**
 - a) MChJlarning mablag' jalb qilish imkoniyatlari cheklanganligi va ehtiyojlarning keskin ortib borishi;

b) davlat iqtisodiyotni tartibga solishida murakkabliklar yuzaga kelganligi;

c) qarz munosabatlarining yuqori darajada rivojlanishi va MChJlar imkoniyati muntazam ortib borishi;

d) qishloq xo'jaligida renta munosabatlari rivojlanib, ehtiyojlarning muntazam qanoatlantirilganligi.

3. Aksiyadorlik kompaniyalari yuzaga kelishi nimalarga imkon berdi?

a) yuqori o'sishni ta'minlash, yirik loyihalarni amalga oshirish, qo'shimcha aksiyalar hisobiga qo'shimcha kapital jalb qilish;

b) mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni bozordan siqib chiqarish, davlatning aralashuvini keskin qisqartirish;

c) halol raqobatni rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bozoridagi hiylanayranglarning oldini olish;

d) investorlar mablag'larini ishonchli tarzda himoya qilish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish.

4. XV asrda tashkil etilgan qaysi tashkilot birinchi aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi?

a) Genuya banki;

b) Vest-indiya kompaniyasi;

c) London fond birjasi;

d) Moskva kemasozlik kompaniyasi.

5. Tarixan birinchi aksiyadorlik jamiyati hisoblangan Genuya bankida ijroiya organ funksiyalarini bajaruvchi organ qanday nomlangan?

a) protektorlar kengashi;

b) kotibiyat kengashi;

c) kollegial kengash;

d) auditorlar kengashi.

6. Genuya banki keyingi taraqqiyot bosqichlarida qanday kompaniyalar uchun biznesni tashkil etish namunasi bo'lib xizmat qilgan?

a) kolonial kompaniyalar;

b) davlat kompaniyalari;

- c) xorijiy kompaniyalar;
- d) notarial kompaniyalar;

7. XVI asrda Gollandiya va Angliyada mulkchilikning aksiyadorlik shaklida tashkil etilgan kolonial kompaniyalar nima maqsadda tashkil etilgan?

- a) mustamlaka hududlardagi boyliklarni faol tarzda o‘zlashtirish;
- b) qo‘shimcha investitsiyalar kiritish orqali kolonial hududlarni rivojlantirish;
- c) mustamlaka hududlarida aksiyadorlik kompaniyalari tashkil etib, aholi bandligini ta’minlash;
- d) mustamlaka hududlariga aholini ko‘chirish va bandlik darajasini oshirish.

8. Yevropa tajribasi asosida Shimoliy Amerikada ham korporatsiyalar tashkil etila boshlanishi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?

- a) XIX asr boshiga;
- b) XV asr o‘rtalariga;
- c) 1929–1933-yillarga;
- d) XX asr 70-yillariga.

9. Aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishi yuqori darajada ta’sir ko‘rsatgan omilni ko‘rsating?

- a) aksiyalar yopiq muomalasi tashkil etilishi;
- b) auditorlik tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;
- c) fond birjalarining faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;
- d) banklar va sug‘urta kompaniyalari faoliyati uyg‘unlashuvi.

10. 1930-yillarga kelib rivojlangan mamlakatlar amali-yotida korporativ boshqaruv bilan bog‘liq qanday amaliyot kuzatila boshlandi

- a) menejerlar sinfi shakllandi va professional boshqarishga o‘tish yuz berdi;
- b) aksiyalar va korporativ obligatsiyalar muomalasi parallel ravishda yo‘lga qo‘yildi;
- c) tashqi mustaqil nazorat sifatida auditorlik nazorati yo‘lga qo‘yildi;
- d) fond bozorida investitsion vositachilar faoliyati amalga oshirila boshlandi.

11. Aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari keltirilgan javobni belgilang.

a) aksiyalar, obligatsiyalar chiqarish orqali qisqa muddatda katta miqdorda kapital jalb qilish, qulay shartlarda kreditlar jalb qilish, keng ko‘lamli innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish;

b) MChJlar bilan raqobatlasha olish; keng ko‘lamli kredit operatsiyalarini amalga oshirish, har bir faoliyatini sug‘urtalash;

c) davlat bilan hamfikir bo‘lish orqali faoliyatni rivojlantirish; davlat mulkini xususiylashtirib olish, davlat vakilini boshqaruvchilikka jalb qilish;

d) xorijiy davlatlar bilan bevosita aloqa o‘rnatish, chet eldan mutaxassislar jalb qilish, xorijiy kreditlar olish.

12. Aksiyadorlik jamiyatlarining kamchiliklari keltirilgan javobni belgilang.

a) kapitalning markazlashuvi monopoliyaga sabab bo‘ladi, yollanma menejment bilan bog‘liq risklar yuzaga keladi, minoritar aksiyadorlar huquqlari har doim ham ta‘minlanmaydi, aksiyalar ochiq muomalasi qo‘shib olishlarga yoki nazoratning almashinuviga olib keladi;

b) aksiyalarni ochiq joylashtirishga majburligi kapital jalb qilishni murakkablashtiradi, korporativ obligatsiyalar chiqarishga majburligi qarz kapitalini oshiradi;

c) strategik investorlarni jalb qilish murakkablik kasb etadi, xorijiy investorlarni jalb qilishga majburlik g‘oyani amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi;

d) aksiyadorlarning chiqib ketishiga ko‘p vaqtni oladi, davlat bilan hamfikir bo‘lish aksiyadorlar noroziligiga sabab bo‘ladi, aksiyadorlarning chiqib ketishi faoliyatning to‘xtab qolishiga olib keladi.


Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlari, shu jumladan ochiq tipdagi va yopiq tipdagi aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rsatgan holda quyidagi T-sxemani to‘ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
Aksiyadorlik jamiyati	
1.	1.
2.	2.
...	...

Ochiq tipdagi aksiyadorlik jamiyati	
1.	1.
2.	2.
...	...
Yopiq tipdagi aksiyadorlik jamiyati	
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Aksiyadorlik jamiyati faoliyati bo'yicha klaster shakllantiring.



3. Aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish bo'yicha aniq ketma-ketlik asosida sxema shakllantiring.

IV bob. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI

4.1. Aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv organlari tarkibi


Aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasi tarmoq va faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zaro farqlanadi. Lekin moliyaviy boshqaruvning tarkibiy tuzilishi birmuncha murakkab va ular faoliyatining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda korporativ moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning xorijiy investorlari ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ushbu kompaniyalar O‘zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma’lum.

O‘zbekiston hududida to‘liq chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Mazkur xorijiy kompaniyalar tajribalarini chuqur o‘rganishimiz va ularning tahlili asosida korxonalarimiz uchun korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalarini yaratishimiz, real iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini ayni shu asosda isloh qilgan holda, ularni amaliyotga faol joriy qilishimiz zarur³², deya ta’kidlab o‘tgandilar. Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida aksiyadorlik jamiyatining namunaviy tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi (4.1-rasm).

Amaldagi qonunchilik asosida tuzilgan tashkiliy tuzilmadan ko‘rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi boshqaruv organlari hisoblanadi. Nazorat organlari sifatida esa taftish komissiyasi va ichki audit xizmati faoliyat yuritadi. Shuningdek minoritar aksiyadorlar huquqlarini ta’minlash maqsa-

³² Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T. “O‘zbekiston”, 2015. – 72 bet.

didato'g'ridan to'g'ri aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga bo'ysunuvchi minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.



4.1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatining namunaviy tashkiliy tuzilmasi³³


Keltirib o'tilgan tashkiliy tuzilmadan ham ko'rishimiz mumkinki, ijroiya organi tarkibida moliya direktori, investitsiyalar va rivojlantirish bo'yicha direktorlar yangi namunaviy tuzilmaga kiritilgan, o'z navbatida ularga bo'ysunadigan lavozimlar ham keltirilgan.

Aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tuzilmalari, boshqaruv organlari tarkibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan mustaqil belgilanadi va ustavda qayd etiladi.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmalari korporativ boshqaruv modellari asosida belgilanadi. Shundan kelib chiqqan holda hamda tarmoq xususiyatlari asosida aksiyadorlik

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 1- ilova.

jamiyatlarida tashkiliy tuzilmalar o‘zaro farq qiladi. Va mos ravishda boshqaruv organlari ham o‘zaro farq qilishi mumkin. Quyida AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa ittifoqi va Xitoyda kompaniyalar boshqaruv organlari xususida ma’lumotni keltiramiz (4.2-rasm).



4.2-rasm. *Korporativ boshqaruv modellar farqlanishi*³⁴

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlatlar kesimida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvida umumiy jihatlar bilan birga o‘zaro farqlanishlar ham mavjud. Bu haqda ikkinchi bobda ham to‘xtalib o‘tgan edik. Endi bevosita mamlakatimizda korporativ boshqaruv organlari faoliyati bo‘yicha to‘xtalib o‘tamiz.

³⁴ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 446.

4.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va uning vakolat doirasi

Umumiy holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi eng yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda eng avvalo aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi, ko'rib chiqiladigan masalalar va qaror qabul qilish tartibi xususida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi har yili o'tkazilishi shart. Yillik umumiy yig'ilish esa ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Shuningdek, ma'lum bir masalalar bo'yicha navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlar ham o'tkazilishi mumkin. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmasligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Umumiy yig'ilishni kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- jamiyatni qayta tashkil etish;
- jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish;
- jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;
- o'z aksiyalarini olish;
- jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish;

- jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

- sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari bo'yicha, birlashish, qo'shib olish, ajralib chiqish bo'yicha bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor), kollegial ijroiya organining a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek jamiyatning yillik hisoboti jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni

rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar ijroiya organ hal qilishi uchun berilishi mumkin emas. Lekin aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan quyidagi masalalar ustav yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori asosida kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilishi mumkin:

- jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek ustavga jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

- yillik biznes-rejani tasdiqlash.

Aksiyadorlar tomonidan ma'qullanadigan masalalar korporativ boshqaruv modellariga ko'ra o'zaro bir-biriga yaqin ekanligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim.

4.3. Kuzatuv kengashi va uning korporativ boshqaruvdagi roli

Kuzatuv kengashi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bunda kuzatuv kengashi aksiyadorlik jamiyati ustavi asosida faqatgina o'z vakolati doirasida boshqaruvni amalga oshiradi. Ya'ni qonunchilik va ustav bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni kuzatuv kengashi tomonidan hal qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ovoz beruvchi aksiyalar egasi bo'lgan aksiyadorlarning soni *o'ttiz kishidan kam bo'lgan* aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining vazifalari ustav asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday hollarda jamiyat ustavida aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish masalasini hal etish o'z vakolat doirasiga kiritilgan muayyan shaxs yoki jamiyatning boshqaruv organi ko'rsatilishi kerak.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarining miqdorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi.

Davlat tashkilotlari rahbarlari yoki rahbar o'rinbosarlari, shuningdek, xodimlari bo'lgan xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashlari (bank kengashlari) a'zolariga haq to'lash va (yoki) o'z funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash bir chorakda mehnatga haq to'lash miqdorining 17,6 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi³⁵.

Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash bo'yicha masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- jamiyatning boshqaruv a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustaviga ko'ra bunday huquq jamiyat kuzatuv kengashiga berilgan bo'lsa;

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi "Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash, agar jamiyat ustavida bunday lavozimni joriy etish nazarda tutilgan bo'lsa;

- agar jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash jamiyat ustavida kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan bo'lsa yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan jamiyat kuzatuv kengashiga topshirilmagan bo'lsa, jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish, agar bu jamiyat ustaviga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilmagan bo'lsa;

- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

- yirik bitimlar tuzish, affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;

- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga yoki jamiyat ustaviga ko'ra quyidagilar jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilishi mumkin:

- jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish masalalarini, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda jamiyat-

ning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;

- jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga qonunchilik va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin. Shu o'rinda kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emasligini alohida ta'kidlash lozim.

Kuzatuv kengashining a'zolari amaldagi qonunchilikda va jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi.

Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. Boshqaruvi a'zolari va direktori jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar jamiyat ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

Kuzatuv kengashining son tarkibi jamiyat ustavi bilan belgilanadi. Aksiyadorlar soni besh yuzdan ortiq bo'lganda kuzatuv kengashining son tarkibi **yetti a'zodan** kam bo'lishi, aksiyadorlari soni bir mingdan ortiq bo'lgan jamiyat uchun esa **to'qqiz a'zodan** kam bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

2019 yildan davlat aktivlarini boshqarishning samarali usullarini joriy qilish, davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari boshqaruv organlarini shakllantirish mexanizmlarini va ularning faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish maqsadida xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashlari (bank kengashlari) a'ziligiga nomzodlar Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda ko'rsatiladi. Bunda kelishish tartibi quyidagicha (4.1-jadval):

4.1-jadval

Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarida kuzatuv kengashlariga nomzodlar ko'rsatish tartibi³⁶

Ustav kapitalida davlat ishtirokiga ko'ra	Kelishiladigan Vazirlar mahkamasi tuzilmasi
Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari bo'yicha	O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri yoki uning tegishli o'rinbosarlari va maslahatchilari bilan
Davlat ulushi 50 foizgacha bo'lgan xo'jalik jamiyatlari bo'yicha	50 foizgacha bo'lgan xo'jalik jamiyatlari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan

2019 yil 1 iyulidan boshlab davlat organlarining rahbarlari yoki rahbar o'rinbosarlari, ularda korporativ boshqaruv malaka attestati mavjud bo'lganda davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi a'ziligiga davlat ulushi bo'yicha saylanishlari mumkin.

Kuzatuv kengashining raisi, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi "Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Jamiyatning kuzatuv kengashi, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z raisini kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayon-noma yuritilishini tashkil etadi, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchisining), ijroiya organi a'zosining, shuningdek jamiyat ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibi jamiyatning ustavida belgilab qo'yiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat ustavida belgilanadi, biroq u jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibini belgilovchi qonunchilikda, jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra qo'shimcha aksiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi, ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari bo'yicha qaror jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Kuzatuv kengashi tomonidan davlat vakilining ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar, shuningdek veto qo'yilgan qarorlar ijro etilmaydi.

Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat ustavida jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda jamiyat kuzatuv kengashi raisining hal qiluvchi ovoz huquqi nazarda tutilishi mumkin.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda hozir bo'lgan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

«Bektemir-spirt eksperimental zavodi» aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi tarkibidagi o‘zgarishlar³⁷

1.	EMITENTNING NOMI							
	To‘liq:	Chet el investitsiyasi ishtirokidagi «BEKTEMIR-SPIRT EKSPERIMENTAL ZAVODI» Aksiyadorlik jamiyati						
	Qisqartirilgan:	ChEII «BEKTEMIR-SPIRT EKSPERIMENTAL ZAVODI» AJ						
	Birja tikerining nomi:	BSEZ						
2.	ALOQA MA’LUMOTLARI							
	Joylashgan yeri:	100182, Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko‘chasi, 91-uy						
	Pochta manzili:	100182, Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko‘chasi, 91-uy						
	Elektron pochta manzili:	<u>bekspirt@mail.ru</u>						
	Rasmiy veb-sayti:	www.bektemir-spirt.uz						
3.	MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT							
	Muhim faktning raqami:	08						
	Muhim faktning nomi:	Kuzatuv kengashi tarkibidagi o‘zgarishlar						
	Shaxsning vakolati tugatilgan hollarda							
	№	Shaxsning F.I.Sh. yoki ishonchli boshqaruvchining to‘liq nomi	Ish joyi	Lavozi mi	Tegishli aksiyalar		Boshqa tashkilotlar -da ish	
					turi	so ni	jo y	lavozi m
1.	Azizov Shuxratillo Ne‘matil-layevich	“O‘zspiritsanoat” AK	mutaxassis	-	0	-	-	
Shaxs saylangan (tayinlangan) hollarda								
№	Shaxsning F.I.Sh. yoki ishonchli	Ish joyi	Lavozi mi	Tegishli aksiyalar		Boshqa tashkilotlar -da ish		

³⁷ <http://bektemir-spirt.uz/uz/facts-uzb/200-08-fact-27-06-17-nabl-sov>

	boshqaruvchi-ning to'liqnomi			turi	so-ni	jo-y	lavozi m
1.	Maxmudov Murabit Adilxanovich	ChEII «Toshkentvinokom binati» AJ	Bosh direktori	oddiy	315000	-	-
2.	Xaydarov Quvonchbek Akbaraliyevich	«O'zspiritsanoat» AK	Mutaxassis	-	0	-	-
3.	Kosimxojayeva Lola Salimovna	«O'zspiritsanoat» AK	bosh iqtisodchisi	-	0	-	-
4.	Xushvaqtov Rustam Norqulovich	«O'zspiritsanoat» AK	bo'lim boshlig'i	-	0	-	-
5.	Xorev Sergey Gennadiyevich	Nafaqaxur	-	-	0	-	-
6.	Samatova Muppazal Adilxanovna	Ishlamaydi	-	-	0	-	-
7.	Adilova Surayyo Murabitovna	QQ «DIMINUR GROUP» MChJ	Bosh direktori o'rinbosari	-	0	-	-
Ko'rsatilgan o'zgartirishlar to'g'risida emitentning qaror qabul qilgan organi:						Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi	
Qaror qabul qilingan sana:						27.06.2017 y.	
Bayonnoma tuzilgan sana:						27.06.2017 y.	
Boshqaruv organi bayonnomasidan ko'chirma va saylangan (tayinlangan) shaxsning yashash joyi ko'rsatilgan holda pasport ma'lumotlari						Ilova qilinadi	
O'zgargandan so'ng Kuzatuv kengashining tarkibi							
№	Shaxsning F.I.Sh. yoki ishonchli boshqaruvchi-	Ish joyi	Lavozi mi	Tegishli aksiyalar		Boshqa tashkilotlarda ish	
				turi	so-ni	jo-y	lavozi m

	ning to'liq nomi						
1.	Maxmudov Murabit Adilxanovich	ChEII «Toshkentvinokombinati» AJ	Bosh direktori	oddiy	315000	-	-
2.	Xaydarov Quvonchbek Akbaraliyevich	«O'zspirtsanoat» AK	mutaxassis	-	0	-	-
3.	Kosimxojayeva Lola Salimovna	«O'zspirtsanoat» AK	bosh iqtisodchi	-	0	-	-
4.	Xushvaqtov Rustam Norqulovich	«O'zspirtsanoat» AK	bo'lim boshlig'i	-	0	-	-
5.	Xorev Sergey Gennadiyevich	Pensioner	-	-	0	-	-
6.	Samatova Muppazal Adilxanovna	Ishlamaydi	-	-	0	-	-
7.	Adilova Surayyo Murabitovna	QQ «Diminur group» MChJ	Bosh direktori o'rinbosari	-	0	-	-

Xorijiy amaliyotdan direktorlarning quyidagi turlari faoliyat yuritishini ko'rishimiz mumkin³⁸:

- ijrochi direktorlar. Ular tomonidan kompaniya kundalik faoliyat boshqarib boriladi;

- noijrochi direktorlar. Ular faoliyat yo'nalishlarini belgilashda va rejalashtirishda ishtirok etuvchi direktorlar kengashi a'zolari hisoblanuvchi hamda kundalik boshqaruvda ishtirok etmaydigan direktorlardir.

- mustaqil noijrochi direktorlar. Ular kompaniyaga hech qanday aloqador bo'lmagan holda direktorlar kengashi a'zosi sifatida kengash majlisida ishtirok etib faoliyatga doir maslahat berib boradi va maslahat uchun haq to'lanadigan direktorlardir.

³⁸ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 97-98.

- aloqador noijrochi direktorlar. Boshqaruv a'zosi emas, lekin kompaniya bilan aloqalarga ega, masalan sobiq direktorlar yoki muhim hamkorlar vakillari bunday toifaga kiritiladi.

- tashqi direktorlar. AQSh kompaniyalari korporativ boshqaruvida uchraydigan direktorlar bo'lib, noijrochi direktor faoliyatiga o'xshash tarzda faoliyat ko'rsatadi. Ular hech qanday manfaatdorlikka ega emas.

4.4. Ijroiya organi tashkiliy tuzilishi va faoliyat mexanizmi

Aksiyadorlik jamiyatining kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Agar jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, jamiyat ustavida boshqaruv rahbarining (boshqaruv raisining) vakolati ham belgilangan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2019 yilgacha amalda bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining kuzatuv kengashi (banklar kengashi) tarkibi va ijroiya organi a'zolarini normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlash, shuningdek ularni davlat organlarining rahbarlari yoki rahbar o'rinbosarlariga tenglashtirish amaliyoti 2019 yilning 1 apreldan bekor qilindi. Xo'jalik jamiyatining ijro organi (rahbar va rahbar o'rinbosarlari) tanlov asosida yuqori malakali, shu jumladan xorijiy mutaxassislar orasidan tanlab olinadi va belgilangan tartibda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanish tartibi belgilandi. Boshqa tomondan ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ijroiya organi rahbari va rahbar o'rinbosari lavozimlariga nomzodlarni ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri yoki uning tegishli o'rinbosarlari va maslahatchilari bilan kelishgan holda amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi "Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida belgilandi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan jamiyat ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan

belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

Jamiyat ijroiya organining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

Jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Jamiyatning ijroiya organlarini tuzish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustavida ushbu masalalarni hal etish jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan bo'lsa, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Jamiyat ustaviga muvofiq yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoxud jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra jamiyat direktorini yoki boshqaruv a'zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi.

Jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi a'zolarining, ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tegishincha amaldagi korporativ qonunchilik, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Shartnoma jamiyat nomidan jamiyat kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyatning direktori, jamiyat boshqaruvining raisi, ishonchli boshqaruvchi bilan tuziladigan shartnomada ularning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

Jamiyatning direktoriga, boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori, shuningdek ishonchli boshqaruvchining xizmatlariga haq to'lash shartlari jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak.

Jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yoki jamiyat kuzatuv kengashi jamiyatning direktori, boshqaruv a‘zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda tugatishga (bekor qilishga), agar jamiyat ustaviga ko‘ra kuzatuv kengashiga shunday huquq berilgan bo‘lsa, haqli.

Jamiyat kuzatuv kengashi jamiyatning direktori, jamiyat boshqaruvining a‘zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani, agar ular jamiyat ustavini qo‘pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yoki jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan jamiyat ijroiya organining, ishonchli boshqaruvchining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, jamiyat ijroiya organining vakolatlarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi masala o‘sha yig‘ilishning o‘zida hal etilishi yoxud jamiyat ijroiya organining rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin. Agar jamiyatning ijroiya organini tuzish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan bo‘lsa, jamiyat ijroiya organining, ishonchli boshqaruvchining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan jamiyat kuzatuv kengashi jamiyat ijroiya organining rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi, shuningdek jamiyatning ijroiya organi to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqiradi. Quyida “Toshkent viloyati Dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati misolida ijroiya organi rahbarining vakolati tugatilishi va yangi rahbar tayinlanishi bo‘yicha ma‘lumotni keltiramiz. Bu haqda ma‘lumot Korporativ axborotlar yagona portalida va aksiyadorlik jamiyati vebsaytida 8-muhim fakt sifatida e‘lon qilingan (4.2-jadval).

**“Toshkent viloyati Dori-darmon” AJ ijroiya organi
tarkibidagi o‘zgarish**

1.	Emitent nomi							
	To‘liq:				"Toshkent viloyati Dori-darmon" aksiyadorlik jamiyati			
	Qisqartirilgan:				"Toshkent viloyati Dori-darmon" AJ			
	Birja tikeri nomlanishi:				TVDR			
2.	Aloqa ma’lumotlari							
	Joylashgan joyi:				Toshkent sh., Yakkasaroy tuman, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 28-uy			
	Pochta manzili:				Toshkent sh., Yakkasaroy tuman, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 28-uy			
	Elektron pochta manzili:				fayziev@umail.uz			
	Rasmiy veb sayt:				www.toshkentviloyatdd.uz			
3.	Muhim fakt haqida axborot							
	Muhim fakt raqami:				8			
	Muhim fakt nomlanishi:				Ijroiya organi tarkibidagi o‘zgarish			
	Shaxs vakolatini tugatish holatida							
	№	Shaxs F.I.O. yoki ishonchli boshqaruvchi to‘liq nomi	Ish joyi, lavozimi		Tegishli aksiyalar		Boshqa tashkilotlardagi ishi	
			Joyi	Lavozimi	turi	soni	Joyi	Lavozimi
	1	Fayziyev Mirmasud Salixovich	Toshkent viloyati «Dori-darmon» AJ	Boshqaruv raisi	0	-	-	
Shaxs saylanishi (tayinlanishi) holatida								

№	Shaxs F.I.O. yoki ishonchli boshqaruvchi to'liq nomi	Ish joyi, lavozimi		Tegishli aksiyalar		Boshqa tashkilotlardagi ishi	
		joyi	lavozimi	turi	soni	joyi	lavozimi
1	Karimov Abdubasit Abdishukurov ich	Toshkent viloyati «Dori-darmon» AJ	Boshqaruv raisi v.v.b	238	oddiy aksiya	-	-
Ko'rsatilgan o'zgarishlar haqida qaror qabul qilgan emitent organi:				Toshkent viloyati «Dori-darmon» AJ navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi			
Qaror qabul qilish sanasi:				24.01.2018			
Bayonnoma tuzilgan sana:				30.01.2018			
Boshqaruv bayonnomasidan ko'chirma va saylangan (tayinlangan) shaxsning pasport ma'lumotlari:				ilova qilinadi			
Boshqaruv bayonnomasidan ko'chirma va saylangan (tayinlangan) shaxsning pasport ma'lumotlari:				<u>Yuklamoq</u>			
Ijroiya organi tarkibi							
№	Shaxs F.I.O. yoki ishonchli boshqaruvchi to'liq nomi	Ish joyi, lavozimi		Tegishli aksiyalar		Boshqa tashkilotlardagi ishi	
		joyi	lavozimi	turi	soni	joyi	lavozimi
1.	Karimov Abdubasit Abdishukurovich	Toshkent viloyati «Dori-darmon» AJ	Boshqaruv raisi v.v.b	238	Oddiy aksiya	-	-
2.	Jo'rayeva Muhayyo Mirsabitovna	Toshkent viloyati «Dori-darmon» AJ	Boshqaruv a'zosi – bosh hisobchi	187	Oddiy aksiya	-	-
3.	Muxtarov Abdumuxit	Toshkent viloyati «Dori-darmon» AJ	Boshqaruv a'zosi – yurist-maslahatchi	0	-	-	-

4.	Alimbayeva Xabiba Baxramovna	Toshkent viloyati «Dori- darmon» AJ	Boshqaruv a'zosi – ta'minot va marketing bo'limi boshlig'i	40	Oddi y aksi- ya	-	-
5.	Muxamedova Zuhra Abdurahimov na	Toshkent viloyati «Dori- darmon» AJ	Boshqaruv a'zosi – AJ sotish bo'limi tovarshunosi	60	Od- diy aksi- ya	-	-
6.	Muhitdinova Zuxra Abdurasi- zovna	Toshkent viloyati «Dori- darmon» AJ	Boshqaruv a'zosi – xodimlar bo'limi boshlig'i	0	-	-	-

Aksiyadorlik jamiyatlari ijroiya organi jamiyat ustavi asosida ish yuritadi. Jamiyat boshqaruvining majlisida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat boshqaruvi majlisining bayonnomasi kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchining) a'zolari talabiga ko'ra ularga beriladi.

Jamiyatning boshqaruvi majlislarini o'tkazishni boshqaruv raisi tashkil etadi, u jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda jamiyat boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi, jamiyatning boshqaruvi o'z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyat direktori va boshqaruvi a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

Muammoli holatlar bo'yicha bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rni qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning kuzatuv

kengashi a'zosi, direktori yoki boshqaruv a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv organlari.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatlari.
3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rishni o'tkazish tartibi.
4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibini shakllantirish.
5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qarorlar qabul qilish va uni rasmiylashtirish tartibi.
6. Aksiyadorlik jamiyatlarida nazorat organlari.
7. Kuzatuv kengashini tuzish, tegishli vakolatlar doirasida faoliyatini tashkil etish.
8. Ijroiya organi faoliyatini tashkil etish va uning vakolatlarini tugatish.
9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining Kuzatuv kengashiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan vakolatlari.
10. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvini boshqaruvchi tashkilotlarga topshirish tartibi va unda qo'yiladigan masalalar.

Testlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv organlari to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi, ijroiya organi;
- b) ichki audit xizmati, moliyaviy masalalar bo'yicha direktor, xodimlar bo'limi;
- c) tashqi auditorlik tashkiloti, konsalting tashkiloti, bosh hisobchi;
- d) yurist-maslahatchi, korporativ konsultant, sanoq komissiyasi;

2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolati hisoblanmay-digan masalalar berilgan javobni belgilang:

- a) to'lanadigan dividend miqdori bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, joriy faoliyatni boshqarish, qimmatli qog'ozlarni fond bozorida joylashtirish;

b) to'lanadigan dividend miqdorini tasdiqlash, ustavni tasdiqlash, kuzatuv kengashi a'zolarini saylash, ustav kapitalini oshirish;

c) taftish komissiyasini saylash, ijroiya organi a'zolari bilan mehnat shartnomasini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilish, ustav kapitalini kamaytirish;

d) kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatini muddatidan oldin tugatish, korporativ boshqaruv kodeksini tasdiqlash.

3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning kuzatuv kengashiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan vakolatlari keltirilgan javobni belgilang.

a) aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash, ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash, yillik biznes rejani tasdiqlash;

b) ustavga o'zgartirishlar kiritish, taftish komissiyasi xulosalarini eshitish, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibini tayyorlash;

c) korporativ boshqaruv kodeksini, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

d) aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar miqdori bo'yicha qaror qabul qilish, ichki hujjatlarni tasdiqlash.

4. Aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga umumiy rahbarlikni qaysi korporativ boshqaruv organi amalga oshiradi?

a) kuzatuv kengashi;

b) taftish komissiyasi;

c) minoritar aksiyadorlar qo'mitasi;

d) bosh hisobchi va moliyaviy masalalar bo'yicha direktor.

5. Qanday holatda kuzatuv kengashining vazifalari ustav asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi zimmasiga yukla-tilishi mumkin?

a) ovoz beruvchi aksiyalar egasi bo'lgan aksiyadorlarning soni o'ttiz kishidan kam bo'lgan holatda;

b) barcha aksiyadorlar ovoz beruvchi aksiyalar egalari hisoblanganda;

c) qonunchilikda bunday holat mavjud emas, kuzatuv kengashi tashkil etilishi shart;

d) ustav kapitalining sakson foizi imtiyozli aksiyalar hisobiga shakllantirilganda.

6. Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq miqdori kim tomonidan belgilanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) ijroiya organi rahbari;
- c) bosh hisobchi;
- d) imtiyozli aksiyalar egalari.

7. Qaysi javobda kuzatuv kengashi vakolatlari noto'g'ri keltirilgan?

a) to'lanadigan dividendlar miqdori bo'yicha qaror qabul qilish, taftish komissiyasini saylash, ustavga o'zgartirish kiritish;

b) aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish; aksiyadorlik jamiyati faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasini belgilash, korporativ maslahatchini tayinlash;

d) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash, ichki audit xizmatini tashkil etish, dividend miqdori bo'yicha tavsiyalar berish;

8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kuzatuv kengashiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan vakolatlari qanday tartibda o'tkaziladi?

a) ustavda belgilash yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan;

b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari kuzatuv kengashiga o'tkazilishi mumkin emas;

c) ijroiya organi qarori asosida kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda;

d) kuzatuv kengashi tashkil etilmagan holatda umumiy yig'ilish qarori bilan.

9. Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining son tarkibi qaysi hujjat asosida belgilanadi?

a) ustavda;

b) "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomda;

c) aksiyadorlar bilan ishlash bo'limi nizomda;

d) "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomda.

10. Aksiyadorlar soni besh yuzdan ortiq bo'lganda kuzatuv kengashining son tarkibi nechtadan kam bo'lishi mumkin emas? Aksiyadorlari soni bir mingdan ortiq bo'lganda-chi?

- a) mos ravishda yetti va to'qqiz a'zodan;
- b) mos ravishda sakkiz va o'n a'zodan;
- c) mos ravishda besh va o'n a'zodan;
- d) qonunchilikda faqatgina toq sonda bo'lishi belgilangan.

11. Aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi a'zolari saylovi qanday tartibda ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

- a) kumulyativ;
- b) oddiy;
- c) malakali ko'pchilik;
- d) qayta ovoz berish.

12. Aksiyadorlik jamiyatining kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavi asosida kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) direktor yoki jamiyat boshqaruvi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- d) bosh hisobchi va xodimlar bo'limi boshlig'i.

Qo'shimcha topshiriqlar

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi, Ijroiya organi vakolatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi	Kuzatuv kengashi	Ijroiya organi
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkil etish, o'tkazish va rasmiylashtirish jarayonini aniq ketma-ketlik asosida sxemada aks ettiring.

№	Bajariladigan ishlar
1.	
2.	
3.	

3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish va o'tkazish tartibi bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi	Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi
Yig'ilishni chaqirish va o'tkazish tartibi	
....
Ko'rib chiqiladigan masalalar	
....
Yig'ilish bayonnomasini rasmiylashtirish tartibi	
....

4. Aksiyadorlik jamiyatlarining mutlaq vakolatlari va Kuzatuv kengashiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan vakolatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Mutlaq vakolatlar	Kuzatuv kengashiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan vakolatlar
1.	1.
2.	2.
...	...

V bob. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHINI TASHKIL ETISH, O‘TKAZISH VA RASMIYLASHTIRISH

5.1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining tashkil etilishi

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladi. Aynan shu reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

Jamiyat aksiyadorning talabiga ko‘ra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilganligi to‘g‘risida axborot taqdim etishi shart.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida yetti kundan kechiktirmay, lekin uzog‘i bilan o‘ttiz kun oldin jamiyatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyat davlat vakilini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida yetti kun oldin yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

- umumiy yig‘ilish o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy;

- jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana;

- umumiy yig‘ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;

- umumiy yig‘ilishni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni va davlat vakilini tanishtirish tartibi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborotga (materiallarga) jamiyatning yillik hisoboti, jamiyatning yillik moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosasi, jamiyat kuzatuv kengashining direktor (boshqaruv raisi), ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to‘g‘risidagi xulo-

sasi, shuningdek jamiyatning kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'ziligiga (taftishchiligiga) nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, jamiyatning ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi kiradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materiallarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, agar jamiyat ustavida bundan kechroq muddat belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

Aksiyadorlar (aksiyador) jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiya-dorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda taklif kiritish bo'yicha belgilangan muddat tugaganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar jamiyatning kuzatuv kengashiga va

taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak. Lekin quyidagi hollar bundan mustasno:

- takliflar yoki nomzodlar kiritish bo'yicha belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo'lsa;
- aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;
- nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;
- kiritilayotgan takliflar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

Jamiyat kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni jamiyat kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni jamiyat kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda jamiyatning kuzatuv kengashi, ma'lum bir holatlarda umumiy yig'ilishni chaqiruvchi shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

- umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;
- umumiy yig'ilishning kun tartibini;
- umumiy yig'ilish o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani;
- umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga va davlat vakiliga xabar qilish tartibini;
- umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini;
- ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning, shu jumladan, «turli masalalar», «boshqa masalalar», «har xil masalalar» kabilarning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlarning yozma talabi asosida o'tkaziladi.

Jamiyat taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlarning yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlarning talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiya-dorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlardan chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

Jamiyatning taftish komissiyasi yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida jamiyat kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

Jamiyat taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlarning talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorlar qonunchilikda nazarda tutilgan miqdordagi jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

Jamiyat kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Kuzatuv kengashi belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, taftish komissiyasining a'zolari (taftishchisi), jamiyat direktori, jamiyat boshqaruvi a'zolari, ishonchli boshqaruvchi, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

Sanoq komissiyasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining

aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini jamiyatning arxiviga topshiradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Davlat vakilining aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi shaxsan uning o'zi tomonidan amalga oshiriladi.

Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

Agar jamiyatning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining **jami ellik foizidan ko'proq ovozig**a ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi **vakolatli (kvorumga ega)** bo'ladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish

tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining **jami qirq foizidan ko‘proq ovoziga** ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishi vakolatli bo‘ladi.

Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabar qilish qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

Kvorum bo‘lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko‘chirilgan taqdirda, umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar o‘tkazilmay qolgan umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

5.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish va ovoz natijalarini rasmiylashtirish

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish «jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz» prinsipi bo‘yicha amalga oshiriladi, jamiyatning kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash bo‘yicha kumulyativ ovoz berishni o‘tkazish hollari bundan mustasno.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha quyidagilar ovoz berish huquqiga ega bo‘ladi:

- jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo‘lgan aksiyadorlar;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda imtiyozli aksiyalari egalari bo‘lgan aksiyadorlar.

Ovozga qo‘yilgan masala bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo‘lgan, yig‘ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko‘pchilik (oddiy ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida “Oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilish quyidagi masalalar bo‘yicha tashkil qilinadi³⁹:

- direktorlar tomonidan aksiyadorlarga taqdim etilgan hisobotni tasdiqlash;
- taftishchilarning xulosalarini tasdiqlash;
- direktorlar tomonidan taklif etilgan dividend to‘lovlari miqdorini tasdiqlash;

³⁹ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 252

- kompaniya va aloqador shaxslar o'rtasidagi tranzaksiyalarni tasdiqlash;

- direktorlarni tayinlash va qayta tayinlash”.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan, hal qilish chog'ida jamiyatning oddiy va imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega bo'ladigan masala yuzasidan ovozlarni sanab chiqish ovoz beruvchi aksiyalarning barchasi bo'yicha birgalikda amalga oshiriladi.

Quyidagi masalalar bo'yicha qarorlar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning **to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik)** ovozi bilan qabul qilinadi:

- ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- jamiyatni qayta tashkil etish;

- jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

- yirik bitimlar tuzish;

- affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash.

Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining **kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi** mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish tartibi jamiyatning ustavida yoki jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan boshqa hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari qonunchilikda hamda jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda, biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan davlat vakilining ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda veto qo'yilgan qarorlar ijro etilmaydi.

Agar aksiyador uzrli sababga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi. Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

Ovoz berish byulletenida: jamiyatning to'liq firma nomi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi, vaqti va joyi, ovoz berishga qo'yilgan har bir masalaning ta'rifi va uni ko'rib chiqish navbati, ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha «yoqlayman», «qarshiman» yoki «betarafman» degan mazmundagi so'zlar bilan ifodalangan ovoz berish variantlari ko'rsatilgan bo'lishi (bundan ovoz berishga qo'yilgan masalaga «yoqlayman» degan mazmundagi so'z bilan ifodalanadigan kumulyativ ovoz berish mustasno), ovoz berish byulleteni aksiyador (uning vakili) tomonidan imzolanishi lozimligi to'g'risidagi ko'rsatma bo'lishi kerak.

Kuzatuv kengashi yoki taftish komissiyasi a'zosini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilgan taqdirda, ovoz berish byulletenida nomzod to'g'risidagi ma'lumotlar, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi lozim.

Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan

holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, bayonnoma jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi hamda saqlab qo'yish uchun jamiyatning arxiviga topshiriladi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.

Ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga havola etiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;
- umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;
- umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

5.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazishning amaldagi holati

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan o'tkazilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bilan yaqindan tanishish maqsadida O'zsanoatqurilishbank aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining 2017-yil 28-aprelda o'tkazilgan navbatdagi hisobot umumiy yig'ilishi bayonnomasi bilan tanishib chiqamiz⁴⁰.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bankning bosh binosi manzilida 2017-yil 28-aprelda soat 11.00 dan 13.00 ga qadar o'tkazilgan.

Yig'ilishni Bank Kengashi a'zosi – A.Kamalov ochdi.

Bank Kengashi tomonidan 2017-yil 5-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATB Ustaviga binoan, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy yig'ilish o'tkazish to'g'risidagi xabar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirildi, "Birja" iqtisodiy gazetasining 2017-yil 6-apreldagi sonida e'lon qilindi hamda aksiyadorlarning elektron pochta manziliga yuborilgan.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 61-moddasiga hamda Bank Kengashining qaroriga binoan, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatini tuzish sanasi 2017-yil 24-aprel deb belgilangan.

Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolatli ekanligi (kvorum to'planganligi) bo'yicha so'z Sanoq komissiyasining raisi - Azizxon Nodirovga berildi. "O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarining reyestriga ko'ra, 2017 yil 24 aprel holatiga Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatiga jami 204 365 135 (ikki yuz to'rt million uch yuz oltmish besh ming bir yuz o'ttiz besh) dona oddiy aksiyalar egasi bo'lgan 5 250 (besh ming ikki yuz ellik) ta aksiyador kiritilgan.

Aksiyadorlar ro'yxatining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va aksiyadorlar nomidan Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan vakillarning vakolatlari tasdiqlandi.

Sanoq komissiyasi raisi yig'ilishda ishtirok etish uchun umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning 177.456.421 (bir yuz yetmish yetti million to'rt yuz

⁴⁰ Ўзсаноатқурилишбанк АТБ расмий вебсайтидан олинди

ellik olti ming to‘rt yuz yigirma bir) dona yoki 86,8 foiziga egalik qiluvchi 18 (o‘n sakkiz) nafar aksiyador va aksiyadorlarning vakillari ro‘yxatdan o‘tganligi va Umumiy yig‘ilish vakolatli, ya‘ni kворum mavjudligini ma‘lum qildi.

Sanoq komissiyasi bayonnomasi, aksiyadorlar va ularning vakillari ro‘yxati, Sanoq komissiyasi ma‘lumoti matni ilova qilinadi.

Yig‘ilishga raislik qiluvchi Bank Kengashi a‘zosi - A.Kamalov bank Aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishini ochiq deb e‘lon qildi hamda yig‘ilishda bankning yirik aksiyadorlari Tiklanish va taraqqiyot jamg‘ar-masi nomidan - Ijrochi direktor o‘rinbosari Sh.Vafayev, boshqarma bosh-lig‘i o‘rinbosari U.Muxtarov, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ nomidan - boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari I.Subanov, “Uzneftmahsulot” AK nomidan - bosh buxgalter I.Abidov, boshqa aksiyadorlar va ularning vakillari hamda Bankning mas‘ul xodimlari ishtirok etayotganligi to‘g‘risida xabar berdi.

Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining Ishchi organlari quyidagi tarkibda tuzildi:

Yig‘ilish hay‘ati: A.Kamalov (Raislik qiluvchi), Sh.Vafayev, U.Muxtarov, I.Abidov, O.Almardanov.

Yig‘ilish kotibiyati: Z.Baymuradova, K.Xasanova.

Sanoq komissiyasi: B.Anarkulov, D.Rasulev, A.Nodirov, Z.Bekova.

Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisobotini, bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish.

2. Bank Taftish komissiyasining xulosasini eshitish.

3. Bankning 2016-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisobotini tasdiqlash.

4. Bankda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish.

5. Bank foydasini taqsimlash.

6. Bank Kengashi a‘zolarini saylash.

7. Bank Taftish komissiyasi a‘zolarini saylash.

8. Bank Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a‘zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini 1 (bir) yil muddatga uzaytirish.

9. Bank aksiyalarini maydalash.

10. Bankning e‘lon qilingan aksiyalarining eng ko‘p miqdorini belgilash.

11. Bank Ustaviga o‘zgartirishlar kiritish.

12. Bankning tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish va qayta tasdiqlash.

Umumiy yig‘ilishni ish tartibi quyidagicha belgilab olindi:

Kun tartibiga kiritilgan masalalar buyicha hisobot va axborot berish, muzokarlarda so‘zga chiqish, ovoz berish uchun quyidagi reglament o‘rnatildi:

- Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisoboti bo‘yicha ma‘ruza-chiga – 20 daqiqagacha;

- Taftish komissiyasining hisoboti bo‘yicha ma‘ruzachiga – 20 daqiqagacha;

- Ma‘ruzalar bo‘yicha muhokamalar uchun – 35 daqiqagacha;

- Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berish uchun – 20 daqiqagacha.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar bo‘yicha ovoz berish tartibi ham belgilanib olindi.

Kun tartibidagi birinchi masala - «Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisobotini, bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish» masalasi yuzasidan Bank Boshqaruvi Raisi o‘rinbosari – O.Almardanov ma‘ruza qildi (ilova etiladi).

Kun tartibidagi ikkinchi masala – «Bank Taftish komissiyasining xulosasini eshitish» masalasi bo‘yicha Taftish komissiyasi a‘zosi – O.Xudoyberdiyev ma‘ruza qildi (ilova etiladi).

Kun tartibining qolgan masalalari bo‘yicha yig‘ilishga raislik qiluvchi A.Kamalov batafsil to‘xtalib o‘tdi va tegishli tushuntirishlarni berdi.

Kun tartibiga kiritilgan masalalarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha hamda kiritilgan takliflar va ovoz berish yakunlarini hisobga olgan holda, Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi - “O‘zsanoatqurilishbank” ATBni respublika iqtisodiyoti va bank tizimini isloh etish hamda milliy iqtisodiyotdagi islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha Hukumat qarorlarini bajarish yo‘lida barqaror faoliyat yuritayotganligini qayd etdi.

2016-yil yakunlari bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishbank” ATB “Axbor-Reyting” milliy reyting kompaniyasining “uzA+” darajasidagi «Ijobiy» prognoz bilan yuqori raqobatbardoshlik reytingini qo‘lga kiritdi.

Shuningdek, bankning barqaror rivojlanib borayotganligi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan ham tasdiqlanmoqda. Jahonda katta nufuzga ega “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB reytingini “B+” darajada “Barqaror” istiqboli bilan qayta

tasdiqladi. Hisobot yilida yana bir nufuzli reyting agentligi “Standard& Poor’s” ham “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga “B+” darajada “Barqaror” bo‘lgan xalqaro reytingini qayta tasdiqladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish, oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag‘batlantirish, bankning kapitallashuv darajasini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo‘yicha investitsion jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish, bozor va bank infratuzilmasini kengaytirish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga qaratilgan qarorlar va dasturlarni bajarishda O‘zsanoatqurilishbankning faolligini oshirish maqsadida, kun tartibidagi masalalarni ko‘rib chiqib, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomonidan quyidagi qarorlar qabul qilingan:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2016-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti tasdiqlansin. Bank Kengashi va Bosh-qaruvining faoliyati qoniqarli deb topilsin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqlayman» - 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» - yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

2. Taftish komissiyasining Bankning 2016-yildagi moliyaviy xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisoboti va xulosasi tasdiqlansin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqlayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

3. Bankning 2016 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti tasdiqlansin. Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqlayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

4. Bankda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari tasdiqlansin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqalayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

5. Bank Kengashi taklif etgan bank foydasini taqsimlash tartibiga rozilik bildirilsin. Taqsimlanishi lozim bo‘lgan 72.191,9 mln.so‘m miqdordagi bank foydasi quyidagilarga yo‘naltirilsin:

- Umumiy maqsadli zaxirani shakllantirishga – 3.609,6 mln.so‘m;
- Imtiyozli kreditlash fondini shakllantirishga – 14.252,5 mln. so‘m;
- «Standart» deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha zaxira – 14.438,4 mln. so‘m;
- Bank Ustav kapitalini kapitalizatsiyasiga – 14.796,6 mln. so‘m;
- Bankning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lashga – 1.555,7 mln. so‘m;
- Bankning oddiy aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lashga – 21.657,6 mln. so‘m;
- Boshqaruv va nazorat organlari a‘zolarini taqdirlashga – 411,8 mln. so‘m;
- Taqsimlanmagan foydada qoldiriladigan mablag‘ – 1.469,7 mln. so‘m.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqalayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

5.1. Bank aksiyalari bo‘yicha 2016-yil uchun dividendlar to‘lash haqidagi Bank Kengashining taklifi qabul qilinsin va quyidagi miqdorda dividendlar to‘lansin:

- imtiyozli aksiyalar bo‘yicha yillik 23 % hisobidan – 1.555,7 mln. so‘m miqdorida;
- oddiy aksiyalar bo‘yicha yillik 3,13 % hisobidan – 21.657,6 mln. so‘m miqdorida.

Dividendlarni to‘lash aksiyadorlarning hisob varaqlariga pul o‘tkazish orqali mazkur qaror to‘liq rasmiylashtirilgandan so‘ng, lekin ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran 60 kundan kech bo‘lmagan muddatda amalga oshirilsin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqalayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

6. Kumullyativ ovoz berish natijalariga ko‘ra, Bankning Sanoq komissiyasi bayonnomasiga muvofiq Bank Kengashi a‘zolari quyidagi tarkibda saylansin:

	Saylanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi	Egallab turgan lavozimi	To‘plangan ovozlar soni	To‘plangan ovozlar foizda
1.	Kamalov Ayubxon Aribdjanovich	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari	210 714 926	13,19%
2.	Ibragimov G‘ulomjon Inomovich	O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o‘rinbosari	202 679 882	12,69%
3.	Sultanov Alisher Saidabbasovich	“O‘zbekneftgaz” MXK Boshqaruvi Raisi	202 571 882	12,68%
4.	Gulyamov Ravshan Ayubovich	O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi	154 895 132	9,70%
5.	Tursunov Yorqin Ergashevich	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o‘rinbosari	154 787 132	9,69%
6.	Xajimuratov Sherzod Yuldashevich	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisi o‘rinbosari	154 787 132	9,69%
7.	Salomov Fazlitdin Ibodullayevich	“O‘zbekenergo” AJ Boshqaruvi Raisi	154 783 339	9,69%
8.	Abdujabbarov Sherali Yangibayevich	“Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi” Davlat korxonasi Bosh direktori	151 828 949	9,51%
9.	Muxtarov Ulug‘bek Xakimovich	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari	148 942 238	9,33%

7. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining ovoz berish natijalariga ko‘ra, Bankning Sanoq komissiyasi bayonnomasiga muvofiq Bank Taftish komissiyasi tarkibiga quyidagilar saylansin:

Kambarov Muhammadjon Asqarovich,

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, bosh mutaxassis

Darvishev Nurbek Muratovich,

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, bosh mutaxassis

Yariev Sherzod Shukurjanovich,

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Xudoyberdiyev Olimjon Abdullayevich,

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, bosh mutaxassis

Raximov Jamoliddin Kamolitdinovich,

“O‘zneftmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi, bosh mutaxassis

8. Bank Boshqaruvi Raisi – A.Mirsoatov va Boshqaruvi a‘zolari - J.Obidjonov, Sh.Yakubov, O.Almardanov, F.Xamidova, B.Norxo‘jayev va O.Voxidov bilan tuzilgan mehnat shartnomalari 1 (bir) yil muddatga uzaytirilsin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqalayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

9. Bank aksiyalarini maydalash tasdiqlansin. Bunda bir dona bank aksiyasini bir yuz yetmish sakkizga bo‘linishi belgilansin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari: Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqalayman» – 171.090.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – 6.366.409 ovoz.

10. Bankning e‘lon qilingan aksiyalarining eng ko‘p miqdorini belgilash tasdiqlansin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari: Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqalayman» – 177.456.421 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – yo‘q.

11. Bank Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirishlar tasdiqlansin (ilova qilinadi).

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqlayman» – 171.092.033 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – 6.364.388 ovoz.

12. Bankning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 177.456.421 ovoz

«Yoqlayman» – 161.492.171 ovoz, «Qarshiman» – yo‘q, «Betarafman» – 15.964.250 ovoz.

Bayonnoma “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi Raisi A.Kamalov, yig‘ilish kotibiyati Z.Baymuradova va K.Xasanovalar tomonidan imzolangan.

Bayonnoma 2017-yil 3-may kuni rasmiylashtirilgan.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini chaqirish tartibini bayon eting.
2. Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini chaqirish, kun tartibini tayyorlash, aksiyadorlarga xabar berish va boshqa jarayonlar haqida to‘xtaling.
3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish va qarorlar qabul qilish tartibiga izoh bering.
4. Qaysi masalalar bo‘yicha malakali ovoz asosida qarorlar qabul qilinadi?
5. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida sanoq komissiyasini tuzish va uning faoliyat mexanizmi.
6. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida kumulyativ ovoz berish mexanizmi.
7. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasini rasmiylashtirish tartibi.
8. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini chaqirish bo‘yicha aksiyadorlar huquqlari.
9. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibiga masalalar kiritish bo‘yicha aksiyadorlar huquqlari.
10. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha ovoz berish byulleteni va uni to‘ldirish tartibi.

Testlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida eng yuqori boshqaruv organi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) ijroiya organi;
- c) kuzatuv kengashi;
- d) taftish komissiyasi.

2. Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining reyestri aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan qancha muddat oldin shakllantiriladi?

- a) uch ish kuni oldin;
- b) bir oy oldin;
- c) moliya yili tugagandan so'ng bir oy ichida;
- d) bir kun oldin.

3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarga qanday tartibda yetkaziladi?

- a) yig'ilish o'tkaziladigan sanadan kamida yetti kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin jamiyat veb-saytida, OAVlarida e'lon qilinadi, aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi;
- b) moliya yili yakunlangach bir oy ichida davlat tele-radio kanallarida e'lon beriladi;
- c) yig'ilish sanasidan 10 kun kechiktirmay ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi;
- d) yig'ilish o'tkaziladigan sanadan uzog'i bilan o'ttiz kun oldin jamiyat veb-saytida e'lon qilinadi.

4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi kim tomoni-dan tuziladi?

- a) kuzatuv kengashi;
- b) imtiyozli aksiyalar egalari;
- c) ijroiya organi;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati.

5. Aksiyadorlar qanday tartibda aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga haqli?

- a) kamida bir foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili tugagach o'ttiz kundan kechiktirmay;

- b) kamida besh foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili yakunlangach besh kundan kechiktirmay;
- c) kamida 10 foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili yakunlangach o'ttiz kundan kechiktirmay;
- d) faqatgina 10 foizdan ortiq ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili yakunlangach 10 kundan kechiktirmay;

6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga qanday masalalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi?

- a) «turli masalalar», «boshqa masalalar», «har xil masalalar» mazmunidagi masalalar;
- b) sof foydani taqsimlash, faoliyatni qayta tashkil etish;
- c) aksiyadorlik jamiyatini tugatish, boshqa aksiyadorlik jamiyatini qo'shib olish;
- d) ijroiya organi a'zosi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish, taftish komissiya a'zosi vakolatini muddatdan oldin tugatish.

7. Aksiyadorlik jamiyatida kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada kamida besh foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar yozma talabi asosida qanday yig'ilishlar o'tkaziladi?

- a) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi;
- b) aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi;
- c) kuzatuv kengashi yig'ilishi;
- d) ijroiya organi yig'ilishi;

8. Kuzatuv kengashi tomonidan ovozlarni sanab chiqish, ishtirok etayotgan aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun tuziladigan tarkib qanday nomlanadi?

- a) sanoq komissiyasi;
- b) taftish komissiyasi;
- c) ichki audit xizmati;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati.

9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorumni aniq-lash, ovoz berish huquqlarining amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish, qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz

berish tartibini tushuntirish, ovozlarni sanab chiqish ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzish, ovoz berish byulletenlarini AJ arxiviga topshirish qaysi tuzilmaning vazifasi hisoblanadi?

- a) sanoq komissiyasi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati;
- d) ijroiya organi.

10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan qanday tartibda amalga oshiriladi; davlat vakilining ishtiroki-chi?

- a) aksiyador shaxsan yoki vakili orqali; davlat vakili shaxsan o'zi;
- b) har ikkalasi ham shaxsan ishtirok etishi shart;
- c) har ikkalasi ham shaxsan yoki ishonchli vakili orqali;
- d) davlat vakilining ishonchli vakili ishtiroki mumkin, lekin aksiyador shaxsan ishtirok etishi shart.

11. Qanday holatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi?

- a) ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda 50 foizdan ko'proq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;
- b) ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda 40 foizdan ko'proq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;
- c) ro'yxatdan o'tkazish yakunlangach 75 foizdan ko'proq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;
- d) 55 foizdan ko'proq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;

12. Ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, jamiyatni qayta tashkil etish, jamiyatni tugatish, yirik bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qanday tartibda qabul qilinadi?

- a) malakali ko'pchilik ovozi bilan;
- b) oddiy ko'pchilik ovozi bilan;
- c) kumulyativ ovoz berish bilan;
- d) qayta ovozga qo'yish yo'li bilan.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish, o‘tkazish va rasmiylashtirish bo‘yicha belgilangan muddatlar yuzasidan quyidagi jadvalni to‘ldiring.

№	Muddat bo‘yicha belgilangan masalalar	Belgilangan muddat
1.	Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilish	
2.	Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida aksiyadorlarni xabardor qilish	
3.	Aksiyadorlar reyestrini shakllantirish	
4.	Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibiga masalalar kiritish	
5.	Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida davlat vakilini xabardor qilish	
6.	Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomasini rasmiylashtirish	
7.	Qabul qilingan qarorlarni aksiyadorlarga yetkazish	

2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazishda aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va ijroiya organi ishtiroki bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Aksiyadorlar	Kuzatuv kengashi	Ijroiya organi
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

VI bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA NAZORAT TIZIMI

6.1. Ichki nazorat tizimining tashkiliy jihatlarini va amal qilish mexanizmi

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining qonunchilik hujjatlari talablari hamda ichki hujjatlar qoidalari asosida borishini nazorat qilib borish maqsadida ichki nazorat tizimi ham amal qiladi. Bunda ichki nazorat tizimi faoliyati aksiyadorlik jamiyati Ustavi, korporativ boshqaruv kodeksi va ichki me‘yoriy hujjatlariga asoslanadi. Shu o‘rinda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan “Ichki nazorat to‘g‘risida”gi Nizomda ichki nazorat tizimining maqsad va vazifalarini, uning ishlash prinsiplarini hamda aksiyadorlik jamiyati va shaxslarning ichki nazoratdagi javobgarligini belgilaydi.

Samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish maqsadida kompaniya:

- kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomda uning tarkibiga mustaqil a‘zolari kiritish talablarini aks ettiradi;

- kuzatuv kengashiga homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish huquqini faqat aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma‘lumotlarni oshkor etgan tarzda beradi;

- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan, har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb etgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning kompaniya rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkazadi;

- kompaniya samarali ichki nazorat tizimini joriy qilishning asosiy maqsadini barcha aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashni belgilaydi; ijroiya organining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun kompaniyaning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash masalasini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida muhokama qilinishini ta‘minlaydi;

- kompaniyaning ichki audit xizmatiga ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi kompaniyaga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar bilan o‘tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatini beradi;

- kompaniya tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yig'ilishlarida o'zining vakillarini kompaniya nomidan ovoz berish tartibini belgilaydi; kompaniya umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxsga shunday shaxs hisobidan o'zi to'ldirgan byulleten nusxasini olish imkonini beradi;

- kompaniya ijro organidan muntazam ravishda kompaniya tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyati yuzasidan ularning tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq, bajarilgan ishlar va erishilgan ko'rsatkichlar to'g'risida hisobot talab qiladi;

- kompaniya ichki nazorat organi (taftish komissiyasi va ichki audit xizmati)ning kuzatuv kengashi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, minoritar aksiyadorlar qo'mitasi (agar mavjud bo'lsa) va aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorligi tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Kompaniyada samarali ichki nazorat tizimini joriy qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi "Ichki nazorat to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlaydi. U quyidagilardan iborat bo'ladi:

- kompaniyaning ichki nazorat organi tarkibiga hamda uning a'zolari malakasiga talablar;

- ichki nazorat tizimi to'g'risidagi hisobot tarkibi va uni shakllantirish reglamenti;

- kompaniya ichki nazorat organi tizimi samaradorligini baholash uchun mustaqil professional tashkilotlar maslahatchilarni jalb qilish tartibi;

- ichki nazorat organi ishini monitoring qilish mexanizmlari tavsifi, uning a'zolariga to'lanadigan kompensatsiya va mukofot pullarini hisoblash tartibi.

"Ichki nazorat to'g'risidagi nizom" kompaniya xodimlari, boshqaruv va nazorat organi a'zolari uchun rioya etilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi.

Kompaniya "Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom" talablariga muvofiq, kuzatuv kengashi tarkibiga bittadan kam bo'lmagan (ammo ustavda ko'zda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) mustaqil a'zo kiritadi.

Quyidagilar kompaniya kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin:

(I) so'nggi besh yil mobaynida kompaniya, uning sho'ba va affillangan korxonalarida ishlamagan shaxslar;

(II) kompaniya, uning sho'ba va affillangan korxonalari aksiyadori bo'lmagan shaxslar;

(III) kompaniya, uning sho‘ba va affillangan korxonalari bilan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh ming baravari miqdoridan yuqori summaga tegishli shartnomaga ega bo‘lgan yirik mijozlari yoki mol etkazib beruvchilari bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxslar;


(IV) kompaniya, uning sho‘ba va affillangan korxonalari bilan xizmat ko‘rsatish yuzasidan shartnomaga ega bo‘lmagan shaxslar;

(V) kompaniya, uning sho‘ba va affillangan korxonalari rahbarlari bo‘lgan yoki so‘nggi besh yil mobaynida shunday lavozimlarda ishlagan shaxsning oila a‘zosi bo‘lmagan shaxslar;

(VI) kompaniyani nazorat qiluvchi shaxs (yoki kompaniya ustidan jamoa tarzida nazorat olib boruvchi guruh va/yoki tashkilot a‘zosi) bo‘lmagan shaxslar;

(VII) kompaniya bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma orqali bog‘liq bo‘lmagan va kompaniyaning sohasi bo‘yicha yuqori turuvchi tashkiloti (kompaniya) yoki yirik aksiyadorining xodimi bo‘lmagan shaxslar.

Bizga ma’lumki, taftish komissiyasi va ichki audit xizmati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning va ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida komplaens tizimini joriy etishga ham ustuvorlik berilmoqda (6.1 rasm).



6.1-rasm. *Korporativ boshqaruvda ichki nazorat tizimi*

Taftish komissiyasi milliy amaliyotda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga bo‘ysunadi, xalqaro amaliyotda esa “direktorlar kengashiga bo‘ysungan holda ushbu holat yuzasidan maslahatlar berib boradi”⁴¹. Dastlabki vaqtlarda korporativ boshqaruv kodeksi asosida komplaensning tashkil etilishi ixtiyoriy bo‘lgan⁴². “Ichki audit xizmatining vazifasi kompaniyada risklarni boshqarish hamda ichki nazorat tizimining samarali amalga oshirilayotgan-

⁴¹ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 359.

⁴² Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 142.

ligini mustaqil baholashdan iborat”⁴³. Quyida taftish komissiyasi, ichki audit xizmati va komplaens tizimi faoliyat mexanizmi xususida to‘xtalib o‘tamiz.

6.2. Taftish komissiyasi faoliyat mexanizmi⁴⁴

Bizga ma’lumki, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv va ichki nazorat tizimida taftish komissiyasi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida taftish komissiyasi faoliyati xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Aksiyadorlik jamiyatlarida O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, aksiyadorlik jamiyati Ustavi asosida “Taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqiladi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi. “Taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizomda Taftish komissiyasining maqomi, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibi belgilab qo‘yiladi. Taftish komissiyasi aksiyadorlik jamiyatining nazorat organi hisoblanib, moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunda Taftish komissiyasi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga hisobdorligi sababli Kuzatuv kengashi va ijroiya organi uning faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari va aksiyadorlarni moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot bilan ta’minlash, aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar kiritish hamda amalga oshirilgan tekshiruvlar asosida faoliyatni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish Taftish komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Taftish komissiyasi quyidagilarni amalga oshirishga vakolatli hisoblanadi:

- aksiyadorlik jamiyatining bir yillik faoliyati yakunlari bo‘yicha kompaniyaning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishni amalga oshiradi;

- Taftish komissiyasining o‘z tashabbusiga, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qaroriga ko‘ra, yoki ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo‘li

⁴³ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 374.

⁴⁴ Мазкур параграф “Ўздонмахсулот” акциядорлик компаниясининг “Тафтиш комиссияси тўғрисида”ги Низоми асосида тайёрланди.

bilan boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni amalga oshiradi;

- bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra hisobot va xulosa tuzadi;

- moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha amalga oshirilgan tekshirish natijalarini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi e'tiboriga yetkazadi;

- aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida kompaniyada affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlarni, shuningdek qonun hujjatlarining va kompaniya ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishini o'rganib chiqadi;

- aksiyadorlik jamiyatida affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi to'g'risida har chorakda xulosa tuzadi;

- aksiyadorlik jamiyatida affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va kompaniya ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi;

- hisobot yili davomida aksiyadorlik jamiyatida affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek, qonun hujjatlarining va kompaniya ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishiga olib chiqadi.

Aksiyadorlik jamiyatining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish to'g'risidagi talab tekshirish o'tkazishni talab qilish huquqiga ega shaxslar tomonidan taftish komissiyasi rasi nomiga yuboriladi. Moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bo'yicha tashabbus ko'rsatuvchilar istalgan vaqtda taftish komissiyasi tomonidan tekshirish o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar Taftish komissiyasini yozma ravishda xabardor qilgan holda, o'z talablarini qaytarib olishga haqli.

Taftish komissiyasi moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish davomida tekshirish predmetiga doir barcha mavjud hujjat va materiallarni o'rganib chiqishi shart. Bunda tekshirish yakunlariga ko'ra kompaniyaning taftish komissiyasi hisobot va xulosa tuzadi, unda aksiyadorlik jamiyati hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy

hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risidagi axborot ko‘rsatilishi shart.

Taftish komissiyasi Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan kechikmasdan kuzatuv kengashiga yillik moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan xulosa taqdim etadi.

Taftish komissiyasi taftish komissiyasining, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining va kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra, yoki aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra o‘tkazilgan kompaniyaning boshqa davr ichidagi moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlari bo‘yicha xulosani Kuzatuv kengashiga xulosa tasdiqlangandan keyin bir ish kunidan kechikmasdan taqdim etadi.

Taftish komissiyasining son tarkibi aksiyadorlik jamiyati Ustavi bilan belgilanadi va 3 (uch) kishidan iborat bo‘ladi. Taftish komissiyasi a‘zolari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan 1 (bir) yil muddatga saylanadi. Taftish komissiyasining a‘zolari o‘z majburiyatlarini tegishli tarzda bajarmasligi hollarida ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) moliya yili tugaganidan keyin o‘ttiz kundan kechiktirmay, aksiyadorlik jamiyati taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli. Aksiyadorlar (aksiyador) taftish komissiyasiga o‘zlari ko‘rsatgan nomzodlar ro‘yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabar e‘lon qilingan sanadan e‘tiboran uch ish kunidan kechikmasdan o‘zgartishlar kiritishga haqli.

Belgilangan muddatlarda aksiyadorlar tomonidan taftish komissiyasi a‘zoriga nomzodlar ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritilmagan holatlarda kuzatuv kengashi taftish komissiyasiga saylash uchun mustaqil ravishda nomzodlar ro‘yxatini belgilashi mumkin.

Ayni bir shaxs taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas. Taftish komissiyasining a‘zolari bir vaqtning o‘zida kuzatuv kengashining a‘zosi bo‘lishi, shuningdek ayni shu aksiyadorlik jamiyatida mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlashi mumkin emas. Shuningdek, taftish komissiyasining a‘zolari sanoq komissiyasining a‘zosi bo‘lishi ham ta‘qiqlanadi. Taftish komissiyasi tarkibiga qoidaga

binoan aksiyadorlari (aksiyadorlar - jismoniy shaxslar, aksiyadorlar - yuridik shaxslarning vakolatli mansabdor shaxslari) saylanadi. Shu bilan birga Taftish komissiyasi tarkibiga aksiyador bo'lmagan, biroq moliya va iqtisodiyot sohasida kasbiy ish tajribasiga ega shaxslar saylanishi mumkin.

“Buxgalteriya hisobi va hisoboti”, “Audit”, “Moliya” yoki boshqa iqtisodiy mutaxassisliklar bo'yicha oliy yoki o'rta ma'lumot; buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki boshqa iqtisodiy sohalarda kamida 3 yillik ish tajribasiga ega bo'lish Taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari hisoblanadi.

Taftish komissiyasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan o'z tarkibidan taftish komissiyasi raisini saylaydi. Taftish komissiyasi raisi o'z faoliyati davomida quyidagilarni amalga oshiradi:

- Taftish komissiyasining ishini tashkil qiladi;
- Taftish komissiyasi majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;
- Taftish komissiyasi majlislari bayonnomasini, kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra hisobot va xulosalarni, kompaniyada affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar, yoki yirik bitimlar mavjudligi to'g'risidagi xulosalarni va boshqa hujjatlarni imzolaydi;

- Taftish komissiyasi nomidan Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida va aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ishtirok etadi;

- amaldagi qonun hujjatlarida, aksiyadorlik jamiyati Ustavida, tegishli Nizomda va boshqa ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Taftish komissiyasi istalgan vaqtda taftish komissiyasi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan o'z Raisini qayta saylashga haqli. Taftish komissiyasi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini taftish komissiyasining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

Taftish komissiyasi majlisi bir yilda kamida ikki marta, kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishdan oldin va tekshirishdan keyin, shuningdek boshqa zarur hollarda istalgan vaqtda o'tkaziladi. Taftish komissiyasining majlislari amaldagi qonun hujjatlariga, aksiyadorlik jamiyati Ustaviga va tegishli nizomga muvofiq Taftish komissiyasi raisi tomonidan mustaqil ravishda, Taftish komissiyasi a'zolarining, yoki moliya-xo'jalik faoliyatini navbatdan tashqari tekshirishni talab qilish huquqiga ega shaxslarning talablariga ko'ra chaqiriladi. Taftish komissiyasining majlislari komissiya a'zolarining bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Kompaniya taftish komissiyasining majlisini o'tkazish uchun taftish komis-

siyasining kamida ikki a'zosi hozir bo'lishi zarur. Taftish komissiyasining tarkibida bir kishi qolgan taqdirda, taftish komissiyasining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirishi shart. Masalalar hal etilayotganda, taftish komissiyasining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Taftish komissiyasining qarorlari (shu jumladan, moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalariga ko'ra xulosani tasdiqlash masalasi bo'yicha qaror) Taftish komissiyasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Taftish komissiyasining qarori taftish komissiyasining majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda ishtirok etgan taftish komissiyasi a'zolarining ro'yxati;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari (majlisda ishtirok etgan har bir taftish komissiyasi a'zosining ovoz berish natijasini ko'rsatgan holda);
- qabul qilingan qarorlar.

Bayonnomaga Taftish komissiyasi tomonidan tayyorlangan xulosalar, hisobotlar va boshqa materiallar ilova qilinadi. Taftish komissiyasining a'zosi taftish komissiyasining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda o'zining alohida fikrini majlis bayonnomasiga kiritishni va kompaniyani boshqarish organlari va (yoki) aksiyadorlari e'tiboriga yetkazishni talab qilishga haqli. Taftish komissiyasining majlis bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan taftish komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

Majlis bayonnomalari, taftish komissiyasining hisobotlari, xulosalari va taftish komissiyasining majlis bayonnomasiga ilova qilinadigan boshqa materiallari kuzatuv kengashiga taqdim etiladi. Majlis bayonnomalari, taftish komissiyasining hisobotlari, xulosalari va taftish komissiyasining majlis bayonnomasiga ilova qilinadigan boshqa materiallar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanadi.

Taftish komissiyasining a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- boshqaruv a'zolaridan kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;
- aksiyadorlik jamiyati tomonidan affillangan shaxslar bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin amalga oshirilgan bitimni o'rganish natijalari bo'yicha bayonnomalarni aksiyadorlik jamiyati boshqaruvidan talab qilish;

- aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin amalga oshirilgan yirik bitim bo'yicha hujjatlarni boshqaruvdan talab qilish;

- Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolaridan, aksiyadorlik jamiyatining boshqa mansabdor shaxslari va xodimlaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyati masalalari bo'yicha og'zaki va yozma tushuntirishlarni talab qilish;

- Kuzatuv kengashi majlislarini chaqirishni talab qilish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilish.

Taftish komissiyasining a'zolari majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'z majburiyatlarini halol bajarish;

- aksiyadorlik jamiyati va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab ish tutish;

- moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni tegishli tarzda amalga oshirish;

- moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha hisobot va xulosalarni o'z vaqtida tayyorlash;

- boshqaruv a'zolaridan moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taqdim qilishni yozma shaklda so'rash;

- boshqaruv a'zolaridan affillangan shaxslar bilan bitimlari va yirik bitimlarini o'rganish bayonnomalarini taqdim qilishni yozma shaklda so'rash;

- amaldagi qonunchilikka rioya qilish;

- kompaniya faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik.

Taftish komissiyasining a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Taftish komissiyasining a'zolari aksiyadorlik jamiyatlari va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari zarur. Taftish komissiyasining a'zolari o'z majburiyatlarini tegishli tarzda bajarmaganliklari uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Taftish komissiyasining a'zolariga aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'zni qoplanishi mumkin. Taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va to'lovlarning miqdorlari kuzatuv kengashi tavsiyasiga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

6.3. Ichki audit xizmati faoliyat mexanizmi⁴⁵

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatida ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Ichki audit aksiyadorlik jamiyatlari ijroiya organi va tarkibiy bo‘linmalari, vakolatxona va filiallari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta‘sis hujjatlariga va ichki me‘yoriy hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo‘li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma‘lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to‘liqliligi va ishonchligini ta‘minlash, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda aksiyadorlik jamiyatini boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etish bo‘yicha ichki audit xizmati faoliyatini nazarda tutadi. O‘z navbatida ichki audit xizmati aksiyadorlik jamiyatlari Kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladi va ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo‘linma hisoblanadi.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta‘minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo‘yicha faoliyatni takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

- ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- har yili Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha har chorakda tegishli tekshirishlar o‘tkazish yo‘li bilan ichki auditni amalga oshirish;

- tuziladigan xo‘jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o‘tkazish;

- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda O‘zRVBning tarkibiy bo‘linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;

⁴⁵ Mazkur paraqraf Ўзбекистон Республикаси валюта биржасининг “Ички аудит хизмати тўғрисида”ги Низоми асосида тайёрланди.

- texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda Kuzatuv kengashiga ko'maklashish.

Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga ega:

- ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha aksiyadorlik jamiyatining hujjatlarini (rahbar buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), mansabdor va mas'ul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

- ichki auditni o'tkazishga ko'maklashish uchun tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Ichki audit xizmati majburiyatlari quyidagilar:

- ichki auditni amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlari va tegishli Nizom talablariga rioya qilish;

- belgilangan talablarga muvofiq ichki audit hisobotlarini tuzish;

- moliya va statistika hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish;

- ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya qilish;

- mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar tomonidan zarar yetkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol Kuzatuv kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

- aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va aksiyadorlik jamiyati ta'sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ichki audit xizmati xodimlari oxirgi o'n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ish stajiga ega bo'lishi va quyidagi talablardan bittasiga javob berishi kerak:

- ichki auditor sertifikatiga ega bo'lish;

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat ta'lim muassasasida olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lish.

Ichki audit xizmati xodimida tegishli ichki auditor sertifikati bo'lishi shart. Ichki audit xizmati xodimlarining soni ikki nafar ichki auditoridan iborat etib belgilanadi. Ichki audit xizmati xodimlariga ish haqi aksiyadorlik jamiyati shtat jadvaliga asosan belgilanadi. Ichki audit xizmati xodimining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak. Ichki audit xizmati xodimi Kuzatuv kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o'tkazilishi kerak. Ichki audit xizmati xodimi Kuzatuv kengashining qarori bo'yicha lavozimga tayinlanadi va egallab turgan lavozimidan ozod etiladi. Bundan o'z-o'zidan ichki audit xizmatining Kuzatuv kengashiga bevosita bo'ysunishini ko'rishimiz mumkin.

Ichki audit xizmati tasdiqlangan biznes-rejaning bajarilishini, korporativ boshqaruv prinsiplariga rioya qilinishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning holatini, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini, aktivlarning holatini, ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki auditdan o'tkazadi. Kuzatuv kengashi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari ham belgilanishi mumkin.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha ichki audit xizmati xodimi tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi. Unda:

a) biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- uning bajarilishining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlili;

- uning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko'rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni;

b) korporativ boshqaruv prinsiplariga rioya qilishni tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, uning qatnashchilari (aksiyadorlar)ning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;

- korporativ boshqaruv sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (ta'sis hujjatlariga rioya qilish, umumiy yig'ilishlar va boshqaruv organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi va hokazolar);

v) O'zRVBning buxgalteriya hisobi va moliya hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

- aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi;

g) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to'lovlar hisob-kitobi to'g'riligini baholash;

- soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish;

- moliya-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

- ichki audit davomida aniqlangan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligini bayon qilish;

d) ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;

- tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda Ijroiya organi va tarkibiy bo'linmalari, vakolatxona va filiallari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha ichki audit xizmati xodimi tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi. Yig'ma hisobot tahliliy qismni, yakuniy qismni va tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak. Yig'ma hisobotning tahliliy qismi ichki audit xizmati xodimi tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umum-

lashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak. Hisobotning yakuniy qismi esa Ijroiya organi, tarkibiy bo'linmalari, vakolatxona va filiallari faoliyatiga, shuningdek aksiyadorlik jamiyatining likvidligiga umumiy bahoni; aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatining tavsiyalarini hamda moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga, korporativ boshqaruvni takomillashtirishga doir umumlashtirilgan takliflarni o'z ichiga olishi kerak. Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin 10 kun mobaynida tugallanishi zarur. Yig'ma hisobotlar bevosita Kuzatuv kengashiga uning ko'rib chiqish va tasdiqlashi uchun taqdim etiladi. Hisobotlar nusxalari tasdiqlangandan keyin ijro etuvchi organiga taqdim etilishi kerak. Ijro etuvchi organi ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishi shart.

Ichki audit xizmati tekshirish davomida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek umuman aksiyadorlik jamiyatining moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va zarur darajada bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi kerak.

Ichki audit xizmati quydagilar bo'yicha javobgar hisoblanadi:

- o'tkazilgan tekshirishlar natijalari buzib ko'rsatilganligi;
- taqdim etilgan yoki xizmat vazifalarining bajarilishi munosabati bilan ma'lum bo'lgan aksiyadorlik jamiyatining sirini tashkil etadigan axborotning maxfiyligiga rioya qilinmaganligi;
- olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishi ta'minlanishi.

Ichki audit xizmati auditorlik tekshirishlari davomida aniqlangan qonunni buzishlarni bartaraf etish va moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarga baho berilishi uchun javob beradi. Kuzatuv kengashi har chorakda ichki audit xizmatining tekshirishlar natijalari to'g'risidagi hisobotini eshitadi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida direktorlar kengashi ichki audit xizmatidan quyidagi funksiyalarni bajarishni talab qiladi⁴⁶:

- biznes jarayoni va birlashgan nazorat tizimining davomli tahlilini yuritish;
- nazorat tizimlarining ko'lami va samaradorligini baholash;
- boshqaruv va moliyaviy faoliyatning ustidan doimiy nazoratni olib borish;


⁴⁶ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 375

- korporativ missiya, siyosat va vazifalardagi yutuqlarni baholash;
- resurslardan samaraliroq foydalanish yo‘llarini aniqlash;
- kompaniya aktivlarining qiymati va mavjudligini tasdiqlash;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar yoki tovlamachiliklarga qarshi maxsus tekshirishlarni o‘tkazish;
- bitimlar va ularning ijrosini tahlil qilish;
- bitimlar bo‘yicha muammolarni aniqlash;
- tashkilot qiymati va ish yuritish yoki etika kodekslari tahlilini o‘tkazish;

6.4. Korporativ boshqaruvda komplaens tizimi

Komplaens kompaniya rahbariyati va xodimlari xatti-harakatlarining tashqi va ichki qonunchilikka zidligi haqida ogohlantirishga hamda qonunchilikka asoslangan korporativ biznes-etikani joriy etishga yo‘naltirilgan tashabbuslari kompleksi hisoblanadi⁴⁷. Komplaens kompaniya nufuzini oshirib borish maqsadida korporativ munosabatlarning qonunchilik talablari va etika me‘yorlariga mosligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan risklarni boshqarish jarayoni sifatida ham tavsiflanadi⁴⁸.

Komplaens quyidagi printsiplar asosida faoliyat yuritadi (6.2-rasm):




6.2-rasm. *Komplaens prinsiplari*

⁴⁷ <https://blog.calltouch.ru/chto-takoe-komplaens>

⁴⁸ Буянский С.Г., Грунцевский Ю.В. Корпоративное управление, комплаенс и риск-менеджмент. – Москва, 2020. – 342 с.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korporativ boshqaruvda komplaens tizimining eng asosiy printsiplari umummajburiyatlar asosida mustaqillik, rasmiy statusga ega bo'lish va korporativ tuzilmada korruptsiyaga yo'l qo'ymaslikdir. Mazkur printsiplar asosida korporativ boshqaruvda komplaens tizimi asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (6.3-rasm):



6.3-rasm. **Komplaens tizimi faoliyat yo'nalishlari**

Yuqoridagi rasmdan ayon bo'lmoqdaki, korporativ boshqaruvda komplaens tizimi xodimlar bilan ishlash, hamkorlar bilan ishlash, buxgalteriya hisobi va nazorat, risklarni aniqlash va baholash, korrupsiyon harakatlar oldini olish yo'nalishlari bo'yicha ish olib boradi. Bunda o'z-o'zidan xodimlarni boshqarish, marketing, ichki audit, risk menejment kabi bo'limlar funksiyasini takrorlash kuzatilmaydimi, degan savol tug'iladi. Bunda shuni qayd etish kerakki, bu borada alohida bo'g'inlar faoliyat yuritilganida, komplaens tizimi aynan korrupsiyon harakatlar va huquqbuzarliklarning oldini olishga, professional kadrlarni jalb qilishga intilishi bilan ulardan farqlanadi. Jumladan komplaens tizimi orqali xodimlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratilishiga guvoh bo'lish mumkin:

- anketa-so'rovnoma o'tkazish va ma'lumotlarni tekshirish orqali korporativ tuzilma biznes nufuzi va muhitiga mosligini aniqlash;
- biografik ma'lumotlarni tekshirish va shu orqali tavsif shakllantirish;
- sudlanganlik va qamoqqa olinganlik holatlarini aniqlash. Bunda moliyaviy firibgarlik va jinsiy zo'ravonlik holatlari bo'yicha sudlanganlik holatlari aniqlansa bunday shaxsni ishga jalb qilishdan zudlik bilan voz kechish yoki ehtiyotsizligi tufayli sudlangan, lekin yaxshi mutaxassis ekanligi aniqlanadigan bo'lsa uning malakasi va tajribasidan samarali foydalanish;
- kredit tarixini o'rganish va shu orqali moliyaviy intizomga rioya qilishini baholash.

Nazorat tizimi sifatida komplaens asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni amalga oshirishi lozim⁴⁹:

birinchidan, aktsiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan yuridik xatarlarni aniqlashi va kelib chiqishini nazorat qilishni ta'minlashi;

ikkinchidan, rahbarlar va xodimlar tomonidan kompaniyaning turli qoidalari, standartlari va etika normalariga amal qilinmasligi oqibatida kompaniya o'z reputatsiyasini yo'qotishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirishi;

uchinchidan, kompaniyaning joriy faoliyatida uni tartibga solishdagi mavjud qoidalar va normalarning bajarilish nazoratini amalga oshiruvchilar, ya'ni mavjud nazorat organlari (ichki korporativ nazorat xizmati va b.) o'rtasidagi integratsiyasini optimallashtirishni amalga oshirishi;

to'rtinchidan, kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlash maqsadida, boshqa kompaniyalar bilan o'zaro aloqa va hamkorlikni rivojlantirishi;

beshinchidan, kompaniya faoliyatining hamma yo'nalishlari bo'yicha xatarlarni tartibga solish bo'yicha ularning kelib chiqishi va bu xatarlarni kamaytirish yo'nalishida takliflar ishlab chiqish va ushbu takliflarni tegishli boshqaruv organlariga taqdim qilishi;

oltinchidan, kompaniya boshqaruvi, uning xodimlari va stejxolderlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar berishi;

ettinchidan, kompaniyaning faoliyatidan manfaatdor bo'lgan stejxolderlarning murojaatlari, arizalarini o'rganish, bu ko'rsatkichning dinamikasini tahlil qilish va stejxolderlarning huquqlariga muvofiqligini ham tahlil qilishi;

sakkizinchidan, kompaniyada va uning mijozlari o'rtasidagi turli munosabatlarda poraxo'rlik, rahbarlarni sotib olish va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish va bu jarayonlarni nazorat qilib, tegishli natijalari bo'yicha boshqaruv organlariga xisobot berishni tashkil qilish;

to'qizinchidan, kompaniyaning korporativ ichki hujjatlarni ishlab chiqishda, shuningdek qoidalar, kodekslar, korporativ ish yuritish qoidalari va kasbiy etika normalariga rioya qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtirishda qatnashish kabi vazifalardir.

⁴⁹ Суюнов Д.Х. Акциядорлик жамиятларини ривожлантиришга замонавий назорат тизимини жорий қилиш йўллари. // Халқаро молия ва ҳисоб. 2020, №3.

Xalqaro amaliyotda korporativ boshqaruvda komplaens tizimi joriy etilishi ikkita modelga asoslanadi (-jadval):

1-jadval

Komplaens nazorat tizimini joriy etish modellari

Faqatgina ichki qonun va qoidalarga muvofiq amal qiluvchi model	Xalqaro tashkilotlar (Bazel qo‘mitasi, Xalqaro komplaens assotsiatsiyasi) tavsiyalariga asoslanuvchi model
Komplaens nazorat tizimini o‘zida tashkil etayotgan kompaniya yoki tashkilot mavjud qonunlik me‘yorlari yoki o‘zi ishlab chiqqan ichki qoidalar bilan tartibga solinadi va joriy etishning minimal talablari bilan cheklanadi.	Nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro standartlar va tashkilotlarning tavsiyalari asosida joriy etiladi. Ushbu shaklda ichki qonunchilik normalarida ko‘zda tutilmagan korrupsiya xavflariga faoliyat mos keladigan qo‘shimcha profilaktik qoidalarni joriy etish mumkin
Xalqaro darajada taqqoslanganda nomuvofiqliklar kuzatiladi	Samaradorligi yuqori va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to‘g‘ri keladi

Xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida komplaens tizimining korporativ tuzilmalarda yo‘lga qo‘yilishi xalqaro hamkorlik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda antikorrupsion komplaens masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Jumladan Buyuk Britaniyada 1 milliard funt sterling kapitalga ega bo‘lgan 800 dan ortiq korporatsiya va banklarda antikorrupsion komplaens tashkil etilgan. Frantsiyada 800 000 evrodan oshiq kapitalga ega bo‘lgan barcha korporatsiya va banklar antikorrupsion komplaens nazorat tizimlarini joriy etgan bo‘lishlari shart.

Amerika qo‘shma shtatlari, Sloveniya kabi davlatlarda komplaens nazorat tizimi alohida qonun hujjati bilan tartibga solinadi. AQShda “Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Akt” (Foreign Corrupt Practices Act, 1977), “Sarbeynz-Oksli Akti” (Sarbanes-Oxley Act, 2002), “Dodd-Frank Akti” (Dodd -Frank Act, 2010) nomli qonun hujjatlarida AQSh bozorida ishtirok etuvchi har qanday kompaniyalarning o‘z tarkibida komplaens nazorat tizimini tashkil etishni majburiy qoida sifatida belgilagan. Sloveniyada esa 2014 yilning 26 aprelida qabul qilingan “Cloveniya davlat xoldinggi akti to‘g‘risida”gi (Slovenian sovereign

holding Act, 2014) Qonunda komplaens nazorat tizimining maqomi va vakolatlari belgilangan. Ayni vaqtda bu borada mamlakatimizda alohida qonunchilik mavjud emas.

Rossiya Federatsiyasidagi MTS ochiq aktsiyadorlik jamiyati komplaens tizimi faoliyatida ikkita jihatga e'tibor qaratilayotganligiga guvoh bo'lish mumkin (2-jadval).

2-jadval

MTS OAJ komplaens tizimi faoliyati

Davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarda	OAJ ichki muhitida
Antikorrupsion qonunchilikka rioya qilish	Maxfiylik va tijorat sirini ta'minlash
Antimonopol va raqobat qonunchiligiga rioya qilish	Kompaniya mulkini himoya qilish va undan samarali foydalanish
Biznes shaffofligi va axborot oshkoraligi (moliyaviy hisobotlar)ni ta'minlash	Kompaniya mulkidan noqonuniy foydalanishning oldini olish

MTS OAJda komplaens tizimida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlar nuqtai nazaridan antimonopol va raqobat qonunchiligiga rioya qilish ham nazorat qilib boriladi. Ichki muhitda esa kompaniya mulkidan noqonuniy foydalanishning oldini olish komplaens tizimining faoliyat yo'nalishi sifatida belgilangan.

Mamlakatimizdagi korporativ tuzilmalarda ham oxirgi yillarda komplaens tizimini joriy etish orqali faoliyatda qonuniylikni ta'minlash va samaradorlikni oshirishga e'tibor qaratila boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldagi PF-6019 sonli "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2021 yil 1 yanvardan boshlab tajriba (sinov) tariqasida monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etiladigan davlat ishtirokidagi korxonalar ro'yxati tasdiqlandi. Ular quyidagilar:

1. «Uzbekistan Airways» aktsiyadorlik jamiyati;
2. «Kvarts» aktsiyadorlik jamiyati;
3. «Asaka» aktsiyadorlik tijorat banki;
4. «UzAuto motors» aktsiyadorlik jamiyati;
5. «O'ztransgaz» aktsiyadorlik jamiyati;
6. «Navoiyazot» aktsiyadorlik jamiyati;

7. «Issiqlik elektr stantsiyalari» aksiyadorlik jamiyati;
8. «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati;
9. «Qizilqumtsement» aksiyadorlik jamiyati.

Ularda faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash, ularning buzilishi xavflarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimi (monopoliyaga qarshi komplaens) joriy etiladi. Umuman, 2024 yilga borib Monopol korxonalarining kamida 80 foizida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy qilish belgilangan. Bunda antimonopol komplaens antimonopol huquqbuzarliklar bilan bog‘liq salbiy oqibatlar (risklar)ni bartaraf etish bo‘yicha tashkilot faoliyati va ichki tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi PF-6096 sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga 2021 yil 1 iyulga qadar xaridlar va boshqaruv tizimlarini auditdan o‘tkazish hamda «muvofiqlik tizimi» (komplaens) va korrupsiyaga qarshi xizmatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etish masalasi qo‘yilganligi ham antikorrupsion komplaens xizmati rivojlanishiga xizmat qiladi.

2020 yilda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatida Moliyaviy va komplaens nazorat departamenti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mazkur departamentda faoliyat yurituvchi komplaens inspektori lavozim majburiyatlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- tizim korxonalarida komplaens sohasida qabul qilingan va amaldagi me‘yoriy hujjatlarning ijrosini monitoring qilish;
- korrupsiya xatari yuqori holatlarni aniqlash, baholash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- korrupsiyaga karshi davlat dasturlari bo‘yicha jamiyatga yuklatilgan vazifalar bajarilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish;
- bitimlarni tahlil qilish, ushbu bitimlar komplaens sohasi va boshqa qonun hujjatlarga mosligini o‘rganish;
- moliyaviy va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish va tizimli monitoring o‘tkazish;
- jamiyat xodimlarining korporativ odob-ahloq kodeksiga amal qilishi, xizmat tadbirlari, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish yuzasidan amaliy ishlar olib borish;
- jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan xaridlar va boshqa faoliyatni qonunchilikka mosligini monitoring qilish;

– faoliyatga tegishli boshqa masalalar.

AMALIYOT DARSLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ boshqaruvda ichki nazorat tizimining amal qilishi bo'yicha obyektiv zarurat.
2. Ichki nazorat tizimi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.
3. Ichki audit xizmati xodimlariga qo'yiladigan talablar.
4. Ichki audit xizmatining faoliyat yo'nalishlari.
5. Taftish komissiyasi faoliyatini tartibga solish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar.
6. Taftish komissiyasi faoliyati mexanizmi.
7. Taftish komissiyasi va ichki audit xizmati faoliyatidagi o'zaro bog'liq va farqli jihatlar.
8. Taftish komissiyasining hisobot berish tartibi.
9. Ichki audit xizmatining hisobot berish tartibi.

Testlar

- 1. "Ichki nazorat to'g'risida"gi nizam kim tomonidan tasdiqlanadi?**
 - a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
 - b) kuzatuv kengashi;
 - c) ijroiya organi;
 - d) Davlat raqobat qo'mitasi.
- 2. Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari kiritish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?**
 - a) "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizam yoki ustavda;
 - b) "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizamda;
 - c) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda;
 - d) "Raqobat to'g'risida"gi qonunda.
- 3. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning va ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismlari qaysi javobda berilgan?**
 - a) ichki audit xizmati va taftish komissiyasi;

- b) kuzatuv kengashi va ijroiya organi;
- c) buxgalteriya bo‘limi va marketing xizmati;
- d) minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi va yurist-maslahatchi.

4. Ichki audit xizmati qaysi boshqaruv organiga hisobdor hisoblanadi?

- a) kuzatuv kengashiga;
- b) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga;
- c) ijroiya organiga;
- d) taftish komissiyasiga.

5. Taftish komissiyasi qaysi boshqaruv organiga hisobdor hisoblanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga;
- b) kuzatuv kengashiga;
- c) ijroiya organiga;
- d) taftish komissiyasiga.

6. “Taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- b) kuzatuv kengashi raisi;
- c) ijroiya organi rahbari;
- d) taftish komissiyasi raisi.

7. Aksiyadorlik jamiyatining qaysi nazorat organi moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirgan holda bevosita aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga hisobdor hisoblanadi?

- a) taftish komissiyasi;
- b) ichki audit xizmati;
- c) kuzatuv kengashi huzuridagi nazorat qo‘mitasi;
- d) tashqi auditorlik tashkiloti.

8. Bevosita kuzatuv kengashiga hisobdor hamda AJ ijroiya organi va tarkibiy bo‘linmalari, vakolatxona va filiallari tomonidan qonunchilik va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish, ular ishini nazorat qilish va baholash, ma’lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy

hisobotda aks ettirilishining to‘liqliligi va ishonchliligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan ichki nazorat bo‘g‘ini qanday nomlanadi?

- a) ichki audit xizmati;
- b) taftish komissiyasi;
- c) tashqi audit xizmati;
- d) kuzatuv kengashi huzuridagi nazorat qo‘mitasi.

9. Barcha aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini tashkil etish majburiymi?

- a) yo‘q, faqat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan AJlarida majburiy;
- b) ha, majburiy;
- c) ha, majburiy, istisno holatlarda MChJlarda ham majburiy;
- d) ichki audit xizmati faqat ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi.

10. Belgilangan muddatlarda aksiyadorlar tomonidan taftish komissiyasi a‘zoligiga nomzodlar ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritilmagan holatlarda taftish komissiyasiga saylash uchun mustaqil ravishda nomzodlar ro‘yxatini belgilash kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) kuzatuv kengashi;
- b) taftish komissiyasi raisi;
- c) ijroiya organi;
- d) kuzatuv kengashi huzuridagi nazorat qo‘mitasi.

11. Taftish komissiyasining xulosalari kim tomonidan ma’qullanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) ijroiya organi rahbari;
- d) taftish komissiyasi raisi.

12. Ichki audit xizmati hisoboti kim tomonidan ma’qullanadi?

- a) kuzatuv kengashi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- c) ijroiya organi rahbari;
- d) taftish komissiyasi raisi.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Taftish komissiyasi va ichki audit xizmati faoliyatidagi farqli jihatlar bo‘yicha quyidagi jadvalni shakllantiring.

Taftish komissiyasi	Ichki audit xizmati
1.	1.
2.	2.
.....

2. Taftish komissiyasi va ichki audit xizmati hisobotini shakllantirish bo‘yicha quyidagi jadvalni shakllantiring.

Taftish komissiyasi	Ichki audit xizmati
1.	1.
2.	2.
.....

VII bob. KORPORATIV NIZOLAR VA ULAR OLDINI OLISH

7.1. Korporativ nizolar, ularning yuzaga kelish sabablari va tasniflanishi

Milliy va xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, korporativ munosabatlar-da nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi ko'p kuzatiladigan holatlardan biridir. Shu boisdan korporativ boshqaruv ishtirokchilarining korporativ nizolar mohiyati, yuzaga kelish sabablari va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlar, bunday vaziyatlarning oldini olish bo'yicha ichki va tashqi imkoniyatlar, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari kabilar-ni bilishlari va amalda qo'llay olishlari shart hisoblanadi. Bunda manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish masalasi birinchi navbatdagi masala hisolanadi. Keltirilayotgan jihatlarni chuqurroq o'rganish maqsadida quyida korporativ nizolarning mohiyati, yuzaga kelish sabablari va oqibatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Korporativ munosabatlar subyektlari o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligi korporativ nizolarning asosi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va korporativ boshqaruv amaliyotiga doir masalalar bo'yicha jarayon ishtirokchilari o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilmasligi natijasida yuzaga keladigan nizolar korporativ nizolarni anglatadi. Bunda korporativ munosabatlar ishtirokchilari korporativ nizolarning subyektlari sifatida namoyon bo'lsa, tomonlarning manfaatlar korporativ nizolarning obyekt sifatida ko'zga tashlanadi.

Korporativ tuzilmalarda korporativ munosabatlar subyektlari o'rtasi-dagi ziddiyatlar quyidagi oqibatlardan biri natijasida yuzaga kelishi mum-kin:

- aksiyador yoki aksiyadorlar guruhi huquqlari, aksiyadorlik jamiyati ustavi yoki boshqa ichki hujjatlar, umumiy olganda amaldagi qonunchilik me'yorlari buzilishi;
- korporativ tuzilmalarda axborot yopiqligi;
- foydani taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar va aksiyadorlar noroziligi;
- qabul qilingan qarorlar mohiyati asosida aksiyadorlik jamiyatiga, uning boshqaruv organlariga nisbatan da'volar qo'zg'atilishi;
- boshqaruv organlari vakolatlarining muddatidan oldin tugatilishi;
- ijroiya organi a'zolari bilan mehnat shartnomasining muddatidan oldin bekor qilinishi;

- aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyati bo'yicha nazoratni qo'lga olishga intilishi;
- aksiyadorlar tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar (g'arazli aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga kirib kelishi);
- korporativ shantaj (greenmail).

Shuningdek, yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda boshqaruvchilarni javobgarlikka tortish bo'yicha samarali mexanizmlarning mavjud emasligi, korporativ tuzilma faoliyati ustidan ichki nazoratning sustligi, korporativ tortishuvlarga nisbatan sud amaliyotining sustligi kabilar ham korporativ nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan korporativ nizolarning yuzaga kelish sabablarining har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

Korporativ tuzilmalar axborot yopiqligi masalasi mamlakatimizda muntazam ravishda kuzatilib kelinayotgan holat hisoblanadi. Bu holat ma'lum darajada ma'muriy bosimning saqlanib qolinayotganligi, korporativ birlashmalar (xoldinglar) faoliyati keng yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi. Shu o'rinda axborot shaffofligi va axborotlarni oshkor qilishning xavfliligi o'rtasida qarama-qarshilik mavjudligini ham alohida qayd etish zarur. Axborotlar shaffofligi insayderlik ma'lumotlaridan foydalanishni to'xtatib qo'yish orqali korporativ nizolarning oldini olish vositasi sifatida xizmat qiladi. Axborotlarni oshkor qilishning xavfliligi esa g'arazli qo'shib olishlarga hamda ma'lum bir tomonlarning ma'muriy bosimini kuchayishiga olib keluvchi omil sifatida ham qaralishi bilan izohlanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlaridagi axborot yopiqligi korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish bilan birga tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday holatda investorlarning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy barqarorligi, bozordagi nufuzi, to'lovga qobiliyatligini baholash birmuncha murakkab kechadi va ma'lum darajada yuqori risk mavjud, deya qaraladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda qayd etish kerakki, axborot yopiqligi korporativ munosabatlar alohida ishtirokchilari tomonidan ko'rilgan foydani o'zlashtirish maqsadida insayderlik (ichki) ma'lumotlardan foydalanilishiga olib keladi. Bu jihat o'z navbatida korporativ nizolarga sabab bo'ladi. Aynan shuning uchun ham axborot yopiqligining oldini olish insayderlik ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruvdagi jiddiy muammolardan biri boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxslarga nisbatan real yuridik javobgarlikning

mavjud emasligidir. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 81-moddasida kuzatuv kengashi a‘zolarining, jamiyat direktorining, boshqaruv a‘zolarining, ishonchli boshqaruvchining javobgarligi belgilangan. Unga ko‘ra, kuzatuv kengashining a‘zolari, jamiyat direktori va boshqaruv a‘zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi lozim. Agar bir nechta shaxs javobgar bo‘lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo‘ladi. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a‘zolari, boshqaruv a‘zolari javobgar bo‘lmaydi. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘vo bilan jamiyatning kuzatuv kengashi a‘zosi, direktori yoki boshqaruv a‘zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida top-menejerlarga nisbatan ham javobgarlik choralari qat’i belgilab qo‘yilganligi asosida mamlakatimizda ham bunday amaliyotga o‘tish ahamiyatga ega.


Ichki nazorat tizimida ichki audit xizmati va taftish komissiyasining samarali faoliyat yuritishi aksiyadorlar uchun muhim sanaladi. Lekin bunda ichki nazorat tizimining mustaqilligini ta’minlash muhim sanaladi. Aks holda ichki nazoratning zaifligi kuzatuv kengashi va boshqaruv a‘lozarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzaga kelishiga va korporativ nizolarga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida ham ichki audit xizmati va taftish komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish nuqtayi nazaridan tegishli me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Korporativ tortishuvlarga nisbatan sud nazoratining yetarli darajada ixtisoslashmaganligi ham korporativ nizolarga sabab bo‘lmoqda. Korporativ nizolarga doir muammolarni to‘liq hal qilish uchun korporativ tortishuvlarning alohida jihatlarini chuqur o‘rgangan holda samarali sud tizimi amal qilishini ta’minlash muhim. Mamlakatimizda bu boradagi masalalarni hal qilish maqsadida 2006-yil 16-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlilik sudlari to‘g‘risida”gi Qonuni ham qabul qilingan va hakamlilik (arbitraj) sudlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Aksiyadorga aylangach ijro organi, kuzatuv kengashi, yirik aksiyadorlarga “hujum”ga o‘tadi va ular faoliyatiga halaqit bera boshlaydi hamda

nizoli vaziyatni sun'iy ravishda yuzaga keltiradi. Muntazam ravishda korporativ boshqaruv ish faoliyatiga va kompaniya ichki ishlariga aralashaverish natijasida, oxiri investordan maqsadi soʻraladi. Uning maqsadi esa egaligidagi aksiyasini bir necha baravar yuqori narxda sotish ekanligi ayon boʻladi. Yirik aksiyador esa oxir-oqibat aksiyalarni bozor bahosidan ancha yuqori narxda sotib olishga majbur boʻladi.

Umuman korporativ nizolarni quyidagi mezonlar boʻyicha tasniflash mumkin (-rasm).



Korporativ nizolar tasniflash mezonlari

Korporativ nizolarni turli yondashuvlar asosida quyidagi mezonlar boʻyicha tasniflash mumkin (7.1-jadval):

7.1-jadval

Korporativ nizolarning tasniflanishi

№	Tasniflash belgisi	Korporativ nizolar turlari
1.	Korporativ nizolar qamroviga koʻra	Ichki korporativ nizolar
		Tashqi korporativ nizolar
2.	Ichki korporativ nizolar ishtirokchilariga koʻra	Turli aksiyadorlar guruhlarini oʻrtasidagi nizolar
		Aksiyadorlar va boshqaruvchilar oʻrtasidagi nizolar
		Boshqaruvchilar va mehnat jamoasi oʻrtasidagi nizolar
		Bankrotlik jarayonining turli bosqichlarida ishonchli tashqi boshqaruvchilar va aksiyadorlar oʻrtasidagi nizolar
3.	Tashqi korporativ nizolar	Davlat nazorat organlari va aksiyadorlik jamiyati oʻrtasidagi nizolar
		Nodoʻstona qoʻshib olishlar natijasidagi nizolar


	ishtirokchilariga ko'ra	Kapital bozorining faol ishtirokchisi sifatida davlat va korporativ tuzilma o'rtasidagi nizolar
		Vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan boshqaruv organlari a'zolari va aksiyadorlar o'rtasidagi nizolar
		Korporativ tuzilma joylashgan aholi punkti yashovchilari va korporativ tuzilma ma'muriyati o'rtasidagi nizolar
		Jamoat tashkilotlari va korporativ tuzilma o'rtasidagi nizolar
4.	Korporativ nizolar predmetlariga ko'ra	Korporativ tuzilma ustidan nazorat o'rnatish bilan bog'liq nizolar
		Korxonada asosiy aktivlariga mulkchilik huquqini sotib olishga urinish oqibatidagi nizolar
		Tovarlarni, xizmatlarni, texnologiyalarni va g'oyalarni bozoriga egalik qilish bilan bog'liq nizolar
		Ko'plab aksiyadorlar ishtirokida boshqaruv texnologiyalarini o'zgartirish
		Daromadlarni yashirin tarzda taqsimlash natijasidagi nizolar
		Ustav kapitalidagi ulushini oshirish bilan bog'liq nizolar
		Boshqaruv apparatida o'z mavqeyini mustahkamlashga urinish natijasidagi nizolar

Ichki korporativ nizolar korporativ munosabatlar ishtirokchilari, ya'ni korporativ tuzilmaning aksiyadorlari, bosh-qaruv organlari, menejerlari o'rtasidagi nizolarni anglatadi va mantiqan korporativ tuzilma miqyosida yuzaga keladi.

Tashqi korporativ nizolar esa davlat, potentsial investorlar, boshqaruv organlari va boshqalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni qamrab oladi.

Ichki korporativ nizolarni ishtirokchilariga ko'ra ham guruhlash mumkin. Bunda aksiyadorlar guruhlari o'rtasida, masalan majoritar va minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi nizolarni alohida ko'rsatish mumkin. Aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolarda bosh direktor va nazorat paketiga ega bo'lmagan aksiyadorlar o'rtasidagi nizolar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bunday nizolar ko'proq majoritar aksiyadorlar mavjud bo'lmagan aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatiladi. Boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolarda asosan ish berish va mehnat shartnomasini bekor qilish bilan bog'liq munosabatlar natijasidagi nizolarni ko'rish mumkin.

Bankrotlik jarayonining turli bosqichlarida ishonchli tashqi boshqaruvchilar va aksiyadorlar o'rtasidagi nizolar asosan aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan bankrotlik taomili qo'llanilganda hamda korxonani qayt tarkiblash yoki tugatish bilan bog'liq munosabatlarda yuzaga keladi.




7.2-rasm. Korporativ nizolar ishtirokchilar maqsadlari⁵⁰

Tashqi korporativ nizolarda aksiyadorlik jamiyati hamda tashqi subyektlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarga guvoh bo'lish mumkin. Bunda

⁵⁰ Данельян А.А. Корпорация и корпоративные конфликты. Монография. – Москва, 2007. – С. 109. (192 с.)


davlat nazorat organlari va aksiyadorlik jamiyati o‘rtasidagi nizolarda davlat organlari tomonidan ma’lum shartlar qo‘yilishi natijasidagi nizolar ham ajratib ko‘rsatiladi. Nodostona qo‘shib olishlar natijasida potentsial investorga muntazam ravishda qarshiliklar ko‘rsatish, nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish holatlari xalqaro amaliyotda tashqi korporativ nizolarda eng ko‘p uchraydigan holatlardan biridir. Kapital bozorining faol ishtirokchisi sifatida davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatining nazorat paketini qo‘lga olishi o‘z-o‘zidan majoritar aksiyadorlar bilan nizolar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan boshqaruv organlari a‘zolari va aksiyadorlar o‘rtasidagi nizolar esa amalda eng ko‘p uchraydigan korporativ nizolardan biridir. Amalda korporativ tuzilmalar o‘z joylashgan aholi punktida yirik ish beruvchi va yirik soliq to‘lovchi hisoblanadi. Bunday holatda aholi vakillari ish o‘rniga ega bo‘lish maqsadida, mahalliy hokimiyat organlari esa o‘z funksiyalarini moliyaviy ta‘minlash maqsadida korporativ tuzilmalar bilan munosabatlarga kirishadi. Natijada korporativ tuzilma ma‘muriyati bilan mahalliy hokimiyat organlari va aholi punkti vakillari o‘rtasida nizoli vaziyatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshiruvchi jamoat tashkilotlari tomonidan korporativ tuzilmalarga a‘zolikni taklif qilishlari mumkin. A‘zo bo‘lib kirilgandan so‘ng esa ma‘lum bir ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish maqsadida korporativ tuzilmalardan mablag‘ jalb qilishga intilishi tabiiy hol hisoblanadi. Aynan shunday sharoitda jamoat tashkilotlari va korporativ tuzilmalar o‘rtasida nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin

O‘z navbatida korporativ shantajda ma‘lum bir g‘araz niyatli investor aniq maqsad qilib olingan kompaniya kichik sondagi aksiyasini xarid qiladi va bu aksiya unga yashil yo‘lak vazifasida xizmat qiladi (7.3-rasm).



7.3-rasm. *Korporativ shantaj (greenmail) amaliyoti*

O‘z navbatida korporativ nizolarni hal qilish usullari quyidagilar (7.4-rasm).



7.4-rasm. *Korporativ nizolarni hal qilish usullari*

Korporativ nizolar murosasiz holatda tashqi hal qilish, kelishuv asosida esa ichki tartibda hal qilish qo‘llaniladi.

7.2. **Manfaatlar to‘qnashuvini samarali boshqarish prinsiplari**

Aksiyadorlik jamiyati faoliyati davomida uning mulkiy, yoki boshqa manfaatlari hamda kreditorlar va boshqa mijozlarining mulkiy, yoki boshqa manfaatlari o‘rtasida Boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, nazorat vazifasi yuklatilgan mas’ul xodimlarning harakati yoki harakatsizligi natijasida kompaniyaning aksiyadorlari manfaatiga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan manfaatlar qarama-qarshiligi vujudga kelishi mumkin.

Bundan tashqari, aksiyadorlar hamda Boshqaruv organlari va nazorat vazifasi yuklatilgan xodimlari o‘rtasida, kompaniyaning aksiyadorlari o‘rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi, ya’ni korporativ manfaatlarning qarama-qarshiligi vujudga kelishi mumkin.

Manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog‘liq vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish va nizoli vaziyatlarni bartaraf etish uchun AJ o‘z ichiga quyidagilarni oluvchi “Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni ishlab chiqadi:

- AJ mansabdor shaxslarining AJ manfaatini ko‘zlab faoliyat yuritish majburiyati;

- AJ mansabdor shaxslari tomonidan harakat va bitim amalga oshirilganda yoki ular tomonidan axborot oshkor qilinganda manfaatlar qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;

- AJ mansabdor shaxslarining kuzatuv kengashini manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishi to'g'risida xabardor qilish majburiyati;

- Kuzatuv kengashining ruxsatisiz AJ mansabdor shaxslarining boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida ishtirok etishini ta'qiqlash;

- AJ mansabdor shaxslari tomonidan harakat va bitim amalga oshirilganda yoki ular tomonidan axborot oshkor qilinganda manfaatlar qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish;

- manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog'liq nizoli vaziyatlarni hal etishning, shu jumladan, ularni hal etish uchun manfaatdor bo'lmagan uchinchi shaxsni tayinlash yoki manfaatlar qarama-qarshiligini hal qilish bo'yicha vakolatni kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi (a'zolari)ga yuklashning batafsil reglamenti.

Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizom aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Nizomda manfaatlar qarama-qarshiligi vujudga kelishining quyidagi holatlari ko'rib chiqiladi:

- majoritar va minoritar aksiyadorlar o'rtasida vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligi;

- boshqaruv organlari va aksiyadorlar o'rtasida vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligi;

- boshqaruv organlari hamda nazorat vazifasi yuklatilgan tarkibiy tuzilmalar, mansabdor shaxslar, xodimlar va mijozlar o'rtasida vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligi;

- kompaniya boshqaruvi hamda mansabdor shaxslar, xodimlar tomonidan ularga yuklatilgan xizmat vazifasini bajarish vaqtida vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligi.

Manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- manfaatlar qarama-qarshiligi kelib chiqishi mumkin bo'lgan va kelib chiqqan holatlarni oshkor qilishning majburiyligi;

- manfaatlar qarama-qarshiligini aniqlash va boshqarishda har bir holatga individual yondashish va kompaniya uchun ishchanlik qobiliyati (reputatsiya) tavakkalchiligini baholash;

- manfaatlar qarama-qarshiligini aniqlash va boshqarishda axborotning oshkor qilish jarayonini qat'iy maxfiylikni ta'minlash;
- manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarishda kompaniyaning boshqaruv va nazorat organlari, uning xodimlari hamda kompaniya manfaatlari o'rtasida mutanosiblikni saqlash;
- manfaatlar qarama-qarshiligini holati bo'yicha axborotni o'z vaqtida oshkor qilgan xodimlar, boshqaruv va nazorat organlariga tazyiq o'tkazilishidan himoya qilish.

7.3. Manfaatlar qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish

Har qanday turdagi manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilish uchun kompaniyaning Boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari quyidagilarni amalga oshirishlari shart:

- qonunchilik, me'yoriy hujjatlar, kompaniya ustavi va ichki hujjatlari talablariga amal qilish;
- kompaniyaning daromadlilikini strategik va biznes-rejada belgilangan ko'rsatkichlarga yetkazilishini ta'minlash;
- manfaatlar qarama-qarshiligini keltirib chiqaruvchi qarorlar va harakatlardan cheklanish;
- kompaniyaning samarali boshqarilishini ta'minlash;
- kompaniyaning jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish kabi noqonuniy faoliyatga kirib qolishining oldini olish;
- kompaniya faoliyati uchun asosiy daromad manbalari bo'lgan faoliyatning maksimal daromadlilikka yetkazilishini ta'minlash;
- qonunchilik talablariga asosan har chorakda kompaniya kuzatuv kengashiga hisobotlar berish;
- kompaniya ustavi va ichki hujjatlariga muvofiq ichki nazoratni joriy qilish;
- qonunchilikda belgilangan yirik bitimlar, alohida yoki o'zaro bog'liq bo'lgan birgalikdagi summasi belgilangan miqdordan oshuvchi bitimlarni vakolatidan kelib chiqib kompaniya kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori asosida amalga oshirish;
- nazorat organlari tomonidan barcha yirik va affillangan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlarni doimiy o'rganib borilishini ta'minlash va nazorat qilish;

- qonunchilikda belgilangan hollarda va zaruriyat tugʻilganda kompaniya kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar qabul qilishda aktivlarning bahosini aniqlash uchun mustaqil ekspertlarni jalb qilish;
 - affillangan shaxslar hisobini yuritish;
 - kompaniyaning vakolatli organining oldindan roziligisiz affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzmaslik;
 - yuqori organ ruxsatisiz boshqa tashkilotlar boshqaruv va nazorat organlariga kirmaslik (aʼzo boʻlmaslik);
 - kompaniyaning axborot siyosati va qonunchilik talablariga muvofiq kompaniya faoliyati toʻgʻrisidagi axborotlarni oʻz vaqtida va toʻliq oshkor qilinishini taʼminlash;
 - aksiyadorlarga, nazorat qiluvchi organlarga, kreditorlarga, boshqa manfaatdor taraflarga hamda reklama maqsadida taqdim qilinadigan moliyaviy va boshqa hisobotlarning haqqoniyligini taʼminlash;
 - kompaniyaning xodimlari va mansabdor shaxslari tomonidan ularning xizmat vazifasini bajarishda maʼlum boʻlgan kompaniya toʻgʻrisidagi axborotlarni oʻz shaxsiy maqsadlari uchun foydalanmasligini taʼminlash;
 - ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot tarqatish vositalaridagi kompaniya toʻgʻrisidagi salbiy axborotlarning haqqoniyligi va toʻgʻri yondashilganligini nazorat qilib borish. Tarqatiladigan har bir salbiy va notoʻgʻri axborotlarni oʻrganib borish va ularni bartaraf qilish choralarini koʻrish;
 - kompaniya ichki nazorat tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish;
 - boshqaruv organlari va nazorat organlari aʼzolariga toʻlanadigan mukofotlarning adekvatligini taʼminlash, ularning miqdorini erishilgan yutuqlar natijasiga mutanosibligini taʼminlash;
 - professional va korporativ etika tamoyillarini taʼminlash.
- Kompaniyaning Boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslar, xodimlar va mijozlar oʻrtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish va uni boshqarish maqsadida quyidagilar ham amalga oshirilishi shart:
- Oʻzbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni, normativ hujjatlar, kompaniya ustavi va ichki hujjatlari talablariga muvofiq minoritar va majoritar aksiyadorlar huquqlarini taʼminlash;
 - qonunchilik talablariga muvofiq oshkor qilinishi lozim boʻlgan axborotni oʻz vaqtida aksiyadorlarga yetkazilishini taʼminlash;

-hisoblangan dividendlarni o'z muddatida to'lanishini ta'minlash;
-aksiyadorlarga qarama-qarshiliklarni tug'dirishi mumkin bo'lgan savollar bo'yicha asosli axborotlarni taqdim qilish;

-raqobatchi tashkilotlar aksiyalarini sotib olish bo'yicha bitimlar tuzishda hamda boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlariga ishtirok etish uchun kompaniyaning boshqaruv organlari qiziqishi bo'lgan operatsiyalarni aniqlash;

-kompaniya kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning obyektiv, betaraf va jamiyat rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning tarkibiga mustaqil nomzodlarni kiritishga intilish.

Kompaniyaning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlar hamda mijozlar o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish va uni boshqarish maqsadida kompaniyaning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

-belgilangan tartibda kompaniya to'g'risidagi axborotlarni berib borish;

-tijorat siri va qonunchilik talablari asosida oshkor qilinmasligi belgilab qo'yilgan axborotlardan foydalanishda ularning sirligini ta'minlash;

-xizmat ko'rsatishda oshkor qilingan tariflar bo'yicha va shartnomada kelishilgan summada to'lovlarni undirilishini ta'minlash;

-kompaniya ishchanlik obro'yiga salbiy ta'sir qiluvchi taraflar bilan ishlamaslik;

-o'z mijozlariga xizmat ko'rsatishda professional va vijdonan yondashish;

-xodimlar va mijozlar tomonidan oshkora xatoliklarga (shu jumladan shartnoma imzolashda, talabnoma berishda) yo'l qo'yilganda bu xatodan o'z maqsadi yo'lga foydalanmaslik va bu xatoni to'g'rilashga amaliy yordam berish;

-shartnoma asosida taraflarga xizmat ko'rsatish davomida tavsiyalar berishda bu boradagi mavjud axborotlarni vijdonan tahlil qilgan holda tavsiyalar berish;

-kompaniyaning faoliyati davomida yig'ilgan hamda xizmat yoki tijorat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar va tajribalar yig'ilgan qog'oz, magnit tasma, elektron yoki boshqa vositalardagi axborotlar tegishli boshqaruv organi ruxsatisiz nusxa olish, sotish, birovga berish, almashtirish va boshqa shu kabi tarqatilishini oldini olish tizimini takomillashtirish.

Mansabdor shaxslar va xodimlar tomonidan o‘z xizmat vazifasini ijro etishda kompaniya hamda ular o‘rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish maqsadida ular quyidagilarni amalga oshirishlari shart:

-biznes etikasi normalari va professional etika tamoyillariga rioya etish;

- shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

- kompaniya bilan raqobatdosh tashkilotlar aksiyalarini sotib olish yoki ustav kapitaliga ishtirok etishda yuqori boshqaruv va nazorat organini bildirgan holda bu kabi operatsiyalarni amalga oshirish;

- manfaatlar qarama-qarshiligini keltirib chiqaruvchi holatlarni vujudga kelishidan oldin yuqori boshqaruv organini bu to‘g‘rida o‘z vaqtida ogohlantirish;

- kompaniya bilan tijorat operatsiyalari olib borayotgan yoki olib borishi rejalashtirilgan mansabdor shaxs, yoki uning oila a‘zolarining moliyaviy qiziqishi mavjud bo‘lgan, yoki affillangan tashkilotlar to‘g‘risida yuqori mansabdor shaxsga yozma bildirish;

- kompaniya hamda mansabdor shaxs yoki uning oila a‘zolarining moliyaviy qiziqishi mavjud bo‘lgan yoki affillangan tashkilot munosabatlariga bevosita ta’sir qiluvchi har qanday harakatlar qilishdan cheklanish;

- kompaniya manfaatlari bilan manfaatlari qarama-qarshi bo‘lgan har qanday tashkilotning boshqaruv organi tarkibiga kirishidan oldin kompaniya kuzatuv kengashi roziligini olish;

- boshqa tashkilotlarga o‘rindoshlik asosida ishlash xohishi va bu ish kompaniyaning manfaatlariga zid emasligi to‘g‘risida yuqori mansabdor shaxsni ogohlantirish.

7.4. Manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish va bartaraf qilish

Kompaniyada vujudga kelgan manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish va bartaraf etish uchun kompaniyaning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari kompaniyaning manfaatlariga mos keladigan sudga murojaat qilishgacha bo‘lgan qonuniy va asoslangan yechim qidiradi.

Kompaniya Boshqaruvi raisi aksiyadorlar va boshqalar tomonidan boshqaruv va nazorat organlari, korporativ kotib va barcha tarkibiy bo‘lin-

malarga kelib tushadigan yozma va ogʻzaki talabnoma, xat va arizalarning hisobini yuritilishi hamda oʻz vaqtida koʻrib chiqilishini taʼminlashi lozim.

Korporativ qarama-qarshiliklarning hisobini yuritish vazifasi kompaniyaning aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi mutaxassisiga yuklatiladi. Bu mutaxassis korporativ qarama-qarshilikka oldindan baho berib, masalaning mohiyatidan kelib chiqib unga oydinlik kirituvchi hujjatlarni tayyorlaydi va kompaniya kuzatuv kengashi roziligi bilan ushbu masalani yechish vakolati mavjud tarkibiy tuzilmaga taqdim etadi.

Kompaniyaning korporativ mutaxassisi tez-tez takrorlanib turuvchi masalalarni tahlil qiladi, tahlil natijalari boʻyicha qarama-qarshilikka kirishgan barcha taraflarga qoʻshimcha axborot berish, yoki bermaslik toʻgʻrisida qaror qabul qiladi yoki kompaniya kuzatuv kengashi raisiga bu kabi manfaatlar qarama-qarshiligining kelib chiqishiga sabab boʻlayotgan ichki tartib va qoidalarni oʻzgartirish, qarama-qarshilikni kelib chiqishini bartaraf qiluvchi boshqa takliflarni beradi.

Taraflar yoki boshqa manbalardan qarama-qarshilik holati boʻyicha axborotga ega boʻlgan xodim zudlik bilan bu toʻgʻrida mansab lavozimi boʻyicha oʻzidan yuqori xodimni ogohlantirishi shart. Agar qarama-qarshilikni tarkibiy tuzilma miqyosida yechish imkoniyati boʻlmasa tarkibiy tuzilma rahbari bir ish kuni ichida kompaniya Boshqaruvi raisi, yoki uning oʻrinbosarini qarama-qarshilik, uning kelib chiqishiga sababchi boʻlgan omillar hamda uni bartaraf qilish uchun koʻrilgan choralar toʻgʻrisida ogohlantirishi shart. Kompaniya Boshqaruvi raisi, yoki uning oʻrinbosari manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilish usulini belgilaydi va masʼul shaxs belgilaydi. Zarur hollarda esa qarama-qarshilikni bartaraf qilish uchun komissiya tuzilishi mumkin.

Manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilish uchun belgilangan masʼul xodim, yoki komissiya qarama-qarshilikni bartaraf qilishning barcha choralarni koʻradi. Agar uni bartaraf qilish imkoniyati boʻlmasa, kompaniya Boshqaruvi raisi ushbu masalani Boshqaruv yigʻilishi muhokamasiga kiritadi va kompaniya kuzatuv kengashiga toʻliq axborot taqdim qiladi.

Boshqaruv tomonidan manfaatlar qarama-qarshiligi boʻyicha taqdim qilingan axborot kompaniya kuzatuv kengashi tomonidan manfaatlar qarama-qarshiligining kompaniya faoliyatidagi taʼsiri, uning hajmi va boshqa shu kabi koʻrsatkichlaridan kelib chiqib uning navbatdagi yigʻilishi muhokamasiga kiritadi, yoki ushbu masalani zudlik bilan hal qilish maqsadida navbatdan tashqari yigʻilish chaqirishi mumkin.

Kompaniya Boshqaruvi raisi, yoki uning o‘rinbosari manfaatlariga ta’sir qiluvchi yoki ta’sir qilgan har qanday manfaatlar qarama-qarshiligi to‘g‘risidagi axborot 3 ish kuni muddatda kompaniya kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilishi va uning bartaraf qilish uchun qabul qilingan qaror ijrosini ta’minlash va nazorat qilish uchun aniq shaxslar belgilanishi lozim.

Vujudga kelgan manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish va bartaraf qilishda kompaniyaning qabul qilingan ichki hujjatlariga o‘zgartirish kiritish, yoki yangi tartib qabul qilinishi lozim bo‘lsa kompaniya kuzatuv kengashi, yoki Boshqaruvi o‘z vakolat doiralaridan kelib chiqib tegishli qaror qabul qilishlari lozim.

Kompaniyaning boshqaruv organlari vujudga keladigan har qanday manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilish uchun quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

- vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligini imkon qadar tez aniqlashi va uning vujudga kelish sabablarini o‘rganishi;

- kompaniyaning boshqaruv organlari vakolatlari va javobgarligini aniq chegaralashlari;

- manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilish bo‘yicha mas’ul xodimni belgilashi, lozim hollarda esa komissiya tuzishlari;

- imkon qadar tezkorlik bilan manfaatlar qarama-qarshiligi bo‘yicha kompaniyaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning qarashlarini aniqlash, kompaniya manfaatlarining himoyasi bo‘yicha qarorlar qabul qilish va qarama-qarshilikdan manfaatdor taraflarga yetkazish;

- manfaati kompaniya manfaati bilan qarama-qarshi kelgan tarafga kompaniyaning asoslangan nuqtayi-nazari aks ettirilgan to‘liq va asoslangan javob berish, manfaati qarama-qarshi tomonga ularning talablarini ijro etilmasligi bo‘yicha qonunchilik, normativ hujjatlar, kompaniya ustavi, yoki ichki hujjatlar talablaridan kelib chiqib, ularga asosan javob berish;

- manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilishga ishtirok etuvchi mas’ul shaxslar ularning yoki ularning oila a’zolarining manfaatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan yoki keltirib chiqaradigan holatlar bo‘yicha zudlik bilan ma’lum qilish;

- manfaatdor shaxslarni manfaatlar qarama-qarshiligi holatlarini boshqarish va bartaraf qilish jarayoniga ishtirok etmasligini ta’minlash.

Aksiyadorlar, kompaniya boshqaruvi organlari va aksiyadorlar o‘rtasida vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligini tartibga solish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

-kompaniya aksiyadorlari o'rtasida vujudga keladigan manfaatlar qarama-qarshiligini tartibga solishda kompaniya kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining vositachi sifatida ishtirok etishi;

-mas'ul xodim manfaatlari zid kelgan aksiyadorlar o'rtasida ziddiyatga tegishli o'zida mavjud axborotlarni taqdim qilgan, yoki qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablarini tushuntirgan holda muzokaralarga vositachi sifatida jalb qilinishi mumkin;

-kompaniyaning vakolatli organlari, yoki vakolatli shaxslari aksiyadorlarga manfaatlar qarama-qarshiligi holati bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar berishi, vaziyatni bartaraf qilish bo'yicha aksiyadorlarga imzolatish uchun hujjatlar loyahasini tayyorlashlari, o'z vakolat doiralaridan chiqib ketmagan holda kompaniya nomidan aksiyadorlar oldiga majburiyat olishlari mumkin;

-kompaniyaning boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida ziddiyatlarni bartaraf qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni ijro etishlari hamda bu qarorlarni boshqa taraflar tomonidan ijro etilishiga amaliy yordam ko'rsatishlari lozim. Agar kompaniya va ziddiyatli vaziyat taraflari o'rtasida ularning majburiyatlari bo'yicha munozarali vaziyat bo'lmasdan, qabul qilingan qarorni ijro muddati va boshqa shartlari bo'yicha turli qarashlar bo'lsa, kompaniya ziddiyatli vaziyatni tartibga solishni davom ettirishi va manfaatlari qarama-qarshi aksiyadorlar talabini qondirish shartlarini ma'lum qilishi lozim;

-agar kompaniya tomonidan manfaatdor aksiyadorni talabini qondirish uchun kompaniyaning ichki hujjati, ustavi yoki qonunchilik talabiga muvofiq mazkur aksiyadordan qandaydir harakatlarni amalga oshirilishi talab qilinsa, aksiyador talabiga berilgan javobda ushbu shartlarni aniq ko'rsatib berishi lozim (bunda ma'lum bir ishlarni amalga oshirish uchun to'lovlar, aksiyadordan ma'lum bir hujjatlarni taqdim qilish va boshqa shu kabilar nazarda tutilgan).

Manfaatlar qarama-qarshiligini tartibga solish va boshqarishning yuqorida qayd etilgan uslublari chegara bo'lmasdan, har bir holat mohiyatidan kelib chiqib, ziddiyatni bartaraf qilishning boshqa maqbul usullari ham qo'llanilishi mumkin.

AMALIYOT DARSINI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ nizolarning turlari, ularning yuzaga kelish sabablariga izoh bering.
2. Manfaatlar to'qnashuvini ichki hujjatlar bilan tartibga solish mexanizmlari.
3. Manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga keladigan guruhlar.
4. Manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish prinsiplari.
5. Manfaatlar qarama-qarshiligining kelib chiqish sabablari.
6. Manfaatlar qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish.
7. Manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish va bartaraf qilish.
8. Kompaniyaning minoritar va majoritar aksiyadorlari, Boshqaruv organlari va aksiyadorlar o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari.
9. Kompaniyaning Boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslar, xodimlar va mijozlar o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari.
10. Kompaniya hamda mansabdor shaxslar, xodimlar o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari.

Testlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va korporativ boshqaruv amaliyotiga doir masalalar bo'yicha jarayon ishtirokchilari o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilmasligi natijasida yuzaga keladigan holat qanday nomlanadi?

- a) korporativ nizolar;
- b) korporativ munozaralar;
- c) korporativ anglashilmovchilik;
- d) korporativ fikrlar qarama-qarshiligi.

2. Korporativ nizolarning obyekt va subyektlari to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- a) tomonlarning manfaatlari va korporativ munosabatlar ishtirokchilari;
- b) aksiya kursidagi o'zgarishlar va baholovchi tashkilotlar;
- c) qaror qabul qilishdagi xatoliklar va aksiyadorlar;
- d) munosabatlar ishtirokchilari va foydani taqsimlash masalasi.

3. Qaysi javobda korporativ munosabatlar subyektlari o'rtasidagi ziddiyatlar sabablari keltirilgan?

a) amaldagi qonunchilik me'yorlari buzilishi, korporativ tuzilmalarda axborot yopiqligi, foydani taqsimlash bilan bog'liq holda aksiyadorlar noroziligi;

b) boshqaruv organlari vakolatlarining uzaytirilishi, ichki nazoratning yo'lga qo'yilishi;

c) raqobatchi kompaniyaning faoliyati tugatilishi, xorijda vakolatxona va filiallar ochilishi;

d) minoritar aksiyadorlarning o'z ulushlarini ixtiyoriy sotishlari, dividend miqdorining o'sib borishi.

4. Korporativ nizolarning qamroviga ko'ra turlari to'g'ri berilgan javobni belgilang.

a) ichki va tashqi korporativ nizolar;

b) turli aksiyadorlar guruhlarini o'rtasidagi nizolar;

c) aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar;

d) boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolar.

5. Tashqi korporativ nizolarning ishtirokchilariga ko'ra turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

a) davlat nazorat organlari va aksiyadorlik jamiyati o'rtasidagi nizolar, nodo'stona qo'shib olishlar natijasidagi nizolar, kapital bozorining faol ishtirokchisi sifatida davlat va korporativ tuzilma o'rtasidagi nizolar;

b) turli aksiyadorlar guruhlarini o'rtasidagi nizolar, aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar;

c) ichki va tashqi korporativ nizolar;

d) aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar, boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolar.

6. Korporativ nizolarning predmetlariga ko'ra turlari qaysi javobda berilgan?

a) korporativ tuzilma ustidan nazorat o'rnatish bilan bog'liq nizolar, daromadlarni yashirin tarzda taqsimlash natijasidagi nizolar, ustav kapitalidagi ulushini oshirish bilan bog'liq nizolar;

b) turli aksiyadorlar guruhlarini o'rtasidagi nizolar, aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar;

c) aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar, boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolar;

d) ichki va tashqi korporativ nizolar.

7. Korporativ munosabatlar ishtirokchilari, ya'ni korporativ tuzilmaning aksiyadorlari, boshqaruv organlari, menejerlari o'rtasidagi nizolar qanday nizolar hisoblanadi?

- a) ichki korporativ nizolar
- b) tashqi korporativ nizolar;
- c) aralash korporativ nizolar;
- d) manffatli korporativ bahslar.

8. Aksiyadorlar jamiyatlarida korporativ nizolarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tasdiqlanadigan nizom nomini belgilang.

- a) "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizom
- b) "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom;
- c) "Axborot siyosati to'g'risida"gi nizom;
- d) "Dividend siyosati to'g'risida"gi nizom.

9. Har qanday turdagi manfaatlar qarama-qarshiligini bar-taraf qilish uchun boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari nimalarni amalga oshirishlari shart?

- a) qonunchilik va ichki hujjatlari talablariga amal qilish, daromadlilikni va axborotlar ochiqligini ta'minlash;
- b) barcha axborotlarni oshkor qilish, daromadlarni muntazam reinvestitsiya qilish, ishchi-xodimlarni kuzatuv kengashiga jalb qilish;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishchi-xodimlar ishtirokini ta'minlash, qo'shib oluvchilar bilan muzokaralar o'tkazish;
- d) korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilishining oldini olish, ishchi-xodimlarni kuzatuv kengashiga jalb qilish.

10. Kompaniyaning ijroiya organi va kuzatuv kengashi o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi bosh sababini ko'rsating.

- a) ijroiya organi a'zolarini mukofotlash darajasining pastligi yoki mavjud emasligi, mehnat shartnomasining muddatidan oldin bekor qilinishi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilish vakolatlarining ijroiya organiga yuklatilishi;
- c) ijroiya organi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi;
- d) kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi.

11. Kompaniyaning va aksiyadorlar o'rtasida manfaatlar-ning qarama-qarshiligi kelib chiqishi bosh sababini ko'rsating.

- a) muntazam ravishda dividend to'lanmasligi;
- b) ijroiya organi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi;
- c) kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi.
- d) oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarning keskin yuqoriligi.

12. "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) ijroiya organi;
- d) Davlat raqobat qo'mitasi.

Qo'shimcha topshiriqlar

1. Kompaniyaning minoritar va majoritar aksiyadorlari manfaatlarining qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari, ularning oldini olish yo'llari va bartaraf etish imkoniyatlari bo'yicha jadvalni to'ldiring.

Kelib chiqish sabablari	Oldini olish yo'llari	Bartaraf etish imkoniyatlari
1.	1.	
2.	2.	
...	...	

2. Kompaniyaning va aksiyadorlar o'rtasida manfaatlarining qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari, ularning oldini olish yo'llari va bartaraf etish imkoniyatlari bo'yicha jadvalni to'ldiring.

Kelib chiqish sabablari	Oldini olish yo'llari	Bartaraf etish imkoniyatlari
1.	1.	
2.	2.	
...	...	

3. Kompaniyaning Boshqaruv va nazorat organlari o'rtasida manfaatlarining qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari, ularning oldini olish yo'llari va bartaraf etish imkoniyatlari bo'yicha jadvalni to'ldiring.

Kelib chiqish sabablari	Oldini olish yo‘llari	Bartaraf etish imkoniyatlari
1.	1.	
2.	2.	
...	...	

4. Kompaniyaning mansabdor shaxslari, xodimlari va mijozlar o‘rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari, ularning oldini olish yo‘llari va bartaraf etish imkoniyatlari bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

Kelib chiqish sabablari	Oldini olish yo‘llari	Bartaraf etish imkoniyatlari
1.	1.	
2.	2.	
...	...	

5. Kompaniya hamda mansabdor shaxslar, xodimlar o‘rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi sabablari, ularning oldini olish yo‘llari va bartaraf etish imkoniyatlari bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

Kelib chiqish sabablari	Oldini olish yo‘llari	Bartaraf etish imkoniyatlari
1.	1.	
2.	2.	
...	...	

VIII bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA AXBOROTLAR OSHKORALIGI

8.1. Korporativ boshqaruvda hisobdorlik, axborotlarni oshkor etish va shaffoflikni ta'minlashning tashkiliy xususiyatlari

Hisobdorlik, axborotlarni oshkor etish va shaffoflik korporativ boshqaruvning eng asosiy prinsiplari hisoblanadi. Mazkur prinsiplarga yuqori darajada amal qilinishi, avvalo aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarining ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda bu prinsiplarning mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Hisobdorlik prinsipi korporativ boshqaruvning ijroiya va nazorat organlarining belgilangan tartibda hisobot berib borishlarini nazarda tutadi.

Amaldagi qonunchilikda aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyat direktori va boshqaruv a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilab qo'yilgan. Agarda masala bo'yicha bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik asosida tashkil etilishi ham nazarda tutilgan.

Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi. Shu o'rinda affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni o'rganishni amalga oshirgan shaxslar bitim bo'yicha xulosa va yakunlarning ishonchliligi uchun javobgar ekanligini alohida qayd etib o'tish zarur.

Kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, direktori yoki boshqaruv a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

Keltirilayotgan jihatlar boshqaruv organlarining javobgarligi va hisobdorligini nazarda tutadi. Ulardan tashqari nazorat organlarining ham hisobdorligi belgilanganligini qayd etib o'tishimiz zarur.

Aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Jamiyatning ustavida jamiyat kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini

bajaruvchi jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimini joriy etish nazarda tutilishi mumkin. Korporativ maslahatchining faoliyati jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

Bizga ma'lumki, axborotlarni oshkor qilish maqsadidan qat'i nazar manfaatdor shaxslarning korporativ tuzilma faoliyati bilan bog'liq axborotlarni erkin olish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi. Shu boisdan moliyaviy qarorlar qabul qilish, turli xil diskriminatsiyalarning oldini olish va axborot olish bo'yicha nomutanosiblikni bartaraf etish uchun korporativ boshqaruvda axborotlarni oshkor qilish talab qilinadi. Natijada investorlar, shu jumladan potentsial investorlar, xodimlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor shaxslarning oshkor qilingan axborotlar bilan tanishish imkoniyatlari yuzaga keladi. Ular olingan axborotlar asosida emitent moliyaviy holatini tahlil qilishlari, faoliyat istiqbollari kelib chiqqan holda emitent faoliyati, jumladan qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq qarorlar qabul qilishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv prinsiplariga ko'ra "Korporativ boshqaruv infratuzilmasi korporatsiya faoliyatiga daxldor barcha muhim masalalar, jumladan mulkchilik va kompaniya boshqaruvi, faoliyat natijalari, moliyaviy holat bo'yicha axborotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor qilinishini ta'minlashi shart"⁵¹.

Axborotlarni oshkor qilish bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunlar, "Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom, "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari"da belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan qonunchilik hujjatlari asosida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan axborotlar bilan ishlashni tashkil etish, ularni oshkor qilish tartibini belgilash maqsadida "Axborot siyosati to'g'risida"gi Nizomni ishlab chiqishi va ichki foydalanish maqsadida joriy etilishi mumkin.

Axborotlar siyosatining asosiy maqsadi – aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarning kompaniya va uning faoliyati to'g'risidagi

⁵¹ G20/OECD Principles of Corporate Governance. OECD 2015. <https://www.oecd.org/daf/-ca/Corporate-Governance-Principles-ENG.pdf>

ishonchli ma'lumotlarga bo'lgan talabini qondirish orqali kompaniya faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kompaniyaning axborotlar siyosatining asosiy tamoyillarini belgilash;

- barcha manfaatdor shaxslarga kompaniya to'g'risida ishonchli va haqqoniy axborotlarni o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

- barcha manfaatdor shaxslarga kompaniya to'g'risida axborot taqdim etish qoida va tartiblarini belgilash;

- kompaniya axborotlarining xavfsizligini ta'minlash;

- kompaniya axborotlarining oshkoraligi va shaffofligini oshirish hisobiga kompaniyaning investitsion jalb etish qobiliyati o'sishini ta'minlaydigan qo'shimcha axborotlarning oshkoralik tamoyillarini belgilash.

Axborotlar siyosatining asosiy prinsiplari bo'lib, doimiylik, tezkorlik, qulaylilik, to'liqlilik, teng huquqlilik, tenglik, axborot resurslarining himoyalanganligi hisoblanadi.

- doimiylik – kompaniya faoliyatiga oid axborotlarni manfaatdor shaxslarga doimiy taqdim etib borish;

- tezkorlik – manfaatdor shaxslarni kompaniyaning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim voqealar va faktlari bilan qisqa muddatlarda xabardor qilish;

- qulaylik – manfaatdor shaxslarning erkin foydalanishi uchun kompaniya faoliyatiga oid axborotlarni oshkor etilishini turli xil yo'llar orqali amalga oshirish;

- to'liqlik – manfaatdor shaxslarning kompaniya to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'lishini ta'minlash uchun kompaniyaning amaldagi faoliyati va u uchun salbiy bo'lgan ma'lumotlarni ham inkor etmagan holda taqdim etish;

- teng huquqlilik – kompaniya faoliyatiga oid axborotlarni olishda barcha manfaatdor shaxslar uchun huquqlarning tengligi;

- tenglik – kompaniyaning tijorat manfaatlarini ta'minlagan holda kompaniya faoliyatining ochiqliligi va shaffofligi o'rtasidagi tengligini ta'minlash. Bunda maxfiy axborotlarning himoyalanganligi; insayderlarga doir axborotlarning taqdim etilishida amaldagi qonunchilik talablariga amal qilish ta'minlanishi shart;

- axborot resurslarining himoyalanganligi –tijorat siri yoki boshqa maxfiy hisoblangan axborotlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq axborot xavfsizligini ta'minlash.

Kompaniya faoliyati to‘g‘risida tarqatilayotgan axborot 3 guruhga bo‘linadi:

- majburiy oshkor etiladigan axborotlar;
- qo‘shimcha oshkor etiladigan axborotlar;
- erkin oshkor etiladigan axborotlar.

Kompaniya tomonidan axborotlarning oshkor etilishi va tarqatilishi quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

- korporativ axborotlar yagona portali (www.openinfo.uz);
- fond birjasining rasmiy veb-sayti (www.uzse.uz);
- aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-sayti;
- ommaviy axborot vositalari (OAV);
- internet portallarida joylashtirish;
- bosma nashrlarda chop etish;
- manfaatdor shaxslar bilan axborot seminarlari va boshqa turdagi uchrashuvlarni tashkil etish; (shu jumladan, telekon-ferentsiyalar, veb-translyatsiyalar, veb-kastlar);
- amaldagi qonunchilik, kompaniya Ustavi va kompaniya ichki me‘yoriy hujjatlariga muvofiq aksiyadorlarga axborotlar va ularning talabiga binoan hujjatlar nusxalarini taqdim etish;
- amaldagi qonunchilik, kompaniya Ustavi, kompaniya ichki me‘yoriy hujjatlari va kompaniyaning Boshqaruv organlari qaror-lariga muvofiq kommunikatsion vositalardan foydalangan holda boshqa yo‘llar bilan mazkur Nizomda nazarda tutilgan axborotlarni oshkor etish.

Amaldagi qonunchilik asosida majburiy oshkor qilinishi lozim bo‘lgan axborotlar borasida quyidagi paragraflarda to‘xtalib o‘tamiz.

O‘z navbatida alohida ta’kidlash kerakki, hisobdorlik va axborotlarni oshkor etib borish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati shaffofligini ta’minlashga hamda faoliyatning qonuniyligi va samaradorligiga xizmat qiladi.

8.2. Axborotlar oshkoraligini ta’minlash maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ veb-saytlarida e’lon qilinadigan axborotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish maqsadida 2014-yil 2-iyulda Vazirlar mahkamasining “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan “Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi va 2015-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritildi. Aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-sayti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrda 355-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo‘yiladigan asosiy talablarga ham muvofiq bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yildi.

“Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga asosan aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytida majburiy joylashtirilishi kerak bo‘lgan axborotlar quyidagilardir:

- jamiyat faoliyatining predmeti va maqsadlari;
- jamiyatning ustavi, shu jumladan unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar hamda jamiyatning tasdiqlangan biznes-rejalari;
- jamiyatni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risidagi axborot;
- jamiyatning tashkiliy tuzilmasi, uning tarkibiy bo‘linmalari, filiallari, vakolatxonlari, sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarining nomi, ularning telefon raqamlari, manzili (pochta va elektron manzillari), ularning ish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyatning rahbarlari (direktor va boshqaruv raisi) to‘g‘risidagi ma’lumotnoma axborot;
- bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari va nomzodlarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyat yoki uning boshqaruv organlari tomonidan tuzilgan kollegial va maslahat organlari (komissiyalar, kengashlar, qo‘mitalar va boshqalar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyatning affillangan shaxslari ro‘yxati;
- korporativ boshqaruv masalalari bo‘yicha jamiyatning ichki hujjatlari, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan korporativ boshqaruv kodeksi;
- «Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 44-moddasiga muvofiq oshkor qilinishi kerak bo‘lgan jamiyat faoliyatidagi muhim faktlar;
- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorlar bo‘yicha ovoz berish yakunlari (ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan boshlab o‘ttiz kun mobaynida e‘lon qilinadi);

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi, sanasi, vaqti, o'tkaziladigan joyi, kun tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektlari, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilinishi kerak bo'lgan jamiyatning choraklik va yillik hisobotlari;

- jamiyat tomonidan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferentsiyalari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) to'g'risidagi ma'lumotlar, matbuot-relizlar va kundalik faoliyat to'g'risidagi boshqa axborot;

- jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar (bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar) ro'yxati hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlar;

- tovarlarni yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) bo'yicha jamiyat va uning tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- jamiyatning moliya-xo'jalik holatini va uni rivojlantirish dinamikasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi muhim ma'lumotlar, jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborot tusidagi tahliliy sharhlar;

- oxirgi uch yilda hisoblangan va to'langan dividendlar, shu jumladan qarzdorlik miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar, aksiyadorlar tomonidan dividendlarni olish uchun bog'lanish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar;

- yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha auditorlik tashkilotining xulosasi;

- jamiyat tomonidan aksiyalar sotib olinishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- korporativ veb-saytdagi axborot materiallaridan boshqa shaxslar foydalanganda jamiyatning korporativ veb-saytiga majburiy havolalar ko'rsatilishi to'g'risidagi talab;

- jamiyatning korporativ veb-saytida joylashtirishni jamiyat zarur deb hisoblaydigan boshqa ma'lumotlar.

Aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytida boshqa manbalardan ma'lumotlarni joylashtirishga faqat axborot manbai ko'rsatilgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Korporativ veb-saytda joylashtirilgan axborot ishonchli bo'lishi va jamiyat faoliyatini xolisona yoritishi kerak. Unda davlat siriga va xizmatda foydalanish uchun tegishli bo'lgan axborot, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq e'lon qilish va tarqatish taqiqlangan boshqa axborot bo'lmasligi kerak. Ijroiya organining rahbari "Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga muvofiq

aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytida joylashtiriladigan axborotning to'liqligi va to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi.

8.3. Aksiyadorlik jamiyatlarining emitent sifatida axborotlarni oshkor etishlari bo'yicha talablar

“Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari”ga asosan aksiyadorlik jamiyatlari emitent sifatida faoliyatga doir axborotlarni qimmatli qog'ozlar emissiya risolasida; emitentning yilning har choragidagi va yillik hisobotida; emitentning faoliyatidagi muhim faktlar to'g'risidagi xabarlarda oshkor qiladi.

Qimmatli qog'ozlar emissiya risolasini va emitentning yillik hisobotini barcha manfaatdor shaxslar tanishib chiqishi uchun taqdim etishi shart hisoblanadi. Bunda qimmatli qog'ozlar emissiyasi to'g'risida axborot qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblangan Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va muvofiqlashtirish markazi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Yillik hisobotni aksiyadorlarning yoki emitentning boshqa oliy boshqaruv organining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilganidan keyin ikki hafta ichida; emitentning birinchi chorak, birinchi yarim yil va to'qqiz oy yakunlariga doir hisobotini hisobot oyidan keyingi bir oy ichida, emitentning faoliyatidagi muhim fakt haqidagi xabarni u yuz bergan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida jamiyat rasmiy veb-saytida oshkor qilishga majbur.

E'lon qilib borilishi shart bo'lgan muhim faktlar ro'yxati quyida keltirilgan (9.1-jadval):

Aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan jamiyat fond birjasining rasmiy veb-saytida jamiyat ustavining matnini, shu jumladan unga doir o'zgartish va qo'shimchalarni, shuningdek oshkor etilishi majburiy bo'lgan boshqa axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilishi shart. Bunda emitent faoliyatida muhim fakt yuzaga kelishiga olib kelgan qarorni qabul qilgan emitentning vakolatli boshqaruv organi ushbu qarorni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan keyin darhol emitentning ijroiya organiga taqdim etishi va bu to'g'risidagi axborotni belgilangan tartibda oshkor etilishini ta'minlashi shart.

Emitent faoliyatidagi muhim faktlar ro'yxati

Muhim faktning nomi	Muhim fakt raqami
Nom o'zgarishi	01
Joylashgan yer (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki veb-sayti o'zgarishi	02
Qayta tashkil etilganligi	03
Faoliyatning to'xtatilganligi	04
Faoliyatning tugatilganligi	05
Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar	06
Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarning o'zgarganligi	07
Kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining yoki ijroiya organining tarkibidagi o'zgarishlar	08
Filiallar ro'yxatidagi o'zgarishlar	09
Vakolatxonalar ro'yxatidagi o'zgarishlar	10
Sho'ba xo'jalik jamiyatlari ro'yxatidagi o'zgarishlar	11
Tobe xo'jalik jamiyatlari ro'yxatidagi o'zgarishlar	12
Emitentning mol-mulki va (yoki) bank hisobvaraqlari xatlanganligi	13
Emitentga nisbatan uning aktivlari qiymatining 10 foizidan ortiq miqdorda da'vo qo'zg'atilganligi	14
Ustav kapitalining 50 foizidan ortiq miqdorda kredit olinganligi	15
Aktivlarning 50 foizidan ortiq miqdorda kredit olinganligi	16
Aktivlarning qiymati bir marta 10 foizdan ortiqroq miqdorda ko'payganligi	17
Aktivlarning qiymati bir marta 10 foizdan ortiqroq miqdorda kamayganligi	18
Miqdori yoki mol-mulking qiymati bitim tuzilgan sanadagi holatga ko'ra emitent aktivlarining 10 foizidan ortig'ini tashkil etadigan emitentning bir martalik bitimlari	19
Emitent tomonidan yirik bitim tuzilishi	20
Affillangan shaxs bilan bitim tuzilishi	21
Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun litsenziya olinganligi	22

Muhim faktning nomi	Muhim fakt raqami
Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning bekor qilinganligi yoki amal qilishi tugatilganligi	23
Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganligi	24
Qimmatli qog'ozlarni chiqarish	25
Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatib turilishi	26
Qimmatli qog'ozlar chiqarilishining qayta tiklanganligi	27
Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan deb topish	28
Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini haqiqiy emas deb topish	29
Emitent 10 va undan ortiq foiz aksiyalarga (ulushlarga, paylarga) egalik qilayotgan yuridik shaxslar ro'yxatidagi o'zgarishlar	30
Emitent qimmatli qog'ozlarni qaytarib sotib olishga (muomaladan chiqarishga) doir majburiyatlarini bajarish muddatlari kelganligi	31
Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni hisoblash	32
Emitentga nisbatan bankrotlik taomili joriy etilganligi	33
Kuzatuv kengashi a'zolarining emitent aksiyalariga egalik qilishidagi o'zgarishlar	34
Ijroiya organi a'zolarining emitent aksiyalariga egalik qilishidagi o'zgarishlar	35
Affillangan shaxslar ro'yxatidagi o'zgarishlar	36
Qimmatli qog'ozlar egalarida ularga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarning emitent tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqining yuzaga kelganligi	37

“Emitentlar va qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi axborotni, hisobotlarni e'lon qilmaslik yoki o'z vaqtida e'lon qilmaslik, shuningdek davlat nazorati organlariga hisobotlar yoxud axborotni topshirmaslik yoki o'z vaqtida topshirmaslik –mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi”⁵².

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi investorlarning talabiga ko'ra «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 45-moddasida nazarda tutilgan axborotlarni taqdim etadi va investorlarni ushbu axborotni olish huquqlari haqida xabardor qilishi shart.

⁵² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 174¹-modda. 22.09.1994.

Qimmatli qogʻozlar bozorining professional ishtirokchisi:

- yilning bir choragi davomida faqat bir emitentning qimmatli qogʻozlari bilan operatsiyalar;

- bir emitentning qimmatli qogʻozlari bilan bir martalik operatsiya, agar bu operatsiya boʻyicha qimmatli qogʻozlarning soni mazkur qimmatli qogʻozlar umumiy sonining kamida 15 foizini tashkil etgan boʻlsa, ularni amalga oshirilganligi haqida qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organiga ikki ish kuni ichida yozma shaklda axborot beradi. Oshkor qilinayotgan axborotda emitentning nomi, qimmatli qogʻozlar turi, miqdori, tipi, shuningdek mazkur qimmatli qogʻozlar umumiy soniga nisbatan foizi aks ettirilishi lozim.

Investitsiya fondlari axborotni Oʻzbekiston Respublikasi «Qimmatli qogʻozlar bozori toʻgʻrisida»gi Qonunining 44-moddasida nazarda tutilgan tartibda oshkor qiladi.

Qimmatli qogʻozlar egasi bitim tuzish natijasida emitent qimmatli qogʻozlari har qanday turining 35 yoki undan ortiq foiziga egalik qila boshlasa, emitentga ushbu axborotni bitim tuzilgan sanani, qimmatli qogʻozlar soni va olingan ulushni (qimmatli qogʻozlar umumiy soniga nisbatan foiz hisobida), shuningdek oʻzining joylashgan erini (pochta manzilini) koʻrsatgan holda mazkur bitim tuzilgan sanadan eʼtiboran besh kun ichida taqdim yetishi shart.

Aksiyalar egasi mustaqil ravishda yoki affillangan shaxslar bilan birgalikda bir yoki bir nechta bitim tuzish natijasida aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining mazkur aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining jami 20 va undan ortiq foizini tashkil etuvchi aksiyalar paketini olganligi haqidagi axborotni belgilangan tartibda oshkor qilishi shart. Bunda axborotni oshkor qilish bitim (bitimlar) tuzilgan kundan ikki ish kuni mobaynida respublika gazetasi yoki fond birjasining rasmiy veb-saytida amalga oshiriladi (9.2-jadval).

Aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxsi Oʻzbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida»gi Qonuniga muvofiq affillanganlik asoslari vujudga kelgan paytdan eʼtiboran uch ish kunidan kechiktirmay jamiyatni mazkur Qoidalarda belgilangan maʼlumotlarni batafsil koʻrsatgan holda oʻzining affillanganligi toʻgʻrisida yozma shaklda xabardor qilishi shart.

**Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining 20 foiz va undan ortiq qismini
sotib olgan aksiya egasi haqida axborot⁵³**

Aksiyador nomlanishi (Jismoniy shaxs F.I.O. yoki yuridik shaxsning to'liq nomi)	"ERIELL GmbH" kompaniyasi
Aksiyador joylashgan joy (pochta manzili)	Avstriya, Vena shahri, Brukner shtrasse ko'chasi 2/1, 1040
Aksiyalarni sotib olish jarayonida qatnashuvchi aksiya egaligi bo'yicha affillangan shaxslar*	Mavjud emas
Affillangan shaxs joylashgan joy*	Mavjud emas
Aksiyadorlik jamiyatining to'liq nomi	"Sarbon Neftegaz" aksiyadorlik jamiyati, Toshkent shahri
Bitim sanasi	29.12.2016
Bitim turi	"Toshkent" RFB da birja savdolarida xarid qilish
Ustav kapitalidan sotib olingan aksiyalar ulushi (%)	51%
Aksiyalar bo'yicha bitimdan so'ng egalik qilayotgan aksiyalar soni (dona)	561 930 dona.

Aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari hisoblangan yuridik shaxslar to'g'risidagi xabar affillangan shaxslar to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- to'liq nomi;
- tashkiliy-huquqiy shakli;
- joylashgan yeri va pochta manzili, shuningdek mavjud bo'lganda elektron pochta manzili va veb-sayti;
- soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR);
- ular mazkur aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari hisoblanishining asosi;
- ular mazkur aksiyadorlik jamiyati affillangan shaxslari hisoblanishining sanasi;
- ularga tegishli aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalarining soni, turi va foizi;
- ta'sis hujjati nusxasi.

⁵³ https://uzse.uz/interactive_services/76

Aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari hisoblangan jismoniy shaxslar to'g'risidagi xabar affillangan shaxslar to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- familiyasi, ismi, otasining ismi;
- yashash joyi, shuningdek mavjud bo'lganda elektron pochta manzili;
- soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR);
- ular mazkur aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari hisoblanishining asosi;
- ular mazkur aksiyadorlik jamiyati affillangan shaxslari hisoblanishining sanasi;
- ularga tegishli aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalarining soni, turi va foizi;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi.

AMALIYOT DARSII UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ boshqaruvda hisobdorlik tartibiga izoh bering.
2. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor etishga qo'yilgan davlat talablari.
3. Aksiyadorlik jamiyatlari axborot siyosati maqsad va vazifalari.
4. Aksiyadorlik jamiyatlari axborot siyosati prinsiplari.
5. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ veb-saytlarida e'lon qilinishi shart bo'lgan axborotlar.
6. Aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisi sifatida e'lon qilishi lozim bo'lgan muhim faktlar.
7. Affillangan shaxslar haqida axborotlarni oshkor qilish.
8. Qimmatli qog'ozlar muomalasi bo'yicha e'lon qilinadigan muhim faktlar.
9. Fond birjasi saytida e'lon qilinishi lozim bo'lgan axborotlar.
10. Moliyaviy hisobotlarni oshkor qilish tartibi.

Testlar

1. Korporativ boshqaruvda kuzatuv kengashi, ijroiya organi va nazorat organlarining belgilangan tartibda hisobot berib borishlari qaysi prinsipdan kelib chiqadi?

- a) hisobdorlik prinsipi;
- b) shaffoflik prinsipi;

- c) adolatlilik prinsipi;
- d) axborotlarni oshkor etish prinsipi.

2. Axborotlarni oshkor qilish manfaatdor shaxslar uchun qanday imkoniyat yaratadi?

- a) korporativ tuzilma faoliyati bilan bog‘liq axborotlarni erkin foydalanish;
- b) tijorat sirini boshqalarga sotish;
- c) boshqalarga hisob berish;
- d) korporativ tuzilma faoliyatiga doir maxfiy ma‘lumotlardan erkin foydalanish.

3. Aksiyadorlik jamiyatlarida “Axborot siyosati to‘g‘risida”gi nizom aynan qaysi jihatlarni tartibga soladi?

- a) axborotlar bilan ishlashni tashkil etish, ularni oshkor qilish tartibini belgilash;
- b) axborotlarning maxfiylik va ochiqlik darajasini belgilash;
- c) xizmat doirasida foydalaniladigan axborotlarni belgilab qo‘yish;
- d) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga doir axborotlarni so‘rab olish tartibini belgilaydi.

4. Aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarning kompaniya va uning faoliyati to‘g‘risidagi ishonchli ma‘lumotlarga bo‘lgan talabini qondirish orqali kompaniya faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash qanday maqsad hisoblanadi?

- a) axborot siyosatining maqsadi;
- b) aksiyadorlik jamiyatining bosh maqsadi;
- c) kuzatuv kengashining bosh maqsadi;
- d) moliyaviy ta‘minotning bosh maqsadi.

5. Qaysi javobda axborotlar siyosatining asosiy prinsiplari keltirilgan?

- a) doimiylik, tezkorlik, qulaylilik, to‘liqlilik, teng huquqlilik, tenglik, axborot resurslarining himoyalanganligi;
- b) hisobdorlik, adolatlilik, ta‘minlanganlik, maqsadlilik;
- c) mustaqillik, hisobdorlik, adolatlilik;
- d) erkinlik, natijaviylik, samaradorlik.

6. Aksiyadorlik jamiyati faoliyati to'g'risida tarqatila-yotgan axborotlar guruhlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

- a) majburiy, qo'shimcha va erkin oshkor etiladigan axborotlar;
- b) maxfiy va xizmat doirasida foydalaniladigan axborotlar;
- c) ixtiyoriy va majburiy tarqatiladigan axborotlar;
- d) tijorat siri, maxfiy hamda umumfoydalanishdagi axborotlar.

7. Korporativ axborotlar yagona portali vev-sayti:

- a) www.openinfo.uz;
- b) www.uzse.uz;
- c) www.csm.gov.uz;
- d) www.gkk.uz .

8. Axborotlar oshkoraligini ta'minlash maqsadida aksiya-dorlik jamiyatlari korporativ veb-saytlarida e'lon qilinadigan axborotlar qaysi qonunchilik hujjati bilan tartibga solinadi?

- a) Vazirlar Mahkamasining "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2014-yil 2-iyuldagi qarori;
- b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PF-4720 sonli farmoni;
- c) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun;
- d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2015-yildagi №PQ-2455 sonli qaroria.

9. Qimmatli qog'ozlar bozori emitenti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan e'lon qilinadigan muhim faktlar soni nechta?

- a) 37 ta;
- b) 107 ta;
- c) 77 ta;
- d) 1 ta.

10. Qimmatli qog'ozlar bozori emitenti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan e'lon qilinadigan 32-muhim faktning mazmuni nimadan iborat?

- a) qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni hisoblash;

- b) dividend va foizlar to‘lash;
- c) qimmatli qog‘ozlarni qaytarib sotib olish;
- d) Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini to‘xtatib turilishi.

11. Qimmatli qog‘ozlar bozori emitenti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan e’lon qilinadigan 1-muhim faktning mazmuni nimadan iborat?

- a) nom o‘zgarishi;
- b) qayta tashkil etilganligi;
- c) faoliyatning tugatilganligi;
- d) faoliyatning qayta tiklanganligi.

12. Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining 20 foiz va undan ortiq qismini tashkil etuvchi qismini sotib olgan aksiya egasi haqida axborotni oshkor qilish tartibi qaysi javobda berilgan?

- a) aksiyador tomonidan mustaqil ravishda respublika gazetasi yoki fond birjasining rasmiy veb-saytida;
- b) aksiyadorlik jamiyati xabarnomasida jamiyat tomonidan;
- c) korporativ axborotlar portalida birja tomonidan;
- d) bu haqda axborotlarni oshkor qilish talab etilmaydi.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ veb-saytida, Korporativ axborotlar yagona portalida, fond birjasi veb-saytida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan axborotlar bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

AJ korporativ veb-saytida	Korporativ axborotlar yagona portalida	Fond birjasi veb-saytida
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

2. Aniq aksiyadorlik jamiyati misolida e’lon qilingan muhim faktlarni tahlil qiling (darsdan bir hafta oldin obyektlar bo‘lib beriladi).

IX bob. MINORITAR AKSIYADORLAR VA ULARNING HUQUQLARINI TA'MINLASH

9.1. Aksiyadorlarning huquqlari va ularga amal qilish

Mulkdorlar tomonidan ma'lum bir qiymatdagi mulkning aksiyalarni sotib olishga yo'naltirilishi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining asosi hisoblanadi. Bunda aksiyalarni sotib olish orqali aksiyadorga aylanish ixtiyoriylikka asoslansada har bir aksiyador tegishli huquqlarga ega bo'ladi. Kiritgan ulushiga mos ravishda aksiyadorlik jamiyati tomonidan erishilgan foydaning bir qismiga aksiyadorlarning egalik qilishi aksiyadorlar birlamchi huquqi sifatida ko'zga tashlanadi. Buning uchun esa aksiyadorlik jamiyati samaradorligini ta'minlash maqsadida aksiyadorlar qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. Lekin aksiyadorlarning foydani taqsimlash yoki boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'siri egalik qilib turgan ulushlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'ladi. Aynan shundan kelib chiqqan holda aksiyadorlar minoritar (kichik ulushga ega) va majoritar (yirik ulushga ega) aksiyadorlarga bo'linadi. Bunda majoritar aksiyadorlar qarorlar qabul qilishda kuchli ta'sirga ega hisoblanadi.

Umumiy olganda amaldagi qonunchilikka ko'ra aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;
- depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararning o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish va boshqalar.

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni – mazkur aksiyalar egasini qonunchilikda belgilangan tartibda jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar qonun-chilikka va jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq jamiyat mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, qonunchilikda va jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

Jamiyatning imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lgan aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega bo'ladi.

Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdori va (yoki) qiymat (tugatilish qiymati) jamiyat ustavida belgilab qo'yilishi lozim. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati qat'i pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Agar imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori va tugatilish qiymatini belgilash tartibi jamiyat ustavida ko'rsatilgan bo'lsa ham imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati belgilangan deb hisoblanadi.

Jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan yoki to'liq to'lanmagan, miqdori ustavda aniqlangan dividendning jamg'arib borilishi va keyinchalik to'lanishi belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarning oddiy aksiyalarga ayirboshlanishi imkoniyati va shartlari belgilanishi mumkin.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyoz-

li aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbati bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

Agar jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarni oddiy aksiyalarga ayirboshlash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyat ustavi imtiyozli aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqini nazarda tutishi mumkin. Bunda ushbu imtiyozli aksiyaning egasi o'ziga tegishli imtiyozli aksiya ayirboshlanishi mumkin bo'lgan oddiy aksiyalar bo'yicha ovozlar sonidan oshib ketmaydigan miqdordagi ovozlarga ega bo'ladi.

Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

Jamiyat ustavida jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'lishi nazarda tutilishi mumkin. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli

qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarining va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

Jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni mazkur aksiyadorlarda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyatning boshqaruv organi tomonidan belgilangan joylashtirish narxi bo'yicha olishni taklif etishi shart.

Bildirish matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza

mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida jamiyatga taqdim etilishi kerak.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi.

Jamiyat imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganiga qadar aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ularni olish bo'yicha imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirishga haqli emas.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan tartibda jamiyat tomonidan realizatsiya qilinadi.

Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

9.2. Minoritar aksiyadorlar va ular huquqlarini himoya qilish

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig'ilish kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish natijalariga ta'sir o'tkazmaydigan aksiyalar egalari **minoritar aksiyadorlar** hisoblanadi.

Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfa-atlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar jamiyatga jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga jamiyatning direktori, boshqaruv a'zolari, shuningdek jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyatning kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

- minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

- qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni jamiyat ustavida belgilanadi.

Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi ushbu qo'mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha jamiyatning hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas. O'z navbatida minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyatiga jamiyat kuzatuv kengashining yoki ijroiya organining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'mitaning qarorlari jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari tomonidan bajarilishi majburiy emas, ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda tegishli hujjatlarni taqdim etish to'g'risidagi qarorlari bundan mustasno.

Jamiyatning aksiyadorlariga tegishli bo'lgan dividendlar to'lanmagan taqdirda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli

davlat organi mazkur jamiyat aksiyadorining yoki qo‘mitaning murojaati asosida sudga jamiyatning zimmasiga ushbu jamiyat barcha aksiyadorlariga dividendlar to‘lash majburiyatini yuklatish to‘g‘risida da’vo taqdim etishga haqli. Bunday da’voni taqdim etish va ko‘rib chiqish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan qo‘mita tashkil etilishi mumkin.

Qo‘mitani tashkil etish mumkinligi jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o‘ttiz kundan kechiktirmay, agar jamiyat ustavida bundan kechroq muddat belgilanmagan bo‘lsa, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibiga qo‘mita tarkibiga nomzodlar bo‘yicha takliflar ko‘rsatishga haqli.

Aksiyadorlar (aksiyador) qo‘mitaga o‘zlari ko‘rsatgan nomzodlar ro‘yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabar e‘lon qilingan sanadan e‘tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o‘zgartishlar kiritishga haqli.

Qo‘mita a‘zolarini saylash to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan bir yil muddatga qabul qilinadi.

Qo‘mita tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

Qo‘mitaning a‘zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hozir bo‘lgan va jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko‘rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o‘tkazilayotgan umumiy yig‘ilishida kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Jamiyat boshqaruvi a‘zolari va direktori, shuningdek jamiyat kuzatuv kengashi hamda, taftish komissiyasi a‘zolari (taftishchisi) jamiyatning qo‘mita a‘zolari tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Qo‘mita a‘zolarining soni jamiyat ustavi bilan belgilanib, uch kishidan kam bo‘lmasligi, shuningdek umumiy soni toq sondan iborat bo‘lishi lozim.

Qo‘mitaning raisi ushbu qo‘mita tarkibidan uning a‘zolari tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi.

Qo‘mita faoliyatini tashkil etish maqsadida jamiyat ijroiya organi rahbari qo‘mita a‘zolariga ish joyini, kompyuter uskunasini, seyfni, telefon yoki faksimil aloqasini ajratgan tarzda zarur mehnat sharoitini yaratib berishi shart.

Qo‘mitaning vakolatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyatning kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

- minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

- qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

Qo'mitaning majlislari muntazam ravishda o'tkaziladi va qo'mitaning tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

Qo'mita raisi qo'mita qarorida kuni va vaqtini belgilagan tarzda minoritar aksiyadorlarni haftalik qabulini tashkil etishi lozim.

Qo'mita qarorlari oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va yig'ilishda ishtirok etuvchi barcha qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Qo'mitaning bir a'zosi o'z ovozini shu qo'mitaning boshqa bir a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'mita raisi qo'mitaning vakolati doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha jamiyatning ma'lumot va hujjatlaridan, shu jumladan jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining), auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlari, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshirish dalolatnomalari, jamiyatga va uning mansabdor shaxslariga nisbatan chiqarilgan sud qarorlaridan, shuningdek affillangan shaxslar bilan nazarda tutilgan bitimlarni jamiyatning ijroiya organi va ichki audit xizmati tomonidan o'rganish bo'yicha bayonnomalardan erkin foydalanish huquqiga ega.

Qo'mita vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha hujjatlarni olish to'g'risidagi qo'mita raisining so'rovnomalari yozma ravishda rasmiylashtirilgan holda jamiyat ijroiya organiga taqdim etiladi.

Jamiyatning ijroiya organi qo'mita raisi tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularning nusxalarini 10 kun ichida yoxud so'rovnomada ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmagan tarzda taqdim etishi shart.

Qabul qilinib olingan hujjatlar qo'mita raisi va a'zolari tomonidan faqatgina xizmat maqsadlarida foydalanilishi mumkin.

Qo'mita a'zolari jamiyat yoki uning faoliyati to'g'risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor qilishga haqli emas.

Qo'mita o'zining vakolatiga kirgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

Qo'mita jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Qo'mitaning faoliyatiga jamiyat kuzatuv kengashining yoki ijroiya organining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

9.3. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish

Davlat aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi.

Jamiyatning xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatiga davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Davlat organlarining qonunga xilof harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Davlat aksiyador sifatida boshqa aksiyadorlar bilan bir qatorda milliy qonunchilikda belgilangan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Aksiyadorlarning huquqlari:

milliy qonunchilikda belgilangan va jamiyat ustavida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish orqali jamiyatning boshqaruv organlari;

– qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va fond birjalari;

– qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining ixtiyoriy birlashmalari;

– sug'urta tashkilotlari;

– qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi;

– auditorlik tashkilotlari;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan himoya qilinadi.

Aksiyadorlar va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolar sud tartibida hal etiladi.

Aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish:

– huquqni tan olish;

– huquq buzilguniga qadar mavjud bo'lgan holatni tiklash va huquqni buzuvchi yoki huquqning buzilishi tahdidini yuzaga keltiruvchi xatti-harakatlarning oldini olish;

- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;
- huquqini o‘zi himoya qilish;
- majburiyatni natura holida ijro etishga qaror qilish;
- zararlarning o‘rnini qoplatish;
- neustoyka undirish;
- ma’naviy zararni kompensatsiya qilish;

huquqiy munosabatlarni tugatish yoki o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda birlashmalarga uyushishga haqlidir.

Jamiyatning aksiyadorlariga tegishli bo‘lgan dividendlar to‘lanmagan taqdirda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi mazkur jamiyat aksiyadorining yoki minoritar aksiyadorlari qo‘mitasining murojaati asosida sudga jamiyatning zimmasiga ushbu jamiyat aksiyadorlariga dividendlar to‘lash majburiyatini yuklatish to‘g‘risida da’vo taqdim etishga haqli. Bunday da’voni taqdim etish va ko‘rib chiqish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.


Aksiyadorlik jamiyati etib o‘zgartirilayotgan davlat tashkiloti mehnat jamoasi a’zolarining aksiyalarni olishga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish qonun hujjatlari bilan kafolatlanadi. Bunda mehnat jamoasining a’zolariga realizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan aksiyalar soni har bir alohida holatda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli bo‘lgan organ tomonidan belgilanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, Jahon Banki guruhi har yili dunyo bo‘yicha “Biznes yuritish” hisobotini e’lon qilib boradi. Mamlakatlarning biznes yuritish bo‘yicha reytinglarini aniqlashda minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish holatini ham hisobga oladi va hisobotda aks ettiradi. Mazkur amaliyot ham o‘z-o‘zidan minoritar aksiyadorlarni himoya qilish masalasiga har bir davlatda jiddiy e’tibor qaratishni talab etadi. Chunki minoritar aksiyadorlar

huquqlari ta'minlangan holatdagina investorlarning aksiyadorlik kompaniyalari faoliyatiga kirib kelishi jadallashadi.

Jahon banki guruhi tomonidan minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha reytingni aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratiladi⁵⁴:



10.1-rasm. Mamlakatimizning minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro reytingdagi natijalari⁵⁵

- bitimlar haqida axborotlarni oshkor etish indeksi;
- direktorlarning javobgarligi indeksi;
- aksiyadorlar tomonidan kompaniya rahbariyati ustidan sudga murojaat qilish uchun (aksiyadorlar huquqlarini sudda himoya qilish uchun) shart-sharoit yaratilganligi indeksi;
- manfaatlar to'qnashuvi (nizoli vaziyatlar)ni tartibga solish indeksi;
- aksiyadorlar huquqlari indeksi;
- boshqaruv tuzilmasini rivojlantirish indeksi;
- korporativ shaffoflik indeksi;
- aksiyadorlik boshqaruvi indeksi.

Jahon banki guruhi tomonidan mamlakatlarda minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha reyting 100 ballik tizimda baholash amalga oshirilgan holda tuziladi. Unda O'zbekistonning 2015–2018 to'rt yil bo'yicha natijalari quyidagicha (10.1-rasm).

⁵⁴ <http://www.doingbusiness.org/Methodology/Protecting-Minority-Investors>

⁵⁵ Жаҳон банки гуруҳининг “Бизнес юритиш” ҳисоботлари асосида тузилди.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, egallab turgan o'rin va qo'yilgan ball darajasi yaxshilanib bormoqda.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Aksiyadorlarning asosiy huquqlarini sanab o'ting.
2. Imtiyozli aksiyalar egalarining alohida huquqlariga qisqacha izoh bering.
3. Qo'shimcha aksiyalar emissiyasida aksiyalarni sotib olishning imtiyozli huquqi amal qilishi tartibi.
4. Minoritar aksiyadorlar huquqlarining majoritar aksiyadorlarga nisbatan cheklanganligini izohlang.
5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini tashkil etish tartibi
6. Minoritar aksiyadorlar faoliyat mexanizmi.
7. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi vakolatlari.
8. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tomonidan ichki hujjatlardan foydalanish tartibi.
9. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish institutlari faoliyati.
10. Minoritar aksiyadorlar huquqlarini sud tartibida himoya qilish.

Testlar

- 1. Qaysi javobda aksiyadorlarning huquqlari noto'g'ri berilgan?**
 - a) boshqa aksiyadorlar aksiyalarini o'z nomidan sotish, aksiyadorlik jamiyatida xodim sifatida ishlash, tijorat sirini oshkor qilish;
 - b) aksiyadorlar reyestriga kiritilish, depo hisobvarag'idan ko'chirma olish; dividendlar tarzida olish;
 - c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish, depo hisobvarag'idan ko'chirma olish, tegishli shartlar bajarilganda kuzatuv kengashi a'ziligiga nomzod ko'rsatish;
 - d) olgan dividendini erkin tasarruf etish; aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish, aksiyalarni boshqalarga o'tkazish.
- 2. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan qo'shimcha aksiyalar joylashtirilayotganda ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning imtiyozli sotib olish huquqi qaysi hujjatda belgilab qo'yiladi?**
 - a) ustavda;

- b) “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunda;
- c) “Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi nizomda;
- d) imtiyozli aksiyalar muomalasini tashkil etish bo‘yicha tartiblarda.

3. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig‘ilish kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berish natijalariga ta’sir o‘tkazmaydigan aksiyalar egalari qanday nom bilan ataladi?

- a) minoritar aksiyadorlar;
- b) majoritar aksiyadorlar;
- c) oddiy aksiyadorlar;
- d) imtiyozli aksiyadorlar.

4. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig‘ilish kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berish natijalariga bevosita ta’sir o‘tkazib, hal qiluvchi ahamiyatga ega aksiyalar egalari qanday nom bilan ataladi?

- a) majoritar aksiyadorlar;
- b) minoritar aksiyadorlar;
- c) oddiy aksiyadorlar;
- d) imtiyozli aksiyadorlar.

5. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi tashkil etilishi mum-kinligi qaysi hujjatda belgilab qo‘yilishi lozim?

- a) ustavda;
- b) umumiy yig‘ilish qarorida;
- c) ijroiya organi buyrug‘ida;
- d) alohida hujjat talab qilinmaydi.

6. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining vakolatiga kiradi-gan masalalar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) minoritar aksiyadorlarning o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq murojaatlarini ko‘rib chiqish va tegishli organlarga murojaatlar kiritish;
- b) aksiyadorlik jamiyatlari sof foydasini taqsimlash, aksiyadorlar reyestrini yuritish;
- c) majoritar aksiyadorlar bilan hisob-kitoblar qilish, majoritar aksiyadorlar ulushini o‘z hisobidan sotish;

d) minoritar aksiyadorlar majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, minoritar aksiyadorlar dividendlarini markazlashgan tartibda taqsimlash;

7. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni qaysi hujjatda belgilab qo'yiladi?

- a) jamiyat ustavida;
- b) umumiy yig'ilish qarorida;
- c) qo'mita faoliyatini tartibga soluvchi nizomda;
- d) ichki buyruqlarda.

8. Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili kimning oldida hisobot beradi?

- a) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida;
- b) minoritar aksiyadorlar yig'ilishida;
- c) kuzatuv kengashi yig'ilishida;
- d) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi huzurida.

9. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida kuzatuv kengashi-ning yoki ijroiya organining qaysi tuzilma faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi?

- a) minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi faoliyatiga;
- b) ichki audit xizmatiga;
- c) buxgalteriya bo'limi faoliyatiga;
- d) marketing bo'limi faoliyatiga.

10. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi o'z faoliyatida haqli bo'lmagan jihatni belgilang.

- a) jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas;
- b) ichki hujjatlarni ijroiya organidan so'rab olishga haqli emas;
- c) kuzatuv kengashi yoki taftish komissiyasiga nomzodlar kiritishga haqli emas;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga masala kiritishga haqli emas.

11. Minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yi-cha mamlakatlar reytingi qaysi tomonidan tuziladi va qaysi hisobotda o'z aksini topadi:

- a) Jahon banki guruhi, "Biznes yuritish" hisoboti;

- b) Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo kredit hisoboti;
- c) Jahon banki guruhi, “Investitsiyalar” hisoboti;
- d) Xalqaro moliya korporatsiyasi, “Soliq ma’urchiligi” hisoboti.

12. Minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mamlakatlar reytingi aniqlanishida aynan qaysi mezonlar baholanadi?

- a) bitimlar haqida axborotlarni oshkor etish indeksi, direktorlarning javobgarligi indeksi; manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish indeksi, korporativ shaffoflik indeksi, aksiyadorlik boshqaruvi indeksi.
- b) davlat aralashuvi indeksi, qonuniylik indeksi, raqobat indeksi, aksiyadorlik jamiyati daromadliligi indeksi;
- c) kreditlash indeksi, adolatlilik indeksi, aksiyadorlik jamiyati daromadliligi indeksi, iqtisodiy sudlar amaliyoti indeksi;
- d) soliq to‘lash bo‘yicha mamlakat reytingi, tadbirkorlikni ro‘yxatga olish reytingi.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Minoritar aksiyadorlar va majoritar aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishdagi va faoliyatidagi ishtiroki bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Minoritar aksiyadorlar	Majoritar aksiyadorlar
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi tashkil etilishi va faoliyat mexanizmi bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Minoritar aksiyadorlar	Majoritar aksiyadorlar
1.	1.
2.	2.
...	...

X bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA DAVLAT ISHTIROKI

10.1. Korporativ boshqaruvda davlat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi keskin qisqarib borishiga qaramasdan, butunlay barham topmaydi. Ya'ni bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ham iqtisodiyotning ma'lum bir soha va tarmoqlarida davlat o'z ulushini saqlab qolganligiga bugungi kunda ham guvoh bo'lmoqdamiz. Umumiy olganda korporativ boshqaruv modellari xususiyatlari, mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda davlat ulushi darajasi xorijiy davlatlarda turlicha ekanligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim. Har bir davlatning korporativ tuzilmalardagi ulushi darajasi ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatish zarurati bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi. Bunda albatta ma'lum bir maqsadlar belgilab olinadi. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv amaliyoti xususiy korporativ tuzilmalardagi korporativ boshqaruv amaliyotidan ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Yuqoridagilar asosida quyida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv xususiyatlari, davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtirokidan asosiy maqsadi va vazifalari, oltin aksiya amaliyotining qo'llanish tartibi, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida davlat ishtiroki tahlilini ko'rib chiqamiz.

Davlatning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi ishtiroki quyidagi ikkita yo'nalish asosida ko'zga tashlanadi:

Birinchi, korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi va korporativ tuzilmalarning faoliyati davomida qonunchilikda belgilab qo'yilgan talablarning bajarilishi holatini nazorat qilib boradi. Mazkur jihat barcha mamlakatlar tajribasida qo'llaniladi.

Ikkinchi, davlat korporativ boshqaruv amaliyotida bevosita ishtirok etadi va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir qarorlar qabul qilishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda davlat ustav kapitalidagi ma'lum bir ulushga egalik qilish orqali mulkdor sifatida ishtiroki kun tartibiga chiqadi.

Umuman davlatning korporativ boshqaruvda bevosita ishtiroki quyidagilar asosida amalga oshiriladi (10.1-rasm):

АЖ овоз берувчи акцияларига тўлиқ эгаллик қилиш

АЖлари акциялар нazorat пакетига эгаллик қилиш

АЖ устав капиталда маълум бир улушга эгаллик қилиш.

Олтин акция амалиётини жорий этиш

10.1-rasm. Davlatning korporativ boshqaruvdagi bevosita ishtiroki

- aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalariga to'liq egalik qilish. Shuningdek faqat davlat tomonidan ustav kapitalini to'liq shakllantirish amaliyoti asosida ham davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki kuzatiladi. Bunda davlat aksiyadorlik jamiyatida yagona aksiyador sifatida faoliyat yuritadi va yakka tartibda qarorlar qabul qiladi. Mazkur amaliyot mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida ham kuzatiladi;

- aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar nazorat paketiga egalik qilish. Mazkur holatda davlat yirik aksiyador sifatida maydonga chiqadi va birinchi navbatda davlat manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadi. Ya'ni boshqa aksiyadorlarning qarorlar qabul qilishga ta'siri nisbatan past bo'ladi;

- aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalida ma'lum bir ulushga egalik qilish. Bunda davlat o'z egaligidagi aksiyalarning ustav kapitalidagi ulushiga mos tarzda ovoz berish orqali korporativ boshqaruvda ishtirok etadi. Agarda aksiyalar ulushi asosida kuzatuv kengashi yoki taftish komissiyasi a'zolarini ko'rsatish vakolatiga ega bo'lsa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida kuzatuv kengashiga yoki taftish komissiyasiga o'z nomzodlarini taqdim etadi va kumulyativ ovoz berishda ishtirok etadi;

- oltin aksiya amaliyotini joriy etish. Mazkur amaliyotda davlat ustav kapitalida hech qanday ulushga ega bo'lmasdan yoki aksiyalar nazorat paketiga egalik qilmagan holda korporativ boshqaruvda o'z vakili orqali qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning korporativ boshqaruvdagi, umuman korporativ tuzilmalar faoliyatidagi ishtiroki qator afzalliklarga va kamchiliklarga ega (10.1-jadval).

***Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki
afzalliklari va kamchiliklari***

Afzalliklari	Kamchiliklari
<ol style="list-style-type: none"> 1. Strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazorati o‘rnatiladi; 2. Strategik muhim tarmoqlarning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratiladi; 3. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshiradi; 4. Yirik aksiyadorlik jamiyatlari bankrotligining oldi olinadi va tugatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi; 5. Davlat byudjeti soliqlardan boshqa daromadlariga ega bo‘ladi; 6. Monopoliya tartibga solib turiladi va narxlar barqarorligi ta‘minlanadi; 7. Professional boshqaruv amalga oshiriladi va boshqalar. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlatning haddan tashqari ko‘p aralashuvi korporativ tuzilmaning mustaqilligini chegaralaydi; 2. Oltin aksiya asosida veto qo‘yish huquqining berilishi qarorlar qabul qilishning ortga surilishiga olib keladi; 3. Veto qo‘yish huquqi davlat vakili tomonidan qaror qabul qilish aralashtirib yuborish holatlari uchraydi. 4. Aksiyadorlik jamiyatlariga investorlarning qiziqishlari nisbatan past bo‘ladi; 5. Xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi; 6. Boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanishiga olib keladi; 7. Dividend amaliyotlari deyarli kuzatilmaydi va boshqalar.

Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazorati o‘rnatish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim tarmoqlarning rivojlantirish imkonini beradi. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali davlat aholi turmush farovonligini oshirishga intiladi. Keltirilayotgan bu jihatlarga erishish uchun esa mamlakatda yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritishi muhim hisoblanadi. Chunki yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati aholi bandligi va daromadlilik ta‘minlanishida, davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi shakllanishida, keskin xalqaro raqobat sharoitida mamlakat eksport salohiyatini oshirishda va hokazolarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida, korporativ boshqaruvida davlatning ishtiroki moliyaviy-iqtisodiy inqiroz holatlarida ular bankrotligining oldini oladi va tugatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunga misol sifatida 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Amerika qo‘shma shtatlarida milliy avtokontsernlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ustav kapitaliga davlat ulushini kiritish

amaliyoti qo‘llanilganligini keltirishimiz mumkin. Dunyodagi eng rivojlangan davlat hisoblangan Amerika qo‘shma shtatlarida bunday amaliyotning qo‘llanilishini mamlakatning eksport salohiyatini saqlab qolish, tashqi ishlab chiqaruvchilarning amerika bozorini egallashlariga yo‘l qo‘ymaslik, mamlakatda ishsizlik darajasining oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, davlat byudjeti daromadlari qisqarishining oldini olish kabilarga qaratilgan chora-tadbir sifatida baholashimiz mumkin. Shu o‘rinda yirik aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar davlat byudjeti daromadlarining 90 foizdan ortig‘ini tashkil etishini ham qayd etish lozim. Bunda davlat ishtiroki yirik aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan to‘lanadigan dividendlarning ham bir qismiga egalik qilish orqali davlat byudjetining soliqlardan boshqa daromadlarini oshirishga imkon beradi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish orqali davlat narx barqarorligini ta‘minlashi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etishini ham qayd etish zarur.

O‘z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning korporativ boshqaruvdagi faol ishtiroki ma‘lum bir muammoli holatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Xususan, davlatning korporativ tuzilmalar faoliyatiga haddan tashqari ko‘p aralashuvi tadbirkorlik subyekti sifatida korporativ tuzilmaning mustaqilligini chegaralaydi. Bunda oltin aksiya asosida veto qo‘yish huquqining berilishi qarorlar qabul qilishning ortga surilishiga olib keladi va bu, o‘z navbatida tezkor moliyaviy qarorlar qabul qilish shart bo‘lib turgan bir vaqtda korporativ tuzilma faoliyat samaradorligi pasayishiga olib keladi. Shuningdek kuzatuv kengashi majlislari va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlari ma‘lum bir qarorlariga veto qo‘yish huquqi davlat vakili tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri qaror qabul qilish bilan chalkashtirib yuborilish holatlari ham uchrab turadi. Bu masalalar o‘z navbatida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlariga investorlar qiziqishlarini keskin pasaytiradi. Boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanishi natijasida norozilik holatlari va korporativ nizolar yuzaga keladi. Qo‘shimcha ravishda xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan erishilgan foydaning yangi loyihalarga muntazam yo‘naltirilishi tufayli dividend amaliyotlari deyarli kuzatilmaydi.

Har bir mamlakatda yuqorida keltirilgan kamchiliklardan kelib chiqqan holda hamda xususiy sektorni keng rivojlantirish maqsadida davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtirokini kamaytirishga harakat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish" masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning 3.4-ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Unda quyidagi tizimli yo'nalishlarga ham jiddiy e'tibor qaratish lozimligi qayd etildi:

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini-o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Shundan kelib chiqqan holda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan "Iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirlarni qisqartirish va bozor mexanizmlaridan keng foydalanish kerak. Ya'ni davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishni cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish darkor"⁵⁶, deya qat'i ta'kidlandi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan davlatning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi ishtirokini optimallashtirish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosi xorijiy investorlar qiziqishi ortishiga ham olib keladi.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. <http://prezident.uz/uz/lists/view/1371>

10.2. Oltin aksiya amaliyoti va uning O‘zbekistonda qo‘llanilish xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etishning biror bir ideal modeli mavjud emas. Shuning uchun ham rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda ham davlat tomonidan tartibga solish amal qilib kelmoqda. Bunda davlat ulushi bilan birga mahalliy hokimiyatlar ulushini ham strategik ahamiyatga ega yirik korporativ tuzilmalar ustav kapitaliga kiritish orqali davlat ishtirokini ta‘minlash amaliyoti xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llaniladi va bu jihat korporativ boshqaruvda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Korporativ boshqaruvda davlat ishtiroki oltin aksiya amaliyotini qo‘llash orqali ham amalga oshiriladi.

Oltin aksiya ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida davlat boshqaruvini saqlab qolish vositasi bo‘lib, davlat vakilining alohida huquqlarga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Oltin aksiya davlat tomonidan kompaniyalarni moliyalashtirish va daromad olish vositasi hisoblanmaydi. Bu jihat o‘z-o‘zidan oltin aksiyaning sotilmasligini ifodalaydi. Bunda kompaniya aksiyalarining ma‘lum paketiga ega sifatida davlat vakili aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida, kuzatuv kengashida hal qiluvchi ovozga ega bo‘ladi. Mazkur jihat o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Oltin aksiya amaliyoti xorijiy mamlakatlar amaliyotida keng qo‘llanilmoqda va bu amaliyot o‘zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

Oltin aksiya amaliyotini qo‘llash nazariy jihatdan davlat vakilining korporativ tuzilmada strategik muhim qarorlarni ishlab chiqishda va qabul qilishda ishtirok etish, tashkilot faoliyatini, uning rentabellik ko‘rsatkichlarini va o‘sish sur‘atlarini nazorat qilib borish kabilarni nazarda tutadi.

Oltin aksiyaning xorijiy davlatlarda qo‘llanilishi korxonalarini rivojlantirishni boshqarib borishda ishonchli vosita sifatida yuzaga chiqdi. Bu amaliyot o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida keng qo‘llanilib kelinayotganligiga qaramasdan, Evropa mamlakatlarida ham kuzatilishini alohida ta‘kidlash lozim. Umuman oltin aksiya amaliyotining asoschisi Margaret Tetcher hisoblanadi va u XX asrning 80-yillarida Buyuk Britaniyada xususiylashtirilgan korporativ tuzilmalarni boshqarishda mazkur amaliyotni birinchi faol tarzda qo‘llagan. Margaret Tetcherning bu islohoti nihoyatda muvaffaqiyatli amalga oshirilgach, bir necha yil o‘tib butun Evropani qamrab oladi. Shuni qayd etish kerakki, Britaniyada oltin aksiya amaliyoti

tashkiliy masalalarda aralashuvdan tashqari kapitalni boshqarishda, foydani taqsimlashda ham davlatning bevosita ishtirokini nazarda tutgan.

Oltin aksiyaning qoʻllanilishi yangi tashkil etilgan kompaniyalar rivojlanishiga davlat aralashuvining salbiy taʼsir koʻrsatishi, korporativ huquqning buzilishiga olib kelishi tufayli 2008-yilda Yevropa arbitraj sudi mazkur amaliyotni bekor qilish boʻyicha qaror qabul qildi. Chunki Yevropaning rivojlangan davlatlaridagi kompaniyalar aksiyadorlari tomonidan ilgari surilgan har tomonlama asosli koʻplab qarorlar qabul qilinishi davlat vakili tomonidan toʻxtatib qoʻyilishi aksiyadorlarning keskin noroziligiga olib kelgan edi. Aynan keltirilgan jihat sabab Yevropa ittifoqiga aʼzo davlatlarda bu amaliyot bekor qilindi. Ayni paytda mazkur amaliyot Yevropa ittifoqi mamlakatlari, Rossiya, Qozogʻiston va boshqa davlatlarda eng muhim strategik kompaniyalardagina qoʻllanilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 20-iyuldagi PF-3897-sonli «Iqtisodiyotning strategik tarmoqlari korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» Farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 24-iyuldagi 151-sonli “Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish maxsus huquqi («oltin aksiya»)dan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilingan. Aynan keltirilgan qaror bilan “Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish maxsus huquqi («oltin aksiya»)dan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom tasdiqlangan. Oʻzbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni va “Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish maxsus huquqi («oltin aksiya»)dan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida oltin aksiya qoʻllanilish tartibini belgilaydi.

«Oltin aksiya» davlatning ayrim jamiyatlarni boshqarishda ishtirok etishiga doir maxsus huquqi boʻlib, u strategik ahamiyatga ega boʻlgan davlat korxonalarini xususiylashtirilayotganda yoki jamiyatlarning davlat aksiya paketlari xususiylashtirilayotganda yoki jamiyatlarining davlat aksiyadorlik paketlari xususiylashtirilayotganda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan joriy etiladi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini taʼminlaydi.

«Oltin aksiya» qiymatga ega boʻlmaydi, boshqa shaxsga oʻtkazilmaydi hamda garovga berilmaydi, jamiyat ustav kapitalining miqdorini belgilashda va dividendlarni hisoblashda inobatga olinmaydi.

«Oltin aksiya» jamiyatning ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan yoki bu ulush jamiyat ustav kapitalining yigirma besh foizdan oshmaydigan jamiyatlarda joriy etilishi mumkin. Davlatning «oltin aksiya»dan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat tomonidan jamiyatni boshqarishda ishtirok etishga bo‘lgan maxsus huquq («oltin aksiya») joriy etilayotgan jamiyat ustavida davlatning mazkur maxsus huquqdan foydalanishi to‘g‘risidagi qoidalar ko‘rsatiladi. Bunda «oltin aksiya» joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlik jamiyati jamiyatning ustaviga tegishli ma’lumotlarni kiritgan holda uni qayta ro‘yxatdan o‘tkazadi, «oltin aksiya»dan foydalanishni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda esa jamiyat ustavidan ushbu ma’lumotlarni chiqarib tashlaydi. Shuningdek ilgari jamiyat ustavida belgilangan kuzatuv kengashi tarkibi a’zolari soniga o‘zgartirishlar kiritadi.

«Oltin aksiya» jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat vakilini tayinlash vositasida realizatsiya qilinadi.

Agar jamiyatga nisbatan «oltin aksiya»ni joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, jamiyat aksiyadorlarining reyestriga davlat vakili ham kiritiladi. Umuman, davlat ayni bir paytda «oltin aksiya»ga hamda aksiyadorlik jamiyatining 25 foizdan ortiq bo‘lmagan oddiy aksiyalariga egalik qilgan taqdirda davlat vakili «oltin aksiya» egasi bo‘lgan davlat vakolatlarini amalga oshirish bilan bir qatorda davlat aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi vakolatlarini ham bajaradi.

Bunda davlat vakili aksiyadorlar reyestriga ikki marta — «oltin aksiya»dan foydalanish bo‘yicha davlat vakili hamda tegishli davlat aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi sifatida kiritiladi.

Davlat vakili davlat aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi vakolatlarini davlat aktivlarini ishonchli boshqarish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bajaradi.

Davlat vakili Aksiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aksiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi tomonidan tayinlanadi.

Davlat vakilini tayinlash uchun nomzodlar bo‘yicha taklif Vazirlar Mahkamasining tegishli kompleksi bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish, davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi tomonidan kiritiladi.

Davlat vakili uch yil muddatga tayinlanadi.

Davlat vakili jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida va kuzatuv kengashi majlislarida ma'lum doiradagi masalalar bo'yicha veto qo'yish huquqi bilan majburiy tartibda ishtirok etadi. Bunda davlat vakiliga aksiyadorlik jamiyati ustavida belgilangan tartib-qoidaga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishlari va kuzatuv kengashi majlislari o'tkazilishi to'g'risida yozma xabarnoma, ularda ko'rib chiqish uchun kiritilayotgan materiallar nusxalari, aksiyadorlik jamiyati faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotlar, shu jumladan aksiyadorlik jamiyatining tijorat siri bo'lgan axborotlar majburiy tartibda taqdim etiladi.

Davlat vakili quyidagi masalalar bo'yicha «veto» qo'yish huquqi bilan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida va kuzatuv kengashi majlislarida majburiy tartibda ishtirok etadi:

- aksiyadorlik jamiyati ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki aksiyadorlik jamiyatining yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish;
- aksiyadorlik jamiyati faoliyatining asosiy yo'nalishlarini o'zgartirish;
- aksiyadorlik jamiyatini tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali miqdorini oshirish yoki kamaytirish;
- aksiyadorlik jamiyati tomonidan yirik bitimlar tuzish yoki affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;
- aksiyadorlik jamiyatining tijorat va notijorat tashkilotlarida ishtirok etishi;
- aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash;
- korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;
- jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

Yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlarga veto qo'yish ushbu qarorlar qabul qilingan kuni yozma shaklda amalga

oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining davlat vakili ishtirokisiz qabul qilingan qarorlari, shuningdek davlat vakili tomonidan veto qo'yilgan qarorlari ijro etilmaydi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi tomonidan mazkur yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinishida davlat vakili ovoz berishda qatnashmaydi. Lekin davlat vakili ayni bir vaqtda aksiyadorlik jamiyatining oddiy aksiyalari davlat paketini boshqargan hollarda esa ovoz berishda ishtirok etishini ham qayd etish shart.

Davlat vakili o'z vakolatlarini Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazining Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi takliflari hisobga olingan holda tayyorlangan yozma ko'rsatmalari asosida amalga oshiradi.

Davlat vakili kuzatuv kengashi majlisi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilishi sanasigacha kamida 15 kundan kechikmay Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markaziga kuzatuv kengashi majlisi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi to'g'risidagi axborotni, shu jumladan zarurat bo'lganda «veto» qo'yish huquqidan foydalanishga doir taklifni yuboradi. Bunda axborotga ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha davlat vakilining nuqtayi nazari asosli bayon qilingan tushuntirish xati ilova qilinadi.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi davlat vakilidan tegishli hujjatlar olingan sanadan boshlab ikki kun muddatda Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining «veto» qo'yish huquqidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasini so'raydi. Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazidan tegishli hujjatlar olingan sanadan boshlab 3 kun mobaynida Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markaziga «veto» qo'yish huquqidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha o'zining aniq nuqtayi nazarini yozma shaklda taqdim etadi.

«Veto» qo'yish huquqidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish mar-

kazi, Iqtisodiyot vazirligi yoki Moliya vazirligi o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi kelishilgan qaror qabul qilinishi uchun ko'rsatib o'tilgan vazirliklarning vakillari va davlat vakili ishtirokida kelishuv kengashi o'tkazadi.

Agar kelishuv qarori ishlab chiqilmagan bo'lsa Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi zarur materiallarni, shu jumladan kelishmovchiliklar ro'yxati va tomonlarning nuqtayi nazarlari asosnomasi bilan birgalikda kelishuv kengashi protokolini Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiyaga taqdim etadi. Komissiya belgilangan tartibda uzil-kesil qaror qabul qiladi.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi davlat vakilidan tegishli hujjatlar olingan sanadan boshlab 15 kundan kechikmay qabul qilingan qaror to'g'risida davlat vakiliga «veto» qo'yish huquqidan foydalanishga nisbatan aniq yozma ko'rsatmalarni yuboradi.

Davlat vakili o'z faoliyati davomida quyidagilarga majbur:

- o'z vakolatlarini Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazidan olingan ko'rsatmalarga qat'i muvofiq ravishda amalga oshirish;

- o'ziga yuklangan vakolatlarni amalga oshirish paytida o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va ulardan davlatning, aksiyadorlik jamiyatining va uning aksiyadorlarining manfaatlariga zid bo'lgan maqsadlarda foydalanmaslik;

- O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markaziga o'z vakolatlarini amalga oshirish bo'yicha o'zi olgan har bir ko'rsatmaning bajarilishi natijalari to'g'risida yozma axborot taqdim etish.

Davlat aktivlarini ishonchli boshqarish vakolatlari ayni bir vaqtda bajarilgan taqdirda davlat vakili O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markaziga qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu vakolatlarning bajarilishi to'g'risida alohida hisobotlar taqdim etadi.

Davlat vakili O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xususiy- lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq davlat mablag'lari hisobiga har yillik taqdirlash puli oladi. Davlat vakili aksiyadorlik jamiya- tidan qo'shimcha taqdirlash puli olishga haqli emas, davlat aktivlarini ishonchli boshqarish vakolatlari ayni bir vaqtda bajarilgan holat bundan mustasno. Davlat vakili faoliyatini nazorat qilish Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazi, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari bo'yicha Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Dav- lat aktivlarini boshqarish markazi tomonidan tayyorlangan umumlashtiruv- chi materiallar asosida Vazirlar Mahkamasining tegishli Kompleksi tomo- nidan amalga oshiriladi.

Davlat vakili o'ziga yuklangan vakolatlardan O'zbekiston Respubli- kasining Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish markazining Vazirlar Mahkamasining tegishli Kompleksi bilan kelishilgan taklifi bo'yicha Aksiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aksiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi tomonidan o'z vazifalarini bajarmaganda yoki zarur tarzda bajarmaganda; - uzoq vaqt kasal bo'lish, yashash joyining o'zgarishi yoki boshqa sabablar natijasida u o'z vazifalarini bundan keyin bajarishi mumkin bo'lmaganda ozod qilinadi.

10.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ishtirokining amaldagi holati

Aksiyadorlik jamiyatlarida davlatning ishtiroki birinchi navbatda davlatning yoki davlat xo'jalik boshqaruvi organ (xo'jalik birlashma)lari- ning aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalidagi ishtiroki bilan belgilanadi. Ustav kapitalida davlatning ishtiroki mavjud aksiyadorlik jamiyatlari quyidagicha guruhlanadi:

- ustav kapitali to'liq davlat mulki hisobiga shakllantirilgan aksiyadorlik jamiyatlari;
- ustav kapitalida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari;

- ustav kapitali xo‘jalik birlashmalari (davlat xo‘jalik boshqaruv organlari) mulki hisobiga shakllangan aksiyadorlik jamiyatlari;
- ustav kapitalida xo‘jalik birlashmalari ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari;
- ustav kapitalida davlat va xo‘jalik birlashmalari ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari.

Ustav kapitali to‘liq davlat mulki hisobiga shakllantirilgan aksiyadorlik jamiyatlari davlat yagona aksiyador bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bunday aksiyadorlik jamiyatlari mamlakatimizda mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17- oktabrdagi PQ-2635-sonli “Davlat ulushi ustuvor bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan oddiy aksiyalari 100 foizga davlatga tegishli bo‘lgan strategik ahamiyatga ega aksiyadorlik jamiyatlari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. «O‘zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasi.
2. «O‘zbekenergo» aksiyadorlik jamiyati.
3. «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati.
4. «O‘zbekiston havo yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati.
5. «O‘zbektelekom» aksiyadorlik jamiyati.
6. «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati.
7. «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati.
8. Aksiyadorlik tijorat bank «Xalq banki».

Bunda «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi va «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasi qayta tashkil etish yo‘li bilan aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi belgilangan.

Mamlakatimizda korporativ tuzilmalardagi davlat ulushini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 dekabrda 4112-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida quyidagi korporativ tuzilmalardagi davlat ulushini boshqarish agentlikka berilishi belgilangan (10.2-jadval).

10.2-jadval

Ustav kapitalidagi davlat aktsiya paketlari (ulushlari) Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga berilgan xo‘jalik jamiyatlari

T/r	Jamiyatlar nomi	Davlat ulushi (%)*
1.	«O‘ztreyd» AJ	100,00
2.	«O‘zsanoateksport» AJ	100,00
3.	«O‘zbekekspertiza» AJ	51,00
4.	«O‘rtaosiyo trans» AJ	51,00
5.	«O‘zbektelekom» AJ	96,55
6.	«O‘zbekistonpochtasi» AJ	76,4
7.	«O‘zimpeksaloqa» MChJ	51,91
8.	«UZINFOCOM» yagonaintegratori» MChJ	51,0
9.	«Matbuottarqatuvchi» AJ	26,0
10.	«Aloqa bank» AJ	6,2
11.	«Alskom» AJ	2,0
12.	«O‘zagrosanoatloyiha» MChJ	94,72
13.	«O‘zsuvloyiha» AJ	50,8
14.	«Suv mash» AJ	47,0
15.	«O‘zagrosug‘urta» AJ	93,46
16.	«Kafolatsug‘urtakompaniyasi» AJ	66,51
17.	«Qishloqqurilishinvest» MChJ	59,46
18.	«Qurilish mashlizing» AJ	58,82
19.	«Qishloqqurilish bank» ATB	54,89
20.	AT «Xalq bank»	40,43
21.	«Agrobank» ATB	37,95
22.	«Mikrokreditbank» ATB	34,48
23.	«O‘zsanoatqurilishbank» ATB	32,61
25.	«Asaka bank» ATB	21,65
26.	«Turon bank» ATB	6,53
27.	«O‘zbekiston Respublika valyuta birjasi» AJ	50,13
28.	«O‘zagrolizing» AJ	0,9
29.	«Qishloqqurilishloyiha» MChJ	85,94
30.	«Suvsanoatfuqaroli» MChJ	77,8
31.	«O‘zog‘irsanoatloyiha» AJ	69,43
32.	«O‘zGIP» MChJ	53,1
33.	«Tashgiprogor» AJ	41,48
34.	«ToshuyjoyLITI» AJ	61,58
35.	«O‘ztibloyiha» MChJ	74,16
36.	«Toshshahartransxizmat» AJ	100,00
37.	«Olmazorkichiksanoatxonasi» AJ	88,58
38.	«Toshkent-Osiyo» AJ	46,67

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 maydagi PQ-4325 sonli “Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tuzilmasida Sanoatning bazaviy tarmoqlari, yoqilg‘i-energetika majmui va geologiyani rivojlantirish moliyasi va tarifni tartibga solish bosh boshqarmasi negizida Tarif siyosati va davlat korxonalarini isloh qilish bosh boshqarmasi hamda vazirlik boshqaruv xodimlarining umumiy shtat birliklari doirasida Davlat ishtirokidagi tijorat banklarini isloh qilishni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etildi. Mazkur qaror bilan tijorat banklarida davlat ulushini boshqarish Moliya vazirligiga yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi PF-6096 sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni davlat ishtirokidagi korxonalarda iste‘molchiga yo‘naltirilgan zamonaviy boshqaruv usullari, ochiqlik, shaffoflik va bozor tamoyillarini jadal joriy etish, tannarxni pasaytirish orqali daromadlarni oshirish, islohotlar jarayonida xususiy kapital ishtiroki uchun kengroq imkoniyatlar yaratish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va raqobat muhitini yanada yaxshilash maqsadida transformatsiya qilinadigan yirik davlat korxonalari va xo‘jalik birlashmalari ro‘yxati, korporativ boshqaruv va moliyaviy audit joriy etiladigan, operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi korxonalar ro‘yxati, xususiylashtirishdan oldin tayyorlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning manzilli dasturlari orqali ommaviy savdolarga chiqariladigan davlat aktivlari ro‘yxati, davlat aktsiya paketlari (ulushlari) to‘lig‘icha ommaviy savdolar orqali xususiy sektorga sotiladigan korxonalar ro‘yxati tasdiqlandi.

Bunda transformatsiya qilinadigan yirik davlat korxonalari va xo‘jalik birlashmalari ro‘yxati quyidagilar (10.4-jadval).

Transformatsiya qilinadigan yirik davlat korxonalari va xo‘jalik birlashmalari⁵⁷

Nomi	Hudud	Davlatul ushi (%)
«Navoiy kon-metallurgiyakombinati» AJ	Navoiy	100,0
«O‘zbekneftgaz» AJ	Toshkent	100,0
«O‘ztransgaz» AJ	Toshkent	99,5
«Hududgazta’minot» AJ	Toshkent	100,0
«O‘zbekistonmillielektrtarmoqlari» AJ	Toshkent	100,0
«Hududiyelektrtarmoqlari» AJ	Toshkent	100,0
«Issiqlikelektrstantsiyalari» AJ	Toshkent	100,0
«O‘zbekgidroenergo» AJ	Toshkent	100,0
«O‘zkimyosanoat» AJ	Toshkent	100,0
«Navoiyazot» AJ	Navoiy	49,0
«O‘zbekistonpochtasi» AJ	Toshkent	76,4
«O‘zbektelekom» AJ	Toshkent	94,8
«Hisorgeologiya» DUK	Qashqadaryo	100,0
«Qizilqumgeologiya» DUK	Navoiy	100,0
«Samarqandgeologiya» DUK	Samarqand viloyati	100,0
«Surxongeoologiya» DUK	Surxondaryo	100,0
«O‘zbekgeofizika» AJ	Toshkent	82,2
«Urakamyobmetgeologiya» DUK	Toshkent	100,0
«Toshkentgeologiya» DUK	Toshkent	100,0
«Geoltexta’minot» DUK	Toshkent	100,0
«Markaziy laboratoriya» DUK	Toshkent	100,0
«Geoburtexnika» DUK	Toshkent	100,0
«Geologiya-marksheyderlikxizmati» DUK	Toshkent	100,0
«Geoterekalmaz» MChJ	Toshkent	49,0
«O‘zagrosug‘urta» AJ	Toshkent	94,0
«O‘zdonmaxsulot» AJ	Toshkent	100,0
«O‘zavtosanoat» AJ	Toshkent	100,0
«Toshshahartransxizmat» AJ	Toshkent	100,0
«O‘zsuvta’minot» AJ	Toshkent	100,0
«O‘zbekistontemiryo‘llari» AJ	Toshkent	100,0
«UzbekistanAirways» AJ	Toshkent	100,0
«UzbekistanAirports» AJ	Toshkent	100,0

⁵⁷Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 октябрдаги ПФ-6096 сонли Фармонида.

Bu borada Moliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 24 ta shtat birligidan iborat Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish departamenti tashkil etildi. Bundan tashqari yuqoridagi 32 ta korporativ tuzilmada Moliya vazirligi davlat nomidan aktsiyador (ishtirokchi, mulkdor) vakolatlari va funksiyalarini amalga oshiradi.

Korporativ boshqaruvning zamonaviy usullari va moliyaviy audit joriy etiladigan, operatsion faoliyat samaradorligi oshirilishi belgilangan davlat ishtirokidagi korxonalar ham belgilangan bo'lib, ular quyidagilar (10.4-jadval).

10.4-jadval

Korporativ boshqaruv va moliyaviy audit joriy etiladigan, operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi korxonalar⁵⁸

Nomi	Hudud	Davlatulushi (%)
«Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ	Toshkent	97,5
«O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJ	Toshkent	85,0
«O'zbekistonranglimetalparchalarichiqindilarinitayyo rlashvaqaytaishlash zavodi» AJ	Toshkent	50,5
«Toshkent metallurgiya zavodi» MChJ	Toshkent	49,9
«Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJ	Farg'ona	100,0
«O'zbekko'mir» AJ	Toshkent	90,1
«Angren issiqlikelektrstantsiyasi» AJ	Toshkent	99,0
«Yangi Angren issiqlikelektrstantsiyasi» AJ	Toshkent	99,6
«Koskom» MChJ	Toshkent	100,0
«O'zekspomarkaz» AJ	Toshkent	91,8
«Fond bozoriningaxborot-resursmarkazi» DUK	Toshkent	100,0
«Toshkentrespublika fond birjasi AJ	Toshkent	50,0
«Qimmatliqog'ozlarningmarkaziydepozitariysi» DUK	Toshkent	100,0
«Elsis-savdo» AJ	Toshkent	60,4
«O'zbekistonRespublikasi tovar-xomashyo birjasi» AJ	Toshkent	26,0
«O'zbekinvest eksport-import milliysug'urtakompaniyasi» DUK	Toshkent	83,3
«Andijonbiokimyo zavodi» AJ	Andijon	96,0

⁵⁸Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 октябрдаги ПФ-6096 сонли Фармонида.

Biokimyo» AJ	Toshkent	51,0
«Bektemir-spirit eksperimental zavodi» AJ	Toshkent	51,0
«Yo‘lqurilish» AJ, «Transyo‘lqurilish» DUK va 15 ta yo‘lqurilishkorxonalari	Toshkent	100,0
«O‘zsuvqurilish» AJ	Toshkent	100,0
«Xumo air» MChJ	Toshkent	100,0
«Agro klaster» MChJ	Buxoro	99,5

2021-yil 1-mart holatiga mamlakatimizda 599 ta aksiyadorlik jamiyati mavjud bo‘lib, unda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari – 241 ta; xo‘jalik boshqaruv organlari ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari – 176 tani tashkil etgan (10.2-rasm). Aynan shu sanada respublika bo‘yicha umumiy aksiyadorlik kapitali 138,805 trillion so‘mni tashkil etgan holda uning 121,5 trillion so‘mlik qismi, ya‘ni 86,9 foizi davlatga tegishlidir.



10.2-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ishtiroki holati, 2021 yil 1-mart holatiga⁵⁹

Xorijiy davlatlarda esa davlatning aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalidagi ishtiroki nisbatan past ekanligiga quyidagi jadval orqali guvoh bo‘lish mumkin (10.3-jadval).

⁵⁹ www.deponet.uz – Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси расмий вебсайти маълумотлари асосида тайёрланди.

Listindan o'tgan kompaniyalarda mulkdorlar ulushi, foizda⁶⁰

Mamlakat	Individual investorlar	Institutsional investorlar	Banklar va hukumat	Xolding kompaniyalar	Xorijiy investorlar
Avstraliya	20	34	4	11	31
Kanada	15	38	8	14	25
Frantsiya	23	12	14	14	37
Germaniya	17	15	17	39	12
Italiya	18	14	40	18	10
Yaponiya	20	21	23	28	8
Shvetsiya	23	30	8	9	30
Niderlandiya	14	21	1	23	41
Buyuk Britaniya	19	58	5	2	16
AQSh	51	41	3	0	5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, listingdan o'tgan aksiyadorlik kompaniyalari xususiy kapitalida banklar va hukumat ulushi Italiyada nisbatan yuqori, 40 foiz ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek Germaniyada xolding kompaniyalar ulushi yuqoriligi namoyon bo'lmoqda. Keltirilgan tahlil ma'lumotlari asosida mamlakatimizda ham davlat ulushini kamaytirib borish maqsadga muvofiq.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR**Nazorat savollari**

1. Davlat korporativ boshqaruvda qanday tartibda ishtirok etadi?
2. Davlat korxonalarini va davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish bo'yicha jahon amaliyotida eng keng tarqalgan modellar.
3. Oltin aksiya amaliyoti va qo'llanish xususiyatlari.
4. Davlatning yagona aksiyador sifatida korporativ boshqaruvni amalga oshirishi.
5. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning asosiy prinsiplari.
6. Xo'jalik boshqaruvi organlari orqali davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki.
7. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning modellari.

⁶⁰ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 152

8. Davlat vakilining aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish tartibi.

9. O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida davlat ishtirokini tahlil qiling.

Testlar

1. Davlatning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi ishtiroki yo'nalishlarini belgilang.

a) korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi, faoliyat nazoratini olib boradi, bevosita o'z ulushini kiritadi;

b) aksiyadorlarning muntazam dividend olishini ta'minlaydi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ustidan nazorat o'rnatadi;

c) vakil qo'yish orqali kuzatuv kengashi va ijroiya organi faoliyati muvofiqligini ta'minlaydi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish vaqtini belgilaydi;

d) davlat vakilini qo'yish orqali qarorlar qabul qiladi, moliya inspektorini tayinlaydi.

2. Davlatning korporativ boshqaruvda bevosita ishtiroki nimalar asosida amalga oshiriladi?

a) AJ ovoz beruvchi aksiyalariga to'liq, faqat nazorat paketiga yoki ustav kapitalida ma'lum bir ulushga egalik qilish, oltin aksiya amaliyotini joriy etish;

b) davlat vakilini qo'yish orqali qarorlar qabul qiladi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish vaqtini belgilaydi;

c) kuzatuv kengashi va ijroiya organi faoliyati muvofiqligini ta'minlaydi;

d) ijroiya organi to'liq davlat tomonidan shakllantiriladi, boshqaruv huquqini beruvchi imtiyozli aksiyalarni joriy etadi.

3. Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki kamchi-liklari qaysi javobda keltirilgan?

a) AJ mustaqilligini chegaralaydi, veto qo'yish huquqining berilishi qaror qabul qilishning kechikishiga olib keladi, boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanadi;

b) monopoliya tartibga solib turiladi va narxlar barqarorligi ta'minlanadi, professional boshqaruv amalga oshiriladi;

c) yirik aksiyadorlik jamiyatlari bankrotligining oldi olinadi va tugatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

d) strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazorati o‘rnatiladi, professional boshqaruv amalga oshiriladi;

4. Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki afzalliklari keltirilgan javobni belgilang.

a) monopoliya tartibga solib turiladi, strategik tarmoqlarida samarali davlat nazorati o‘rnatiladi, yirik aksiyadorlik jamiyatlari bankrotligining oldi olinadi va tugatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

b) xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanishiga olib keladi;

c) davlatning haddan tashqari ko‘p aralashuvi korporativ tuzilmaning mustaqilligini chegaralaydi;

d) xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, aksiyadorlik jamiyatlariga investorlarning qiziqishlari nisbatan past bo‘ladi.

5. “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish” masalasi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qaysi yo‘nalishida berilgan?

a) 3.4-yo‘nalishida;

b) 2.3-yo‘nalishida;

c) 4.1-yo‘nalishida;

d) 3.1-yo‘nalishida.

6. “Davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishini cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish darkor”ligi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning qaysi ma‘ruzasida berilgan?

a) 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida;

b) Tanqidiy tahlil, qat’i tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak;

c) Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz;

d) Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.

7. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida davlat boshqaruvini saqlab qolish vositasi sifatida amal qilib, davlat vakilining alohida huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan amaliyot qanday nomlanadi?

- a) oltin aksiya;
- b) boshqaruv huquqini beruvchi imtiyozli aksiya;
- c) veto aksiyasi;
- d) davlat aksiyasi.

8. Davlat tomonidan kompaniyalarni moliyalashtirish va daromad olish vositasi hisoblanmaydi, oldi-sotdi qilin-maydigan aksiya qanday nomlanadi.

- a) oltin aksiya;
- b) davlat boshqaruvi huquqini taqdim etuvchi aksiya;
- c) imtiyozli aksiya;
- d) davlat aksiyasi.

9. Oltin aksiya amaliyotining asoschisi kim?

- a) Margaret Tetcher;
- b) Toni Bler;
- c) Ronald Reygen;
- d) Teodor Ruzvelt.

10. Qachon Yevropa arbitraj sudi tomonidan oltin aksiya amaliyotini bekor qilish bo'yicha qaror qabul qilingan?

- a) 2008-yilda;
- b) 1980-yilda;
- c) 2017-yilda;
- d) 1998-yilda.

11. Vazirlar Mahkamasining "Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish maxsus huquqi («oltin aksiya»)dan foydalanish tartibi to'g'risi-da"gi qarori qachon qabul qilingan?

- a) 2007-yil 24-iyulda;
- b) 1999-yil 5-fevralda;
- c) 1996-yil 26-aprelda;
- d) 2014-yil 6-mayda.

12. «Oltin aksiya» qanday aksiyadorlik jamiyatlarida joriy etilishi mumkin?

- a) ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan yoki bu ulush 25 foizdan oshmaydigan jamiyatlarda;
- b) ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan oshmaydigan jamiyatlarda;
- c) ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan aksiyadorlik jamiyatlarida;
- d) ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq jamiyatlarda.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Korporativ boshqaruvda davlat ishtirokining afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha T-sxemani to‘ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Oltin aksiya, oddiy aksiya va imtiyozli aksiyalarning qo‘llanish xususiyatlari bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Oltin aksiya	Oddiy aksiya	Imtiyozli aksiya
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

3. Oltin aksiya amaliyoti joriy etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida davlat vakilining tayinlanishi, vakolatlari va majburiyatlari, veto qo‘yish tartibi bo‘yicha sxema shakllantiring.

Davlat vakilining tayinlanish tartibi	Davlat vakilining vakolatlari	Davlat vakilining majburiyatlari	Qarorlarga veto qo‘yish tartibi
1.	1.	1.	1.
2.	2.	2.	2.
...

XI bob. KORPORATIV MOLIYAVIY SIYOSAT VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

11.1. Korporativ moliyaviy munosabatlar tizimi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya tizimining samarali ishlashi uning har bir bo‘g‘in faoliyat samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Bunda moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan korporativ moliyada moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish nafaqat har bir korporativ tuzilmada shu bilan birga har bir mamlakatda alohida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin.

Moliya tizimining aynan shu sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga taqsimlanadigan daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va bu daromadlar iqtisodiy taraqqiyotning hamda jamiyat ravnaqining asosiy manbasi sifatida xizmat qiladi. Bunda korporativ tuzilmalar daromadlari o‘z-o‘zini moliyalashtirish uchun, ishchi xodimlar va davlat oldidagi majburiyatlari hamda boshqa yo‘nalishlarga taqsimlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korporativ moliyaning moliya tizimi markaziy bo‘g‘ini sifatida yuzaga chiqishini ko‘rishimiz mumkin va korporativ moliyaning amal qilishini samarali tashkil etish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida doimiy e‘tibor talab qilishini ta’kidlashimiz lozim. Korporativ moliya bugungi kunga kelib xalqaro moliya tizimining asosi sifatida ham xizmat qilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan shunday holatda mamlakatimizda korporativ moliyani samarali tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish bilan birga xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonining yuksalishiga imkon beradi. Chunki tashqi savdo munosabatlari aynan davlatlar bilan bir qatorda korporativ tuzilmalar ham faol ishtirok etadi.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tijorat tashkilotining asosiy maqsadi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish orqali yuqori foyda olish va mulkdorlar manfaatlarini qanoatlantirish hamda moddiy farovonligini oshirish hisoblanadi. Erkin bozor munosabatlarida bozorning har qanday subyekti sotuvchi va (yoki) xaridor sifatida qatnashishi mumkin. Umuman bozor munosabatlarini rivojlantirish korporativ moliyaning jamiyatdagi rolini kuchaytirishni talab qiladi.

Har qanday moliyaviy munosabatning moddiy asosi pul hisoblanadi. Pul mablag‘larining subyektlar o‘rtasidagi maqsadli harakati moliyaviy munosabatning yuzaga kelish asosiy shartidir. Korporativ tuzilma doirasida

pul fondlarini shakllantirish va taqsimlash, ulardan foydalanish jarayonlari korporativ moliyaning asosi sifatida xizmat qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlashimiz lozimki, korporativ tuzilma bu tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxsdir. Yuridik shaxs tushunchasi esa “o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot”⁶¹ni anglatadi. Respublikamizda korporativ tuzilmalarning eng keng tarqalgan turlari sifatida aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni keltirishimiz mumkin. 2021 yil 1 mart holatiga respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 599 tani tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ tuzilmalar quyidagi subyektlar bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadi (11.1 -rasm):



11.1-rasm. Korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarga kirishadigan subyektlar


⁶¹O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 39-modda.

Korporativ tuzilmalarning boshqa subyektlar bilan moliyaviy munosabatlari xususida quyida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Avvalo, *ta’sischi (aksiyador)lar* bilan moliyaviy munosabatlar korporativ tuzilmani tashkil etish (ta’sis etish) bilan bog‘liq munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda korporativ tuzilma faoliyatini tashkil etishda ta’sischi (aksiyador)larning ulushlarini belgilashlari, ta’sischi (aksiyador)ning ulush kiritish va o‘z ulushlarini korporativ tuzilmadan olib chiqib ketishlari, uchinchi shaxslarning ta’sischi (aksiyador) sifatida kirish jarayonlarida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Boshqa tomondan erishilgan natija – korporativ tuzilma foydasini ta’sischi yoki aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash jarayoni ham korporativ moliyaviy munosabatlarda muhim o‘ringa ega ekanligini qayd etib o‘tishimiz lozim.

Korporativ moliyaviy munosabatlarda *ishchi-xodimlar* bilan moliyaviy munosabatlar muntazam ravishda ro‘y berib turishi bilan xarakterlidir. Shuningdek, ishchi-xodim aksiyador ham bo‘lsa, ular bilan moliyaviy munosabatlar ko‘lami yanada kengayadi.

Davlatning korporativ tuzilmalar bilan moliyaviy munosabatlari ko‘p tomonlamaligi bilan ajralib turadi. Bunday munosabatlar tarkibini quyida keltirib o‘tamiz (11.2-rasm):



11.2-rasm. Davlatning korporativ tuzilmalar bilan moliyaviy munosabatlari

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida davlatning korporativ tuzilma bilan moliyaviy munosabatlari bevosita davlat ro'yxatidan o'tkazish va faoliyatga ruxsat berish, faoliyatni tartibga solish, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish, davlat ulushini kiritish yoki xususiylashtirish maqsadida sotish, korporativ boshqaruvda bevosita ishtirok etish, davlat ta'lim muassasalarida korporativ tuzilmalar faoliyati uchun kadrlar tayyorlash, ish o'rinlari yaratish orqali aholi bandligini va daromadligini ta'minlash, moliyaviy nazorat qilib borish, subsidiyalar yoki davlat kreditlari ajratish, turli imtiyoz va preferentsiyalar (xususan, soliq imtiyozlari) berish, yirik loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish, iste'molchi sifatida davlat xaridini amalga oshirish, davlat qimmatli qog'ozlarini korporativ tuzilmalar o'rtasida joylashtirish kabi holatlarda namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarini quyidagi to'rtta guruh bo'yicha tasniflash mumkin (11.3-rasm).

Bugungi kunga kelib korporativ tuzilmalar o'z faoliyatlarini kengaytirib borishlari natijasida *vakolatxonalar, sho'ba korxonalar, filiallar* tashkil etishga e'tibor qaratadilar. Bunday tarkibiy bo'linmalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar ham korporativ moliyaviy munosabatlarda foydani maksimallashtirib borish hamda mulkdorlar moddiy farovonligini oshirib borish nuqtayi nazaridan alohida e'tibor talab qiladi.

Bizga ma'lumki, milliy amaliyotda korporativ tuzilmalarning, ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlarining *yuqori turuvchi tashkilotlar* (xo'jalik birlashmalari, xoldinglar, kompaniyalar, uyushmalar, kontsernlar va hokazo) bilan bevosita bog'liq holda faoliyat ko'rsatishi keng qo'llaniladi. Bunda xoldinglar aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining nazorat paketiga bevosita egalik qiladi va natijada moliyaviy qarorlar qabul qilish bevosita xolding qarori asosida tashkil etiladi.

Bugungi kunda korporativ tuzilmalar faoliyatini *tijorat banklarisiz* tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bank tizimi amalda lokomotiv vazifasini bajarishi, xo'jalik yurituvchi barcha subyektlarni o'z ishlarini qayta tashkil etishga, bozor mexanizmlarini dadil va jadal egallashga davlat etuvchi omil bo'lishi darkor"⁶².

⁶² Каримов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида. – Т.: "Ўзбекистон", 2005. – 386-бет. (528)



11.3-rasm. *Korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlari tasnifi*

Tijorat banklari korporativ tuzilmalarning naqd pulsiz hisob-kitoblarini tashkil etishlari bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditlash (investitsiyalash), faktoring, lizing va boshqa xizmatlarni ham ko'rsatadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra "Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan, shuningdek sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi"⁶³. Shundan kelib chiqqan holda *sug'urta kompaniyalari* korporativ tuzilmalar faoliyatida yuzaga

⁶³ Ўзбекистон Республикаси "Суғурта фаолияти тўғрисида"ги Қонуни, 3-модда.

kelishi mumkin boʻlgan moliyaviy risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion institut ham hisoblanadi va moliya bozori orqali korporativ tuzilmalarga investitsiya kiritadi. Korporativ tuzilmalar tomonidan qimmatli qogʻozlar emissiyasi va ularni joylashtirish *fond birjalari* orqali amalga amalga oshiriladi. Bunda investorlar bevosita fond birjalarida joylashtirilgan korporativ qimmatli qogʻozlarni xarid qilish orqali korporativ tuzilmalar bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Bundan tashqari fond birjasi ham aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

Shu oʻrinda mamlakatimizda faoliyat koʻrsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan fond bozori orqali aksiyalar muomalasi tashkil etilganligi, shuningdek tor doirada korporativ obligatsiyalar muomalasi mavjudligini taʼkidlab oʻtishimiz lozim. Respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan 2017-yil 1- yanvar holatiga 30463,5 milliard soʻmlik aksiyalar muomalaga chiqarilganligini koʻrishimiz mumkin (11.1-jadval).

11.1-jadval

Hududlar kesimida aksiyadorlik jamiyatlarining soni va ular tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar, mlrd.soʻm⁶⁴
2021 yil 5 mart holatiga

Jami aksiyadorlik jamiyatlari		599	139 803,22
Shu jumladan:			
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	20	85,98
2	Andijon viloyati	36	780,08
3	Buxoro viloyati	36	209,84
4	Jizzax viloyati	17	341,56
5	Qashqadaryo viloyati	43	1 201,33
6	Navoiy viloyati	19	2 477,20
7	Namangan viloyati	22	181,14
8	Samarqand viloyati	31	407,80
9	Surxondaryo viloyati	22	103,51
10	Sirdaryo viloyati	16	206,67
11	Toshkent viloyati	47	1 731,16
12	Fargʻona viloyati	45	1 285,00
13	Xorazm viloyati	28	192,58
14	Toshkent shahri	217	130 599,38

⁶⁴ www.deponet.uz - Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysi maʼlumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining 217 tasi Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, ular tomonidan 130 599,38 milliard so'mlik aksiyalar chiqarilgan.

Korporativ tuzilmalar kapital jalb qilish nuqtayi nazaridan *investitsiya institutlari*, xususan investitsiya va pay fondlari bilan munosabatlarga kirishadi. Bunda "investorlarning pul mablag'larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir"⁶⁵. Keltirilayotgan ta'rifdan ham ko'rishimiz mumkinki, investitsiya fondlari bevosita qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatadi va korporativ qimmatli qog'ozlar bilan ham operatsiyalarga kirishadi.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, "aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar, mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar, ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalar, fond va tovar birjalari har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak"⁶⁶. Shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ixtiyoriylik asosida ham auditorlik tekshiruvi jalb qilinishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, korporativ tuzilmalar o'z faoliyati davomida auditorlik tashkilotlari bilan moliyaviy munosabatlarga kirishishga majbur. Ayrim moliyaviy qarorlarni qabul qilishda auditorlik xulosasi talab etilishi ham korporativ tuzilmalar va auditorlik tashkilotlarining o'zaro hamkorligiga xizmat qiladi.

Xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan moliyaviy munosabatlar o'z-o'zidan muntazam amalga oshirib borilishi bilan xarakterli. Chunki belgilab olingan faoliyatni amalga oshirish orqali qo'yilgan maqsadga erishish, ya'ni foydani maksimallashtirish uchun xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan moliyaviy munosabatlar tashkil etilishi talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aktivlar bahosi bevosita talab va taklif asosida shakllanadi. Shuningdek ma'lum bir holatlarda aktivlarning bozor

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 10-modda.

bahosini aniqlash baholash tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ tuzilmalar o'z faoliyatlari davomida ma'lum bir moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun baholash tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishlariga to'g'ri keladi. Qo'shimcha ravishda qonunchilik talablari asosida baholash tashkilotlari xizmatlaridan foydalanish bo'yicha majburiy holatlar ham mavjud. "Garov to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, "Garov narsasini baholash garovga qo'yuvchi bilan garovga oluvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra yoki baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq garov narsasini baholashdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi"⁶⁷. Baholash to'g'risidagi qonunchilikka ko'ra, "Baholashni o'tkazishni davlatga to'la yoki umumiy mulk huquqida qisman qarashli baholash obyektlari bitim tuzishga jalb etilgan taqdirda, shu jumladan: baholash obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga topshirish yoki ijaraga berish maqsadida ularning qiymati aniqlanayotganda; baholash obyektlaridan garov narsasi sifatida foydalanayotganda; baholash obyektlari sotilayotganda yoki o'zga shaxsga boshqacha tarzda o'tkazilayotganda; baholash obyektlari bilan bog'liq qarz majburiyatlaridan boshqaning foydasiga voz kechilayotganda; baholash obyektlari yuridik shaxslarning ustav fondlariga ulush tariqasida berilayotganda majburiydir.

Baholash o'tkazish baholash obyektining qiymati to'g'risida nizo chiqqan taqdirda ham, shu jumladan mol-mulk natsionalizatsiya qilinayotganda; ipoteka krediti berilayotganda; taraflardan birining talabiga binoan er-xotinning mol-mulki bo'linayotganda; mol-mulk mulkdorlaridan davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha tarzda olib qo'yilayotganda; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat o'tkazilayotganda majburiydir"⁶⁸, deb belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, korporativ tuzilmalar bank kreditlarini jalb qilish jarayonida garov ta'minotini baholash yuzasidan baholovchilarga bevosita murojaat qiladi. Umuman baholovchilar faoliyati nafaqat garovni baholash, balki qimmatli qog'ozlarni baholash, biznesni baholash va hokazolarda ham namoyon bo'ladi.

Lizing kompaniyalari bilan moliyaviy munosabatlarning tashkil etilishi natijasida korporativ tuzilmalar o'z faoliyatlariga yangi texnologiyalar, asosiy vositalar jalb qilishlari mumkin. Korporativ tuzilmalarning asosiy

⁶⁷O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi Qonuni, 10-modda.

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 11-modda.

vositalar sotib olish imkoniyati cheklangan sharoitda lizing xizmatlaridan foydalanish nisbatan samarali bo'lishi mumkin.

Soliq maslahatchilari bilan munosabatlarda esa soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish, soliqlarni rejalashtirish, soliq xatoliklarini bartaraf etish va hokazolarga e'tibor qaratiladi. Bu haqda to'rtinchi bobda atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Shuningdek, korporativ tuzilmalar konsalting firmalari, yuridik xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, birjalar va boshqa ijtimoiy hamda bozor infratuzilmalari subyektlari bilan ham moliyaviy munosabatlarga kirishishlari mumkin.

Bugungi kunda korporativ moliyaviy munosabatlarda birla-shishlar va qo'shib olishlar operatsiyalari xalqaro miqyosda keng qo'llanilib kelinayotgan amaliyotlardan biri ekanligidan kelib chiqqan holda mazkur masalaga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Korporativ moliyaviy taraqqiyotda har qanday korporativ tuzilma rivojlanish strategiyasini belgilashda o'z tashkiliy tuzilmasi doirasida yoki boshqa mustaqil iqtisodiy subyektlar bilan birlashish orqali rivojlanishga e'tibor qaratadi. Shu boisdan korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar bugungi kunda korporativ moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Bunda bir kompaniya tomonidan boshqa bir kompaniya ustidan nazorat o'rnatilishi natijasi hisoblangan qo'shib olish operatsiyalari, shuningdek ikki yoki undan ortiq kompaniya yanada yirikroq kompaniyani tashkil etish maqsadida o'zaro birlashishlari hisobiga yangi kompaniyalar faoliyati tashkil etilishi kabilarni alohida qayd etib o'tishimiz mumkin. Birlashish va qo'shib olish bitimlari orqali yangi biznesni tashkil etishdan asosiy maqsad biznesga qo'shimcha elementlarni birlashtirish va integratsiyalash hisobiga kompa-niyaning strategik ustunligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy jihatdan yuqori salohiyatga ega kompaniyalar bozorda yanada raqobatbardosh bo'lgan kompaniyani tashkil etish maqsadida nisbatan kuchsiz bo'lgan kompaniyalarni o'ziga qo'shib olishga harakat qiladi. Shuningdek, moliyaviy jihatdan o'zaro teng kuchga ega kompaniyalar bozorda o'z ulushini ko'paytirish yoki o'z samaradorligini oshirish maqsadida o'zaro birlashadilar. Keltirib o'tilayotgan ustunlik jihatlar tufayli qo'shib olinuvchi kompaniyalar ko'p hollarda o'zlarini boshqa kompaniyalar xarid qilish usuli orqali qo'shib olishlariga rozi bo'ladi. Chunki, ular keskin raqobat muhitida o'zlarining mustaqil ravishda jon saqlab qola olishlariga ko'zlari yetmaydi. Korporativ birlashish va qo'shib olish operatsiyalari aniq hisob-kitoblarga qat'i ravishda asoslanishini ham

unutmaslik lozim. Chunki bunday operatsiyalar muvaffaqiyatsizlikka yuz tutishi natijasida biznesning tugatilish holatlari ham ko'p uchraydi.

Korporativ tuzilma pul mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida turli maqsadli fondlarni shakllantiradi. Har bir pul fondining o'z maqsad va vazifalari belgilanadi. Pul fondlarini shakllantirish orqali korporativ tuzilma o'z faoliyatini kerakli mablag'lar bilan ta'minlashga intiladi, faoliyatini kengaytirib boradi; pul oqimlari harakatini ishlab chiqarish uzluksizligiga qaratadi; ilmiy texnika jarayonini moliyalashtiradi; yangi texnikani o'zlashtiradi va joriy etadi; subyektlarni iqtisodiy rag'batlantiradi; byudjet, bank va hokazolar bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

11.2. Korporativ moliyani boshqarishning tashkiliy xususiyatlari va konsepsiyalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul oqimlari har qanday korxonada boshqaruv obyekti hisoblanadi hamda har bir moliyaviy qaror pul oqimlari harakati bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq holda qabul qilinishini ta'kidlashimiz lozim. Shundan kelib chiqqan holda aksariyat boshqaruvchilar o'z funktsional vazifalarini amalga oshirish jarayonida moliya xizmati bilan o'zaro hamkorlik asosida faoliyatlarini tashkil etadi. Bu bog'liqlik bugungi kunda har bir boshqaruvchidan korporativ moliyani boshqarish asoslari haqida chuqur bilimga ega bo'lishni, korporativ tuzilma oldida turgan muammolarni to'g'ri va o'z vaqtida anglashni hamda o'z faoliyatini yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tashkil etishni talab etadi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, hozirgi kunda moliyaviy resurslarni boshqarish har bir korporativ tuzilma oldida turgan eng asosiy va strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishning korporativ moliyani boshqarish tizimida strategik ahamiyatga egaligi moliyaviy resurslar va boshqa resurslar (moddiy resurslar, mehnat resurslari va boshqalar)ni jalb qilishning o'zaro bog'liqligi bilan izohlanadi. Bunday o'zaro bog'liqlikning qo'yilgan maqsadga muvofiq va samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan korporativ tuzilma moliyaviy barqarorligini belgilab beradi, shuningdek faoliyatdan manfaatdor bo'lgan mulkdorlar, xodimlar, kontragentlar, davlat va jamiyat moddiy farovonligi o'sishiga xizmat qilishini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslarning muhim ahamiyatga egaligi ularni boshqarish bo'yicha mustaqil faoliyat sohasi sifatida korporativ moliyani boshqarish tizimini tashkil etishni shart qilib qo'yadi.

Korporativ moliyani boshqarishni amaliy nuqtayi nazardan *korporativ tuzilma pul mablag'larini va ularning manbalarini boshqarish tizimi* sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Har qanday boshqarish tizimi kabi korporativ moliyani boshqarish ham o'zining obyektiga va subyektiga ega hisoblanadi. Bunda pul mablag'lari va ularning manbalari, shuningdek korporativ tuzilmalar, xo'jalik faoliyatining boshqa ishtirokchilari, moliya tizimining turli bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar *boshqarish obyekti* hisoblanadi. Mulkdorlar, moliyaviy menejerlar, mos tashkiliy tuzilmalar va xizmatlar korporativ moliyani boshqarish tizimida *boshqarish subyektlari* sifatida yuzaga chiqadi. Bunda eng asosiy boshqaruv subyekti korporativ tuzilma mulkdorlari, xususan aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlardir.

Korporativ moliyani boshqarishning samarali amal qilishida huquqiy, tashkiliy, metodik, axborot, texnik, dasturiy ta'minotlarga va eng asosiysi kadrlar ta'minoti muhim hisoblanadi. Ularning har biri xususida quyida to'xtalib o'tamiz.

Iqtisodiyotda har qanday boshqaruv tizimining, xususan korporativ moliyani boshqarish tizimining faoliyat yuritishi amaldagi *huquqiy ta'minot* doirasida amalga oshiriladi. Bunda huquqiy ta'minotga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kodekslari, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, hukumat qarorlari, vazirlik va tarmoqlarning me'yoriy hujjatlari, litsenziyalar, shuningdek aniq bir korporativ tuzilmaning ish faoliyatini tartibga soluvchi ta'sis hujjatlari, nizomlar va yo'riqnomalar kiradi. Bunda moliyaviy qonunchilikdan, xususan soliq qonunchiligidan o'z vaqtida xabardor bo'lish moliyaviy qarorlar qabul qilishda va majburiyatlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ moliyani boshqarish tizimining samarali ishlashi *tashkiliy ta'minotga* ham bog'liq bo'lib, bunda boshqaruvning tashkiliy mexanizmi, shuningdek tegishli xizmat, bo'linma va alohida mutaxassislarning funktsiya va vazifalari doirasi nazarda tutiladi. Shu o'rinda soliqlar bo'yicha mas'ul bo'linmalarning faoliyat yuritishi bir tomondan majburiyatlarga o'z vaqtida e'tibor qaratish imkonini bersa, boshqa tomondan qo'shimcha xarajatlarga ham olib keladi.

Korporativ moliyani boshqarishning *metodik ta'minoti* asosini moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga qaratilgan umumiy iqtisodiy, analitik va maxsus usullar, metodlar va modellar majmuasi tashkil etadi.

Korporativ moliyani boshqarish tizimining markaziy bo'g'ini *kadrlar ta'minoti* hisoblanadi. Bunda moliyaviy menejerlar, menejerlar va boshqa-

lar moliyaviy resurslarni maqsadli boshqarish yuzasidan maxsus usullar, metodlar va instrumentlardan keng foydalanadilar.

Moliyaviy qarorlar qabul qilish boshqaruvchilarning zarur axborotlar ta'minlanish darajasiga bevosita bog'liq. Bunday axborotlarning o'z vaqtida olinishi, to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi hozirgi kun biznes muvaffaqiyatiga xizmat qiluvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqoridagilar asosida ta'kidlashimiz mumkinki, korporativ moliyani boshqarish tizimining muhim va ajralmas elementi biznesning *axborot ta'minotidir*.

Korporativ moliyani boshqarishda keng ma'noda axborot ta'minotiga moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida foydalaniladigan har qanday axborotni kiritish mumkin. Bunda foydalaniladigan axborotlar shakllanish manbalaridan kelib chiqqan holda ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi. Ichki axborotlar korporativ tuzilma faoliyat yuritishi jarayonida uning turli bo'linmalari buxgalteriya, rejalashtirish, ishlab chiqarish bo'limi, investitsiya, moddiy-texnik ta'minot, savdo, marketing va boshqalardan olinadigan axborotlarni o'z ichiga oladi. Bunday axborotlar korporativ tuzilma ichida yuzaga kelishi, amal qilishi va foydalanilishi sababli moliyaviy menejerga ulardan doimiy ravishda to'liq va batafsil tarzda foydalanish imkoniyati taqdim etilishi lozim. Axborotlarning miqdori, shakli, qamrov va batafsillik darajasi hamda olinish davriyligi aniq bir korporativ tuzilma ish faoliyatini tartibga soluvchi tegishli nizom va yo'riqnomalar asosida belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida ichki axborotlar va ulardan foydalanish bo'yicha "Axborot siyosati to'g'risida" Nizom amal qilib kelayotganligini ham shu o'rinda ta'kidlashimiz lozim.

Fikrimizcha, ichki axborotlar moliyaviy boshqaruv uchun so'zsiz muhim bo'lgan bir paytda bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik obyektining samarali va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning tashqi muhitga moslashuvchanlik qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bunda bozor kon'yunkturasi, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, raqobatchilar, foiz stavkalari, soliq stavkalari (umuman soliqlar bo'yicha), makroiqtisodiy indikatorlar, qimmatli qog'ozlar kotirovkalari, moliyaviy qonunchilikdagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar moliyaviy menejer faoliyati uchun axborotga bo'lgan talabda sezilarli darajada yuqori ulushga egaligini ham qayd etib o'tishimiz lozim.

Bunday axborotlarni olishning qulayligi, obyektivligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi mavjud axborot bozori va uning infratuzilmasi rivojlanish darajasiga, shuningdek foydalaniladigan texnik ta'minot va moliyaviy

menejrlarning axborot texnologiyalari sohasidagi kasbiy tayyorgarlik holatiga ham bog'liqdir.

Korporativ moliyani boshqarishning texnik ta'minotini axborotlarni yig'ish, uzatish va qayta ishlash jarayonini maksimal darajada to'g'ri tashkil etish va optimallashtirish imkonini beruvchi zamonaviy hisoblash va telekommunikatsion texnika vositalari tashkil etadi. Bunda dasturiy ta'minot orqali korporativ tuzilma texnik majmuasining faoliyat yuritishi, kompyuterlardan foydalanuvchilar o'zaro aloqasi va funktsional masalalarni hal qilish ta'minlanadi. Soliqlar bo'yicha dasturiy ta'minotlarning mukammalligi esa ish jarayoni samaradorligini yanada oshiradi.

Faoliyat ko'lami, mulkchilik shakllari, rivojlanish bosqichlari va faoliyat turlariga bevosita bog'liq holda korporativ moliyani boshqarish tizimi yetarli darajada murakkab tuzilmaga ega bo'lishi mumkin.

Faoliyat ko'lami (ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot hajmi, kapital miqdori, xodimlar soni va boshqalarga ko'ra)dan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmalar yirik, o'rta va kichik kabi tiplarga bo'linadi. Korporativ tuzilmaning katta-kichikligi talab qilinadigan moliyaviy resurslar miqdoriga va moliyaviy-xo'jalik faoliyati rang-barangligiga, moliyaviy boshqaruvni amalga oshirishning tashkiliy shakllariga, shuningdek uning ixtisoslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy amaliyotda ayni paytda qonunchilik asosida yirik va kichik tipdagi korporativ tuzilmalar faoliyat ko'rsatganligini ta'kidlashimiz lozim. Fikrimizcha, korporativ tuzilmalar taraqqiyoti bo'yicha xalqaro tajribalar asosida, shuningdek korporativ tuzilmalarning rivojlanish bosqichlarini inobatga olgan holda o'rta tipdagi korporativ tuzilmalar faoliyati bo'yicha ham qonunchilikka qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Rivojlanish bosqichlari yoki *hayotiy tsikl fazalari* bo'yicha korporativ tuzilmalar "yangi tashkil etilgan", "o'sishda davom etayotgan", "rivojlanishning yuqori darajasiga chiqqan" va "rivojlanishdan to'xtagan" korporativ tuzilmalarga bo'linadi. Rivojlanish bosqichlariga bog'liq holda korporativ tuzilmalar moliyalashtirish bo'yicha turli xil talabga, kapital jalb qilish bo'yicha turli xil imkoniyatlarga, turli xil risklilik darajalariga ega bo'ladi. "Yangi tashkil etilgan" va "o'sishda davom etayotgan" korporativ tuzilmalarda katta miqdorda moliyaviy resurslar talab qilinadi. Bunday korporativ tuzilmalar moliyaviy resurs jalb qilish bo'yicha agressiv moliyaviy siyosatni amalga oshiradilar, olingan daromadlarni to'liqligicha yoki katta qismini biznesga reinvestitsiya qiladilar. "Rivojlanishning yuqori darajasiga chiqqan" va "rivojlanishdan to'xtagan" korxonalarda esa moliyaviy resurslarga

boʻlgan talab maʼlum bir darajada barqarorlashadi va bu jarayonda ularning katta qismi oʻz mablagʻlari hisobiga qoplanadi. Aniq bir korporativ tuzilma-ning rivojlanish bosqichlari xususiyatlarini bilish va uni hisobga olish korporativ moliyani samarali tashkil etish va amalga oshirish imkonini beradi.

Tadbirkorlik faoliyati turli xil tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Tashkiliy-huquqiy shakl korporativ tuzilma mulkdorlari va menejerlari tomonidan belgilab olinadigan rivojlanish strategiyasi, investitsiyalarni jalb qilish manbalari va shakllari, daromadlarni taqsimlash va reinvestitsiyalash rejalari, soliqqa tortish tartiblaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Biznesni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy shakllari sifatida mamlakati-mizda masʼuliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari kabilar keng qoʻllanilib kelinmoqda va ulardagi moliyaviy boshqaruv mexanizmi daromad-larni taqsimlash, majburiyatlar boʻyicha javobgarlik, risklarning taqsimlanishi, biznes ustidan nazoratni amalga oshirish, mulkchilik huquqining boshqa shaxsga oʻtkazilishi, moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlariga koʻra bir-biridan farq qiladi.

Xususiy va oilaviy korxonalarda, umuman kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruv bevosita uning egasi tomonidan amalga oshiriladi.


Katta boʻlmagan korxonalarda moliyaviy boshqaruv funktsiya-lari buxgalteriya yoki uning tarkibiy boʻlinmasi hisoblangan moliya yoki reja-moliya boʻlimiga yuklatiladi. Natijada moliyaviy faoliyatni umumiy boshqarish bosh hisobchi tomonidan amalga oshiriladi va u bir vaqtning oʻzida moliyaviy direktor hisoblanadi.

Faoliyat koʻlamini kengaytirib borish natijasida ixtisoslashgan boʻlinmalar soni oʻsishi va ularning funksiyalari kengayib borishi sababli moliyaviy boshqaruv tashkiliy tuzilmasi murakkablashib boradi. Rivojlangan davlatlardagi oʻrta va yirik korporativ tuzilmalarda moliyaviy direktor yoki moliyaviy masalalar boʻyicha vitse-prezident tomonidan boshqariladigan maxsus xizmat tashkil etilgan. Mazkur xizmat oʻz tarkibiga bir nechta tegishli boʻlinmalarni qamrab oladi. Bunday kompaniyalarda maxsus moliya xizmatining namunaviy tuzilmasi quyidagi rasmda keltirilgan (11.4-rasm).

Hozirgi sharoitda moliyaviy direktor boshqaruv aʼzolarining yoki direktorlar kengashining aʼzosi hisoblanadi va boshqaruvchilar oʻrtasida markaziy oʻrinni egallaydi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Moliyaviy direktor bosh direktor bilan birgalikda aksiyadorlar oldida toʻgʻridan toʻgʻri javobgarlikni oʻz zimmasiga oladi, moliyaviy natijalar boʻyicha hisobot beradi. Moliyaviy direktorlikka nomzodlar direktorlar kengashi tomonidan

shaxsan tasdiqlanadi. Aynan shu jihat moliyaviy direktorning mustaqilligi va o'z faoliyati bo'yicha aksiyadorlarga hisobot berishini anglatadi. Moliyaviy direktorning bosh vazifasi biznesni boshqarishning izchil va samarali ishlash tizimini ta'minlash orqali korporativ tuzilmaning barcha bo'linmalari operatsion strategiyalarini va aksiyadorlar uzoq muddatli maqsadlarini integratsiyalash bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, moliyaviy direktor va u boshqaradigan moliya xizmati har qanday o'rta va yirik korxonada muhim rol o'ynaydi.



11.4-rasm. Moliyaviy boshqaruv sxemasi ⁶⁹

Moliyaviy direktor faoliyati bir vaqtning o'zida uch xil doirada: funktsional, korporativ va boshqaruv ko'rinishida amalga oshirilishini ta'kidlash lozim. Shuning uchun ham moliya xizmatining zamonaviy rahbari ilmiy, keng dunyoqarashga ega ijodiy fikrlaydigan mutaxassis, amaliy muam-molar (pul oqimlarini boshqarish, korporativ tuzilma faoliyati haqidagi tezkor

⁶⁹ James C. Van Horne, John M. Wachowicz. Fundamentals of financial management . – 13th ed. – Pearson Education, 2009. – P. 9 (719)

ma'lumotlar bilan ichki va tashqi foydalanuvchilarni ta'minlash, investitsion loyihalarni baholash, soliq imtiyozlari va yengilliklaridan maksimal foydalanish, moliyaviy resurslarni qidirib topish va jalb qilish hamda boshqalar)ni hal qilish qobiliyatiga ega, shuningdek strategik vazifalar (birlashish va qo'shib olishlar, investorlar bilan o'zaro hamkorlik samaradorligi tahlili va boshqalar)ni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Korporativ moliyani boshqarish nazariyasi va amaliyoti iqtisodiy taraqqiyotdan kelib chiqqan holda doimiy ravishda rivojlanib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib korporativ moliyani boshqarishning muhim nazariy asoslari sifatida amal qilayotgan konsepsiyalari quyidagilardir:

- pul oqimlari konsepsiyasi;
- pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati konsepsiyasi;
- risk va daromadlilik konsepsiyasi;
- bozor samaradorligi haqida gipoteza;
- portfel nazariyasi va moliyaviy aktivlarni baholash modeli;
- kapital tarkibi va dividend siyosati nazariyasi;
- agentlik munosabatlari nazariyalari va boshqalar.

Keltirib o'tilgan korporativ moliyani boshqarish konsepsiya-larining har biri xususida quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Pul oqimlari konsepsiyasi har qanday korporativ tuzilma (MChJ, AJ va boshqalar) faoliyat ko'lami va turidan qat'i nazar o'z moliyaviy munosabatlarini pul mablag'lari harakati asosida ishlashini anglatadi. Pul oqimlari harakatini tashkil etishda e'tibor qaratiladigan asosiy jihat bu pul mablag'larining kirib kelishi va chiqib ketishidagi o'zaro mutanosiblikka erishish hisoblanadi. Bunda vaqt va miqdor omili birlamchi e'tibor talab qiladi. Ya'ni moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasi korporativ tuzilma ixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'lari miqdori korporativ tuzilmadan chiqib ketayotgan pul miqdoridan katta bo'lishi lozim, boshqa tomondan esa olinadigan pul mablag'larining kelib tushish vaqti chiqib ketish vaqtdan qisqaroq bo'lishi talab etiladi. Keltirilayotgan bu ikki jihat har qanday korporativ tuzilma uchun moliyaviy barqarorlik va to'lovga layoqatlilikni ta'minlashdan tashqari faoliyat samara-dorligiga erishishga ham xizmat qilishini qayd etib o'tishimiz lozim. Aynan har bir pul oqimining soliq oqibatlariga alohida e'tibor qaratish ham lozim bo'ladi.

Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati konsepsiyasi korporativ moliyaning fundamental asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq biz turli vaqtlarda egalik qiladigan pul mablag'lari bir xil bo'lmagan qiymatga egalik qiladi. Ustiga-ustak biznesda va kundalik hayotimizda

pulga egalik qilish vaqti pul mablag'larining miqdoriga nisbatan katta ahamiyatga ega. Masalan, milliy pul birligining bugungi qimmati bir qancha vaqt o'tgandagidan nisbatan qadrliroq. Ya'ni u ayni paytda joriy iste'molni qanoatlantirishga sarflanishi yoki kelajakda qo'shimcha daromad olish uchun investitsiya sifatida qo'yilishi mumkin. Ma'lum vaqtdan so'ng zarur miqdordagi pul mablag'lariga egalik qilish uchun korporativ tuzilma ma'muriyati mavjud pul mablag'ini hozirning o'zida yo'naltirishi lozim bo'ladi. Bunda qaror qabul qilishda kelgusidagi pul oqimlari pul mablag'larining joriy vaqtdagi qiymatidan kelib chiqqan holda baholashni amalga oshirish lozim. Pul mablag'larining joriy qiymati va kelgusi qiymatini baholash uchun moliyachilar pul oqimlarini diskontlash bo'yicha maxsus metodikadan foydalanadilar. Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati konsepsiyasidan kelib chiqqan holda soliqlarni faqat oxirgi sanada amalga oshirishga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.

Risk va daromadlilik konsepsiyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati risk bilan bevosita bog'liq holda amalga oshirilishidan kelib chiqqan holda korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy-xo'jalik operatsiyalaridan olinishi mumkin bo'lgan natijalarni baholash bilan bir vaqtda natijaga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan risklarga ham e'tibor qaratish lozimligini nazarda tutadi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq agar riskning yuzaga kelishi natijasida kutilgan daromadning pasayishi biznes uchun salbay oqibatlarga olib kelmasa risklarni qabul qilish mumkin. Ma'lum bir natijaga erishish, biznesning kelgusi taraqqiyotini ta'minlash uchun risklarni to'g'ri baholash, ularni kamaytirish bo'yicha o'z vaqtida va mos chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Bunda soliq riski va uning oldini olish e'tibor talab qiladi.

Bozor samaradorligi haqida gipoteza bozordagi holat haqida muntazam ravishda axborotga ega bo'lish va ularni tahlil qilishga doimiy ravishda e'tibor qaratgan holda samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish zaruriyatini o'zida ifodalaydi. Chunki bozordagi holat har qanday aktivning haqiqiy bahosini belgilab beradi va shundan kelib chiqqan holda qabul qilingan moliyaviy qaror korporativ tuzilma moliyaviy barqarorligi o'sishiga xizmat qiladi.

Portfel nazariyasining mohiyati biznesda mablag'larni turli xil aktivlar, korxonalar va faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash lozimligi bilan ifodalanadi. Investitsion portfelning bunday tartibda shakllanishi barcha risklar yig'indisi bitta yo'nalishdagi risklar bilan taqqoslanganda ancha past bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, pul mablag'larini bir vaqtning o'zida bir

nechta sohaga joylashtirish natijasidagi risklar pul mablag‘larini faqat bitta sohaga joylashtirishdagi risklarga qaraganda kamroq. “*Moliyaviy aktivlarni baholash modeli* esa alohida moliyaviy aktiv va butun bozor riski va daromadlilik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘zida aks ettiradi”⁷⁰.

Moliyaviy resurs jalb qilish va undan maqsadli foydalanish (maqsadli taqsimlash) masalasi korporativ moliyani boshqarishdagi eng asosiy va kun tartibidagi doimiy masalalardan hisoblanadi. Korporativ tuzilmada faoliyatni tashkil etish yoki davom ettirish uchun zarur kapitalni shakllantirishda qarz mablag‘lari jalb qilish yoki o‘z moliyaviy resurslari bilan cheklanish lozimligiga aniqlik kiritiladi. Mazkur masalaga har tomonlama asoslangan javob topish *kapital tarkibi nazariyasining* tadqiqot predmetini tashkil etadi. Korporativ moliyani boshqarishda kapital tarkibi nazariyasi asosida faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida hisobga olinishi lozim bo‘lgan omillarni to‘g‘ri anglash faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi.

Dividend siyosati nazariyasi doirasida ko‘rib chiqiladigan, olingan foydani taqsimlash masalasi ham yuqoridagi muammo bilan bevosita bog‘liq va muhimligi bo‘yicha kam bo‘lmagan muammo hisoblanadi. Dividend siyosatidagi asosiy muammo olingan foydaning ta‘sischilarga dividendlar ko‘rinishida to‘lanadigan qismi va foydaning biznesni yanada rivojlantirish uchun yo‘naltiriladigan qismi o‘rtasidagi optimal nisbatni belgilashni nazarda tutadi.

Agentlik munosabatlari nazariyasi ikki ishtirokchi o‘rtasidagi munosabatda ulardan birining o‘z funksiyalarini boshqa shaxsga, ya‘ni agentga o‘tkazishini ifodalaydi. Korporativ moliyani boshqarish nuqtayi nazaridan eng muhim agentlik munosabatlari sifatida mulkdorlar va menejerlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek kreditorlar va aksiyadorlar o‘rtasidagi munosabatlarni keltirish mumkin. Masalan, biznesda kapital egalari moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yollanma menejerlar (agentlar)ni jalb qilish holatlari tez-tez uchrab turadi. Lekin menejerlar o‘z ish joyini saqlash, karyerasini rivojlantirish, ish haqini oshirish va boshqa maqsadlarda shaxsan o‘zi uchun foydali, biznes egasi uchun esa zararli qarorlar qabul qilishi mumkin. “Prinsipial – agent” munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarni iqtisodchilar agentlik muammolari, agentlik nizolari yoki manfaatlar to‘qnashuvi natijasidagi muammolar, deya ataydilar. Agentlik munosabatlari nazariyasi agentlik munosabatlarida yuzaga keladigan muammolarning mohiyati va yuzaga kelish sabablarini o‘rganadi,

⁷⁰В.В.Ковалёв, Вит.В.Ковалёв. Корпоративные финансы и учёт: понятия, алгоритмы, показатели. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2015. – Ст. 444 (1000)

shuningdek ularning oldini olish yoki salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beruvchi metodlar va instrumentlarni ishlab chiqadi.

Umumiy holda har bir korporativ moliyani boshqarishning har konsepsiyasi ma'lum bir jihatlari bilan soliq amaliyotiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

11.3. Korporativ moliyaviy siyosat asosiy yo'nalishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyati davomida moliyaviy munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishi qo'yilgan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborni korxonalar moliyasini samarali tashkil etishga, korxonalar moliyasini boshqarishni to'g'ri tashkil etishga qaratish maqsadga muvofiq. Korporativ moliyani boshqarishni to'g'ri tashkil etish esa bevosita korporativ moliyaviy siyosatga bog'liq. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida korporativ siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar⁷¹:

- marketing siyosati;
- operatsion siyosat;
- moliyaviy siyosat;
- mehnat munosabatlari va kadrlar siyosati;
- axborot texnologiyalari siyosati;
- birlashishlar va qo'shib olishlar siyosati;
- korporativ etika siyosati;
- korporativ boshqaruv va muvofiqlik siyosati;
- biznes risk menejmenti siyosati.

Korporativ moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish korxonalarining barcha moliyaviy munosabatlarini qamrab olishi lozim. Bunda moliyaviy siyosat – korxonaning ta'sis hujjati (ustavi)da aks etgan strategik va taktik maqsadlarga erishish uchun moliyadan maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanishni o'zida aks ettiradi. Masalan, tovar bozoridagi pozitsiyasini kuchaytirish; mos ravishda aktivlar hamda xususiy kapital rentabelligiga erishish; to'lovga layoqatlilik va balans likvidligini ta'minlash; aksiyadorlar mulkiy imkoniyatlarini oshirish va boshqalar.

Umuman, korporativ moliyaviy siyosatda quyidagilar nazarda tutiladi:

- foydani maksimallashtirib borish;
- kapital tarkibi va qiymatini optimallashtirish;

⁷¹ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 181-183.

- korporativ tuzilmaning moliyaviy barqarorligi, amaliy va bozor aktivligini ta'minlash;

- aksiyadorlar, investorlar va kreditorlar uchun korporativ tuzilmaning moliyaviy ochiqligiga erishish;

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi, moliyaviy lizing, loyihaviy moliyalashtirish yordamida kapital jalb qilishning bozor mexanizmlaridan foydalanish;

- korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyatining strategik maqsadlarini hisobga olgan holda moliyaviy holat diagnostikasi asosida korporativ moliyani boshqarish mexanizmini ishlab chiqish;

- ustavda keltirilgan faoliyatni amalga oshirish va korporatsiyaning qarz majburiyatlarini qoplash uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish, pul oqimlari va moddiy zaxiralar balanslilikini ta'minlash.

Korporativ tuzilma pul oqimlari va moddiy zaxiralar o'rtasida balanslilikka erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- ustav kapitalini shakllantirish (pul ko'rinishida yoki moddiy ko'rinishda) va faoliyat uchun qo'shimcha mablag'larni (resurslarni) jalb qilishning eng ratsional usullari aniqlanadi;

- pul oqimlarini optimallashtirish imkonini beruvchi moliyaviy boshqaruv tashkiliy tuzilmasi shakllantiriladi;

- soliqlar va majburiy ajratmalarni optimallashtirish maqsadida hisob siyosati ishlab chiqiladi;


- kontragentlar bilan hisob-kitoblar usullari va muddati, jarimalar qo'llanilishi bilan bog'liq xo'jalik shartnomalari shart-sharoitlari aniqlanadi;

- xarajatlar, daromadlar, foyda va investitsiyalar javobgarlik markazlarini yaratish asosida byudjet boshqaruvi tizimi joriy qilinadi;

- bosh kompaniya va uning filiallari o'rtasida pul oqimlari harakati hisobi va nazorati tashkil qilinadi.


Korporativ moliyani boshqarish tizimini ishlab chiqish jarayonida yetarlicha pul mablag'lari va to'lovga layoqatlilikning yuqori darajasi sharoitida korporatsiyani rivojlantirish va mulkdorlar (aksiyadorlar) manfaatlarini uyg'unlashtirish muammosi paydo bo'ladi. Bunday sharoitda korxonada faoliyat davomiyligi va qo'yilgan maqsadlar tavsifidan kelib chiqqan holda strategik va taktik moliyaviy vazifalar qo'yiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korporativ moliyaviy siyosatni quyidagicha tasvirlashimiz mumkin (11.5-rasm).

Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, korxonalarining davlat bilan o‘zaro moliyaviy bog‘liqlik mexanizmini samarali tashkil etish korporativ moliyaviy siyosatda alohida e’tibor talab qiladigan masalalardan biri sanaladi.



11.5-rasm. *Korxonalar moliyaviy siyosati*

Umuman umumdavlat moliyasining korporativ moliya bilan o‘zaro bog‘liqligini quyidagilarda ko‘rish mumkin (11.6-rasm).



11.6-rasm. Moliyaviy o'zaro bog'liqlik mexanizmi

Moliyaviy o'zaro bog'liqlik mexanizmidagi har bir element ikki tomonlama ta'sirga ega hisoblanadi. Ya'ni davlat tomonidan yaratilgan qo'shimcha imkoniyat bir tomondan korporativ moliyaning samarali ishlashiga xizmat qilsa, boshqa tomondan korporativ moliyaning samarali ishlashi davlat moliyasi uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Umumiy holda moliyaviy siyosat yuritishda moliyaviy ta'minot, moliyaviy taqsimot, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy boshqaruv jarayonida kadrlar masalalariga alohida tartibda yondashuv talab etiladi.

11.4. Korporativ moliyaviy siyosatda xususiylashtirish amaliyoti

Korporativ moliyaviy siyosat avvalo davlat moliyaviy-iqtisodiy siyosati asosida amalga oshiriladi. Bunda xususiylashtirish va iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish, xususiylashtirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan oxirgi yillarda davlat aksiya paketlarini xususiylashtirishga ustuvorlik berilmoqda.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda iste'molchiga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv usullari, ochiqlik, shaffoflik va bozor tamoyillarini jadal joriy etish, tannarxni pasaytirish orqali daromadlarni oshirish, islohotlar jarayonida xususiylashtirish kapital ishtiroki uchun kengroq imkoniyatlar yaratish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va raqobat muhitini yanada yaxshilash maqsadida 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligida tuzilgan ishchi guruhlarini tomonidan 3 mingga yaqin davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati to'liq o'rganilganligi va iqtisodiyotda davlat ishtirokidagi korxonalar ulushini keskin qisqartirish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Xususiylashtirishdan oldin tayyorlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning manzilli dasturlari orqali ommaviy savdolarga chiqariladigan davlat aktivlari ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6096 sonli farmonida keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar (11.2-jadval).

11.2-jadval

Xususiylashtirishdan oldin tayyorlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish orqali ommaviy savdolarda to'liqligicha davlat aksiya paketlari (ulushlari) sotiladigan korxonalar

Nomi	Davlatulushi (%)
«Kvarts» AJ	89,8
«Xorazmsuvqurilish» AJ	70,0
«Qishloqqurilishinvest» MChJ	82,9
«O'zshaharqurilishinvest» MChJ	61,0
«Qizilqumtsement» AJ	86,9
«Trest-12» AJ	51,1
«O'zshaharsozlikLITI» DUK	100,0
«ToshkentboshplanLITI» DUK	100,0
«Suvloyiha» DUK	100,0
«O'zbekkommunalloyihaqurilish» DUK	100,0
«Aloqaloyiha» DUK	100,0

«O‘zgeorangmetLITI» DUK	100,0
«Unicon.uz Fan-texnika va marketing tadqiqotlarimarkazi» DUK	100,0
«O‘rmonloyiha» DUK	100,0
«O‘zengsanloyiha» MChJ	94,9
«O‘zagrosanoatloyiha» MChJ	94,7
«Qishloqqurilishloyiha» MChJ	85,9
«Suvsanoatfuqaroli» MChJ	77,8
«O‘ztibloyiha» MChJ	74,2
«O‘zog‘irsanoatloyiha» AJ	73,8
«Toshtemiryo‘lloyiha» MChJ	67,5
«O‘zgazloyiha» MChJ	63,4
«ToshuyjoyLITI» AJ	61,6
«Yo‘l-loyihabyurosi» MChJ	56,4
«UzGIP» MChJ	53,1
«O‘zbekekspertiza» AJ	51,0
«O‘zsuvloyiha» AJ	50,8
«Sredazenergosetproekt» AJ	25,4
«WorleyparsonsUzbekistanengineering» MChJ	25,0
«Issiqlikelektrloyiha» AJ	22,3
«Boshtransloyiha» AJ	21,6
«Tashgiprogor» AJ	41,5
«Farg‘onaazot» AJ	48,0
«O‘zbekkimyomash zavodi» AJ	44,7
«Kafolatsug‘urtakompaniyasi» AJ	49,3
«O‘zmeliomashlizing» DUK	100,0
«O‘zagrolizing» AJ	88,8
«Respublikaixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasiqurilishmashlizing» AJ	69,4
«Olotneftva gaz qidiruvekspeditsiyasi» MChJ	100,0
«Buxorogazsanoatqurilish» AJ	58,4
«To‘ytepametallqurilmalari» AJ	84,4
«Qo‘qonneftgazparmalashishlari» AJ	51,0
«Universal mobil systems» MChJ	100,0
«RUBICON WIRELESS COMMUNICATION» MChJ	65,0
«XovrenkonomidagiSamarqand vino kombinati» AJ	71,2
«Toshkentvinokombinati» AJ	51,8
«O‘zbekistonshampani» AJ	51,0
«Akademik M. Mirzaevnomlibog‘dorchilik, uzumchilikvavinochilikilmiy-	100,0

tadqiqot instituti Qibray sharob ilmiy-eksperimental korxonasi» DUK	
«Mevalar-sharbat ilmiy eksperimental» DUK	100,0
«Poytaxt qurilish va xizmat» DUK (Xayatri djens mehmonxonasi)	100,0
«Poytaxt biznes majmuasi» MChJ	100,0
«Elektron onlayn-auksionlarni tashkilot markazi» DUK	100,0
«O'z sanoat eksport» AJ	100,0
«Navro'z davlat qabullaruyi» DUK	100,0
«Foton» AJ	83,2
«O'z maxsus montaj qurilish» AK	100,0
«Temir yo'l transport va qurilish birlashmasi» DUK	100,0
«Uzelektroterm» AJ	61,9
«Qo'qon mexanika zavodi» AJ	64,1
«Coca-cola Ichimligi Uzbekistan» MChJ QK	57,0
«O'zbekiston Respublikasi Sog'liq nasaqlash vazirligi Toshkent kislород zavodi» DUK	100,0
«O'z zoovetna' minot xizmat» DUK	100,0

Xususiylashtirishdan oldin tayyorlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish ommaviy savdolar orqali to'liqligicha xususiylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat aksiya paketlari (ulushlari) to'liq sotiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6096 sonli farmoni asosida Davlat aksiya paketlari (ulushlari) to'liqligicha ommaviy savdolar orqali xususiylashtirishga sotiladigan korxonalar quyidagilar (11.3-jadval).

11.3-jadval

Davlat aksiya paketlari (ulushlari) to'liqligicha ommaviy savdolar orqali xususiylashtirishga sotiladigan korxonalar

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
1.	“Ustyurt qidiruv-burg'ulash boshqarmasi” MChJ	MChJ	100,0
2.	“Nukus polimer” MChJ	MChJ	100,0
3.	“Mo'ynoq akva sanoat” DUK	DUK	100,0
4.	“Qoraqalpoq don mahsulotlari” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,7
5.	“Qoraqalpoq agrokimyohimoya” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,04
6.	“Tahiatosh don mahsulotlari” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,01
7.	“Qusshiliq” MChJ	MChJ	2,0

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
8.	“Vodiy mirishkori agrofirma” MChJ	MChJ	10,0
9.	“Oltin shingil agrofirma” MChJ	MChJ	2,4
10.	“Asaka ravon yo‘llar” DUK	DUK	100,0
11.	Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” ATB	AJ	0,01
12.	“Andijon tajriba-sinov zavodi” AJ	AJ	51,0
13.	“Xo‘jaobod texnologik transport boshqarmasi” AJ	AJ	36,0
14.	“Andijonneftgazquduqta‘mirlash” MChJ	MChJ	100,0
15.	“Bux-tel” MChJ	MChJ	43,0
16.	“Buxoroparranda” AJ	AJ	36,2
17.	“Buxara agro frukt” MChJ	MChJ	1,9
18.	“Jondor paxta tozalash” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,2
19.	“Buxoro viloyat agrokimyohimoya” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,01
20.	“Buxoro biznes inkubatori o‘quv markazi” DUK	DUK	100,0
21.	“G‘ijduvon tuman hokimligi transport departamenti” DUK	DUK	100,0
22.	“1-avtokorxonasi” DUK	DUK	100,0
23.	“Kogon uy-joy ta‘mirlash professional boshqaruvi tashkiloti” DUK	DK	100,0
24.	“Neftgazqurilish ta‘mir” AJ	AJ	36,0
25.	“Uzparqurilish” AJ	AJ	36,0
26.	“O‘zparavtotrans” AJ	AJ	38,3
27.	“Buxoroneftgazavtonaql” AJ	AJ	51,0
28.	“Neftgaz tadqiqot” AJ	AJ	36,0
29.	“O‘zpartamonaj” AJ	AJ	36,0
30.	“Uzparta‘minot” AJ	AJ	36,0
31.	“Buxoroneftgazparmalash” AJ	AJ	51,3
32.	“Buxoro ta‘mirlash mexanika zavodi” AJ	AJ	40,0
33.	“Baxmal agrosilver shaklidagi agrofirma” MChJ	MChJ	16,2
34.	“Jizzax don mahsulotlari” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,5
35.	“Jizzax agroservis MTP” MChJ ⁽¹⁾	MChJ	0,1
36.	“Jizzax plastmassa” AJ	AJ	60,9
37.	“Yorqin chiroqlar” MChJ QK	MChJ	72,14
38.	“Qashqadaryo viloyat o‘rmon xo‘jaligi boshqarmasiga qarashli nasaf yashil voha” DUK	DUK	100,0
39.	“Nuriston diyori” MChJ	MChJ	100,0
40.	“Nuriston rizq nasibasi” MChJ	MChJ	100,0

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
41.	“Cho‘l parrandasi” MChJ	MChJ	100,0
42.	“Yakkabog‘ meva” MChJ	MChJ	100,0
43.	“Qirq chinor mevasi” MChJ	MChJ	100,0
44.	“Yuldoshev Ziyaviddin Egamberdiyevich” MChJ	MChJ	100,0
45.	“G‘uzor 2532-avtojamlanma” DUK	MChJ	100,0
46.	“Talimarjon shahar kommunal xizmat ko‘rsatish korxonasi” MChJ	MChJ	100,0
47.	“Qarshi sanitar tozalash” MChJ	MChJ	25,7
48.	“Muborakeko-hayot” MChJ	MChJ	99,6
49.	“Muborak uy-joylardan foydalanish ko‘p tarmoqli” MChJ	MChJ	92,3
50.	“Ko‘prik yo‘l qurilish boshqarmasi” MChJ	MChJ	100,0
51.	“Davr temir beton servis” MChJ	MChJ	10,0
52.	“MNG-quruvchi” MChJ	MChJ	95,8
53.	“Qashqadaryoneftgazishchita‘minot” AJ	AJ	60,0
54.	“Qashqadaryoneftgazsanoat qurilish” AJ	AJ	36,0
55.	“Neft va gaz ishlab chiqarishni ta‘mirlash” AJ	AJ	36,0
56.	“Qashqadaryo neft-gaz qurilish va ta‘mirlash” AJ	AJ	36,0
57.	“Qashqadaryo texnologik transport” AJ	AJ	36,0
58.	“Muborakneftgaztrans” AJ	AJ	36,0
59.	“Koson maxsus mexanizatsiyalashga” MChJ	MChJ	29,7
60.	“O‘zburgerneftgazga qarashli Koson neft gaz qidiruv ekspeditsiyasi” MChJ	MChJ	100,0
61.	“Texnik ta‘minlash va butlash” MChJ	MChJ	100,0
62.	“Neft va gaz quduqlarini sinash” AJ	AJ	73,9
63.	“Muborakneftgazmontaj” AJ	AJ	71,2
64.	“Qashqadaryo parmalash ishlari” AJ	AJ	52,0
65.	“Minora qurish ekspeditsiyasi” AJ	AJ	37,1
66.	“Muborakteks” MChJ	MChJ	98,3
67.	“Yuqori Beshkent tayyorlov savdo” MChJ	MChJ	25,0
68.	“Kasbi tayyorlovsavdo” MChJ	MChJ	25,0
69.	“Shahrisabz noz-ne‘matlari” MChJ	MChJ	5,6
70.	“Qarshienergota‘mir” MChJ	MChJ	3,5
71.	“Ortomedfarmservis” MChJ	MChJ	86,9
72.	“Janubsanoatmontaj” AJ	AJ	20,7
73.	“Polietilen quvurlar” MChJ	MChJ	100,0
74.	“Polipropilen quvurlar” MChJ	MChJ	100,0
75.	“Bentonite” MChJ	MChJ	100,0

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
76.	“Uz-kor silicon” MChJ	MChJ	24,5
77.	“Elektrokimyozavod qo‘shma korxonasi” AJ	AJ	4,7
78.	“Granit geo injinering” MChJ	MChJ	5,2
79.	“Uzkor lighting” MChJ	MChJ	100,0
80.	“Navoiy viloyati sharob savdo” MChJ	MChJ	100
81.	“Zarafshon sharob savdo” MChJ	MChJ	100
82.	“Quyoshli yurt uzumi” MChJ	MChJ	7,5
83.	“Namangan don mahsulotlari” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,5
84.	“1-maxsus mexanizatsiyalashgan ko‘chma jamlanma” DUK	DUK	100,0
85.	“LIGTHARTULIPS-NAMANGAN” MChJ	MChJ	37,5
86.	“Kovar ishlab chiqarish va eksport qilish markazi” MChJ	MChJ	30,0
87.	“Norin paxta tozalash” AJ	AJ	96,4
88.	“Kosonsoy paxta tozalash” AJ	AJ	96,2
89.	“Dilkisho-sifat” MChJ	MChJ	25,3
90.	“Yangiqo‘rg‘on paxta tozalash” AJ	AJ	21,4
91.	“Maroqand ohalik uzumlari” MChJ	MChJ	14,1
92.	“Kattaqo‘rg‘on maska uzum bog‘lari agrofirmani” MChJ	MChJ	10,0
93.	“Pastdarg‘om tuman MTP” DUK	DUK	100,0
94.	“Charos agro uzumlari” MChJ	MChJ	9,5
95.	“Samarqand don mahsulotlari” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,3
96.	“Turizm va real sektor iqtisodiyoti sohalarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Samarqand viloyat markazi” DUK	DUK	100,0
97.	“Sam gips geostroy injinering” MChJ	MChJ	100,0
98.	“Nova geostroy injenering” MChJ	MChJ	8,8
99.	“Samarqandmramor” AJ	AJ	6,9
100.	“O‘zqishloqelektrqurilish” AJ	AJ	35,0
101.	“Ingichki metals O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonasi” MChJ	MChJ	26,4
102.	“SamISI Sayyoh Plyus” MChJ	MChJ	51,0
103.	“Samarqandnur” DUK	DUK	100,0
104.	“Mirzaobod anorzor uzumzorlari” MChJ	MChJ	81,3
105.	“Guliston tuman servis MTP” DUK	DUK	100,0
106.	“Boyavut paxta tozalash” AJ	AJ	91,3
107.	“Jarqo‘rg‘on tuman MTP” DUK	DUK	100,0

№	Nomi	Tashkiliy- huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
108.	“Surxondaryo oziq-ovqat mollari meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g‘amlash korxonasi” AJ	AJ	100,0
109.	“Xujaikon tuz” MChJ	MChJ	14,9
110.	“Termiz shahar “Shahar yo‘lovchi trans” aholiga transport xizmat ko‘rsatish” DUK	DUK	100,0
111.	“2516” DUK	DUK	100,0
112.	“Savdoenergo” AJ	AJ	16,1
113.	“Surxon parmalash ishlari” AJ	AJ	51,0
114.	“Sho‘rtanneftgaz-tekstil” MChJ	MChJ	100,0
115.	“Denov ATR” MChJ	MChJ	51,0
116.	“Amur-texno” DUK	DUK	100,0
117.	“B. Mirzakarimov nomli Bekobod tuman biofabrikasi” DUK	DUK	100,0
118.	“Piskent paxta tozalash” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,1
119.	“Toshkent agrokimyohimoya” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,01
120.	“Angren logistika markazi” AJ	AJ	0,5
121.	“Ohangaronshifer” AJ	AJ	54,0
122.	“Armaturno-izolyatorniy zavod” MChJ	MChJ	16,1
123.	“Uz-pristaresycling” MChJ	MChJ	49,0
124.	“UNG econ” QK MChJ	MChJ	50,0
125.	“4-sonli montaj boshqarmasi” AJ	AJ	56,2
126.	“Uz-shindong silicon” MChJ	MChJ	25,0
127.	“Toshnur” DUK	DUK	100,0
128.	“Xo‘jalik hisobidagi ish yurituvchi dala hovlilar, shaxsiy avtomobil turar joylari va garajlarni ro‘yxatga olish bo‘limi” DUK	DUK	100,0
129.	“Chirchiq universal plyus” DUK	DUK	100,0
130.	“Toshkent-Osiyo” AJ	AJ	46,7
131.	“Qibray hamkor savdo korxonasi” DUK	DUK	100,0
132.	“Stroy maks invest” MChJ	MChJ	20,0
133.	“Parkent konsalting texnik servis” MChJ	MChJ	78,6
134.	“Buvayda Yangiqo‘rg‘on pilla” MChJ	MChJ	100,0
135.	“Rishton pilla” MChJ	MChJ	25,0
136.	“Farg‘ona don mahsulotlari” AJ ⁽¹⁾	AJ	0,1
137.	“Farg‘onaneftkimyomontaj” MChJ	MChJ	51,0
138.	“Toxir Bag‘dod tv” MChJ	MChJ	52,0
139.	“Ruxsor” teleradiokanali MChJ	MChJ	31,5

№	Nomi	Tashkiliy- huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
140.	“Qo‘qonenergomarkaz” MChJ	MChJ	29,0
141.	“Vodiy neftgazavtotrans” MChJ	MChJ	100,0
142.	“Marg‘ilon agroservis ta‘minot” MChJ	MChJ	8,7
143.	“Do‘stlik marg‘ilon” MChJ	MChJ	48,0
144.	“Sementchi futbol klubi” MChJ	MChJ	2,0
145.	“Urganchkinovideo” MChJ	MChJ	10,0
146.	“Qurilish ta‘mirlash ta‘minot” DUK	DUK	100,0
147.	“Amudaryo xavzasi suv xo‘jaligi birlashmasi xo‘jalik hisobidagi ishlab chiqarish tijorat korxonasi” DUK	DUK	100,0
148.	“Amudaryopontonko‘prik” DUK	DUK	100,0
149.	“Yuggazstroy” AJ	AJ	51,2
150.	“Yangiariq plast” MChJ	MChJ	100,0
151.	“Xorazm viloyati tashqi elektr yoritish” DK	DUK	100,0
152.	“Aziya tekstil limited” MChJ	MChJ	35,3
153.	“Xorazmdovudservistrans” DUK	DUK	100,0
154.	“Gurlankinovideo” MChJ	MChJ	95,0
155.	“Toshkent-non qandolat” DUK	DUK	100,0
156.	“Respublika don mahsulotlarini himoya qilish ekspeditsiyasi” DUK	DUK	100,0
157.	“Bio eko produst centre” MChJ	MChJ	10,5
158.	“Gold animal feed” MChJ	MChJ	50,0
159.	“Ferula shifobaxsh” MChJ	MChJ	30,0
160.	“Shafran ilmiy tadqiqot markazi” MChJ	MChJ	7,1
161.	“Simuz” MChJ	MChJ	100,0
162.	“UNITECH” MChJ	MChJ	36,0
163.	“FTI innovatsiya markazi” MChJ	MChJ	70,0
164.	“Telekom qurilish” MChJ	MChJ	2,5
165.	“O‘zbekiston kabel televideniyesi” MChJ	MChJ	20,3
166.	“Kimtexilm” DUK	DUK	100,0
167.	“Energiya va resurslarni tejash ilmiy-amaliy va o‘quv markazi” DUK	DUK	100,0
168.	“Etalon med product” MChJ	MChJ	50,0
169.	“Kimyoviy texnologiya” MChJ	MChJ	30,0
170.	“O‘zmedimpeks” DUK	DUK	100,0
171.	“Vatan-Boburshoh” MChJ	MChJ	25,0
172.	“Salvare” MChJ	MChJ	25,0
173.	“Markaziy ippodrom” AJ	AJ	17,3

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
174.	“ToshDO‘TAU tayyorlov kurslari” MChJ	MChJ	92,7
175.	“Bilimintertrans” MChJ	MChJ	10,0
176.	“Shahar mehmonxonasi” DUK	DUK	100,0
177.	“Dam olish va sportni rivojlantirish xalqaro korporatsiyasi QK” MChJ	MChJ	20,0
178.	“Oromgoh” DUK (Chorvoq)	DUK	100,0
179.	“Surkhan global trade” MChJ	MChJ	10,0
180.	“Qadriyat-ta‘mir” MChJ	MChJ	34,0
181.	“Meros chashmasi” DUK	DUK	100,0
182.	“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi “Delta citi” xalqaro yuqori texnologiyali innovatsion markazi hududida yangi obyektlarni qurish va ulardan foydalanish direksiyasi” DUK	DUK	100,0
183.	“Trest Toshkentlift” DUK	DUK	100,0
184.	“Geolmetqurilish” MChJ	MChJ	54,7
185.	“ARHPLAN” MChJ	MChJ	25,0
186.	“Moddiy-texnika ta‘minoti bazasi” MChJ	MChJ	21,9
187.	“Ctroyervis O‘zbekiston-Rossiya” qo‘shma korxonasi MChJ	MChJ	21,0
188.	“Invest-Tosh” MChJ	MChJ	100,0
189.	“Bagnar” MChJ	MChJ	50,0
190.	“Gidromex montaj” MChJ	MChJ	49,0
191.	“Toshkentliftxizmati” DUK	DUK	100,0
192.	“PW projects” MChJ	MChJ	30,0
193.	“Open road investments” MChJ	MChJ	100,0
194.	“Suv mash” AJ	AJ	47,0
195.	“Sertifikatsiyalash va kompyuterlashtirish markazi” DUK	DUK	100,0
196.	“O‘zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi” DUK	DUK	100,0
197.	“Putur yetkazmasdan nazorat laboratoriyasi” DUK	DUK	100,0
198.	“Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi” DUK	DUK	100,0
199.	“Toshkent ekologik sertifikatlashtirish markazi” DUK	DUK	100,00

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
200.	“Payvandlash va izolatsiya ishlarini tekshirish laboratoriyasi” DUK	DUK	100,0
201.	“Temir yo‘l mahsulotini sertifikatlashtirish markazi” DUK	DUK	100,0
202.	“Temir yo‘l standart” MChJ	MChJ	20,0
203.	“Trastbank” XAB	AJ	1,0
204.	Chet-el kapitali ishtirokidagi “Savdogar” ATB	AJ	0,02
205.	“Alskom” AJ	AJ	6,3
206.	“Respublika ko‘p tarmoqli agrosanoat birjasi” AJ	AJ	1,9
207.	“Meliomashlizingser” MChJ	MChJ	100,0
208.	“Mulk-sarmoya brokerlik uyi” AJ	AJ	46,3
209.	“Uzmed-lizing” AJ	AJ	50,0
210.	“Respublika mulk markazi” MChJ	MChJ	92,5
211.	“Uztatgeoservis” QK MChJ	MChJ	50,0
212.	“Neftgazdepozit” MChJ	MChJ	100,0
213.	“Neftegazme‘yor” MChJ	MChJ	81,9
214.	“O‘zneftgazaloqa” MChJ	MChJ	100,0
215.	“O‘zneftgazinformatika” AJ	AJ	52,5
216.	“Uz-prista” MChJ	MChJ	49,9
217.	“Maxsuselektrtarmoqqurilish” AJ	AJ	25,0
218.	“Neft ta‘minot” AJ	AJ	25,0
219.	“Energozashita-silver star” MChJ	MChJ	15,0
220.	“Sharqtexenergota‘mir” MChJ	MChJ	3,0
221.	“O‘ztashqineftgaz” AJ	AJ	51,0
222.	“Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” MChJ	MChJ	100,0
223.	“Neftegazmineral” MChJ	MChJ	100,0
224.	“Avtogazta‘minot” MChJ	MChJ	100,0
225.	“Neftgazmontaj” MChJ	MChJ	54,6
226.	“Toshneftgazqurilish” AJ	AJ	53,3
227.	“Sarbon-neftgaz” AJ	AJ	51,0
228.	“O‘zmaloyl qo‘shma korxonasi” MChJ	MChJ	50,0
229.	“Elektrtarmoqqurilish” AJ	AJ	37,3
230.	“Orgres” AJ	AJ	30,8
231.	“Elektrqishloqqurilish” AJ	AJ	53,4
232.	“Allbit” MChJ	MChJ	32,5
233.	“Geolserviskomplekt” MChJ	MChJ	100,0

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
234.	O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar vazirligi moliya va moddiy texnika ta'minoti bosh boshqarmasi maishiy ishlab chiqarish kombinati" DUK	DUK	100,0
235.	"Toshkent-Zenner" MChJ	MChJ	45,1
236.	"O'ZFYANT" MChJ	MChJ	23,3
237.	"O'rta osiyo trans" AJ	AJ	51,0
238.	"Respublika qishloq xo'jaligi texnikasi va ehtiyot qismlar bazasi" DUK	DUK	100,0
239.	"Uzdigital TV" MChJ	MChJ	50,0
240.	"O'ztreyd" AJ	AJ	100,0
241.	O'zkitobsavdo DAK "O'quv metodik kollektori" DUK	DUK	100,0
242.	"Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish" DUK	DUK	100,0
243.	"CA FORMS" MChJ	MChJ	37,0
244.	"Xamar" DUK	DUK	100,0
245.	"Shinam bino" MChJ	MChJ	100,0
246.	"Niyat-tram" DUK	MChJ	100,0
247.	"Enologiya laboratoriyasi" DUK	DUK	100,0
248.	"Univer grand fud" MChJ	MChJ	30,0
249.	"Central asia megastar" MChJ	MChJ	52,3
250.	"Konkret teknologi" MChJ	MChJ	63,4
251.	"Komprador" MChJ	MChJ	12,1
252.	"Toshkent rielt" MChJ	MChJ	23,0
253.	"O'zdavkitobsavdota'minoti" MChJ	MChJ	99,7
254.	"Dimax sanoat savdo-ko'rgazma biznes markazi" MChJ	MChJ	8,6
255.	"Info-fan" DUK	DUK	100,0
256.	"Iqtisod-moliya" DUK	DUK	100,0
257.	"Chinor ENK" MChJ	MChJ	100,0
258.	"Nano lizing kompaniyasi" MChJ	MChJ	8,2
259.	"Mark and control sys" MChJ	MChJ	30,0
260.	"O'rmoninvest" DUK	DUK	100,0
261.	"Geobur Tashkent" MChJ	MChJ	50,0
262.	"Hanjin DNB equipments" MChJ	MChJ	49,6
263.	"Uz-kor tungsten" MChJ	MChJ	49,0
264.	"Dioksid biznes" MChJ	MChJ	37,3

№	Nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
265.	“Druppa-dizayn” MChJ	MChJ	34,6
266.	“Musaffo niyat” MChJ	MChJ	10,0
267.	“Geleon-link” MChJ	MChJ	10,0
268.	“SPI and OWT” MChJ	MChJ	4,0
269.	“Manzarali bog‘dorchilik va gulchilik” MChJ	MChJ	100,0
270.	“Yog‘och qayta ishlash zavodi” DUK	DUK	100,0
271.	“Ingo-O‘zbekiston” AJ	AJ	2,0
272.	“Ipak yo‘li aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki” AJ	AJ	0,41
273.	“Toshinvestplast” MChJ	MChJ	50,0
274.	“O‘zqurilishmaterialsavdo” MChJ	MChJ	100,0
275.	Gazeta, nashriyot va jurnallar — 109 ta	MChJ, DUK, AJ	
276.	Axborot texnologiyalari korxonalar va kompyuter xizmatlari ko‘rsatish markazlari — 26 ta	MChJ, DUK, AJ	
277.	Xususiy sektor rivojlangan sohadagi tibbiyot muassasalari — 27 ta	MChJ, DUK, AJ	
278.	“Yog‘gar” AJ	AJ	89,3
279.	“Turon-xojeyli” AJ	AJ	40,6
280.	“Andijonyog‘moy” AJ	AJ	58,4
281.	“Asaka yog‘” AJ	AJ	51,2
282.	“Kogon yog‘-ekstraksiya zavodi” AJ	AJ	51,0
283.	“Kattaqo‘rg‘on yog‘-moy” AJ	AJ	64,9
284.	“Guliston ekstrakt-yog‘” AJ	AJ	58,9
285.	“Yangiyo‘l yog‘-moy” AJ	AJ	51,0
286.	“Farg‘ona yog‘-moy” AJ	AJ	84,4
287.	“Qo‘qon yog‘-moy” AJ	AJ	51,0
288.	“Urganch yog‘-moy” AJ	AJ	60,3
289.	“Toshkent yog‘-moy kombinati” AJ	AJ	51,0
290.	“Nukus vinozavodi” AJ	AJ	51,0
291.	“Shahrisabz vino-arog‘” AJ	AJ	51,0
292.	“Lazzat” DUK	DK	100
293.	“Sirdaryo vino” AJ	AJ	51,0
294.	“Konvin” AJ	AJ	51,0
295.	“Mastona” AJ	AJ	51,0
296.	“Urganch sharob” AJ	AJ	53,9
297.	“Qo‘rg‘ontepa sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0

№	Nomi	Tashkiliy- huquqiy shakli	Davlat ulushi (%)
298.	“Andijon sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
299.	“Peshku tuman sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
300.	“Gijduvon sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
301.	“Do‘stlik sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
302.	“Yakkabog‘ sharob konserva” MChJ	MChJ	100,0
303.	“Kitob uzum servis” MChJ	MChJ	74,9
304.	“Kattaqo‘rg‘on shahar sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
305.	“Mirzaobod sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
306.	“Denov sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
307.	“Qumqo‘rg‘onsharobsavdo” MChJ	MChJ	100,0
308.	“Chirchiq sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
309.	“Chinoz sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
310.	“Qibray sharob savdo bazasi” MChJ	MChJ	100,0
311.	“Bo‘stonliq tuman sharob-savdo” MChJ	MChJ	100,0
312.	“Damachi sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
313.	“Chotqol” MChJ	MChJ	25,0
314.	“Bo‘stonliq uzum servis agrofirma” MChJ	MChJ	11,0
315.	“Qo‘shko‘pir sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
316.	“Yangibozor sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
317.	“Xorazm sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
318.	“Shayxontohir sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0
319.	“Chilonzor tuman sharob-savdo” MChJ	MChJ	100,0
320.	“Markaz sharob savdo” MChJ	MChJ	100,0

1) Davlat aksiya paketlari (ulushlari) ushbu jamiyatlardagi davlat ulushi bor ta’rischilar ustav fondiga nominal qiymatda o‘tkaziladi.

2) Mazkur tarmoq va soha korxonalarini ro‘yxati Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha davlat komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

2021-yil mart oyida savdoga chiqariladigan davlat aktivlarining ro'yxati

T/r	Nomi	Balansda saqllovchi	Maydoni	
			umumiy yer (ga)	Bino-inshoot (kv.m)
1.	“Poytaxt biznes majmuasi” MChJ*	Toshkent shahar hokimligi	0,4	34 592
2.	“Shahar mehmonxonasi” DUK	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi	2,2	12 256
3.	“Gazetalar ishlab chiqarish majmuasi binosi”	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	1,9	17 863
4.	“Ma’muriy bino” (Sobiq Respublika birja markazi)	O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	1,1	9103
5.	“Malika” savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi	Toshkent shahar hokimligi	4,1	13 833
6.	“Byeldirsoy oromgohi” dam olish maskani	Toshkent shahar hokimligi “Byeldirsoy oromgohi” sho‘ba korxonasi sog‘lomlashtirish markazi	46,1	9 628
7.	“Chorvoq oromgohi” dam olish maskani	Toshkent shahar hokimligi “Chorvoq oromgohi” sho‘ba korxonasi sog‘lomlashtirish markazi	76,1	31 211
8.	“Ichan qal’a” mehmonxona majmuasi	O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi	0,6	10 100
9.	“Sijjak” dam olish maskani	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	5,4	5 016
10.	“Avtogazta’minot” MChJ	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	18,4	19 316
11.	“Qizil suv sport sog‘lomlashtirish” MChJ	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	5,9	2 746

Sotilishi belgilangan davlat ulushi miqdori korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgargan taqdirda, aktivlarning sotilishi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan korxonalarining ustav kapitalida Davlat ulushi ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarining ulushi mavjud bo'lganda, bundan ushbu ilovaga muvofiq sotilishi belgilangan korxonalar mustasno, ularning ulushlari belgilangan tartibda boshqaruv organlari qarorlari asosida balans qiymatida ustav fondidagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga Agentlikka o'tkazilib, yaxlit paketda savdoga chiqariladi.

Gazeta va jurnallardagi davlat ulushlari boshlang'ich narxi "1 so'm"ga teng qiymatda qo'yilgandan so'ng ham sotilmaganda, mehnat jamoasiga o'zaro kelishuv asosida sotish taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096 sonli Farmoniga muvofiq hamda iqtisodiyotga xususiylashtirishni jalb qilishni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan 2021 yil 11 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-6167 sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra 2021-yil mart va aprel oylarida savdoga qo'yiladigan davlat aktivlari va davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalari ro'yxati tasdiqlandi.

Ushbu jadvalda ko'rsatilgan davlat aktivlarini sotishdan tushgan mablag'larning (aktivlarni savdolarga chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlarni chegirgan holda) 95 foizi O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladi, 5 foizi Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi tasarrufida qoldiriladi. Obyektlar ulush yoki mulkiy majmua sifatida savdolarga chiqariladi. Ulush sifatida chiqarilganda ushbu ilovada ko'rsatilgan obyektlar jamiyat ustav fondiga balans qiymatida beriladi. Sotish shartlari va usullari (jumladan professional tashkilotlarni jalb etish zarurati) Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi. "Poytaxt biznes majmuasi" MChJ ustav kapitalidagi davlat ulushi va unga operativ boshqaruvga berilgan davlat ko'chmas mulk obyekti jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini oshirish uchun balans qiymatida Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkaziladi.

2021-yil apreldan savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalari

T/r	Tashkilot nomi	Joylashgan joyi	Sotiladigan ulush miqdori (foizda)
1.	“Kvars” AJ	Farg‘ona viloyati	89,5
2.	“Trest-12” AJ	Toshkent shahri	51
3.	“O‘zbekkimyomash zavodi” AJ	Toshkent viloyati	44,7
4.	“Jizzax plastmassa” AJ	Jizzax viloyati	85,8*
5.	“Qo‘qon mexanika zavodi” AJ	Farg‘ona viloyati	64,1
6.	“Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ	Farg‘ona viloyati	100
7.	“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ	Toshkent shahri	49,3
8.	“Toshkentvino kombinati” AJ	Toshkent shahri	51,8
9.	“O‘zbekiston shampani” AJ	Toshkent shahri	51,0
10.	“Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati” AJ	Samarqand viloyati	71,2
11.	“Qibray sharob ilmiy-eksperimental korxonasi” DUK	Toshkent viloyati	100
12.	“Urganch sharob” AJ	Xorazm viloyati	60,3
13.	“Nukus vino zavodi” AJ	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	51
14.	“Shahrisabz vino-arog‘ AJ	Qashqadaryo viloyati	51
15.	“Sirdaryo vino” AJ	Sirdaryo viloyati	51
16.	“Konvin” AJ	Toshkent viloyati	51
17.	“Mastona” AJ	Farg‘ona viloyati	51
18.	“Elektr qishloq qurilish” AJ	Toshkent shahri	53,4

Mazkur ro‘yxatdagi davlat aksiya paketlari (ulushlar) “UzAssets” AJ investitsiya kompaniyasi ustav kapitaliga nominal qiymatda berish orqali sotiladi. Ushbu jadvalda ko‘rsatilgan aktivlarni sotishdan tushgan mablag‘lar (“UzAssets” AJ Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan saqlash xarajatlari, jumladan, korxonalarni sotishdan oldingi tayyorlash va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirgan holda) har chorakda Agentlik huzuridagi budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya

va xususiylashtirish jamg'armasiga o'tkaziladi va 95 foizi O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladi, 5 foizi Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi tasarrufida qoldiriladi. "O'z kimyosanoat" AJga tegishli ulush belgilangan tartibda boshqaruv organi qarori asosida balans qiymatida ustav fondidagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga "UzAssets" investitsiya kompaniyasi ustav fondiga nominal qiymatda o'tkazilib, yaxlit paketda savdoga chiqariladi.

AMALIYOT DARSII UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishlariga izoh bering.
2. Korporativ moliyaviy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari.
3. Korporativ moliyaviy siyosatda o'zaro bog'liqlik mexanizmidan samarali foydalanish.
4. Moliyaviy taktikada belgilab olinadigan asosiy vazifalar.
5. Moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish imkoniyatlari.
6. Investitsion faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlari.
7. Korporativ moliyaviy siyosatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi.
8. Korporativ moliyaviy siyosatda foydani maksimallashtirish masalasi.
9. Korporativ moliyaviy siyosatda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish yo'nalishlari.
10. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy munosabatlar tizimi.

Testlar

1. Korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarini qanday guruhlar asosida tasniflash mumkin?

- a) davlat, moliya bozori institutlari, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan munosabatlar ijtimoiy infratuzilma institutlari bilan moliyaviy munosabatlar tizimi;
- b) soliq maslahatchilari bilan, baholash tashkilotlari bilan munosabatlar;
- c) auditorlik tashkilotlari, investitsiya vositachilari bilan munosabatlar;
- d) soliq organi, arbitraj sudlari bilan munosabatlar.

2. Har qanday moliyaviy munosabatning moddiy asosi nima hisoblanadi.

- a) pul va manfaat;
- b) foiz undirish;
- c) hukmronlik o'tkazish;
- d) moddiy jihatdan nufuzini oshirib borish.

3. Moliyaviy munosabatning yuzaga kelish asosiy shartini qanday izohlaysiz?

- a) pul mablag'larining subyektlar o'rtasidagi maqsadli harakati;
- b) foydani taqsimlashda pul munosabatlaridan foydalanish;
- c) takror ishlab chiqarishda moliyaviy ta'minot uzluksizligiga erishish;
- d) moliyaviy barqarorlikni oshirib borish.

4. O'z xarajatlarini o'zi qoplash prinsipi nimani nazarda tutadi?

- a) korxonani rivojlantirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar sof foyda va amortizatsiya ajratmalari hisobiga qamrab olinishini;
- b) xarajatlarni minimallashtirish orqali foydani maksimallashtirishni;
- c) moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etishni;
- d) moliyaviy risklarni kamaytirish maqsadida kam daromad bilan cheklanishni.

5. Aksiyadorlari o'zlariga tegishli aksiyalarni o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati qanday aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

- a) ochiq obunaga asoslangan aksiyadorlik jamiyati;
- b) yopiq aksiyadorlik jamiyati;
- c) unitar jamiyat;
- d) aksiyadorlar har doim o'z aksiyalarini boshqa shaxsga o'tkazish uchun boshqa aksiyadorlardan yozma rozilik olish kerak.

6. O'zbekistonda yopiq aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar soni bo'yicha chegarani bilasizmi?

- a) yopiq aksiyadorlik jamiyati tushunchasi bekor qilingan;
- b) aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar soni bo'yicha hech qanday chegara belgilanmaydi;
- c) 50 ta shaxsdan kam bo'lishi mumkin emas;

d) jamiyat ta' sis yig'ilishi qarori bilan ustavda belgilab qo'yiladi.

7. Aksiyadorlik jamiyatining ta' sis hujjatini bilasizmi?

- a) ustav;
- b) jamiyat ta' sis yig'ilishi bayonnomasi;
- c) Vazirlar mahkamasi qarori;
- d) tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish inspeksiyasi tomonidan berilgan guvohnoma.

8. MChJ ishtirokchilarining soni bo'yicha aniq chegara belgilab qo'yilganmi?

- a) ellik kishidan oshmasligi lozim;
- b) 3 ta shaxsdan kam, 50 ta shaxsdan ko'p bo'lishi mumkin emas;
- c) 50 ta shaxsdan kam bo'lishi mumkin emas;
- d) alohida talab belgilanmagan.

9. Korporativ moliya tushunchasi nimani anglatadi?

- a) korporativ tuzilmalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida yuzaga keladigan barcha pulli moliyaviy munosabatlar tizimini;
- b) davlat va korxonalar o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni.
- c) aksiyador va kompaniya o'rtasidagi munosabatlarni;
- d) korxonalar faoliyatini boshlash bilan bog'liq jarayonlarni.

10. Real sektordagi aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali miqdori qancha bo'lishi kerak?

- a) 400 million so'm;
- b) 400 ming AQSh dollari;
- c) 400 ming yevro;
- d) 200 ming AQSh dollari.

11. Korporativ moliyaviy siyosatda kapital bahosini aniqlashda e'tibor qaratiladigan eng asosiy jihatlarni belgilang.

- a) kapital bahosi, unda kutilayotgan daromadlilik va vaqt omili;
- b) kapitalning arzonligi va qisqa muddatlilik;
- c) kapital valyutasi va qaytarish shartlari;
- d) kapital bahosining loyiha bo'yicha kutilayotgan daromadlilik bilan tengligi.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Korporativ moliyaviy siyosatda moliyaviy strategiya va moliyaviy taktikada qo‘yiladigan va amalga oshiriladigan vazifalar bo‘yicha T-sxemani to‘ldiring.

Moliyaviy strategiyada	Moliyaviy taktikada
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Korporativ moliyaviy siyosatda moliyaviy ta‘minot va investitsion faoliyatni samarali tashkil etish yo‘nalishlarini belgilang.

Moliyaviy ta‘minotda	Investitsion faoliyatda
1.	1.
2.	2.
...	...

XII bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN BOG‘LIQ MUNOSABATLAR TIZIMI

12.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlar muomalasining nazariy va tashkiliy jihatlari

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini qimmatli qog‘ozlar muomalasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati asosini qimmatli qog‘ozlar, birinchi navbatda aksiyalar tashkil qiladi. Qarz kapitali jalb qilish maqsadida korporativ obligatsiyalar muomalasi tashkil etiladi. Bunda aksiyalar va obligatsiyalarning bir necha xil turlari qo‘llanilishini ham qayd etib o‘tish lozim. Shuningdek aksiyalar va korporativ obligatsiyalar bo‘yicha hosilaviy qimmatli qog‘ozlar muomalasi ham amal qiladi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida aksiyadorlik kompaniyalari o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta‘minlash uchun qimmatli qog‘ozlardan keng foydalanadilar. Shundan kelib chiqqan holda quyida mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarning nazariy va tashkiliy jihatlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlar muomalasi O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, 2015-yil 3-iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali bevosita oddiy va imtiyozli aksiyalar hisobiga shakllantiriladi. Aksiyadorlik jamiyati o‘zi chiqarayotgan aksiyalarni ommaviy tarzda ochiq obuna o‘tkazish orqali yoki ustavda belgilab qo‘yish orqali yopiq obuna o‘tkazish orqali joylashtirishlari mumkin. Ayni paytda amaldagi qonunchilikda aksiyadorlik jamiyatlarining ochiq va yopiq turlari mavjud bo‘lmasada aksiyalarni ochiq yoki yopiq joylashtirish iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra ochiq hamda yopiq aksiyadorlik jamiyatlari shakllanishiga olib kelmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi kerak.

Har bir aksiyadorlik jamiyati oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli hisoblanadi. Bunda

joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati ustav kapitalining 20 foizidan oshmasligi shart.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin. Qo‘shimcha aksiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan, e‘lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtiriladi. Ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan yoki, agar jamiyat ustaviga yoxud aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq kuzatuv kengashiga shunday qarorlar qabul qilish huquqi berilgan bo‘lsa, kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari belgilanadi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda jamiyat ustavida ko‘rsatilgan, e‘lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning dastlabki chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar nominal qiymatining 0,01 foizi miqdorida O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga yig‘im to‘laydi. Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymati oshirilgan taqdirda, emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar nominal qiymati oshgan summasining 0,01 foizi miqdorida O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga yig‘im to‘laydi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini ko‘paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o‘z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Ustav kapitalini o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirishda qo‘shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav kapitali ko‘paytirilishi natijasida ko‘paytirish summasining bitta aksiyaning

nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin. Lekin bu amaliyotga aksiyadorlik jamiyati ustavida nazarda tutilgan holdagina yo'l qo'yiladi. Shuningdek ustav kapitalini kamaytirish ustav kapitalini kamaytirish bo'yicha minimal chegaradan pasayib ketmasligi lozim. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Qaror qabul qilish jarayonida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav kapitali kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishlari mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aksiyalarning nominal qiymati 5000 so'mdan ortiq bo'lishi mumkin emas. 2014-yilgacha aksiyalarning nominal qiymati 100 so'mdan past bo'lmasligi shartligi amalda edi, yuqori talab esa mavjud emas edi.

Quyidagi jadvalda aksiyadorlik jamiyatlari misolida aksiyalar soni, nominal qiymati va ustav kapitali haqida ma'lumotni keltiramiz (12.1-jadval).

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari nominal qiymati har xil. Hattoki bir so'mlik aksiyalar ham muomalaga chiqarilgan. Respublikamizdagi barcha aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan aksiyalar haqida ma'lumotlar bilan Korporativ axborotlar yagona portali – www.openinfo.uz orqali batafsil tanishish mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati ustavida aksiyadorlar olgan aksiyalarning soni va nominal qiymati belgilab qo'yiladi. Bunga misol sifatida "Kvarts" aksiyadorlik jamiyatining 2015-yil 17-iyulida ro'yxatdan o'tkazilgan ustavi 4.2-bandini keltiramiz: "Jamiyatning ustav kapitali 23 963 940 000 (yigir-

ma uch million to‘qqiz yuz oltmish uch ming to‘qqiz yuz qirq ming) so‘m bo‘lib, 23 963 940 (yigirma uch million to‘qqiz yuz oltmish uch ming to‘qqiz yuz qirq) ta oddiy aksiyaga bo‘lingan. Aksiyaning nominal qiymati 1000 (bir ming) so‘mdan iborat.

12.1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar to‘g‘risida ma‘lumot⁷²

№	Aksiyadorlik jamiyati nomi	Joylashgan hudud	Tarmoq (yuqori turuvchi tashkilot)	Muomaladagi aksiyalar		
				Ming so‘mda	Nominali	Ming donada
1	G‘ozg‘on marmar	Navoiy	"O‘zqurilish materiallari" AJ	767 565,9	1 934,0	396,880
2	Granit	Samarqand	"O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ	1 322 943,2	2 179,0	607,253
3	Guliston ekstrakt-yog‘	Sirdaryo	"O‘zpxatasanoat eksport" XK	1 139 805,8	1 999,0	570,188
4	Gurlan dehqon bozori	Xorazm	Hokimiyat	3 533 555,0	1 000,0	3 533,555
5	Davr-bank	Toshkent sh	Moliyaviy tashkilotlar	40 000 000,0	5 000,0	8 000,0
6	Daromad plyus IF	Toshkent sh	Moliyaviy tashkilotlar	631 904,0	500,0	1 263,808
7	GM Uzbekistan	Andijon	"O‘zavtosanoat" AK	344000017,2	1,0	344000017,2
8	Doyche Kabel AG Tashkent	Toshkent sh	"O‘zeltexsanoat" AK	744 440,9	1 330,0	559,73
9	Don xalq rizqi	Qashqadaryo	"O‘zdonmahsulot" AK	2 005 992,0	2 160,0	928,7
10	Dori-darmon	Toshkent sh	"Dori-darmon" AK	86 309 600,0	4 300,0	20 072,0
11	Dunyo-M	Qashqadaryo	"O‘zdonmahsulot" AK	11 266 272,0	2 000,0	5 633,136
12	Jizzax akkumulyat or zavodi	Jizzax	"O‘zavtosanoat" AK	75 494 442,2	1 013,0	74 549,895

⁷² Korporativ axborotlar yagona portalidan olindi.

Jamiyat ustav kapitalida aksiyadorlar ulushi va ularning nisbati foizlarda:

- davlat ulushi – 23 942 490 000 (yigirma uch milliard to‘qqiz yuz qirq ikki million to‘rt yuz to‘qson ming) so‘m, ya’ni ustav kapitalining 99,91 foizini tashkil etadi;

- jismoniy shaxslar o‘rtasida joylashtirilgan ulush – 21 450 000 (yigirma bir million to‘rt yuz ellik ming) so‘m, ya’ni ustav kapitalining 0,09 foizini tashkil etadi”⁷³.

Aksiyadorlik jamiyati ustavida jamiyat joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo‘lgan e‘lon qilingan aksiyalarning soni va nominal qiymati belgilanishi mumkin. Bunga ham misol sifatida “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati ustavidan 4.4-bandni keltiramiz. “Jamiyat umumiy qiymati 10 000 000 000 (o‘n milliard) so‘m bo‘lgan qo‘shimcha e‘lon qilingan 10 000 000 (o‘n million) ta oddiy aksiyani chiqarish huquqiga ega. Har bir aksiya nominal qiymati 1000 (ming) so‘mni tashkil etadi”.

Jamiyat ustaviga jamiyatning e‘lon qilingan aksiyalari haqida nazarda tutilgan qoidalar bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qaror, odatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar asosida belgilanadi. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha esa dividendlari miqdori ustavda qat’i belgilab qo‘yiladi.

Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlar jamiyat tomonidan joylashtirilgan taqdirda e‘lon qilingan aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog‘ozlarning muomalada bo‘lishi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo‘lmasligi lozim. Jamiyat o‘zi joylashtirgan qimmatli qog‘ozlar ayirboshlanishi mumkin bo‘lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog‘ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

Aksiyalarga bo‘lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag‘iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e‘tiboran o‘tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlik jamiyat qonun hujjatlariga va o‘z ustaviga muvofiq korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga

⁷³ www.kvarts.uz – Kvarts aksiyadorlik jamiyati rasmiy veb-saytidan olindi.

hamda joylashtirishga haqli. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli.

Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra yoki, agar jamiyat ustaviga yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq jamiyat kuzatuv kengashiga bunday qaror qabul qilish huquqi tegishli bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Jamiyat tomonidan jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish chog'ida uning aksiyalariga haq to'lash tartibi jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasida (o'zgartirish to'g'risidagi qarorda) yoki jamiyat ustavida, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash esa, ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab qo'yiladi. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

Jamiyat ustavida aksiyalar haqini to'lash majburiyatini bajarmaganlik uchun neustoyka (jarima, penya) undirish nazarda tutilishi mumkin.

Jamiyatni ta'sis etishda aksiyalarga to'lanadigan haq sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalanadigan bahosi muassislar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq chiqariladi.

Agar jamiyatning puldan o'zga vositalar bilan haqi to'lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.

Qonun hujjatlarida va jamiyatning ustavida jamiyat aksiyalari hamda boshqa qimmatli qog'ozlari haqi sifatida to'lanishi mumkin bo'lgan mol-mulk turlariga cheklovlar belgilanishi mumkin.

12.2. Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish hamda olish

Aksiyalarning dastlabki chiqarilishini joylashtirish muddati aksiyadorlik jamiyati davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim. Qo'shimcha aksiyalarni va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Aksiyadorlik jamiyatining joylashtirilmagan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin qonun belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Davlat tashkilotlarini aksiyadorlik jamiyatlari etib o'zgartirish jarayonida emissiya qilingan aksiyalar yangi mulkdorlarga belgilangan tartibda realizatsiya qilinadigan paytga qadar dastlabki joylashtirilgan davlat aktivlaridir.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq yoki yopiq obuna tartibida joylashtirish ustavda belgilab qo'yiladi. Agarda ustavida bu xususda ko'rsatmalar mavjud bo'lmasa, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi. Ustavda yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorida aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarini joylashtirish usuli to'g'risida ko'rsatmalar mavjud bo'lmagan holatda esa, joylashtirish faqat ochiq obuna vositasida amalga oshirilishi mumkin. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorida (fond birjasida) va uyushgan birjadan tashqari bozorida o'tkaziladi.

Qonun hujjatlarida aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarning ochiq obuna vositasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi shart bo'lgan hollar belgilab qo'yilishi mumkin.

Aksiyalarning va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi mazkur chiqarilishni to'xtatib turishga olib kelgan qoidabuzarliklar emitent tomonidan bartaraf etilmagan, shuningdek chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda mazkur chiqarilishdagi aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning 60 foizdan kam qismi joylashtirilgan taqdirda amalga oshmagan deb e'tirof etiladi.

Aksiyalar hamda boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida joylashtirilgan taqdirda ularning chiqarilishi, agar joylashtirish hajmi mazkur chiqarilishdagi aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlar umumiy miqdorining kamida 30 foizini tashkil etsa, amalga oshgan deb e'tirof etiladi. Shuning uchun ham "Kvars" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 54 foiz joylashtirilgan holatda ham joylashtirilganligi e'tirof etildi.

Aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etishda uning aksiyalari haqini to'lash ta'sischi tomonidan aksiyalarning nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi tomonidan, agar jamiyat ustaviga yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq kuzatuv kengashiga bunday vakolat berilgan bo'lsa, qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali oshirilayotganda jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

Jamiyat ustavida jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'lishi nazarda tutilishi mumkin. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining

ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi aksiyadorlar reyestri ma'lumotlari asosida tuziladi. Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

Jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni mazkur aksiyadorlarda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyatning boshqaruv organi tomonidan belgilangan joylashtirish narxi bo'yicha olishni taklif etishi shart.

Bildirish matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran 10 kundan kam va 30 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida jamiyatga taqdim etilishi kerak.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi.

Jamiyat imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaguniga qadar aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ularni olish bo'yicha imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirishga haqli emas.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan tartibda jamiyat tomonidan realizatsiya qilinadi.

Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlik jamiyati o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiya-dorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra qaytarib sotib olishlari mumkin.

Agar muomalada qolgan aksiyalarning nominal qiymati aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularning bir qismini olish yo'li bilan jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularni olish yo'li bilan jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qabul qilingan qarori asosida jamiyat tomonidan olingan aksiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Aksiyalarni olish to'g'risidagi qarorda olinadigan aksiyalarning turlari, jamiyat oladigan har bir turdagi aksiyalarning soni, aksiyalarni olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar qancha muddatda olinishi belgilab qo'yilishi kerak. Agar jamiyatning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksiyalarni olish vaqtida ularga haq to'lash pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi. Aksiyalarni olish muddati aksiyalarni olish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi, bu muddat o'n kundan kam bo'lmasligi kerak. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

Qaysi muayyan turdagi aksiyalarni olish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, o'sha aksiyalarning egasi bo'lgan har bir aksiyador mazkur aksiyalarni sotishga haqli, jamiyat esa ularni olishi shart. Agar jamiyat tomonidan olinishi to'g'risida aksiyadorlarning arizalari tushgan aksiyalarning

umumiy soni bo'yicha belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda jamiyat olishi mumkin bo'lgan aksiyalarning sonidan ortiq bo'lsa, aksiyadorlardan arizada ko'rsatilgan talablarga mutanosib ravishda aksiyalar olinadi. Aksiyalar olinadigan muddat boshlanishiga kechi bilan o'n kun qolganda jamiyat muayyan turdagi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarni jamiyat tomonidan aksiyalar olinishi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va o'z rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali xabardor etishi shart.

Imtiyozli aksiyalarni olish jamiyat ustavida nazarda tutilgan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi.

Keyinchalik qayta sotish maqsadida jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular jamiyat tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak, aks holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

Jamiyat tomonidan o'z aksiyalarining olinishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, mustaqil ravishda yoki qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyati o'zining joylashtirilgan oddiy aksiyalarini quyidagi holatlarda qaytarib sotib olishi mumkin emas:

- butun ustav kapitali to'liq to'languniga qadar;
- agar oddiy aksiyalarni olish paytida jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki bunday belgilar u aksiyalarni olganligi natijasida paydo bo'lsa;

- agar oddiy aksiyalarni olish paytida jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitalidan, zaxira fondidan va joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatining nominal qiymatidan ortiq qismidan kam bo'lsa yoxud aksiyalarni olish natijasida ularning miqdoridan kamayib ketsa.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyati joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo'lib, buning

natijasida jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga uning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida jamiyatning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar jamiyatni qayta tashkil etish to'g'risida, joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida; jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki boshqa shaxsga berish bilan bog'liq yirik bitim tuzish to'g'risida; jamiyatning ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qarorlar qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergan bo'lsa yoxud ovoz berishda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidir.

O'zlariga tegishli aksiyalar jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati ovoz berish natijasida qonunchilikka muvofiq aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish ushbu aksiyalarning bozor qiymati bo'yicha amalga oshiriladi, bu qiymat jamiyatning aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan harakati natijasida qiymatning o'zgarishi hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Jamiyat aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur jamiyat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalari aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini **o'ttiz kun ichida** e'lon qilishi shart. Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziligi e'lon qilingan kundan

e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, jamiyatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.

Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarni o'zlariga tegishli aksiyalarning jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi mavjudligi, qaytarib sotib olish narxi va qaytarib sotib olishni amalga oshirish tartibi to'g'risida xabardor etishi shart.

Ovoz berish natijasida qonunchilikka muvofiq jamiyat aksiyalarni qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga yetkaziladigan xabarda bunga sabab bo'lgan holatlar ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'lishi lozim. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lmagan aksiyadorlarda aksiyalarning jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi mavjudligi va bunday huquqni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi axborot aksiyalarning jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran yetti kundan kechiktirmay aksiyadorlarga yuboriladi.

Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risidagi yozma talabi aksiyadorning yashash joyi (joylashgan yeri) va uning qaytarib sotib olinishini talab qilayotgan aksiyalar soni ko'rsatilgan holda jamiyatga yuboriladi.

Aksiyadorlarning o'zlariga tegishli aksiyalarning jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishi to'g'risidagi yozma talablari aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tegishli qarori qabul qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatga taqdim etilishi kerak. Mazkur muddat tugaganidan so'ng jamiyat qaytarib sotib olish talabini qo'ygan aksiyadorlardan aksiyalarni o'n kun ichida qaytarib sotib olishi shart.

Jamiyat tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish ovoz berish natijasida milliy qonunchilikka muvofiq aksiyalarning jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi vujudga kelishi mumkin bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilgan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabarda ko'rsatilgan narx bo'yicha amalga oshiriladi. Jamiyat tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'larning umumiy summasi aksiyadorlarda o'zlariga qarashli aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n foizidan oshib ketishi mumkin emas, bundan jamiyatning o'zgartirilishi hollari mustasno. Qaytarib sotib olish talabi qo'yilgan aksiyalarning umu-

miy soni ushbu qismda belgilangan cheklov inobatga olingan holda jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishi mumkin bo'lgan aksiyalar sonidan oshib ketgan taqdirda aksiyalar aksiyadorlardan qo'yilgan talablarga mutanosib ravishda qaytarib sotib olinadi.

Jamiyat qayta tashkil etilgan taqdirda jamiyat tomonidan qaytarib sotib olingan aksiyalar bekor qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan ularning moliya bozoridagi faol harakati bilan ham bog'liq. Bunda moliyaviy resurs (kapital) jalb qilish, investitsion faoliyatni amalga oshirish, birlashish va qo'shib olish operatsiyalariga kirishish, risklarni sug'urtalash va hokazolar bevosita moliya bozori orqali amalga oshiriladi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish”⁷⁴ masalasi qo'yilganligi ham bejiz emas.

12.3. Aksiyalarni ommaviy joylashtirishning iqtisodiy mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari

Bugungi kunda mamlakatimizda korporativ moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki korporativ moliyaviy munosabatlar natijasida ham davlat, ham uy xo'jaligi bevosita daromadlarga ega bo'ladilar, shuningdek xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning egallab turgan o'rnini mustahkamlanadi. Shundan kelib chiqqan holda bu borada qonunchilik hujjatlari muntazam ravishda takomillashtirilib, korporativ tuzilmalar faoliyatini rivojlantirish masalasiga jiddiy yondashilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek “korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi.”⁷⁵

⁷⁴ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi 3.1-yo'nalishidan. http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036

⁷⁵ Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekistonning Prezidenti

Ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlar bozori emitenti sifatida o'z aksiyalarini ochiq va yopiq obuna tartibida joylashtirishlari mumkin. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy kapital jalb qilish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu masala aksiyalarni ochiq obuna tarzida xalqaro fond birjalarida joylashtirish orqali ham amalga oshiriladi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatining o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan quyida aynan shu masala xususida to'xtalib o'tamiz.

Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti qisqacha IPO (ing. «Initial Public Offering») deb yuritiladi. IPO emitent tomonidan aksiyalarni bozorda birlamchi ochiq obuna usulida joylashtirish bo'lib, bu jarayon davomida ular investorlarning keng doirasiga kirib boradilar va fond birjasida erkin savdoni amalga oshiradilar. Boshqacha qilib aytganda IPO deganda emitent kompaniyaning aksiyalarini ochiq bozorda birinchi marta sotuvga chiqarishi tushuniladi. Shu yo'l bilan kompaniya «yopiq»dan «ochiq»ga o'zgaradi, ya'ni shu kompaniya aksiyalariga qiziqib qolgan investorlar ularni fond birjasida erkin sotib olishlari mumkin. Kompaniya qimmatli qog'ozlarining birjada muomalaga chiqishi natijasida ularni erkin savdo-sotiq predmeti bo'lishiga, likvidiligi oshishiga va ularning bozor bahosining maksimal o'sishiga olib keladi. IPO yordamida kompaniyada joriy xarajatlarni qoplashga va yirik loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoni tug'iladi. IPO uchun talab qilinadigan jarayonlar va ularning amalga oshirilishi kompaniyaning shaffofligini oshiradi va uning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi. Umumiy holda oddiy aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtirish IPO operatsiyalarining afzalliklari va kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin (12.2-jadval).

Aksiyalarni ochiq obuna tartibida ommaviy joylashtirishda yuqorida keltirilgan afzalliklar va kamchiliklarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

IPO jarayoni ko'p bosqichli bo'lib, uzoq vaqtni (bir necha yillarni) va yuqori miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Kompaniyaning ichki tayyorgarligidan va barcha zaruriy jarayonlardan o'tishidan tashqari, IPO-ning amalga oshish vaqti iqtisodiyotning joriy holati bilan bog'liqligini ham alohida ta'kidlash lozim. Chunki bozordagi nobarqaror holat kapitalni joy-

I.Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. www.uza.uz

lashtirish bo'yicha risk darajasini keskin oshirishi va kutilayotgan kapital-lashuv darajasiga erishish imkoniyatini pasaytirishi mumkin.

12.2-jadval

Oddiy aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtirish va IPO operatsiyalari afzalliklari va kamchiliklari

№	Afzalliklar	Kamchiliklar
1.	Bu manba majburiy to'lovni o'zida aks ettirmaydi, ya'ni dividend to'lash to'g'risidagi qaror direktorlar kengashi tomonidan qabul qilinadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi	Korxonani boshqarishda va foydani taqsimlashda ishtirokchilar soni ortadi
2.	Aksiyalar qoplanishi bo'yicha qat'i belgilangan muddatga ega emas, chunki aksiyalar doimiy kapital manbasi bo'lib xizmat qiladi	Qo'shimcha aksiyalar emissiyasi investorlar tomonidan salbiy signal sifatida qabul qilinishi mumkin va bu qisqa muddat ichida aksiyalar kursining pasayishiga olib kelishi mumkin
3.	Aksiyalar likvidligining oshishi va kapital qiymati pasayganda yirik, uzoq muddatli moliyalashtirish manbasiga ega bo'lishi	Moliyaviy va yuridik ma'lumotlarning oshkoraligi
4.	Kelajakda pozitsiyalari kuchliroq kompaniya bilan o'zaro birlashishning osonlashishi	IPOni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarning yuqoriligi
5.	Investorlar va mulkdorlar uchun biznesdan chiqish yo'lining osonlashishi	«Dushman» aksiyadorlarning kompaniya faoliyatiga kirib kelish ehtimoli
6.	Kompaniya nufuzining oshishi, uning bozorda tanilishi va investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi va boshqalar	Kompaniyaning investitsion tarixi bo'lishi shartligi

Kompaniya o'z ichki imkoniyatlarini tahlil qilgan holda IPO operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilgandan keyin, tayyorgarlik jarayonini boshlaydi. Bu jarayon bir necha yillarni o'z ichiga

qamrab olgan to‘rtta bosqichni o‘zida aks ettiradi. Har bir bosqich haqida quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi bosqichda tashkilotchilar va IPO ishtirokchilari guruhi tuziladi hamda ular tomonidan kompaniya moliyaviy strategiyasi belgilanadi va mos ravishda biznes-reja ishlab chiqiladi. Shuningdek, kompaniya tayyorgarlik darajasi moliyaviy tomondan baholanadi. Bu jarayonda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqichda tashqi hamkorlar, maslahatchilar, yirik potentsial investorlar tomonidan kompaniya moliyaviy holatining ishonchliligini tekshirish (ingl. «due diligence») jarayoniga katta e‘tibor qaratiladi. Bu jarayon o‘z ichiga oladigan jihatlar quyidagi jadvalda keltirilgan (12.3-jadval).

12.3-jadval

Kompaniya moliyaviy holatining ishonchliligini tekshirish jarayonlari

Moliyaviy tahlil va baholash	Audit va moliyaviy tekshiruv	Huquqiy hamkorlik va hamrohlik
1. Amalga oshiradigan mutaxassislar		
Moliyaviy analitiklar, korxonaga biznesini baholash bo‘yicha ekspertlar	Yuqori malakali auditorlar	Maxsus ixtisoslashgan yuristlar
2. Jamoaning ish maqsadi		
Investitsiyalash obyektining haqiqiy qiymatini aniqlash, xaridorga uning kelgusidagi foydalanishi yuzasidan turli xil variantlar bo‘yicha korxonaga qiymati dipazonini belgilash.	Korporativ moliyaviy tekshiruv o‘tkazish, korxonaga faoliyatini ekspertizadan o‘tkazish, foyda va soliq risklarini belgilash.	Kompaniya faoliyatini yuridik va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish, uni xarid qilish bilan bog‘liq risklarni maksimal darajada aniqlash.
3. Amalga oshiriladigan ishlar		
- xaridorning korxonaga faoliyatining amaldagi tartibini saqlab qolish yoki navbatdagi biznes birligi sifatida xolding tarkibiga qo‘shib olish nuqtayi nazaridan	- korxonaga tushumlari va xarajatlari tarkibi tahlil qilinadi; - ichki nazorat tizimi baholanadi; - asosiy vositalar, moliyaviy qo‘yilmalar,	- ta‘sis hujjatlari, yuridik status, korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi hujjatlar, boshqaruv organlari hay‘at qarorlari, asosiy ishonchnomalar

<p>korxonaning bozor, investitsion va tugatish qiymatlari baholanadi; - moliyaviy analitiklar buyurtmachiga qimmatli qog'ozlarni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun bir necha xil standartlar orqali aniqlanadigan narx diapazonini taklif qiladi.</p>	<p>debitorlik va kreditorlik qarzlari, zaxiralar tahlil qilinadi; - kredit shartnomalari va majburiyatlar tahlili, shartli majburiyatlar tahlili amalga oshiriladi; - aktivlar va majburiyatlar hisobining to'liqligi va ishonchliligi tekshiriladi; - yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklari va natijani (foydani) belgilash; - shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq majburiyatlari miqdorini va uning moliyaviy natijaga ta'siri aniqlanadi.</p>	<p>bo'yicha sharh tayyorlanadi; - aksiyalar bo'yicha asosiy bitimlar, aksiyadorlar va ularning mulkiy va nomulkiy huquqlari haqida ma'lumotlar tahlil qilinadi; - korxonada faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, asosiy shartnomalar va korxonaning mulkiy huquqlari, mehnat munosabatlari va shikoyat-da'vo faoliyati o'rganiladi.</p>
<p>4. Ish natijalari</p>		
<p>Korxonada biznesini yoki aksiyalar paketini baholash to'g'risida hisobot.</p>	<p>Moliyaviy ekspertiza to'g'risida hisobot.</p>	<p>Kompaniyada yuridik ekspertizasi to'g'risida hisobot.</p>

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha PR-agentlar, investorlar bilan ishlashga jiddiy yondashilib, potentsial investorlar oldiga borib taqdimotlar o'tkaziladi. Taqdimotlar o'tkazish uchun potentsial investorlarni tanlashda investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish talab etiladi. Chunki dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi.

Bundan tashqari mazkur bosqichda savdo maydonini tanlash, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari ro'yxatga olinadigan fond birjasi va ochiq bozorga chiqish vaqti aniqlab olinadi.

IPO o'tkazish bosqichlaridan eng asosiysi hisoblangan **uchinchi bosqichda** qimmatli qog'ozlarni davlat organlarida va birjada ro'yxatdan

o'tkazish, joylashtirilishi kutilayotgan qimmatli qog'ozlar narx diapazonini belgilash, birlamchi emissiya prospektini chop etish amalga oshiriladi.

Yakuniy **to'rtinchi bosqichda** esa kompaniya aksiyalarining birjada muomalasi boshlanib, unda aksiyadorlar va menejerlardan tashqari anderrayterlar, moliyaviy, yuridik va soliq maslahatchilari, potentsial investorlar va moliya bozorining boshqa ishtirokchilari qatnashadi. Shuningdek, strategik ahamiyatga ega kompaniyalar aksiyalarini joylashtirishda davlat organlari ham ishtirok etishi mumkin. Bunda anderrayterlar birlamchi bozorda aksiyalarni kafolatli joylashtirish bilan shug'ullansa, soliq maslahatchilari aksiyalarni joylashtirishda soliqqa oid masalalar yuzaga kelganda bevosita ishtirok etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, IPO operatsiyalarini o'tkazish ma'lum darajada xarajatlarni talab qiladi. Bunda aksiyalarni joylashtirishga ketadigan xarajatlarni shartli ravishda boshlang'ich va asosiy xarajatlarga bo'lish mumkin. IPO o'tkazishning maqsadga muvofiqligini baholashga ketgan xarajatlar boshlang'ich xarajatlar sifatida baholanadi. Asosiy xarajatlar bevosita tayyorgarlikka ketgan xarajatlardir. Umumiy holda, IPO qiymati quyidagi xarajatlardan kelib chiqadi:

- yuridik due diligence;
- moliyaviy va soliqlar bo'yicha due diligence;
- auditorlik hisobotlarini tayyorlash;
- aktivlarni baholash;
- anderrayterlar bilan shartnomalar tuzish va anderrayter mukofoti;
- aksiyalar emissiyasi va ularni ro'yxatdan o'tkazish xarajatlari;
- soliqlar, bir martalik yig'imlar va boshqa xarajatlar.

Eng ko'p xarajat talab qiladigan jarayon bu kompaniya moliyaviy holatining ishonchliligini tekshirish jarayonidir.

IPO o'tkazish bo'yicha asosiy xarajatlardan biri Xalqaro fond birjalariga listing uchun dastlabki to'lovlar va har yillik badallar hisoblanadi. Quyida xalqaro fond birjalarida amal qiluvchi listing uchun dastlabki va har yillik badallarni keltirib o'tamiz (12.4-jadval).

Xalqaro fond birjalarida listing uchun dastlabki va har yillik to'lovlar⁷⁶

№	Fond birjasi nomi	Listing uchun dastlabki to'lovlar	Har yillik badallar
1.	NASDAQ Dubai	70000-250000 AQSh dollari	20000-50000 AQSh dollari
2.	Gongkong fond birjasi	150000-650000 Gongkong dollari	145000-1188000 Gongkong dollari
3.	London fond birjasi	6,4 mln funt sterlingdan 369,7 mln funt sterlinggacha	Bozor kapitalizatsiyasiga bog'liq ravishda 4200 funt sterlingdan 41400 funt sterlinggacha
4.	Nyu York fond birjasi	<75 mln AQSh dollari bo'lsa 0.0048; 75-300 mln AQSh dollari bo'lsa 0.00375; >300 mln AQSh dollari bo'lsa 0.0019 koeffitsiyent	Bozor kapitalizatsiyasining 0.00093 koeffitsiyenti, minimum 38000 AQSh dollari
5.	Moskva fond birjasi	105000 rubldan 265000 rublgacha	15000 rubl

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xalqaro fond birjalarida aksiyalarni joylashtirish bo'yicha xarajatlar nisbatan yuqori. Lekin shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, IPO ni tashkil etish va o'tkazish yuqori miqdordagi xarajatlarni talab qilsada, shunga mos ravishda yuqori miqdordagi kapitalni ham jalb qilish imkonini beradi. Buni fond bozori tarixidagi eng yuqori o'ntalikka kirgan aksiyalarni birlamchi ochiq joylashtirish operatsiyalari haqidagi quyidagi jadvaldan ham ko'rsak bo'ladi (12.5-jadval).

⁷⁶ [http://www.ey.com/Publication/vwLUAssets/Comparing-global-stock-exchanges-Eng/\\$FILE/Compa-ring-global-stock-exchanges-Eng.pdf](http://www.ey.com/Publication/vwLUAssets/Comparing-global-stock-exchanges-Eng/$FILE/Compa-ring-global-stock-exchanges-Eng.pdf)

Fond bozori tarixidagi eng yuqori o‘ntalikka kirgan aksiyalarni birlamchi ochiq joylashtirish operatsiyalari⁷⁷

№	Kompaniya nomi	Jalb qilingan kapital miqdori	Faoliyat sohasi
1.	Alibaba (Xitoy)	25 mlrd AQSh dollari	Internet savdo
2.	Visa (AQSh)	17,9 mlrd AQSh dollari	To‘lov tizimi
3.	Enel S.p.A (Italiya)	16,5 mlrd AQSh dollari	Elektroenergetika
4.	Facebook (AQSh)	16 mlrd AQSh dollari	Axborot texnologiyalari
5.	General motors (AQSh)	15,8 mlrd AQSh dollari	Avtosanoat
6.	Deutsche Telekom (Germaniya)	13 mlrd AQSh dollari	Telekommunikatsiya
7.	AT&T Wireless (AQSh)	10,6 mlrd AQSh dollari	Telekommunikatsiya
8.	Kraft Foods (AQSh)	8,7 mlrd AQSh dollari	Oziq-ovqat sanoati
9.	France Telecom (Frantsiya)	7,3 mlrd AQSh dollari	Telekommunikatsiya
10.	Telstra (Avstraliya)	5,6 mlrd AQSh dollari	Telekommunikatsiya

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan IPO bo‘yicha eng yuqori o‘ntalik 2014-yildan buyon o‘zgarasdan kelmoqda.

Kompaniyalarning aksiyalarini joylashtirish bo‘yicha listing uchun to‘lovlardan tashqari fond birjalari tomonidan belgilab qo‘yilgan alohida talablar ham mavjudligini qayd etib o‘tish lozim. Masalan, Nyu-York fond birjasida kompaniya aksiyalarini listingdan o‘tkazish uchun oxirgi moliya yili bo‘yicha soliqlar to‘langunga qadar daromad 2,7 million AQSh dollaridan, oxirgi ikki yil davomidagi foyda 3 million AQSh dollaridan,

⁷⁷ https://inventure.com.ua/news/world/rejting_top_10_ipo_zh_vsyu_istoriyu сайти асосида тузилди.

moddiy aktivlarning sof qiymati 18,0 million AQSh dollaridan, aksiyalar kurs qiymati 19 million AQSh dollaridan, oxirgi olti oy davomida emitent aksiyalari savdolarining o‘rtacha oylik hajmi 100 ming AQSh dollaridan kam bo‘lmasligi, shuningdek 100 ta va undan ortiq aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar soni kamida ikki mingtani tashkil etishi shart. London fond birjasi tomonidan esa kompaniyalar tijorat, moliyaviy va boshqaruvga oid axborotlarining ochiqligi bilan birga bozor kapitalizatsiyasi 700 ming funt sterlingdan kam bo‘lmasligi, muomalaga chiqarilgan aksiyalar erkin muomalada bo‘lishi, kamida 25 foiz aksiyalar kompaniya direktorlari hisoblanmagan aksiyadorlarga tegishli bo‘lishi, birorta ham aksiyador 30 foizdan ortiq ovozga ega bo‘lmasligi talab etiladi.

12.4. Mamlakatimizda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-maydagi “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 268-sonli Qarori bilan mamlakatimizda ham aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni birlamchi ochiq joylashtirish (IPO) va aksiyalarni ikkilamchi ochiq joylashtirish (SPO) operatsiyalarni o‘tkazish tartibi belgilandi. Shuningdek bunday amaliyotlardan davlat mulkini xususiylashtirishda keng foydalanish masalasi qo‘yildi. Respublikamizda birinchi marta quyidagi aksiyadorlik jamiyatlari bo‘yicha IPO va SPO o‘tkazilishi belgilandi (12.6-jadval).

12.6-jadval

Aksiyalarni birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif qilish yo‘li bilan aksiyalari sotiladigan aksiyadorlik jamiyatlari ro‘yxati

№	Aksiyadorlik jamiyati nomi	Aksiyalarni ommaviy taklif qilish tashabbuskori	Aksiyalarni ommaviy taklif qilish tashkilotchisi	Amalga oshirish shakli
1.	«Kvarts» AJ	«Kvarts» AJ	TIF Milliy banki	IPO
2.	«Shahrisabz vino-aroq» AJ	Davlat raqobat qo‘mitasi	«Asaka» ATB	SPO
3.	«Qo‘qon mexanika zavodi» AJ	«O‘zneftgazmash» AK	TIF Milliy banki	SPO

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan IPO va SPO o‘tkazishi belgilangan aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalining 10 foizi ommaviy joylashtirilishi belgilangan. Bunda har investor aksiyalarni sotib olishi mumkin bo‘lgan maksimal chegara belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich ommaviy taklif qilinayotgan aksiyalarning 0,05 foizidan yuqori bo‘lishi mumkin emas.

“Kvarts” AJ tomonidan o‘tkazilayotgan aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO) amaliyotida obuna kampaniyasi 2017-yil 5-dekabrda boshlanib 2018-yil 3-aprelga qadar davom etishi belgilangan. Bunda aksiya bahosi diapazoni 3000 so‘mdan 9100 so‘mgacha belgilangan. Listingga kirish sanasi esa 2018-yil 9-aprel deb belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-maydagi “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 268-sonli Qarori bilan IPO o‘tkazishning tavsiyaviy bosqichlari ham belgilangan bo‘lib, ular ketma-ketligi quyidagi jadvalda keltirilgan (12.7-jadval).

12,7-jadval

Aksiyalarni birlamchi ommaviy taklifi (IPO)ni o‘tkazish bosqichlari⁷⁸

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish muddati
1-bosqich	IPO tashabbuskori boshqaruv organlari	Qo‘shimcha aksiyalar chiqarish va IPO o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish	IPO tashabbusi tartibida amalga oshiriladi
	IPO tashabbuskori	IPO tashkilotchisini aniqlash uchun tanlov e‘lon qilish Tashkilotchi bilan shartnoma tuzish	IPO tashabbuskori boshqaruv organi qarori bilan belgilangan muddatda
2-bosqich	Tashkilotchi IPO tashabbuskori bilan hamkorlikda	Dastlabki o‘rganishni o‘tkazish	Tashkilotchi bilan shartnoma tuzilgach, 60 kun davomida
	Aksiyadorlik jamiyati	AJ barcha zaruriy axborotlari va hujjatlarini taqdim etish	

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 268-sonli Qarori asosida taeyorlanadi.

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish muddati
	Tashkilotchi IPO tashabbuskori bilan hamkorlikda	Moliyaviy, yuridik, marketing, maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi auditorlik, baholash va boshqa tashkilotlar tomonidan ekspert muhokamasi o'tkazish	
	Tashkilotchi	Baho diapazonini belgilash.	
3-bosqich	IPO tashabbuskori	QQBni tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga barcha hujjatlarni taqdim etish	Baho diapazoni belgilangach, 5 kun ichida
	QQBni tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi	Aksiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish	Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlar qabul qilingach, 10 kun ichida
4-bosqich	IPO tashabbuskori bilan hamkorlikda tashkilotchi	Axborot hujjatlarini tayyorlash (flayerlar, bukletlar, bannerlar, memorandumlar, audio-videoroliklar va boshqalar)	Tashkilotchi bilan shartnoma tuzilgach, 60 kun davomida
		Obuna kampaniyasini o'tkazish grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash	
	Tashkilotchi, IPO tashabbuskori bilan hamkorlikda boshqa manfaatdor shaxslar	Investorlar o'rtasida axborot hujjatlarini tarqatish, shuningdek joylarda zayavkalar va to'lovlar qabul qilishni nazarda tutuvchi obuna kampaniyasini respublika hududlari bo'ylab o'tkazish	Aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgach, 180 kun davomida, doimiy
5-bosqich	Tashkilotchi IPO tashabbuskori bilan hamkorlikda, "Toshkent" RFB, boshqa	IPOni yakuniga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish	IPO tashabbuskori boshqaruv organi tomonidan belgilangan kunda

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish muddati
	manfaatdor shaxslar		
	Tashkilotchi “Toshkent” RFB bilan hamkorlikda	Kotirovkalanadigan joylashtirish bahosini e’lon qilish orqali bitimlarni ro‘yxatga olish	IPO tashabbuskori boshqaruv organi tomonidan belgilangan kunda
	Tashkilotchi	Fond birjasida belgilangan kotirovka bahosi bo‘yicha aksiyalar chiqarilishining joylashtirilmagan qismini tashkilotchidan sotib olish (joylashtirilmagan holatda)	Bitim ro‘yxatga olingandan keyin, 10 kun davomida
	Tashkilotchi IPO tashabbuskori bilan hamkorlikda	Axborotlarni oshkor qilish	Bitim ro‘yxatga olingandan keyin 5 kun davomida
	Tashkilotchi, investitsion vositachilar	Zayavkalar qanoatlantirilmaganda pul mablag‘larini qaytarish	Bitim ro‘yxatga olingan kundan boshlab 15 kun davomida
6-bosqich	Aksiyadorlik jamiyati, tashkilotchi, boshqa manfaatdor shaxslar	Mos bitim mavjud holatda	Bitim ro‘yxatga olingandan keyin 30 kun davomida
	Tashkilotchi, Toshkent RFB, boshqa manfaatdor shaxslar	Aksiyadorlik jamiyati aksiyalari bahosi, ularga talab va taklifni saqlab turish	Bitimda belgilangan muddatlarda

“Kvars” AJ tomonidan o‘tkazilgan aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO) amaliyotida obuna kampaniyasi 2017-yil 5-dekabrda boshlanib 2018-yil 3-aprelga qadar davom etdi. Bunda aksiya bahosi diapazoni 3000 so‘mdan 9100 so‘mgacha belgilangan holda 4 574 934 dona aksiya savdoga qo‘yilgan edi. Listingga kirish sanasi 2018-yil 9-aprel kuni kelib tushgan arizalar to‘liq qanoatlantirilgan holda IPO natijalari quyidagicha bo‘ldi (12.8-jadval).

Haqiqatda taklif qilingan baho va bitim summasi bo'yicha o'tkazilgan auksion natijalari⁷⁹

№	Ariza berish bahosi (so'mda)	Qimmatli qog'ozlar soni (dona)	Arizalar soni	Aksiyalar taqsimlanishi soni (dona)	Aksiya uchun to'langan summa (so'mda)
	9 100,00	20	1	20	182 000
	8 300,00	50	1	50	415 000
	7 000,00	200	1	200	1 400 000
	6 000,00	450	2	450	2 700 000
	5 000,00	11 961	16	11 961,00	59 805 000
	4 800,00	200	1	200	960 000
	4 700,00	4 574	2	4 574,00	21 497 800
	4 550,00	2 000	1	2 000,00	9 100 000
	4 500,00	2 212	3	2 212,00	9 954 000
	4 100,00	955	1	955	3 915 500
	4 000,00	19 830	16	19 830,00	79 320 000
	3 827,00	2 287	1	2 287,00	8 752 349
	3 700,00	4 574	2	4 574,00	16 923 800
	3 640,00	2 425	9	2 425,00	8 827 000
	3 634,18	100	1	100	363 418
	3 500,00	18 650	65	18 650,00	65 275 000
	3 400,00	4 927	3	4 927,00	16 751 800
	3 300,00	5 012	6	5 012,00	16 539 600
	3 200,00	15 356	23	15 356,00	49 139 200
	3 160,00	7 074	4	7 074,00	22 353 840
	3 155,00	1 400	1	1 400,00	4 417 000
	3 150,00	2 015	3	2 015,00	6 347 250
	3 111,00	13 722	6	13 722,00	42 689 142
	3 106,00	1 000	1	1 000,00	3 106 000
	3 101,00	1 000	1	1 000,00	3 101 000
	3 100,00	48 293	63	48 293,00	149 708 300
	3 086,00	385	1	385	1 188 110
	3 080,00	535	1	535	1 647 800
	3 055,00	1 400	1	1 400,00	4 277 000

⁷⁹ www.dalal.uz – “DALAL STANDARD” MЧЖ veb-saytidan olindi.

№	Ariza berish bahosi (so'mda)	Qimmatli qog'ozlar soni (dona)	Arizalar soni	Aksiyalar taqsimlanishi soni (dona)	Aksiya uchun to'langan summa (so'mda)
	3 051,00	900	2	900	2 745 900
	3 050,00	23 545	21	23 545,00	71 812 250
	3 040,00	897	3	897	2 726 880
	3 033,30	1 600	2	1 600,00	4 853 280
	3 033,00	635	5	635	1 925 955
	3 031,00	81	1	81	245 511
	3 030,00	18 535	28	18 535,00	56 161 050
	3 025,00	8 647	5	8 647,00	26 157 175
	3 021,00	2 412	3	2 412,00	7 286 652
	3 020,00	75 418	50	75 418,00	227 762 360
	3 018,00	580	1	580	1 750 440
	3 017,00	3 577	2	3 577,00	10 791 809
	3 015,00	27 128	24	27 128,00	81 790 920
	3 013,00	1 400	1	1 400,00	4 218 200
	3 011,00	600	1	600	1 806 600
	3 010,00	56 982	48	56 982,00	171 515 820
	3 007,00	2 287	1	2 287,00	6 877 009
	3 006,00	9 148	4	9 148,00	27 498 888
	3 005,00	49 786	26	49 786,00	149 606 930
	3 004,00	64	1	64	192 256
	3 003,00	5 334	4	5 334,00	16 018 002
	3 002,00	5 000	3	5 000,00	15 010 000
	3 001,00	87 853	47	87 853,00	263 646 853
	3 000,50	1 000	1	1 000,00	3 000 500
	3 000,00	1 919 253	2784	1 919 253,00	5 757 759 000
	JAMI:	2 475 269	3 305	2 475 269	7 523 817 149
	Savdoga qo'yilgan aksiyalar soni	4574934	Jami aksiyalarga nisbatan	54,11%	

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, savdoga qo'yilgan 4574934 dona aksiyaning 54,11 foizi joylashtirilgan. Bunda tushgan barcha aksiyalar bo'yicha arizalar to'liq qanoatlantirilgan.

**“DALAL STANDARD” MCHJ bo‘yicha bajarilgan arizalarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi⁸⁰**

№	Filial nomi	Qimmatli qog‘ozlar soni	Summa (ming so‘mda)	Arizalar soni donada
1	"DALAL STANDARD" MCHJ	147 887	449 984	129
2	Milliy bank Toshkent shahar bo‘limi	39 677	120 278	40
3	Milliy bank Guliston bo‘limi	18 645	56 169	20
4	Milliy bank Qashqadaryo bo‘limi	4 561	19 268	12
5	Milliy bank Buxoro bo‘limi	9 821	29 692	11
6	Milliy bank Toshkent viloyat bo‘limi	12 388	38 417	90
7	Milliy bank Farg‘ona bo‘limi	76 360	237 226	232
8	Milliy bank Andijon bo‘limi	9 618	28 854	9
9	Milliy bank Samarqand bo‘limi	2 827	8 496	4
10	Milliy bank Navoiy bo‘limi	5 299	16 029	95
11	Milliy bank Jizzax bo‘limi	6 063	18 195	12
12	Milliy bank Namangan bo‘limi	1 405	4 583	10
13	Milliy bank Nukus bo‘limi	2 506	7 518	7
14	Milliy bank Xorazm bo‘limi	14 944	44 874	10
Jami:		352 001	1 079 582	681

Rasmiy broker hisoblangan “DALAL STANDARD” MCHJ hamda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bo‘limlari tomonidan qabul qilingan arizalar haqida ma’lumot quyidagi jadvalda berilgan (2.7-jadval):

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, "DALAL STANDARD" MChJ va Milliy bank Farg‘ona bo‘limi eng ko‘p ariza qabul qilgan hamda mos ravishda eng yuqori savdo ham ikkala tashkilotga to‘g‘ri keladi.

“Kvars” AJ aksiyalarini ommaviy joylashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan savdolar yakunlarining hududlar kesimidagi tahili quyidagi jadvalda keltirilgan (12.10-jadval).

⁸⁰ www.dalal.uz – “DALAL STANDARD” MCHJ veb-saytidan olindi.

12.10-jadval

"Kvars" AJ aksiyalari xaridi uchun amalga oshirilgan buyurtmalar va ular ijrosining hududlar o'rtasida taqsimlanishi⁸¹

№	Hudud	Aksiya soni (dona)	Miqdori (mln. so'm)
1.	Toshkent sh.	655715	1 975,9
2.	Farg'ona	1641787	5 006,3
3.	Sirdaryo	18645	56,2
4.	Qashqadaryo	10250	36,3
5.	Buxoro	9821	29,7
6.	Toshkent vil.	12388	38,4
7.	Andijon	47650	143,5
8.	Surxondaryo	41275	123,8
9.	Samarqand	2947	8,9
10.	Navoiy	5299	16,0
11.	Jizzax	6063	18,2
12.	Namangan	1405	4,6
13.	Qoraqalpog'iston Resp.	7080	21,2
14.	Xorazm	14944	44,9
	Jami:	2475269	7 523,8

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng ko'p arizalar va xarid qilingan aksiyalar Farg'ona viloyati va Toshkent shahri hissasi-ga to'g'ri keladi. Buni "Kvars" AJning Farg'ona viloyatida joylashganligi va talabgorlarning emitent faoliyati bilan yaqindan tanishligi bilan izohlash mumkin.

«Qo'qon mexanika zavodi» aksiyadorlik jamiyati SPO (aksiyalarni ikkilamchi ommaviy joylashtirish) amaliyoti Freedom Finance mas'uliyati cheklangan jamiyat investitsiya kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi.

12.11-jadval

«Qo'qon mexanika zavodi» aksiyadorlik jamiyati SPO amaliyoti bo'yicha umumiy ma'lumot⁸²

SPO boshlanish sanasi	11.12.2018
SPO yakunlanish sanasi	24.12.2018
Natijalar e'lon qilinish sanasi	28.12.2018

⁸¹ www.dalal.uz – "DALAL STANDARD" MChJ veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁸² <https://uzse.uz/ipos/15>

Taklif narxi, soʻm	1 000
Deponentlangan (%)	100 (%)
Obunaga qoʻyilgan aksiyalar soni (donada)	2 236 452
Obuna boʻyicha sotib olingan (dona)	2 236 452

«Qoʻqon mexanika zavodi» AJ SPO amaliyoti boʻyicha sotuvga chiqarilgan 2 236 452 dona aksiya toʻliq joylashtirilgan (12.12-jadval).

12.12-jadval

«Qoʻqon mexanika zavodi» AJ SPO amaliyoti natijalari⁸³

Arizalar soni	Qimmatli qogʻozlar soni	Ariza berish bahosi	Aksiya taqsimlanishi	Jalb qilingan capital
1	10	4000.0	10	40000
2	48	2000.0	48	96000
9	8994	1500.0	8994	13491000
3	3354	1499.0	3354	5027646
1	1118	1400.0	1118	1565200
3	3354	1350.0	3354	4527900
1	1118	1345.0	1118	1503710
1	1118	1304.0	1118	1457872
1	1118	1303.0	1118	1456754
1	1118	1302.0	1118	1455636
1	1118	1301.0	1118	1454518
33	35849	1300.0	35849	46603700
1	1118	1292.0	1118	1444456
6	6708	1290.0	6708	8653320
3	3354	1283.0	3354	4303182
1	1118	1280.0	1118	1431040
5	4572	1250.0	4572	5715000
1	1118	1214.0	1118	1357252
3	3354	1210.0	3354	4058340
1	1118	1203.0	1118	1344954
1	1118	1202.0	1118	1343836
1	1118	1201.0	1118	1342718
48	51688	1200.0	51688	62025600
1	1118	1195.0	1118	1336010

⁸³ <https://uzse.uz/ipos/15>

Arizalar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Ariza berish bahosi	Aksiya taqsimlanishi	Jalb qilingan capital
1	1118	1160.0	1118	1296880
3	3354	1152.0	3354	3863808
4	4472	1151.0	4472	5147272
33	34490	1150.0	34490	39663500
1	1118	1133.0	1118	1266694
2	2236	1128.0	2236	2522208
8	8944	1120.0	8944	10017280
7	7826	1118.0	7826	8749468
10	11180	1117.0	11180	12488060
2	2236	1112.0	2236	2486432
21	22602	1111.0	22602	25110822
9	9464	1110.0	9464	10505040
1	1118	1107.0	1118	1237626
8	8944	1106.0	8944	9892064
4	4472	1105.0	4472	4941560
1	1118	1103.0	1118	1233154
34	38012	1102.0	38012	41889224
20	22360	1101.0	22360	24618360
205	216722	1100.0	216722	238394200
1	1118	1099.0	1118	1228682
1	1118	1090.0	1118	1218620
3	3354	1080.0	3354	3622320
4	4472	1071.0	4472	4789512
2	2236	1070.0	2236	2392520
20	22360	1062.0	22360	23746320
13	13887	1060.0	13887	14720220
1	1118	1056.0	1118	1180608
26	27032	1055.0	27032	28518760
3	3354	1053.0	3354	3531762
3	3354	1052.0	3354	3528408
14	15652	1051.0	15652	16450252
238	251732	1050.0	251732	264318600
1	500	1049.0	500	524500
3	2386	1045.0	2386	2493370
1	1118	1040.0	1118	1162720
1	1118	1035.0	1118	1157130
8	7936	1030.0	7936	8174080

Arizalar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Ariza berish bahosi	Aksiya taqsimlanishi	Jalb qilingan capital
7	7826	1026.0	7826	8029476
42	46956	1025.0	46956	48129900
33	34340	1020.0	34340	35026800
4	3457	1018.0	3457	3519226
50	55900	1016.0	55900	56794400
1	1118	1015.0	1118	1134770
15	16770	1014.0	16770	17004780
2	2236	1013.0	2236	2265068
10	11180	1012.0	11180	11314160
19	19604	1011.0	19604	19819644
266	288802	1010.0	288802	291690020
3	2836	1009.0	2836	2861524
5	5590	1008.0	5590	5634720
6	5605	1007.0	5605	5644235
14	15034	1006.0	15034	15124204
131	142628	1005.0	142628	143341140
18	20124	1004.0	20124	20204496
24	26832	1003.0	26832	26912496
89	95867	1002.0	95867	96058734
159	160573	1001.0	160573	160733573
1099	956337	1000.0	371724	371724000
Jami arizalar soni=2843	Ariza bo'yicha aksiyalar soni = 2821065 obunaga qo'yilgan aksiyalarning 126,14 %		Taqsimlangan jami aksiya = 2236452	2344085046 so'm

2236452 dona aksiyaga 2843 ta investor tomonidan jami 2821065 dona aksiya bo'yicha ariza berilgan. Natijada eng quyi 1000 so'mlik arizalarning faqatgina 38,87 foizi qanoatlantirilgan bo'lsa, undan yuqori narxdagi barcha arizalar to'liq qanoatlantirilgan va umumiy hisobda 2,344 milliard so'mlik kapital jalb qilingan. Mazkur amaliyotda anderrayter Freedom Finance investitsiya kompaniyasi tomonidan «Malibu» avtomobili lotereyaga qo'yilganligini ham alohida qayd etish lozim.

2019 yildagi «KVARTS» aksiyadorlik jamiyati SPO amaliyoti ham Freedom Finance investitsiya kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi. Bu bo'yicha umumiy ma'lumot quyidagicha (12.13-jadval)

12.13-jadval

«KVARTS» aksiyadorlik jamiyati SPO amaliyoti bo'yicha umumiy ma'lumot⁸⁴

SPO boshlanish sanasi	10.10.2019
SPO yakunlanish sanasi	24.12.2019
Natijalar e'lon qilinish sanasi	27.12.2019
Taklif narxi, so'm	3270,4
Deponentlangan (%)	100 (%)
Obunaga qo'yilgan aksiyalar soni (donada)	4 822 460
Obuna bo'yicha sotib olingan (dona)	4 822 460

«KVARTS» aksiyadorlik jamiyati SPO amaliyoti bo'yicha ham savdoga chiqarilgan barcha aksiyalar to'liq sotilgan (12.14-jadval).

12.14-jadval

«Kvarts» AJ SPO amaliyoti natijalari⁸⁵

Arizalar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Ariza berish bahosi	Aksiya taqsimlanishi	Jalb qilingan kapital
6	550	4000.0	550	2200000
2	276	3501.0	276	966276
1	1000	3400.0	1000	3400000
2	400	3355.0	400	1342000
2	200	3350.0	200	670000
22	96640	3320.0	96640	320844800
1	282	3311.0	282	933702
9	10949	3310.0	10949	36241190
10	25368	3305.0	25368	83841240
6	4460	3303.0	4460	14731380
18	22219	3302.0	22219	73367138
42	102239	3301.0	102239	337490939
124	165065	3300.0	165065	544714500
7	18279	3295.0	18279	60229305
2	5522	3292.0	5522	18178424

⁸⁴ <https://uzse.uz/ipos/16>

⁸⁵ <https://uzse.uz/ipos/16>

Arizalar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Ariza berish bahosi	Aksiya taqsimlanishi	Jalb qilingan kapital
10	5540	3291.0	5540	18232140
26	40855	3290.0	40855	134412950
11	33110	3289.0	33110	108898790
31	91075	3285.0	91075	299181375
3	1170	3283.0	1170	3841110
17	43199	3282.0	43199	141779118
1	2000	3281.1	2000	6562200
88	175588	3281.0	175588	576104228
442	931599	3280.0	931599	3055644720
2	9644	3279.0	9644	31622676
6	11129	3277.0	11129	36469733
19	37536	3276.0	37536	122967936
4	15070	3275.1	15070	49355757
420	694171	3275.0	694171	2273410025
181	156567	3274.0	156567	512600358
14	23494	3273.1	23494	76898211,4
125	253436	3273.0	253436	829496028
7	29436	3272.5	29436	96329310
260	974858	3272.0	974858	3189735376
231	905833	3271.0	839534	2746115714
1	1420	3270.4	0	0
Jami arizalar soni = 2153	Ariza bo'yicha aksiyalar soni = 4890179 obunaga qo'yilgan aksiyalar-ning 101,4 %		Taqsimlangan jami aksiya = 4822460	15808808649 cym

Eng past 3270,4 so'mlik 1420 ta aksiya bo'yicha bitta ariza qanoatlantirilmagan. Shuningdek 3271 so'mlik 231 ta ariza esa mutanosiblik asosida taqsimlangan. «Kvarts» AJ SPO amaliyoti natijasida 15,809 milliard so'mlik kapital jalb qilinishiga erishilgan.

2020 yil mart oyida yakunlangan «Jizzax Plastmassa» aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyotiga «Portfolio investments» kompaniyasi anderrayterlik qilgan. Amaliyot bo'yicha umumiy ma'lumot quyidagicha (12.15-jadval).

12.15-jadval

«Jizzax Plastmassa» aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyoti bo'yicha umumiy ma'lumot⁸⁶

SPO boshlanish sanasi	12.12.2019
SPO yakunlanish sanasi	13.03.2020
Natijalar e'lon qilinish sanasi	18.03.2020
Taklif narxi, so'm	3400
Deponentlash (%)	100 (%)
Obunaga qo'yilgan aksiyalar soni (donada)	1 140 246
Obuna bo'yicha sotib olingan (dona)	397 659

«Jizzax Plastmassa» aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyoti natijasida savdoga qo'yilgan 1 140 246 dona aksiyaning 34,87 foizi sotildi va aksiyalar chiqarilishi ochiq bo'lganligi uchun amalga oshgan, deb topildi.

12.16-jadval

«Jizzax Plastmassa» AJ IPO amaliyoti natijalari⁸⁷

Arizalar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Ariza berish bahosi	Aksiya taqsimlanishi	Jalb qilingan kapital
1	2000	3500.0	2000	7000000
1	50	3450.0	50	172500
1	50	3424.0	50	171200
5	1300	3420.0	1300	4446000
2	650	3417.0	650	2221050
1	2000	3416.1	2000	6832200
1	11402	3416.0	11402	38949232
4	4441	3410.0	4441	15143810
7	4042	3405.0	4042	13763010
4	20650	3402.0	20650	70251300
11	25144	3401.0	25144	85514744
157	325930	3400.0	325930	1108162000
Jami arizalar soni = 195	Ariza bo'yicha aksiyalar soni = 397659, obunaga qo'yilgan aksiyalarning 34,87%		Taqsimlangan jami aksiya = 397659	1352627046 c'm

⁸⁶ <https://uzse.uz/ipos/17>

⁸⁷ <https://uzse.uz/ipos/17>

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, «Jizzax Plast-massa» aksiyadorlik jamiyati IPO amaliyoti natijasida 1,353 milliard so`mlik xususiy kapital jalb qilingan. Barcha savdoga qo`yilgan aksiyalarga teng arizalar kelib tushmaganligi uchun tushgan arizalar to`liq qanoatlantirilgan.

Umuman yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aksiyalarni ochiq obuna tarzida ommaviy fond birjalarida joylashtirish, ya'ni IPO operatsiyalarining tashkiliy xususiyatlariga doir quyidagi xulosalarni alohida keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish nisbatan yuqori miqdordagi xarajatlarni, ko'p vaqtni talab qilsada katta miqdordagi kapitalni ham jalb qilish imkonini beradi. Bu o'z navbatida yangidan yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlardagi strategik ahamiyatga ega korporativ tuzilmalar tomonidan IPO operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida mazkur amaliyotning kamchiliklarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Chunki dushmanlik kayfiyatidagi investorlarning korporativ tuzilmalar faoliyatiga kirib kelishi kompaniya moliyaviy xavfsizligiga putur yetkazishi bilan bir vaqtda mamlakat iqtisodiyotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchidan, potentsial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o'tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim. Chunki dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi.

To'rtinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini xalqaro fond birjalariga ochiq joylashtirish amaliyotini tashkil etishda listing talablaridan biri hisoblangan dastlabki to'lovlar va har yillik to'lovlar darajasini hisobga olish lozim. Chunki bunday to'lovlarning amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasligi talab etiladi.

Beshinchidan, xalqaro yetakchi fond birjalarining IPO bo'yicha talablariga mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha aksiyadorlik kompaniyalarining ham javob bera olmasligidan kelib chiqqan holda mintaqaviy fond birjalarini rivojlantirish yoki talablari nisbatan qulayroq bo'lgan fond birjalariga aksiyalarni joylashtirish bo'yicha strategik moliyaviy rejalar mamlakat miqyosida qabul qilinishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida qimmatli qog'ozlar muomalasining obyektiv zarurligini qanday izohlaysiz?
2. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalini shakllantirish tartibini aniq ketma-ketlik asosida tavsiflang.
3. Aksiyalarni chiqarish, joylashtirish bo'yicha davlat tomonidan o'rnatilgan shartlarni sanab o'ring.
4. Ustav kapitalini oshirish yoki kamaytirishda e'tibor qaratiladigan jihatlarga to'xtaling.
5. Imtiyozli aksiyalarning qo'llanish xususiyatlarini izohlang.
6. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish amaliyoti bo'yicha belgilangan talablar haqida fikr bildiring.
7. Korporativ obligatsiyalar muomalasini tashkil etish bo'yicha talablarga to'xtalib o'ring.
8. Qo'shimcha aksiyalar emissiyasida imtiyozli huquqning qo'llanilishi haqida fikr bildiring.
9. Sug'urta, tijorat banklari va real sektor bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitali minimal miqdoriga qo'yilgan talablarni bilasizmi?
10. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
11. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarini tashkil etish bosqichlari, afzalliklari va kamchiliklarini sanab o'ring.
12. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarini tashkil etishda kompaniya moliyaviy holatining ishonchliligini tekshirish.
13. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarini o'tkazishda potentsial investorlar oldida taqdimotlar o'tkazish.
14. Dunyo bo'yicha eng muvaffaqiyatli aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish operatsiyalari.

Testlar

- 1. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar turlari qaysi javobda berilgan?**
- a) oddiy va imtiyozli aksiyalar, korporativ obligatsiyalar;
 - b) davlat obligatsiyalari, ijtimoiy obligatsiyalar;
 - c) oltin aksiya, veksellar;
 - d) xazina majburiyatlari va qisqa muddatli obligatsiyalar.

2. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilishi mumkin bo'lgan aksiyalarning maksimal qiymati qaysi javobda berilgan?

- a) 5000 so'm;
- b) 100 so'm;
- c) 50000 so'm;
- d) alohida talab belgilanmagan.

3. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali nima hisobiga shakllantiriladi?

- a) oddiy va imtiyozli aksiyalarni joylashtirish;
- b) korporativ obligatsiyalar joylashtirish;
- c) amortizatsiya ajratmalari;
- d) sof foyda.

4. Yangidan tashkil etilayotgan tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori necha so'm qilib belgilangan?

- a) 100,0 milliard so'm;
- b) 10 million yevro so'm ekvivalentida;
- c) 5 million yevro;
- d) 10 million dollar so'm ekvivalentida;

5. 2014-yilgacha mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyat-lari aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha chegara to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- a) 100 so'mdan past bo'lmasligi;
- b) 5000 so'mdan yuqori bo'lmasligi;
- c) 1000 so'mdan past bo'lmasligi;
- d) 100 so'mdan past, 5000 so'mdan yuqori bo'lmasligi.

6. Aksiyalarni ommaviy tartibda birlamchi va ikkilamchi joylashtirish amaliyoti xalqaro tajribada qanday nomlanadi?

- a) IPO va SPO;
- b) FIFO va LIFO;
- c) AVECO va LIBOR;
- d) PIBOR va LIFO.

7. Korporativ obligatsiyalar bo'yicha kapital bahosini aniqlashda e'tiborga olinadigan jihatlar quyidagilar:

- a) foiz stavkasi, emissiya xarajatlari, nominaldan past bahoda joylashtirilganda o'rtadagi salbiy farq;
- b) dividend, qo'shimcha bonuslar, emissiya xarajatlari;
- c) emissiya xarajatlari, royalti, gudvill;
- d) nominaldan past bahoda joylashtirilganda o'rtadagi salbiy farq va to'lanadigan dividendlar.

8. IPO qisqartma so'zining ma'nosi nima?

- a) birlamchi ommaviy joylashtirish;
- b) ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori;
- c) birlamchi qimmatli qog'ozlar bozori;
- d) birlamchi yopiq obuna.

9. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni joylashtirish usullari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) ochiq va yopiq obuna;
- b) ommaviy va ochiq obuna;
- c) yopiq va tor doiradagi obuna;
- d) ikkilamchi va birlamchi obuna.

10. Aksiyalarni ommaviy ochiq joylashtirishning afzalliklari keltirilgan javobni belgilang.

- a) kompaniya nufuzining oshishi, bozorda tanilishi va investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi, aksiyalarning muddatsiz joylashtirilishi;
- b) dividendlarning muntazam oshib borishi, banklar ishonchli hamkorga aylanishi, mahsulot raqobatbardosh bo'lishi;
- c) mahsulotga talabning ortishi, bozorda yuqori ulushga ega bo'lish, foydaning muntazam ortib borishi;
- d) soliqlarni minimallashtirish imkoniyatlari oshishi, aksiya kursining muntazam ortib borishi; xarajatlarni kamaytirish.

11. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlarni belgilang.

- a) ko'p xarajat talab qilishi, iqtisodiyotning joriy holati bilan bog'liq holda amalga oshirish lozimligi;
- b) iqtisodiy inqiroz sharoitida o'tkazish lozimligi, aksiya kursi pasayishi mumkinligining hisobga olinishi;

c) brokerlarning asosiy maydonga chiqishi va ular tomonidan yuqori haq talab qilinishi;

d) qisqa muddat talab qilinishi va rivojlangan davlatlar investorlari qatnashishi shartligi.

12. IPO o‘tkazishda kompaniya moliyaviy holatining ishonchligini tekshirish jarayonlari kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

a) moliyaviy analitiklar, korxonada biznesini baholash bo‘yicha ekspertlar, yuqori malakali auditorlar, ixtisoslashgan yuristlar;

b) brokerlar, investitsiya vositachilar, reklama agentliklari, fond birjalari vakillari;

c) soliq maslahatchilari, investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari;

d) professional buxgalterlar, hakamlik sudlari, kredit institutlari, soliq organlari.

13. IPO o‘tkazishda “road show” amaliyotlari nimani nazarda tutadi?

a) potentsial investorlar oldida taqdimotlar o‘tkazishni;

b) aksiyalar joylashtiriladigan davlatlardagi soliq yukini baholashni;

c) aksiyalarga bo‘lgan real talabni o‘rganishni;

d) aksiyalar bo‘yicha narx diapazonini belgilashni.

14. IPO operatsiyalarini o‘tkazish uchun talab qilinadigan xarajatlar turlari qaysi javobda berilgan?

a) moliyaviy holatni baholash xarajatlari, anderrayter mukofoti, aksiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlari, listing to‘lovlari;

b) aksiyalarni sotib olish xarajatlari, broker mukofoti, solikli xarajatlar;

c) aksiyalarni qayta joylashtirish xarajatlari, dilerlik xarajatlari;

d) buxgalteriya xarajatlari, soliq to‘lovlari, komission xarajatlar.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-maydagi “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 268-sonli Qarori qabul qilinishidan maqsad nima?

a) milliy aksiyadorlik jamiyatlarida IPO va SPO o‘tkazishni tartibga solish;

- b) milliy aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy aksiyalar qayta sotib olinishini tartibga solish;
- c) davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish;
- d) fond birjasining aksiyalarni joylashtirish bo'yicha listing talablarini tartibga solish.

16. “Kvarts” AJ tomonidan o‘tkazilgan aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO) amaliyotida aksiyalar narx diapazoni to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

- a) 3000 – 9100 so‘m;
- b) 5 – 7 AQSh dollari;
- c) 3100 – 9000 so‘m;
- d) 3 – 5 AQSh dollari.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalini oshirish yoki kamaytirish jarayonida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilang.

Ustav kapitalini oshirish	Ustav kapitalini kamaytirish
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Oddiy va imtiyozli aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalarning qo‘llanish va joylashtirish xususiyatlari bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Oddiy aksiya	Imtiyozli aksiya	Korporativ obligatsiya
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

3. Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalarni joylashtirish va qaytarib sotib olish amaliyotini aniq ketma-ketlik asosida tizimlashtiring.

Aksiyalarni joylashtirish	Aksiyalarni qaytarib sotib olish
1.	1.
2.	2.
...	...

4. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalari afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha jadvalni to'ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1.	1.
2.	2.
...	...

5. Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish operatsiyalarini tashkil etishda kompaniya moliyaviy holatining ishonchliligini tekshirish jarayonlari bo'yicha bajariladigan ishlar yuzasidan jadvalni to'ldiring.

Moliyaviy tahlil va baholash	Audit va moliyaviy tekshiruv	Huquqiy hamkorlik va hamrohlik
1. Amalga oshiradigan mutaxassislar		
.....
2. Jamoaning ish maqsadi		
.....
3. Amalga oshiriladigan ishlar		
.....
4. Ish natijalari		
.....

6. Yetakchi xalqaro fond birjalarining listing talablarini o'rganing va milliy korporativ emitentlarning bajara olish imkoniyatlarini baholang (obyektlar darsdan bir hafta oldin talabalarga beriladi).

XIII bob. KORPORATIV BIRLASHMALAR VA ULARDA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMI

13.1. Korporativ birlashishlarning iqtisodiy mohiyati, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va amalga oshirilishi

Korporativ birlashish va qo‘shib olishlar shuningdek, korporativ miqyosda qayta tarkiblash bugungi kun korporativ moliyaviy munosabatlarning va korporativ boshqaruvning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Bu borada har kuni butun dunyo miqyosida qator bitimlar tuziladi va tuziladigan bitimlar asosida ikki kompaniya yanada yirikroq kompaniyani tashkil etish maqsadida o‘zaro birlashadi. Bundan tashqari, kompaniyalarning o‘zaro birlashishi bilan bir qatorda, birlashishga teskari bo‘lgan ajralib chiqish yoki bo‘linish amaliyotlari ham amalga oshiriladi. Kompaniyalarning bo‘linishi va ajralib chiqishidan ham asosiy maqsad foydani maksimallashtirishga qaratilishini ta’kidlash lozim. Quyida kompaniyalarning o‘zaro birlashishi, qo‘shib olish jarayonlari va ularning o‘ziga xos jihatlari xususida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

Korporativ moliyaviy taraqqiyotning bugungi bosqichida har qanday korporativ tuzilma o‘z rivojlanish strategiyasini belgilashda o‘z tashkiliy tuzilmasi doirasida rivojlanish yoki boshqa mustaqil iqtisodiy subyektlar bilan birlashish orqali rivojlanishga e’tibor qaratadi. Bunda korporativ moliyani boshqarishning subyektlari hisoblangan moliyaviy menejerlar tomonidan moliyaviy rivojlanish strategiyalaridan qaysi biri kompaniya uchun foydali ekanligini aniq hisob-kitoblar asosida belgilab beradi.

Birlashish va qo‘shib olish bitimlari orqali yangi biznesni tashkil etishdan asosiy maqsad sifatida biznesga qo‘shimcha elementlarni birlashtirish va integratsiyalash hisobiga kompaniyaning strategik ustunligini ta’minlashni keltirish mumkin. Murakkab moliyaviy-iqtisodiy holatlarda birlashish va qo‘shib olishlar kompaniyalar uchun yanada ko‘proq dolzarblik kasb etadi. Moliyaviy jihatdan yuqori salohiyatga ega kompaniyalar bozorda yanada raqobatbardosh bo‘lgan kompaniyani tashkil etish maqsadida nisbatan kuchsiz bo‘lgan kompaniyalarni o‘ziga qo‘shib olishga harakat qiladi. Shuningdek, moliyaviy jihatdan o‘zaro teng kuchga ega kompaniyalar bozorda o‘z ulushini ko‘paytirish yoki o‘z samaradorligini oshirish maqsadida o‘zaro birlashadilar. Keltirib o‘tilayotgan ustunlik jihatlari tufayli qo‘shib olinuvchi kompaniyalar ko‘p hollarda o‘zlarini boshqa kompaniyalar xarid qilish usuli orqali qo‘shib olishga rozi bo‘ladi.

Chunki, ular keskin raqobat muhitida o‘zlarining mustaqil ravishda jon saqlab qola olishlariga ko‘zlari yetmaydi. Odatda, ko‘pchilik kompaniyalar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olishlarni o‘zaro sinonim atamalar va butunlay bir xil jarayonlar sifatida qabul qiladi. Aslida esa ushbu ikki atama o‘rtasida ma’lum farqlar mavjud. “Qo‘shib olish” atamasi ba’zan birlashishning har qanday shakliga nisbatan ham qo‘llaniladi. Buning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Bir kompaniya boshqa bir kompaniya ustidan nazorat o‘rnatsa va o‘zini ushbu kompaniyaning yangi xo‘jayini, deb e’lon qilsa, bu bitim *qo‘shib olish deb ataladi*. Yuridik nuqtayi nazardan, qo‘shib olingan kompaniya o‘z faoliyatini tugatadi, qo‘shib olgan kompaniya esa xarid qilingan (qo‘shib olingan) kompaniyaning butun boshli biznesini va aksiyalarini o‘z tasarrufiga oladi. Birlashish jarayonida esa yuqorida ta’kidlanganidek aksariyat hollarda moliyaviy jihatdan o‘zaro teng kuchga ega bo‘lgan ikki kompaniya o‘z biznesini bitta kompaniyaga birlashtirgan holda davom ettirishga qaror qiladi. Mazkur holatda ham bir kompaniyaning boshqasini sotib olishi va o‘zaro kelishgan holda qo‘shib olingan (xarid qilingan) kompaniya bilan o‘zaro birlashdi, deb e’lon qilish holatlari uchraydi. Haqiqatda esa bir kompaniya boshqasini qo‘shib olgan bo‘ladi. Bu amaliyotning afzallik tomoni shundaki, qo‘shib olingan kompaniya uchun uning boshqa bir kompaniya tomonidan qo‘shib olinishi qo‘shilib ketgan kompaniya nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, qo‘shib olingan kompaniya menejerlari ushbu jarayonni kompaniya nufuziga putur yetkazmaydigan tarzda amalga oshirishga intiladi.


Agar har ikki kompaniyaning bosh direktorlari o‘z kompaniyalari uchun kelgusida potentsial ustunlik mavjud bo‘lishini anglagan holda ularni birlashtirishga qaror qilishsa, bir kompaniyaning boshqa bir kompaniyani qo‘shib olish jarayonini o‘zaro birlashish deb ham atash mumkin bo‘ladi. Ammo bir tomon o‘zining qo‘shib olinishini istamasa, bunday bitim do‘stona xarakterga ega bo‘lmaydi va bu holat qo‘shib olish, deya baholanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, **birlashishlar** natijasida mavjud ikki yoki undan ortiq kompaniyalar asosida yangi kompaniya vujudga keladi. Bunda yangi kompaniya o‘zining tarkibini tashkil etgan asos kompaniyalarning barcha aktivlari va majburiyatlarini o‘z nazorati va boshqaruvi ostiga oladi. Amaliyotda kompaniyalar o‘rtasida qo‘shilish degan tushuncha ham borki, bunda bir necha kompaniyalar o‘zaro birlashadi va buning natijasida ulardan faqat bittasi raqobat muhitida tirik

qoladi, qolganlari esa o‘z mustaqil faoliyat yuritish huquqidan mahrum bo‘lgan holda faoliyatini tugatadi.

Qo‘shib olishlar natijasida bir kompaniyaning boshqa bir kompaniyani o‘z nazorati ostiga olishi, unga bo‘lgan mutlaq yoki qisman egalik huquqini qo‘lga kiritgan holda uni boshqarishi, aksariyat holatlarda qo‘shib olinadigan kompaniyaning bozordagi aksiyalarini sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Moliyaviy tahlilchilar kompaniyalar o‘rtasidagi integratsiyadan kelib chiqqan holda korporativ birlashish va qo‘shib olishlarni odatda uchta tipga ajratadilar (13.1-rasm):



13.1-rasm. O‘zaro bog‘liqlikdan kelib chiqqan holda korporativ birlashishlar va qo‘shib olishlarning tasniflanishi

1. *Gorizontal birlashish va qo‘shib olish.* Bu tipga bitta tarmoqda faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning o‘zaro birlashishi yoki qo‘shib olinishi holatlarini kiritish mumkin. Bunday kompaniyalar bozorda o‘zaro raqobatchilar hisoblanadi. Bunga 2005-yilda “O‘zuyjoyjamg‘armabank” va “Zaminbank”ning o‘zaro birlashishini misol sifatida keltirish mumkin.

2. *Vertikal qo‘shib olish.* Vertikal qo‘shib olish o‘zaro bog‘liq tarmoqlarda yirik kompaniya tomonidan biznesning turli bosqichlaridagi kompaniyalarni o‘ziga jalb etish orqali faoliyatni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Masalan, aviakompaniyalarning turizm agentliklarini o‘ziga qo‘shib olishini vertikal qo‘shib olish sifatida keltirish mumkin.

3. *Konglomerat qo‘shib olish.* Faoliyat yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan kompaniyalarning biri tomonidan ikkinchisining qo‘shib olinishi konglomerat qo‘shib olishni anglatadi. Bunga misol sifatida kompyuterlar ishlab chiqaruvchi kompaniyaning ichimlik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniyani qo‘shib olishini keltirish mumkin.

O‘zaro birlashayotgan yoki qo‘shib olinayotgan kompaniyalarning mamlakatlarga mansubligidan kelib chiqqan holda birlashish va qo‘shib olishlarni quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

– *milliy birlashishlar* – bitta davlatda joylashgan kompaniyalarning o‘zaro birlashishi;

– *transmilliy birlashishlar* – turli davlatlarda joylashgan kompaniyalarning o‘zaro birlashishi yoki boshqa mamlakatlarda joylashgan kompaniyalarni qo‘shib olish.

Kompaniyalarning foyda hajmini maksimallashtirish va bu orqali kompaniya bozor qiymatini oshirishga bo‘lgan intilishlaridan kelib chiqib, korporativ birlashish yoki qo‘shib olish bo‘yicha bitimlarni amalga oshirishga undovchi asosiy ta’sir elementlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- qo‘shib olinadigan kompaniyaga yuqori darajali boshqaruv tizimini olib kirish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish orqali faoliyat samaradorligini oshirish.

- ta’minotchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish.

- takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarlarga barham berish.

- moliya bozorida ustunlikka ega bo‘lish.

- resurslar bo‘yicha bir-birini to‘ldirish imkoniyati.

- yirik shartnomalarni qo‘lga kiritish imkoniyati.

- o‘zaro raqobatni chetlab o‘tish va monopoliya o‘rnatish imkoniyati.

- faoliyatni diversifikatsiyalash imkoniyati.

- qo‘shimcha axborotlarni qo‘lga kiritish imkoniyati.

- kompaniyaning bozor bahosi bilan uning aktivlari o‘rtasidagi salbiy tafovutdan foydalanish imkoniyati.

- kompaniyaning likvidatsion qiymati bilan aktivlar qiymati o‘rtasidagi tafovutdan foydalanish (bo‘lib-bo‘lib sotish) imkoniyati.

- qo‘shib olinishdan himoyalanih imkoniyati.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha sifatida aksariyat amalga oshiriladigan birlashish yoki qo‘shib olishlarning asosida yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarga kapital kiritishda tejamkorlikka erishish, haddan tashqari ko‘p sonli boshqaruv xodimlari faoliyatini yuritish uchun ajratiladigan ma’muriy xarajatlarni qisqartirish orqali tejamkorlikka erishish imkoniyatlarini ham keltirish mumkin.

Kompaniyalar birlashishi va qo‘shib olishlarining o‘ziga xos kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- har ikkala kompaniya aksiyadorlarining roziligi talab qilinishi;

- qo‘shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qilishi;
- kompaniyani noto‘g‘ri baholash bilan bog‘liq yuqori darajadagi risklar;
- bitim amalga oshirilgandan so‘ng xodimlar bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi;
- transchegaraviy birlashishlar natijasida korporativ madaniyatlarning o‘zaro mos kelmasligi va boshqalar.

Kompaniyaning boshqa bir kompaniya bilan o‘zaro birlashishida yuridik jarayonlarning asosiy uchta turi amal qiladi:

1. Qo‘shib olish yoki konsolidatsiya.
2. Aksiyalar nazorat paketini sotib olish yo‘li bilan birlashish.
3. Kompaniya aktivlarini sotib olish yo‘li bilan birlashish.

Korporativ birlashishlarning bunday turlari yuridik nuqtayi nazardan o‘zaro farqlanadi. “Qo‘shib olish” atamasi ba’zan birlashishning har qanday shakliga nisbatan ham qo‘llanilishi haqida yuqorida ham to‘xtaldik.

Atamalarni o‘zaro farqlash maqsadida qo‘shib oluvchi korxonani xaridor (bidder) atamasi bilan, qo‘shib olinayotgan korxonani qo‘shib olish obyekti (target firm) atamasi bilan ataymiz. Bunda xaridor kompaniya qo‘shib olinishi mo‘ljallangan kompaniyaga pul mablag‘larini yoki qimmatli qog‘ozlarni taklif etadi. Bunda taklif etilayotgan pul mablag‘i yoki qimmatli qog‘ozlar birlashish uchun kompensatsiya sifatida gavdalanadi.

Qo‘shib olishda bir kompaniyaning boshqasi bilan to‘liq birlashishi ko‘zlanadi. Qo‘shib olayotgan kompaniya o‘z nomini saqlab qoladi va qo‘shib olingan korxonaning barcha aktivlari va majburiyatlariga egalik qila boshlaydi.

Konsolidatsiya – qo‘shib olish bilan deyarli bir xil, lekin uning natijasi sifatida yangi kompaniya tashkil etilishini keltirishimiz mumkin. Konsolidatsiya jarayonida ikkala yuridik shaxs (qo‘shib olayotgan va qo‘shib olinayotgan kompaniyalar) o‘z faoliyatini tugatadi va yangi kompaniya qismlariga aylanadi.

Konsolidatsiya va qo‘shib olishdagi asosiy o‘xshashlik sifatida aktivlar va majburiyatlarning o‘zaro birlashishini keltirish mumkin.

Kompaniyalarni qo‘shib olishning ikkinchi usuli naqd pul, aksiyalar yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarga almashtirish yo‘li bilan aksiyalar nazorat paketini qo‘lga kiritish hisoblanadi. Bu jarayon ba’zida bir kompaniya rahbariyatining boshqa kompaniyalar aksiyadorlariga yoki menejerlariga xususiy taklif bilan chiqishdan boshlanadi.

Bunda mustaqil ravishda qo‘shib olish obyekti hisoblangan kompaniya aksiyadoriga aniq belgilangan vaqtda taklif bilan chiqiladi, shuningdek qimmatli qog‘ozlarni sotib olish bo‘yicha ochiq taklif bilan ham chiqilishi mumkin. Bu bir kompaniya aksiyadorlari tomonidan boshqa kompaniya aksiyadorlariga nisbatan muno-sabatlarini anglatadi.

Agar aksiyador taklifni qabul qilsa, u o‘z aksiyalarini naqd pul, qimmatli qog‘ozlar yoki taklif shartlariga bog‘liq ravishda boshqa aktivlarga almashish hisobiga qo‘shib oluvchi kompaniyaga taqdim etadi. Ko‘p hollarda ochiq taklif qo‘shib olish rejalashtirilgan kompaniyaning ovozga ega aksiyalari ulushiga bog‘liq hisoblanadi. Agar aksiyadorlardan kelib tushadigan qimmatli qog‘ozlar yetarli bo‘lmasa, taklif bekor qilinishi yoki shartlari o‘zgartirilishi mumkin.

Qo‘shib olish rejalashtirilgan kompaniya aksiyadorlariga taklif odatda ochiq e‘lon berish orqali amalga oshiriladi. Mazkur operatsiyalar ba‘zida to‘g‘ridan to‘g‘ri taklif yuborish orqali ham tashkil etiladi. Lekin bunday metod keng qo‘llanilmaydi. Chunki bunda barcha aksiyadorlar nomi va manzilini aniqlash birmuncha murakkablik tug‘diradi.

Aksiyalar nazorat paketi orqali qo‘shib olish va birlashish o‘rtasidagi tanlov vaqtida quyidagi omillarga e‘tibor qaratiladi:

1. Aksiyalar nazorat paketi orqali qo‘shib olish jarayonida aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini majburiy tartibda chaqirish va ko‘pchilik ovoz bilan qo‘shilish haqida qaror qabul qilish talab etilmaydi. Agar taklif aksiyadorlarni qanoatlantirmasa uni qabul qilishga va o‘z aksiyalarini tadim etishga majbur emas.

2. Nazorat paketi orqali qo‘shib olish jarayonida qo‘shib oluvchi kompaniya o‘z taklifi bilan qiziqtirib qo‘ygan kompaniyalar aksiyadorlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilishi mumkin. Ya‘ni bunda qo‘shib olish rejalashtirilgan kompaniya boshqaruviga murojaat qilish talab etilmaydi.

3. Nazorat paketi orqali qo‘shib olish odatda birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Ko‘pgina holatlarda mazkur usuldan qo‘shib olishga jiddiy qarshilik ko‘rsatishga urinuvchi korxonalar rahbariyatini aylanib o‘tish varianti sifatida foydalaniladi. Kompaniya rahbariyati tomonidan bunday qarama-qarshilik natijasida nazorat paketi orqali qo‘shib olish oddiy birlashishga nisbatan qimmatga tushishi mumkin.

4. Ko‘pincha ayrim tor doiradagi aksiyadorlar o‘z qimmatli qog‘ozlarini sotishni rad etadilar. Bunday holatda kompaniya to‘liq qo‘shib olishi mumkin emas, yoki qo‘shib olish bo‘yicha risk darajasi sezilarli darajada ortadi. Masalan, qo‘shib olish obyekti aksiyalarining 80 foizdan

kam bo'lgan qismiga egalik qilinayotgan bo'lsa, kompaniya qolgan aksiyalar bo'yicha dividendlar, qo'shib olish obyektidan olinadigan soliq to'lashga majbur.

5. Bir kompaniyaning boshqasini to'liq qo'shib olishi faqatgina birlashish natijasida o'z nihoyasiga yetadi, shuning uchun aksiyalar nazorat paketi orqali qo'shib olish aksariyat holatlarda yakuniy birlashuvda o'z ifodasini topadi.

Kompaniya boshqa kompaniyani aktivlarining katta qismini sotib olish orqali ham qo'lga kiritishi mumkin. Bu amaliy jihatdan kompaniyani sotib olish bilan bir xil. Lekin bunday holatda qo'shib olish obyekti aktivlarini sotishi bilanoq yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatini to'xtatishga majbur emas. Aksiyadorlar tomonidan tugatish haqida qaror qabul qilinmaydi va bu niqob sifatida amal qiladi.

Qo'shib olishning bu usuli sotiladigan kompaniya aksiyadorlarining rasmiy roziligini talab qiladi. Bunday yondashuvning afzalliklaridan biri o'z aksiyalarini sotishni rad etuvchi kamchilik aksiyadorlar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmaydi. Boshqa tomondan aktivlarni qo'shib olish aniq turdagi aktivlarga mulkchilik titulini o'tkazish ko'zda tutiladi va aktivlarni o'tkazishning yuridik jarayoni ancha-muncha xarajatlarni talab qilishi mumkin.

Amaliyotda "*Kompaniya ustidan nazoratni qo'lga olish*" tushunchasi ham ko'p qo'llanadi. Bu tushuncha umumlashtirilgan va keng tushuncha sifatida qo'llanilib, kompaniya boshqaruvining bir guruh aksiyadorlar qo'lidan boshqasiga o'tishini anglatadi. Bunday tavsif quyidagi uchta holatdan har biriga mos keladi: kompaniyani qo'shib olish; amaldagi rahbariyatni chetlashtirish maqsadida aksiyadorlarning sezilarli qismini o'z tomoniga og'dirib olish yo'li bilan kompaniya ustidan nazoratni qo'lga olish (proxy contest); aksiyadorlik kapitalining alohida guruhlar to'liq xususiy mulki sifatida o'tkazish yo'li bilan nazoratni qo'lga olish yoki OAJdan YoAJga o'tkazish. Keltirilgan bunday usul oddiy qo'shib olish tushunchasiga nisbatan birmuncha keng tushuncha hisoblanadi.

Nazoratni qo'lga olish ma'lum bir guruh aksiyadorlarning direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi)ning yangi tarkibiga ovoz berish va yangi tarkibdagi direktorlar kengashini shakllantirish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon "aksiyadorlar guruhlarining hal qiluvchi ovoz berishga intilishi" sifatida baholanadi.

Kompaniya xususiy kapitalining alohida katta bo'lmagan aksiyadorlar guruhlari qo'lga mulk sifatida o'tishi odatda kompaniya menejerlari yoki

bilvosita investorlar tomonidan tashkil etiladi. Kompaniya ustidan nazoratni qo‘lga olishning bunday shakllari umumqabul qilingan nomlarga ega. Ya’ni aksariyat holatlarda aksiyalarni sotib olish vositasi sifatida qarz mablag‘laridan foydalaniladi va bu kredit hisobiga aksiyalar nazorat paketini sotib olish (LBO – leveraged buyout) deb ataladi. Shuningdek menejerlar tomonidan aksiyalar nazorat paketini sotib olish (MBO – management buyouts) amaliyoti ham ko‘p uchraydi va bu jarayonda kompaniya rahbariyati faol harakat qiladi. Kompaniya aksiyalari bunday holatlarda ochiq bozor kotirovkalarida emas birja listinglaridan tashqarida ko‘proq muomalada bo‘ladi.

13.2. Korporativ birlashmalarning turlari

Korporativ birlashmalarning tashkil etilishi keskin raqobat sharoitida yangi bozorlarga kirib borishda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda, yangi loyihalarni o‘zlashtirishda, davlat bilan soliq munosabatlarini samarali tashkil etishda va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmalar ma’lum birlashmalar tarkibiga kirish orqali ham faoliyatni tashkil etishga e’tibor qaratadi.

Mamlakatimizda quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etiladigan xo‘jalik birlashmalari xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanadi:

- tarkibiga kiruvchi korxonalarining xo‘jalik birlashmasiga tegishli bo‘lgan aksiya paketlari orqali ana shu korxonalarining xo‘jalik boshqaruvini amalga oshiruvchi aksiyadorlik kompa-niyalari, shu jumladan davlat-aksiyadorlik kompaniyalari;

- muassis-korxonalar tomonidan ular faoliyatiga ko‘maklashish uchun muassis-korxonalarining aksiyalari paketlarini boshqarish huquqisiz ayrim umumiy vazifalarni ularga topshirish yo‘li bilan ixtiyoriylik asosida tashkil qilinadigan uyushmalar.

Xo‘jalik birlashmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

- tarmoq va iqtisodiyot sohalarini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;

- marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni (ishlar, xizmatlarni) o‘zlashtirish, ularning jahon bozorlariga kirib borishiga ko‘maklashish;

- korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ushbu maqsadlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda yordam berish;

- ular tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko'rsatish;

- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

Xo'jalik birlashmalarining asosiy shakllari sifatida xoldinglar, moliya-sanoat guruhlari, kontsernlar, kontsortsiumlarni, sindikat, kartel kabilar amaliyotda keng qo'llaniladi.


Xoldinglar aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarning aksiyalari nazorat paketlari kiradigan aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. Bunda xolding yuridik shaxs bo'lib bevosita ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirmaydi, lekin ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari nazorat paketiga egalik qiladi. Xoldinglarning sof xolding, ma'muriy xolding, moliyaviy xolding kabi turlari mavjud. O'z navbatida xolding kompaniyasining o'zi ham boshqa xolding kompaniyaning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda xoldinglar amaliyoti keng qo'llaniladi. Bunda sho'ba korxonalar faoliyatini markazlashgan tartibda boshqarib borish amaliyotiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida korporativ birlashmalar kompleks korporativ tuzilmalar deb ataladi. Kompleks korporativ tuzilmalarning eng asosiy turi sifatida xolding kompaniyalar faoliyati ko'p ko'zga tashlanadi. Bunda xolding kompaniyalarida piramida shaklidagi boshqaruv amalga oshiriladi. "Xolding kompaniyalar boshqa kompaniyaning ovoz beruvchi aksiyalari yirik paketiga ega kompaniya hisoblanadi. Ovoz beruvchi aksiyalarining yirik paketi xolding kompaniyaga tegishli kompaniyalar sho'ba kompaniyalar hisoblanadi"⁸⁸.

Piramida shakldagi oddiy kompleks korporativ tuzilmani quyidagi shaklda ifodalash mumkin (13.2-rasm).

Moliya-sanoat guruhlari birinchi navbatda real sektor va moliyaviy sektor kompaniyalarining o'zaro kapital almashishi (qarama-qarshi tarzda bir-birining aksiyalariga egalik qilish) asosida tashkil etiladi. Bunday amaliyot Yaponiya tajribasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarida amal qiluvchi bunday tuzilmalar faoliyati bir-birini o'zaro to'ldirishda ahamiyatga ega hisoblanadi.

⁸⁸ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 256.



13.2-rasm. *Piramida shaklidagi kompleks korporativ tuzilma*⁸⁹

Ya'ni yirik sanoat korxonalari tijorat banklari uchun bir tomondan katta miqdordagi arzon resurs mablag' lari egasi sifatida xizmat qilsa, boshqa tomondan kredit mablag' lariga talabgor ishonchli mijoz hamdir. Aynan shu jihat moliya-sanoat guruhleri rivojlanishiga zamin yaratgan. Bundan tashqari Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra moliya-sanoat guruhleri rivojlanishining beshta asosiy bosqichleri quyidagilar⁹⁰:

Birinchi bosqich savdo-sanoatga asoslangan moliya-sanoat guruhleri bank ishtirokisiz shakllantirishdir.

Ikkinchi bosqich moliya-sanoat guruhleri mustaqil bank ishtiroki bilan shakllantirishdir.

Uchinchi bosqich moliya-sanoat guruhleri ichki bank bilan shakllantirishni qamrab oladi.


To'rtinchi bosqich moliya-sanoat guruhleri boshqaruvchi bank bilan tashkil etish hisoblanadi.

Beshinchi bosqich moliya-sanoat guruhleri rivojlangan moliya guruhi bilan shakllantirishdir.

Xalqaro amaliyotda moliya-sanoat guruhleri rivojlanish bosqichleri quyidagi rasmda keltirilgan (13.3-rasm).

⁸⁹ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 257

⁹⁰ Ataniyozov Ж. Жаҳонда молия-саноат гуруҳлари шаклланиши ва ривожланишининг назарий-методологик асослари. // “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2016. - №1. http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/10_J_Ataniyazov.pdf



13.3-rasm. *Moliya-sanoat guruhlarini vujudga kelishi va rivojlanishi*⁹¹

Korporativ tuzilmalarning rivojlanishi jarayonida moliyaviy institutlarning roli muhimligi xususida oldingi boblarda ham ta'kidlagan edik. Moliya-sanoat guruhlarini shakllanishi va rivojlanishida ham moliya institutlarining xususan, tijorat banklari muhim ahamiyat kasb etganligini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin (13.1-jadval).

Bugungi kunga kelib korporativ birlashmalar faoliyatida tijorat banklaridan tashqari, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari, pay fondlari faoliyati ham ahamiyat kasb etayotganligini shu o'rinda qayd etib o'tish zarur.

Konsern tomonlar manfaatlar umumiyligi, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi o'rnatilgan, yagona mulkchilik va nazorat organiga ega bo'lgan korporativ tuzilmalar birlashmasi hisoblanadi. Nazorat korporativ tuzilma ustav kapitalida ishtirok etish orqali amalga oshiriladi.

⁹¹ Ataniyazov Ж. Жаҳонда молия-саноат гуруҳлари шаклланиши ва ривожланишининг назарий-методологик асослари. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. – Тошкент, 2016. - №1. http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/10_J_Ataniyazov.pdf

**Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining turli bosqichlarida
bankning roli⁹²**

Rivojlanish bosqichlari	Bankning funksiyalari
1. Bank ishtirokisiz savdo-sanoat korporativ tuzilmasi.	Banklar korporatsiyaga moliyaviy xizmatlarning asosiy turlarinigina ko'rsatishadi.
2. Mustaqil bank ishtirokidagi korporativ tuzilma.	Asosiy funksiyalarni bajarishdan tashqari korporatsiyaning moliyaviy xizmatlarga doir turli xil ehtiyojlarini ta'minlaydigan bitta bank bilan yaqin xamkorlik qiladi. Moliyaviy funksiyalarning bir qismi sho'ba kompaniyalaridan foydalanish orqali markaziy kompaniya tomonidan amalga oshiriladi.
3. Ichki bankka ega bo'lgan korporativ tuzilma.	Bank korporatsiyaning moliyaviy xizmatlarga doir turli xil ehtiyojlarini ta'minlaydi. Korporativ tuzilma moliyasining joriy boshqaruvini amalga oshiradi.
4. Boshqaruv bankiga ega bo'lgan korporativ tuzilma.	Bank korporativ tuzilmaning markaziy kompaniyasiga aylanadi va moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni o'z zimmasiga oladi. Moliyaviy munosabatlarni boshqarish maqsadida bank korporativ tuzilma tarkibini shakllantiradi, alohida korxonalar va tashkilotlarni o'ziga jalb qiladi. Korporatsiyaning boshqaruv markazi sanoat ishlab chiqarishni boshqarish sohasi bilan birgalikda moliyani boshqarish sohasini ham o'ziga qamrab oladi.
5. Rivojlangan moliya guruhiga ega bo'lgan korporativ tuzilma.	Korporatsiyada bir nechta banklardan iborat bo'lgan bank guruhi shakllantiriladi. Korporatsiya tarkibiga banklardan tashqari barcha asosiy moliyaviy funksiyalarni mustaqil ta'minlashda korporativ tuzilmaga imkon yaratadigan boshqa moliyaviy tashkilotlar ham kiritiladi. Moliyaviy kompaniyalar korporatsiya ichida alohida moliya guruhini shakllantiradi.

⁹² Ataniyozov Ж. Жаҳонда молия-саноат гуруҳлари шаклланиши ва ривожланишининг назарий-методологик асослари. // "Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. – Тошкент, 2016. - №1. http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/10_J_Ataniyozov.pdf

Bunga avtokontsermlar yaqqol misol bo‘ladi va bunda oxirgi tayyor mahsulotning yig‘uvchi korporativ tuzilma tomonidan bozorga olib chiqilishi kuzatiladi. Avtokontsern tarkibidagi korporativ tuzilmalar esa o‘z mahsulotlarini faqatgina yig‘uvchi korxonaga yetkazib beradi. Ixtisoslashuv va kooperatsiya darajasi yuqoriligidan kelib chiqqan holda vertikal va gorizontal konsermlar o‘zaro farqlanadi. Konsern tashkil qilish odatda ma‘muriy tartibda ham tashkil etilishi mumkin.

Korporativ birlashmalar tashkil etishda konglomeratlar amaliyoti ham ko‘p kuzatiladi. Bunda yuqorida keltirilganidek texnologik jihatdan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘p sonli tashkilotlarning birlashishi nazarda tutiladi. Lekin konglomeratlar tashkil etilishida ham faoliyatni diversifikatsiyalashdan tashqari boshqa ma‘lum bir maqsadlar ham belgilab olingan bo‘ladi.

Kontsortsium – yuridik va xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘yicha mustaqil korporativ tuzilmalarning vaqtinchalik birlashmasi bo‘lib, sanoat, moliya-kredit, transport, savdo (markenting), loyihalash va boshqa tashkilotlarning yirik loyihalarni amalga oshirish maqsadidagi birlashuvini nazarda tutadi. Bunda kontsortsium shartnoma asosida tashkil etiladi va ishonchli boshqaruvchi tomonidan boshqariladi. Yirik sanoat loyihalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va foydalanishga topshirish bo‘yicha kontsortsiumlar tashkil etish amaliyoti dunyo bo‘ylab ko‘p kuzatiladi. Masalan, Uz-Kor Gas Chemical qo‘shma korxonasi kontsortsium tuzish asosida tashkil etilgan edi.

Sindikatning faoliyat mexanizmi yirik loyihalarni birgalikda amalga oshirishga asoslanadi. Bunda boshqaruv va foydaning taqsimlanishi tegishli ulush asosida amalga oshiriladi. Bunda sindikatli moliyalashtirish amaliyoti eng ko‘p kuzatiladigan holatlardan biridir.

Kartel ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) hajmi, tovarlar (xizmatlar) narxi, savdo shartlari, bozorlarni cheklash masalalari bo‘yicha kelishib olish maqsadida faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan mustaqil xo‘jalik subyektlarining birlashmasi hisoblanadi. Keltirilgan ta‘rifdan ham ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik subyektlarining marketing faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadida kartellar tuziladi. Maqsad bozor qonuniyatlari to‘la-to‘kis ishlamaydigan holatlarda bitta bozor subyektlarining xatti-harakatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hisoblanadi va natijada tovarlar va xizmatlar narxlarida o‘zgarishlar kuzatiladi. Kartel tarkibiga kiruvchi tashkilotlar o‘zlarining yuridik va moliyaviy jihatdan mustaqilligini aslo yo‘qotmaydi. Ular o‘zaro bitim tuzish asosida faoliyat yuritadi. Bunga yaqqol misol sifatida neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti hisoblangan

OPEKni keltirishimiz mumkin. Neftning jahon bozoridagi narxini oshirish maqsadida bu tashkilotning neft qazib chiqarishni qisqartirish to'g'risida qaror qabul qilish holatlari uchrab turadi. Mamlakatimizda uyali aloqa kompaniyalari tomonidan uyali aloqa xizmatlari narxlarining mos ravishda o'zgarishi kuzatilishi ham ma'lum ma'noda kartellar faoliyatiga misol hisoblanadi. Lekin bu amaliyot monopoliyaga olib kelishi sabab, antimonopol qonunchilik asosida ta'qib qilinishini ham qayd etib o'tish zarur.

13.3. O'zbekistonda xoldinglar faoliyat mexanizmi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 12-oktabrdagi 398-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Xoldinglar to'g'risida"gi Nizom «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida», «Raqobat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq xoldinglar tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi tartibini belgilaydi.

Xoldinglarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarining aksiyalari nazorat paketlari kiradigan aksiyadorlik jamiyati xolding hisoblanadi. Aksiyalar (paylar, ulushlar)ning nazorat paketi o'zida korxonalar sarmoyasida qatnashishning istalgan shaklini ifodalaydi. Ushbu shakl xolding qatnashchilari umumiy yig'ilishida va uning boshqaruv organlari tomonidan muayyan qarorlar qabul qilinishi yoki rad etilishining so'zsiz huquqini ta'minlaydi. Aksiyalarining nazorat paketlari xolding aktivlariga kiruvchi korxonalar sho'ba korxonalar hisoblanadi. Sho'ba korxonalar mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi.

Xolding O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan istalgan faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir.

Xolding boshqa xoldingning sho'ba korxonasi bo'lishi mumkin.

Xolding aktivlari:

- a) qimmatli qog'ozlar;
- b) muassislar tomonidan shartnoma asosida berilgan, shuningdek xolding mablag'lari hisobiga sotib olingan yoki hosil qilingan mulklar;
- v) pul mablag'lari va boshqalar hisobidan tashkil topadi.

Xolding xorijiy sarmoya ishtirokida yoki to'liq uning asosida, shu jumladan xorijiy korxonalar aksiyalari nazorat paketlarini sotib olish yo'li bilan tashkil etilishi mumkin.

Xolding aktivlari tarkibiga, sho'ba korxonalar aksiyalari nazorat paketlari bilan bir qatorda, aksiyalarning paritet paketlari (qatnashchi ikkita bo'lgan taqdirda 50 foiz) va boshqa xo'jalik jamiyatlari sarmoyasida qatnashish paketlari (aksiyalarning nazorat paketlari emas) kirishi mumkin.

Xolding amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya faoliyatini amalga oshirishga, shu jumladan istalgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga haqli bo'ladi.

Sho'ba korxonaga o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi, bosh xoldingga tegishli bo'lgan aksiyalarning nazorat paketi qiymati ham shu jumlagina kiradi. Bosh xolding ta'ris shartnomasida qayd etilgan shartlarda sho'ba korxonaning qarzlari bo'yicha javob berishi mumkin.

Sho'ba korxonaga o'zining xoldingga tegishli bo'lgan aksiyalari paketi miqdoridan qat'i nazar, biror-bir shaklda xolding aksiyalariga egalik qilishi mumkin emas, garov va trast (ishonilgan mulk) ham shu jumlagina kiradi.

Sho'ba korxonalar aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarida xoldingning vakillari mazkur sho'ba korxonaga aksiyalarining nazorat paketiga muvofiq ovozga ega bo'ladilar. Ro'yxati ustavda ko'rsatilishi kerak bo'lgan sho'ba korxonalarini rivojlantirishning strategik muhim masalalarini hal etish uchun ustavda darajali ko'pchilik haqidagi norma belgilab qo'yiladi.

Xoldinglar yuridik shaxs hisoblanadi hamda «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida», «Raqobat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari asosida faoliyat ko'rsatadi.

Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar xolding muassislari va qatnashchilari bo'lishlari mumkin.

Xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning qatnashish xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Xoldingning nomiga «xolding» so'zi qo'shilgan bo'lishi hamda uning turi («AJ» aksiyadorlik jamiyati) ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Xolding tashkil etish va uni ro'yxatdan o'tkazish tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatdan o'tkazish va hisobga qo'yish uchun belgilangan tartibda mazkur Nizomda nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Xoldinglar turdosh korxonalarni kooperatsiyalashga ko‘mak-lashish hamda ular tomonidan kelishilgan investitsiya siyosati amalga oshirilishi uchun tashkil etiladi. Xoldingga yoki uning sho‘ba korxonalaridan biriga xolding kompaniyaning sho‘ba korxonalari mahsulotlari (ishlari, xizmatlari) uchinchi shaxslar tomonidan sotilishi huquqi berilishiga, shuningdek ko‘rsatib o‘tilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga narxlar xolding tomonidan biror-bir shaklda belgilab qo‘yilishi huquqi berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Quyidagi tarmoqlarda xoldinglar tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi: savdo, moddiy-texnika ta‘minoti, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, kommunal xo‘jalik, transport (temir yo‘l, aviatsiya, truboprovod transporti va mutlaq ravishda xalqaro tashishlarni amalga oshiruvchi korxonalaridan tashqari), xalq badiiy hunarmandchiligi.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan yoki davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirishda, sotib olish va ijaraga berishda cheklashlarga ega bo‘lgan davlat korxonalari va mol-mulki asosida xoldinglar tashkil etishga ushbu cheklashlar bekor qilingunga qadar yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashkil etilayotgan xoldinglar barcha turdagi xo‘jalik uyushmalari (ittifoqlar, kontsernlar, konsortsiumlar, korporat-siyalar va boshqalar)ning yoki korxonalarining boshqa birlashmalari, shuningdek davlat boshqaruvi organlarining huquqiy vorislari bo‘lishi mumkin emas.

Davlat tasarrufidan chiqarilayotgan korxonaning (korxonaga bo‘linmasining) sho‘ba korxonaga aylantirilishiga ana shu korxonaga mehnat jamoasining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Bunday rozilik umumiy yig‘ilishda barcha xodimlarning yarmidan ko‘pining ovozi bilan qabul qilinadi.

Sarmoyasining 50 foizdan ortig‘ini boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlari va o‘zga moliyaviy aktivlari tashkil etgan xolding moliyaviy xolding hisoblanadi.

Moliyaviy xolding aktivlari tarkibiga faqat qimmatli qog‘ozlar va o‘zga moliyaviy aktivlar, shuningdek xolding boshqaruvi apparati faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash uchun bevosita zarur bo‘lgan mol-mulk kirishi mumkin. Aktivlari tarkibi ta‘sis etish paytida ko‘rsatib o‘tilgan talabga muvofiq kelmaydigan moliyaviy xolding davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida uni bajarish uchun zarur bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Ko‘rsatib o‘tilgan talabning bajarilmasligi ushbu xoldingning aksiyalari emissiyasi prospektini ro‘yxatdan o‘tkazgan organning taqdimnomasi

asosida xo‘jalik sudi tomonidan moliyaviy xoldingni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi uchun asos hisoblanadi.

Moliyaviy xoldinglar mutlaq darajada investitsiya faoliyati yuritishga haqlidirlar, ular uchun faoliyatning boshqa turlari taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi va uning hududiy organlari (keyingi o‘rinlarda davlat mulkini boshqarish vakolati berilgan organlar) moliyaviy xoldinglar ustav fondiga korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish tartibida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari ustav sarmoyasining 20 foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi aksiyalar paketini qo‘shishga haqli emaslar.

Moliyaviy xolding sho‘ba korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatiga aralashishga haqli emas. Moliyaviy xolding vakillari faqat sho‘ba korxonalar aksiyadorlari yig‘ilishlarida qatnashishlari mumkin. Moliyaviy xolding vakillarining kuzatuv kengashi, boshqaruv va sho‘ba korxonalar boshqaruvining boshqa organlari tarkibiga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Moliyaviy xolding o‘ziga tegishli aksiyalar bilan qimmatli qog‘ozlarning tashkil etilgan bozoridan (fond birjasidan) boshqa joyda bitishuvlar sodir etishga haqli emas. Fond birjasida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan aksiyalar bilan amalga oshirilgan bitishuvlar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishda xoldinglar tashkil etilishi mumkin.

Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarishda xoldinglar tashkil etish to‘g‘risidagi taklif davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda kiritiladi.

Taklifda:

xolding tashkil etish zarurligi asoslanishi, uning faoliyati maqsadi va vazifalari ko‘rsatilgan bo‘lishi;

tashkil etilayotgan xoldingga kiritilishi taklif etilayotgan korxonalar (bo‘linmalar) ro‘yxati berilgan bo‘lishi;

ishlab chiqarishning umumiy hajmida ko‘rsatib o‘tilgan korxonalar (bo‘linmalar) tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lishi;

xolding boshqaruv organlarining vakolatlarini, xoldingning sho‘ba korxonalar bilan o‘zaro munosabatlari tartibini belgilovchi xoldingning ta’ sis hujjatlari loyihalari mavjud bo‘lishi kerak.

Arizaga ilovada sho‘ba korxonalar sifatida xolding tarkibiga kiritish taklif etilayotgan korxonalar (bo‘linmalar) mehnat jamoalarining qarori bo‘lishi lozim. Ushbu qaror mazkur Nizomning II bo‘limi 8-bandiga

muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Qayta o'zgartirilayotgan va davlat tasarrufidan chiqarilayotgan korxonalar asosida tashkil etilayotgan xoldingning muassislari davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organlar, shuningdek paylar, ulushlar, aksiyalar ko'rinishidagi o'z mablag'larini qo'yish xohishini bildirgan nodavlat yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishlari mumkin. Xolding qatnashchilari soni cheklanmagan.

Yirik korxonani qayta tuzish va davlat tasarrufidan chiqarish tartibida uning tarkibidan yuridik mustaqil (sho'ba) korxonalarni ajratgan holda xolding tashkil etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organlar:

butun korxonaning yoki ajratib chiqarilayotgan bo'linmalarning ustav sarmoyasini ko'paytirish maqsadga muvofiqligini baholaydilar, zarurat bo'lganda ehtimol tutilgan o'zga investorlarni xolding qatnashchilari safiga kiritish uchun ular o'rtasida tanlov o'tkazadilar.

Yuridik mustaqil korxonalarining aksiyalari paketlarini birlashtirish tartibida xolding kompaniya tashkil etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organlar:

tashkil etilayotgan xolding kompaniyaga kiritilayotgan, yoxud xo'jalik mustaqilligiga ega bo'layotgan va umumiy asoslarda davlat tasarrufidan chiqarilishi kerak bo'lgan korxonalar ro'yxatini aniqlaydilar;

- korxonalar mehnat jamoalarining qarorlarini va (yoki) ularning korxonalarni xoldingning sho'ba korxonalariga aylantirishga roziligini hisobga oladilar;

qo'shimcha investitsiyalarni jalb etishning ehtimol tutilgan usullarini ko'rib chiqadilar, zarurat bo'lganda ehtimol tutilgan o'zga investorlarni xolding qatnashchilari safiga kiritish uchun ular o'rtasida tanlov o'tkazadilar.

Korxonalar (ajralib chiqadigan bo'linma) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlik jamiyatiga aylantiriladi.

O'zga investorlarning ishtirokisiz tashkil etilayotgan xoldingning ustav fondiga qo'shiladigan mulk qiymati qonun hujjatlariga muvofiq baholanadi.

O'zga investorlar ishtirokida xolding tashkil etishda kompaniya qatnashchilari tomonidan qo'shiladigan ulushlar miqdori mol-mulkning bozor bahosidan kelib chiqib, tomonlarning roziligiga ko'ra baholanadi.

Sho'ba korxonalariga (bo'linmalarga) aylantiriladigan korxonalar xodimlari davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organning roziligi bilan tasdiqlangan ro'yxatlarga va yopiq obuna natijalariga muvofiq ular tomonidan berishga va sotishga mo'ljallangan aksiyalarni xoldingning ustav

fondiga qo‘shishlari mumkin. Eslatib o‘tilgan aksiyalarning o‘rniga sho‘ba korxonalarining xodimlariga xolding aksiyalari beriladi (nominal qiymati bo‘yicha sotiladi).

Xolding tashkil etish to‘g‘risidagi qaror davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organ tomonidan qabul qilingan taqdirda:

sho‘ba korxonalarining aksiyalari paketlari davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organ tomonidan xolding ustav sarmoyasini to‘lash tartibida qo‘shiladi. Bunda xolding ustav sarmoyasi aksiyalarning ushbu paketlari va unga muassislar tomonidan beriladigan boshqa aktivlarning jami nominal qiymatiga teng bo‘ladi;

sho‘ba korxonalarining qolgan aksiyalari davlat mulkini boshqarishga vakil qilingan organlarga taqsimlash (sotish) uchun beriladi;

xolding aksiyalari uning qatnashchilari o‘rtasida ularning ulushlariga muvofiq taqsimlanadi.

Davlat mulkida bo‘lgan xolding aksiyalari sotilishi kerak.

Xolding kompaniyaning u yoki bu aksiyalari paketini biror-bir muddatga davlat mulkiga biriktirib qo‘yishga, agar bunga aksiyalari xolding kompaniya aktivlari tarkibiga kiruvchi barcha korxonalar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan yo‘l qo‘yilgan holdagina yo‘l qo‘yiladi.

Nodavlat yuridik shaxslar tomonidan xoldinglar:

- nodavlat yuridik shaxslar aksiyalarining nazorat paketlarini ixtiyoriy birlashtirish;


- nodavlat xo‘jalik jamiyati tomonidan boshqa xo‘jalik jamiyatlari aksiyalarining nazorat paketlarini sotib olish yo‘li bilan tuziladi.

Xoldinglar yilning har choragida o‘z balanslarini, foyda va zararlar schyotlarini, shuningdek boshqa korxonalarining o‘zlariga tegishli aksiyalari haqidagi to‘liq ma‘lumotlarni hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotni e‘lon qilishga majburdirlar.

Xolding tomonidan istalgan korxonaning (shu jumladan o‘zining sho‘ba korxonasining) aksiyalarining 5 foizidan ortig‘ining oldi-sotdisi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bitim tuzilgan paytdan boshlab bir hafta muddatda albatta e‘lon qilinishi kerak.

Xoldinglar tashkil etish, qayta tashkil etish va ularning faoliyatini to‘xtatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.


Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan xolding kompaniyalari va ular tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari soni quyidagi rasmda keltirilgan (15.4-rasm).



15.4-rasm. Respublikamizdagi xolding kompaniyalari va ular tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari soni, 28.12.2017-yil holatiga

O'z navbatida xolding kompaniyalari va ular tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarining muomaladagi aksiyalari qiymati quyidagi rasmda keltirilgan (15.5-rasm).

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekneftgaz milliy xolding kompaniyasi va uning tarkibidagi 50 aksiyadorlik jamiyati tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar hajmi boshqa xoldinglarga nisbatan yuqori bo'lib, qariyb 16,12 trillion so'mga teng bo'lgan. Keltirilgan ikkala rasm asosida respublikamizda ma'muriy xoldinglar amaliyoti keng yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash mumkin. Bu o'z navbatida aksiyadorlik kapitalida davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organlari (xo'jalik birlashmalari) ulushi keskin yuqori ekanligini ko'rsatib bermoqda.



15.5-rasm. Respublikamizda xolding kompaniyalari va ular tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar hajmi, mlrd so'mda (28.12.2017-yil holatiga)

AMALIYOT DARSINI UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Korporativ birlashmalarning asosiy turlarini sanab o'ting.
2. Korporativ birlashmalarning har bir turi bo'yicha eng asosiy jihatni qayd eting.
3. Kartel va konglomeratning amal qilish mexanizmi haqida fikringizni bayon eting.
4. Xoldinglar faoliyat mexanizmi haqida nimalarni bilasiz?

5. Ma'muriy va sof xoldinglarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsating.

6. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xoldinglarga misol keltiring va ular tarkibida aksiyadorlik jamiyatlarini sanab o'ting.

7. Moliyaviy xoldinglar faoliyat mexanizmi xususida fikringizni bildiring.

8. Xolding kompaniyalarda korporativ boshqaruv mexanizmi tashkiliy jihatlarini.

9. Xoldinglar tashkil etish orqali davlat mulkini boshqarishning afzalliklari.

Testlar

1. Bir kompaniya boshqa bir kompaniya ustidan nazorat o'rnatsa va o'zini ushbu kompaniyaning yangi egasi deb e'lon qilsa, bunday moliyaviy operatsiya nima deb ataladi?

- a) qo'shib olish;
- b) ajralib chiqish;
- c) qo'shib yuborish;
- d) bo'linish.

2. Ikki yoki undan ortiq kompaniyalar asosida yangi kompaniya vujudga kelishi nima deb ataladi?

- a) korporativ birlashish;
- b) korporativ bo'linish;
- c) konglomerat qo'shilish;
- d) xoldinglar.

3. Bitta tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalarning o'zaro birlashishi yoki qo'shib olinish holatlari qanday birlashish hisoblanadi?

- a) gorizontaal birlashish;
- b) milliy birlashish;
- c) xalqaro birlashuv;
- d) vertikal birlashuv.

4. Qanday kompaniyalar xolding kompaniyalar hisoblana-di?

- a) boshqa kompaniyaning ovoz beruvchi aksiyalari yirik paketiga ega kompaniya;
- b) kompaniyadan alohida ajralib chiqqan kompaniyalar;
- c) chet elda vakolatxona yoki filiallari tashkil etilgan kompaniyalar;
- d) oltin aksiya amaliyoti joriy etilgan kompaniyalar.

5. Bir xil tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalarning o'zaro birlashishining raqobat muhitiga ta'sirini qanday baholash mumkin?

- a) oshkora yoki yashirin tarzda raqobatni chetlab o'tish va monopoliyaga erishish imkoniyatini yaratadi;
- b) raqobat muhitiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi;
- c) sog'lom raqobat muhitida o'zaro birlashishlarga yo'l qo'yilmaydi;
- d) bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ birlashishlarning raqobatga va monopoliyaga hech qanday daxli yo'q.

6. O'zbekiston amaliyotiga ko'ra tovar bozorida faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning o'zaro birlashuviga qanday holatlarda monopoliyaga qarshi organ roziligi talab etiladi?

- a) oxirgi kalendar yilda tovarlarni sotishdan olgan jami tushumi eng kam oylik ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo'lsa;
- b) ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati 450 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa;
- c) ishtirok etayotganlar aktivlarining jami balans qiymati eng kam oylik ish haqining ellik ming baravari miqdoridan ortiq bo'lsa;
- d) ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati 25 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa.

7. O'zbekiston amaliyotiga ko'ra tijorat banklarining o'zaro birlashuviga qanday holatlarda monopoliyaga qarshi organ roziligi talab etiladi?

- a) o'zaro birlashayotgan banklar aktivlarining jami balans qiymati 450 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa;
- b) ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati 25 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa;
- c) bitim qatnashchilaridan biri moliya bozorida ustun mavqeini egallab turgan bo'lmasa;
- d) O'zbekiston amaliyotiga ko'ra tijorat banklarining o'zaro birlashuviga yo'l qo'yilmaydi.

8. Xo'jalik birlashmalarining asosiy shakllari keltirilgan javobni belgilang.

- a) xolding, moliya-sanoat guruhlari, kontsernlar, kontsortsiumlar, sindikat, kartel;
- b) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari;

- c) qo'shma korxonalar, unitar korxonalar, davlat korxonalari;
- d) o'rtoqlik korxonalari, qo'shimcha ma'uliyatli jamiyatlar, xususiy korxonalar.

9. Xolding tarkibidagi sho'ba korxonalar umumiy yig'ilishida qaror qabul qilinishidagi alohida jihatni belgilang.

- a) xolding kompaniyasi aksiyalar nazorat paketi orqali hal qiluvchi ovozga ega hisoblanadi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qarorlar davlat vakili tomonidan mustaqil qabul qilinadi;
- c) qaror qabul qilinishidan oldin xolding kompaniya xulosasi eshitiladi;
- d) xolding tarkibidagi sho'ba korxonalar umumiy yig'ilishida qaror qabul qilinishidagi alohida jihat mavjud emas.

10. Real sektor va moliyaviy sektor kompaniyalari bir-birining aksiyalariga o'zaro egalik qilishi hamda birgalikdagi boshqaruv amalga oshirilishi belgilanadigan korporativ birlashma turi keltirilgan javobni belgilang.

- a) moliya-sanoat guruhi;
- b) sindikat;
- c) kartel;
- d) transmilliy kompaniya.

11. Mustaqil korporativ tuzilmalarning vaqtinchalik birlashmasi bo'lib, sanoat, moliya-kredit, transport, savdo (markenting), loyihalash va boshqa tashkilotlarning yirik loyihalarni amalga oshirish maqsadidagi birlashuvini nazarda tutuvchi korporativ birlashma turi qaysi javobda berilgan?

- a) kontsortsium;
- b) sindikat;
- c) moliya-sanoat guruhi;
- d) kartel.

12. Ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi, tovarlar (xizmatlar) narxi, savdo shartlari, bozorlarni cheklash masalalari bo'yicha kelishib olish maqsadida faoliyat yo'nalishi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan mustaqil xo'jalik subyektlarining birlashmasi qanday nomlanadi?

- a) kartel;
- b) moliya-sanoat guruhi;
- c) sindikat;
- d) kontsortsium.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Korporativ birlashmalar tashkil etishning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘yicha T-sxemaning to‘ldiring.

Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Korporativ birlashmalar turlarining boshqalaridan farq qiladigan eng asosiy belgilarining quyidagi jadvalda aks ettiring.

Xolding	Kontsern	Kontsortsium	Konglomerat	Kartel	Moliya-sanoat guruhi
.....

3. Aksiyadorlik jamiyatlarining xolding kompaniyasiga birlashuvi qaysi holatlarda afzallik kasb etadi va qaysi holatlarda muammolar yuzaga keltirishi mumkin?

Afzallik kasb etadigan tomonlar	Muammolarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar
1.	1.
2.	2.
...	...

4. O‘zbekistonda moliya-sanoat guruhlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlar va to‘siq bo‘layotgan holatlar bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Imkoniyatlar	To‘siqlar
1.	1.
2.	2.
...	...

XIV bob. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN YIRIK BITIMLAR TUZISH

14.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida yirik bitimlar tuzish tartibi

Aksiyadorlik jamiyatlarining joriy moliyaviy-xo‘jalik faoliyati jamiyat ijroiya organi tomonidan boshqarib borilsada, faoliyatga doir ma’lum bir bitimlar bo‘yicha qarorlar qabul qilish ijroiya organi vakolatiga kirmaydi. Bunday amaliyot boshqaruvchilarning aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qarorlar qabul qilishining oldini olishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlarida yirik bitimlar tuzish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi. Jamiyat sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bo‘yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar yirik bitimlar hisoblanadi.

Yirik bitim predmeti bo‘lgan mol-mulkning bozor qiymati deganda mol-mulkning eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, ushbu qiymat bo‘yicha mazkur mol-mulk ochiq bozorda bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladigan raqobat sharoitida boshqa shaxsga berilishi mumkin, bitim narxining baland-pastligida esa biror-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi. Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatini aniqlash uchun bitim ishtirokchilari tomonidan baholovchi tashkilot jalb etilishi mumkin.

Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror kuzatuv kengashining a’zolari tomonidan bir ovozdan

qabul qilinadi. Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin.

Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Yirik bitim jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin jamiyatning ijroiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan talablari buzilgan holda tuzilgan yirik bitim sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan yirik bitim tuzilganda, bu haqda 20-muhim fakt e'lon qilinishi shart hisoblanadi. Bunga misol sifatida "Turonbank" ATB tomonidan 2017-yil 30-noyabrda e'lon qilingan muhimfaktni keltiramiz (14.1-jadval).

14.1-jadval

**«Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki tomonidan
e'lon qilingan 20-muhim fakt**

EMITENTNING NOMI		
1.	To'liq:	«Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki
	Qisqartirilgan:	«Turonbank» ATB
	Birja tikerining nomi:*	TNBN
ALOQA MA'LUMOTLARI		
2.	Joylashgan eri:	O'zbekiston, 100011, Abay ko'chasi 4A uy.
	Pochta manzili:	O'zbekiston, 100011, Abay ko'chasi 4A uy.
	Elektron pochta manzili:*	info@turonbank.uz
	Rasmiy veb-sayti:*	www.turonbank.uz
MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT		
3.	Muhim faktning raqami:	20
	Muhim faktning nomi:	Emitent tomonidan yirik bitim tuzilishi
	Kontragentning F.I.Sh. yoki to'liq nomi:	Xitoy eksport-import banki
	Kontragentning joylashgan eri (pochta manzili):	Xitoy Xalq Respublikasi

Emitentning bitim bo'yicha qaror qabul qilgan organi:	Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi
Qaror qabul qilingan sana:	2017 yil 18 oktyabr
Emitent sof aktivlarining bitim tuziladigan sanadan oldingi chorak yakunidagi qiymati (ming so'mda):	242 422 406,0
Bitim summasi (so'mda):	473 675 817 156,51
Bitimning emitent sof aktivlaridagi miqdori (%da)	195 %
Bitim tuzilgan sana:	2017 yil 30 noyabr
Bitim turi:	Qarz kelishuvi
Bitim predmeti:	Qarz jalb qilish
Bitim bo'yicha emitent kim hisoblanadi:	Oluvchi

Yirik bitim tuzish bo'yicha e'lon qilingan muhim fakt ijroiya organi rahbari, bosh hisobchi va veb-saytda axborot joylashtirishga mas'ul shaxs tomonidan imzolangan. Bunda bitim Xitoy eksport-import bankidan 242,4 milliard so'm miqdorida qarz mablag'i jalb qilish bo'yicha tuzilgan. Qarz miqdori aksiyadorlik tijorat banki sof aktivlariga nisbatan 195 foizni tashkil etgan va shu sababdan bitim aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan 2017-yil 18-oktabrda tasdiqlangan.

14.2. Aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish

Aksiyadorlik jamiyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar affillangan shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga asosan aksiyadorlik jamiyati bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar mazkur jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar aksiyadorlik jamiyatning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:

- aksiyadorlik jamiyatining yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxs;
- aksiyadorlik jamiyatining yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs;
- kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

- ustav kapitalining yigirma foizi va undan ortig'iga aksiyadorlik jamiyati tomonidan egalik qilinaotgan holatda ulush kiritilgan yuridik shaxs;

- aksiyadorlik jamiyatining sho'ba xo'jalik jamiyati;

- aksiyadorlik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lsa, yuqori turuvchi yuridik shaxs;

- aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi ayni bir shaxs ustav kapitalining yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qiladigan ikkinchi yuridik shaxs;

- aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etadigan ikkinchi yuridik shaxs;

- aksiyadorlik jamiyatining direktori yoxud boshqaruv a'zosi bo'lgan ayni bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari boshqa yuridik shaxs ijroiya organining rahbari vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, ikkinchi yuridik shaxs;

- yaqin qarindoshlari bilan birgalikda ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs qaysi yuridik shaxs rahbarining yoki ijroiya organi a'zosining vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

- jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs yaqin qarindoshlari bilan birgalikda qaysi yuridik shaxs jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

- aksiyadorlik jamiyati bilan bitta xo'jalik birlashmasiga kiruvchi yuridik shaxs.

Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxsi bo'lgan aksiyador — jismoniy shaxsning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:

- ushbu jismoniy shaxs va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

- ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

- ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda ijroiya organining a'zosi vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

Affillangan shaxs jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart.

Affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi axborot, shu jumladan affillangan shaxslarning yozma bildirishlari va bitimlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning to'liq ta'riflari hamda qaror qabul qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar jamiyat yillik hisobotining bir qismi bo'ladi.

Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi, tuzilishi kutilayotgan bitim tarafining yozma bildirishida ko'rsatiladigan axborot jamiyatning ijroiya organi va ichki audit xizmati (agar u mavjud bo'lsa) tomonidan o'rganiladi. Jamiyatning ijroiya organi tomonidan o'rganish yozma bildirish olinganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi. Direktorning (boshqaruv raisining) qaroriga ko'ra mazkur bitimni o'rganishga qo'shimcha ravishda jamiyatning boshqa xodimlari jalb qilinishi mumkin.

Affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni jamiyat ijroiya organi va ichki audit xizmati tomonidan o'rganish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va bitimni o'rganishda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonnomada bitimning yuridik, moliyaviy, texnik va boshqa muhim jihatlari hamda uning jamiyat faoliyatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Jamiyatning ijroiya organi jamiyat kuzatuv kengashini affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o'rganish natijalari bayonnomasini ilova qilgan holda yozma shaklda xabardor qiladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi axborotni o'rganadi va affillangan shaxsning yozma bildirishi jamiyatga kelib tushgan sanadan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay bitim bo'yicha qaror qabul qiladi. Agar jamiyat kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, bitim bo'yicha qaror qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyatning affillangan shaxsi jamiyatning kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi mazkur bitim yuzasidan qaror qabul qilayotganda muhokamada ishtirok etishga haqli emas va ovoz berish huquqiga ega emas.

Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan yoxud aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning malakali ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Jamiyatning ijroiya organi tuzilishi kutilayotgan bitim tarafini affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim bo'yicha qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda xabardor qiladi.

Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim ayni bir vaqtda yirik bitim bo'lsa, bitimni tuzish tartibiga "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8-bobida belgilangan yirik bitim tuzishga doir qoidalar qo'llaniladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilishga haqli.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha jamiyat aksiyadori mazkur bitimni ma'qullash haqida qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan yoxud aksiyador qaror qabul qilinishida ishtirok etmagan taqdirda nizolashishi mumkin.

Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra uch ish kuni ichida aksiyadorga affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim haqida direktor (boshqaruv raisi) tomonidan imzolangan tegishli axborotni:

affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitim tarafi yozma bildirishining;

bitimni o'rganish natijasi bayonnomasining;

bitimni ma'qullash to'g'risida qabul qilingan qarorning;

tegishli shartnomaning, agar u tuzilgan bo'lsa, ko'chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma shaklda taqdim etishi shart.

Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimga taalluqli bo'lgan boshqa axborotni ham taqdim etishi mumkin.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida jamiyatga zarar etkazilgan bo'lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar etkazilishi mumkin bo'lsa, aksiyador o'sha bitimni haqiqiy emas deb topish yuzasidan bevosita yoxud aksiyador nomidan da'vogar bo'lib chiqishga haqli bo'lgan vakolatli davlat organlari orqali sudga murojaat qilishga haqli.

Jamiyatning o‘n foizdan kam bo‘lmagan ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyador affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar etkazilishi mumkin bo‘lsa, o‘sha bitimni tuzishga doir talablar buzilishining mavjud belgilarini o‘rganish uchun mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini jalb etishga haqli. Sud tomonidan bitim tuzishga doir talablar buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, jamiyat sudning qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan e‘tiboran bir oy muddatda aksiyadorning auditorlik tashkilotini jalb etishga doir xarajatlarining o‘rnini mazkur xizmatlarning bozor qiymatidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda qoplashi shart.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim quyidagi hollarda sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- qonunchilikda bitim tuzish bo‘yicha belgilangan talablarga rioya etilmaganda;

- bitimni jamiyat uchun zararli deb topishga doir asoslar mavjud bo‘lganda;

- bitimni tuzishda manfaatlar qarama-qarshiligi mavjud bo‘lganda;

- qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo‘lganda.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lganda haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas:

- affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘vo bilan sudga murojaat qilgan aksiyadorning ovoz berishi aksiyadorlarning ushbu bitimni ma‘qullash to‘g‘risida qaror qabul qilingan umumiy yig‘ilishida uning ishtirok etishidan yoki ishtirok etmasligidan qat’i nazar, ovoz berish natijalariga ta‘sir ko‘rsatmasa;

- mazkur bitimning tuzilishi jamiyatga yoki da‘vo bilan sudga murojaat qilgan aksiyadorga zarar etkazilishiga sabab bo‘lganligi yoki zarar etkazilishiga sabab bo‘lishi mumkinligi isbotlanmagan bo‘lsa;

- mazkur bitim bo‘yicha zararlar bitim taraflarining harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlarning (fors-major holatlarning) natijasi bo‘lganligi isbotlangan bo‘lsa;

- mazkur bitimning ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda keyinchalik ma‘qullanganligi dalillari ishni sudda ko‘rib chiqish paytida taqdim etilgan bo‘lsa.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni o‘rganishni amalga oshirgan shaxslar bitim bo‘yicha xulosa va yakunlarning ishonchliligi uchun javobgar bo‘ladi.

Jamiyatning sud tomonidan aybi isbotlangan affillangan shaxsi etkazilgan zararining, jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuzilgan bitimni

va da'voni sudda ko'rib chiqish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplashi shart.

Yuqorida keltirilgan qoidalar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- bir vaqtning o'zida jamiyat direktori bo'lgan bitta aksiyadordan tashkil topgan jamiyatlarga;

- tuzilishidan jamiyatning barcha aksiyadorlari manfaatdor bo'lgan bitimlarga;

- jamiyatning ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun tuziladigan bitimlarga, agar qonun hujjatlariga ko'ra realizatsiya qilishning maxsus tartibi belgilanadigan monopol mahsulot, moddiy-texnika resurslarining strategik turlari bitim predmeti bo'lsa;

- birja va kimoshdi savdolari orqali tuziladigan bitimlarga, agar jamiyatning ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xom ashyo va materiallar, shuningdek jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot bitim predmeti bo'lsa;

- jamiyat tomonidan joylashtirilayotgan qimmatli qog'ozlarni olishga doir imtiyozli huquqni amalga oshirishda;

- jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni olganda;

- jamiyatni qayta tashkil etishga doir tartib-taomillarni amalga oshirishda;

- aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida joylashtirishda;

- qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilishda;

- jamiyat va affillangan shaxs o'rtasidagi bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida jamiyat kuzatuv kengashining yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu bobda belgilangan tartibda oldindan qabul qilingan qarori mavjud bo'lganda.

Affillangan shaxs bilan bitim tuzilishi 21-muhim fakt sifatida aksiyadorlik jamiyati tomonidan e'lon qilinadi. Bunga misol sifatida «Ipak Yo'li» Aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki tomonidan e'lon qilingan muhim faktni keltiramiz (14.2-jadval).

**«Ipak Yo‘li» Aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki tomonidan
e‘lon qilingan muhim fakt**

EMITENTNING NOMI	
To‘liq:	«Ipak Yo‘li» Aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki
Qisqartirilgan:	«Ipak Yo‘li» AITB
Birja tikerining nomi:*	IPKY
ALOQA MA‘LUMOTLARI	
Joylashgan yeri:	Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 2
Pochta manzili:	Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 2
Elektron pochta manzili:*	info@ipakyulibank.uz
Rasmiy veb-sayti:*	www.ipakyulibank.uz
MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOT:	
Muhim faktning raqami:	21
Muhim faktning nomi:	Affillangan shaxs bilan bitim tuzilishi
Kontragentning F.I.Sh. yoki to‘liq nomi:	«O‘zbekinvest» Eksport import sug‘urta milliy kompaniyasi
Kontragentning joylashgan eri (pochta manzili):	Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 2
Affillangan shaxsning F.I.Sh. yoki to‘liq nomi:	«O‘zbekinvest» Eksport import sug‘urta milliy kompaniyasi
Affillangan shaxsning joylashgan eri:	Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 2
Emitentning bitim bo‘yicha qaror qabul qilgan organi:	Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi
Qaror qabul qilingan sana:	2015 yil 24 iyun
Bitim summasi (so‘m):	6 152 483,24
Bitim tuzilgan sana:	2015 yil 17 iyul
Bitim turi:	Transport vositalarini sug‘urtalash shartnomasi
Bitim predmeti:	Transport vositalarini sug‘urtalash
Bitim bo‘yicha emitent kim hisoblanadi:	Oluvchi
Ijroiya organi rahbarining F. I. Sh. :	Mirzaev A. A.
Bosh buxgalterning F. I. Sh. :	Nazirova A. A.
Veb saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F. I. Sh. :	Mavlonov N.X.

Yuqorida keltirilgan muhim faktdan ko‘rishimiz mumkinki, «O‘zbekinvest» Eksport import sug‘urta milliy kompaniyasi «Ipak Yo‘li» Aksiyadorlik innovatsiya tijorat bankiga nisbatan affillangan shaxs hisoblanadi.

Muhim fakt mazmuniga ko‘ra affillangan shaxs bilan transport vositalarini sug‘urtalash bo‘yicha 6 152 483,24 so‘mlik bitim tuzilgan. Bunda bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan 2015-yil 24-iyunda qabul qilingan va bitim 2015-yil 27-iyunda tuzilgan.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Yirik bitimlar tuzish bo‘yicha qarorlar qabul qilishning Kuzatuv kengashiga yuklatilishi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan amalga oshirilishiga obyektiv zaruratni qanday ifodalaysiz?
2. Qaysi holatlarda yirik bitimlar tuzish bo‘yicha qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi?
3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan yirik bitimlar tuzish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish holatlari.
4. Yirik bitimlar tuzilganligi haqida axborotni oshkor qilish tartibi.
5. Affillangan shaxslar tarkibi (yuridik shaxslar bo‘yicha).
6. Affillangan shaxslar tarkibi (jismoniy shaxslar bo‘yicha).
7. Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish tartibi.
8. Affillangan shaxslar bilan bitim tuzilganligi haqida axborotni oshkor qilish.

Testlar

1. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish bilan bog‘liq bitim yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etsa bunday bitimlar qanday bitim hisoblanadi?

- a) yirik bitim;
- b) hamkorlik bitimi;
- c) kafillik bitimi;
- d) oddiy bitim.

2. Aksiyadorlik jamiyat sof aktivlarining qiymati qanday tartibda aniqlanadi?

- a) buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari bo‘yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o‘rtasidagi farq sifatida;

- b) aksiyadorlik jamiyatlari aktivlari va passivlari o'rtasidagi farq sifatida;
- c) uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar o'rtasidagi farq sifatida;
- d) buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha, jamiyat aktivlari va uzoq muddatli majburiyatlar umumiy summasi o'rtasidagi farq sifatida;

3. Bitim yirik bitim sifatida belgilanishining asosiy mezonini qaysi javobda berilgan?

- a) olish yoki berish belgilangan mol-mulk qiymati sof aktivlar miqdorining 15 foizidan ortiq bo'lsa;
- b) berilayotgan mol-mulk qiymati sof aktivlar miqdorining 25 foizidan ortiq bo'lsa;
- c) olinayotgan mol-mulk qiymati sof aktivlar miqdorining 25 foizidan ortiq bo'lsa;
- d) aksiyadorlik jamiyati faoliyatida yirik bitim tushunchasi qo'llanilmaydi.

4. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qanday tartibda qabul qilinadi?

- a) kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan;
- b) kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan 75 foizdan ortiq ovoz bilan;
- c) malakali ko'pchilik ovozi bilan;
- d) kuzatuv kengashining a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan.

5. Yirik bitimlar tuzish to'g'risidagi qarorlar qanday holatda kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi?

- a) jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizidan 50 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;
- b) jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 foizidan ortiqni tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;
- c) jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizidan ortiqni tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;
- d) jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;

6. Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala qanday hal qilinadi?

- a) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqiladi;
- b) kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida qayta ovozga qo'yiladi;
- c) bitim tuzishdan voz kechiladi;
- d) bir oy muddatda bitim shartlari qayta ko'rib chiqilib, keyin ovozga qo'yiladi.

7. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

- a) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) ijroiya organi;
- d) kuzatuv kengashi raisi tomonidan yakka tartibda.

8. Yirik bitim jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) ijroiya organi;
- b) taftish komissiyasi;
- c) bosh hisobchi;
- d) kuzatuv kengashi.

9. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan yirik bitim tuzilganda bu haqda qanday axborot oshkor qilinadi?

- a) 20-muhim fakt;
- b) bitim nusxasi sayt orqali;
- c) bitim to'g'risida qisqacha ma'lumotnoma;
- d) 32-muhim fakt.

10. Aksiyadorlik jamiyatining yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan qanday shaxslar hisoblanadi?

- a) affillangan shaxslar;

- b) daxldor shaxslar;
- c) kreditorlar;
- d) investorlar.

11. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim qanday hollarda sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin?

- a) qonunchilikda bitim tuzish bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilmaganda, bitimni jamiyat uchun zararli deb topishga doir asoslar mavjud bo'lganda;
- b) ichki audit xizmati bitim yuzasidan ijobiy xulosa taqdim etganda;
- c) bitim qiymati sof aktivlarning 10 foizidan ortiqni tashkil etganda;
- d) bitim qiymati sof aktivlarning 25 foizigacha miqdorni tashkil etganda.

12. Affillangan shaxs bilan bitim tuzilishi to'g'risida aksiyadorlik jamiyati tomonidan qanday axborot e'lon qilinadi?

- a) 21-muhim fakt;
- b) 20-muhim fakt;
- c) 32-muhim fakt;
- d) bitim elektron nusxasi.

Qo'shimcha topshiriqlar

1. Yirik bitimlar tuzishda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi vakolatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi	Kuzatuv kengashi
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Affillangan shaxs bilan bitim tuzish jarayonida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi ishtiroki bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi	Kuzatuv kengashi	Ijroiya organi
1.	1.	1.
2.	2.	2.
...

XV bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA FOYDANI TAQSIMLASH MEXANIZMI

15.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash va dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari

Aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash masalasi korporativ boshqaruv oldidagi jiddiy masalalardan biridir. Chunki har bir aksiyador kiritgan ulushidan kelib chiqqan holda foydaning tegishli qismini olishga intiladi. Boshqa tomondan aksiyadorlik jamiyatining hisobot davrini foyda bilan yakunlashini ta'minlagan boshqaruvchilar ham foydaning ma'lum bir qismini mukofot tarzida olishni xohlaydi. Shuningdek aksiyadorlar oldida aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida erishilgan foydani reinvestitsiyalash masalasi ham turadi. Foydani taqsimlashda yuqorida keltirilayotgan har bir jihat inobatga olinishi shart. Aks holda tomonlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi, natijada esa korporativ nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari foydaning aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishida faoliyatni kengaytirish maqsadida qo'shimcha resurslar jalb qilish imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim. Umuman korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash mexanizmi haqida quyida to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy-xo'jalik faoliyati hisobot davri yakunlari bo'yicha moliyaviy natija shakllantiriladi. Bunda barcha soliq majburiyatlari bajarilgach, korxonada qolgan foyda taqsimlanmagan foydaga o'tkaziladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari ustavida nazarda tutilgan, ammo ustav kapitalining o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Zaxira fondi ustavda belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Foydadan har yilgi ajratmalarning miqdori jamiyat ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmashligi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, korporativ boshqaruvda foydani taqsimlashda zaxira fondlarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, jamiyatning zaxira fondi jamiyatning zararlarini o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ

obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Bunda zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav asosida kelgusi davr xarajatlari bilan bog'liq boshqa fondlar ham tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida» 24-sonli qaroriga asosan xo'jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalarida Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil qilish lozim. Mazkur subyektlar sof foydasining 10 foizi miqdoridagi ajratmalar Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining mablag'larini shakllantirish manbasi etib belgilangan hamda ushbu jamg'arma mablag'lari faqat quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, zarur tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazish, mahsulotlarning tajriba partiyalarini ishlab chiqarish va seriyalab ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga tayyorlash chora-tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish;

- mos yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni moliyalashtirish;

- mos yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik va ilmiy-laboratoriya bazasini mustahkamlash, ularni eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy ishlanmalarni joriy etish, ilmiy-texnik xodimlarni moddiy rag'batlantirish va malakasini oshirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Qaror bilan xo'jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalari rahbarlari ushbu bandda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z muddatida va to'liq bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgarligi ham belgilangan.

Korporativ boshqaruvda foydani taqsimlash masalasi avvalo Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi. So'ngra Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga masala kiritiladi. Bunda foydani taqsimlashda zaxira fondiga ajratmalar qilish, reinvestitsiyalash natijasida qo'shimcha aksiyalar chiqarish, oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash masalalari ko'rib chiqilishi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida muhokama qilinib tegishli qarorlar qabul qilinadi. Masalan O'zsanoatqurilishbank ATBning 2019 yil yakuni bo'yicha sof foyda taqsimoti quyidagicha (15.1-jadval):

O`zsanoatqurilishbank ATB ning 2019 yil yakuni bo`yicha sof foyda taqsimoti⁹³

Taqsimlanishi lozim bo`lgan umumiy foyda:	704.526,1 mln. So`m
1. Bankning umumiy zaxira fondiga	211.360,00 mln. So`m
2. Standant kreditlar bo`yicha zaxira	138.364,08 mln. So`m,
3. Bankning imtiyozli aksiyalari bo`yicha dividendlarga to`lash	1.616,9 mmln. So`m
4. Bankning oddiy aksiyalari bo`yicha dividendlarga to`lash	353.150,08 mln. So`m
5. Taftish komissiyasi a`zolarini taqdirlashga	34,9 mln so`m
6. Taqsimlanmagan foydadan qolayotgan qoldiq mablag`	0,00 so`m

Dividend – bu sotilgan aksiyalar, ulushlar, paylar soniga muvofiqlikda mulkdorlar o`rtasida aniq bir davr bo`yicha taqsimlanadigan korxonaning foydasining bir qismidir. *Dividend siyosati* – korxonaning bozor qiymatini va mulkdorlar turmush farovonligini oshirish maqsadida foydaning iste`mol qilinadigan va reinvestitsiya qilinadigan qismlari o`rtasidagi proportsiyani optimallashtirishga yo`naltirilgan korxonaning moliyaviy siyosatining bir qismidir.

Dividend siyosatida aks etadigan olingan foydani taqsimlash bo`yicha korxonaning va mulkdorlar o`rtasidagi moliyaviy munosabatlar murakkab va ko`p qirrali hisoblanadi. Shuning uchun dividendlarning iqtisodiy mohiyati va paydo bo`lish tabiatidan boshlab uning tarkibiy qismini ko`rib chiqish maqsadga muvofiq.

Investor tomonidan korxonaning kapitaliga pay, ulush, aksiyalarga tikilgan (qo`yilgan) pul mablag`lari haqiqatda uning korxonaga egalik qilish huquqini va o`z navbatida olingan foydani taqsimlashda ishtirok etish huquqini beradi. Umuman mazkur huquqni amalga oshirish vaqtida foydaning turli shakllardagi qismlarini ta`sischilar foydasiga o`tkazish ko`rinishida amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida mazkur huquqdan foydalanish an`anaviy tarzda foydani taqsimlashda ishtirok etish va dividendlar to`lanishi (dividend olish) shaklida amalga oshiriladi.

Kapital taqdim etishdan olinadigan boshqa daromadlardan, masalan foizlardan farqli ravishda dividend to`lovlari majburiy hisoblanmaydi, ularning miqdori oldindan ma`lum bo`lmaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarida

⁹³ 2020 yil 29 iyuldagi aksiyadorlar umumiy yig`ilish qaroridan olindi.

dividendlar miqdori direktorlar kengashi taklifi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan belgilanadi va odatda moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan olinadigan natijalarga bog'liq bo'ladi.

Dividendlar olish huquqi imtiyozli aksiyalar kabi oddiy aksiyalarga ham beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda imtiyozli aksiyalar bo'yicha odatda qa'iy belgilangan dividendlar to'lanadi. Mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra aksiyadorlik jamiyati ustavida dividendlar miqdori qat'i pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilab qo'yilishi lozim. Umuman aksiyadorlik jamiyati tomonidan joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining yigirma foizidan oshmasligi lozim.

Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar faqatgina jamiyat tomonidan barcha xarajatlar qoplangandan so'ng, muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar va olingan kreditlar bo'yicha foizlar, soliqlar va imtiyozli iktsiyalar bo'yicha dividendlar to'langandan so'ng to'lanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, oddiy aksiyalar egalarining korxonada faoliyati bo'yicha olingan foydaning bir qismiga egalik qilish huquqi eng oxirgi navbatda qanoatlantiriladi.


Ajlari faoliyat samaradorligi bevosita olingan foyda va aksiyadorlarga to'lanayotgan dividend miqdori bilan belgilanishidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari xususida quyida to'xtalib o'tamiz.

Dividend siyosatidagi asosiy muammo olingan foydaning aksiyadorlar o'rtasida dividend ko'rinishida to'lanadigan qismi va foydaning biznesni yanada rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan qismi o'rtasidagi optimal nisbatni belgilash bo'yicha qaror qabul qilishning murakkabligi bilan izohlanadi.

Dividend siyosatining oqilona yuritilishi o'z navbatida AJlari faoliyatida quyidagilarga imkon beradi (15.1-rasm):

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarini kengroq bayon etgan holda quyidagilarni alohida ta'kidlashimiz lozim:

*Birinchi*dan, AJlari tomonidan dividend to'lovlarining doimiy ravishda amalga oshirilishi AJning investitsion jozibadorligiga xizmat qiladi. Bunday holatda korporativ obligatsiya muomalaga chiqarish yoki bank kreditlari jalb qilishga nisbatan qo'shimcha aksiya emissiyasi hisobiga moliyaviy resurs jalb qilish nisbatan kam xarajat talab qiladi. Chunki muntazam dividend to'lovlarining amalga oshirilayotganligining o'zi investorning qiziqishiga sabab bo'ladi.



15.1-rasm. Oqilona dividend siyosati orqali erishish mumkin bo'lgan natijalar

Ikkinchidan, mamlakatimizda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda dividend siyosating oqilona yuritilishi ham ma'lum darajada mazkur vazifaning bajarilishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Chunki dividend ko'rinishidagi daromadlarga qiziqtirish orqali aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini AJlari faoliyatini kengaytirish maqsadida jalb qilish mumkin. Buning natijasida o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishi bilan bir vaqtda aholi daromadlarining ham muntazam o'sib borishiga erishiladi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar amaliyoti tez-tez uchrab turadi. Aksariyat holatlarda qo'shib olishlar amaliyoti aksiyalar nazorat paketini qo'lga kiritish orqali amalga oshiriladi. AJlari tomonidan dividend to'lovlarining muntazam ravishda amalga oshirilmaslari yoki past darajada amalga oshirilishi aksiyadorlarning noroziligiga olib kelishi, bu o'z navbatida aksiyalarning boshqa shaxslarga, xususan "dushman" kompaniyalar aksiyadorlariga sotilishiga sabab bo'ladi. Natijada esa nazorat paketining qo'ldan chiqishi oqibatida aksiyadorlik jamiyati boshqa kompaniya, xususan xorijiy kompaniyalar tomonidan qo'shib olinishi yuz beradi. Aynan qo'shib olinishdan himoyalani sh maqsadida AJlari dividend siyosatidan foydalanishlari mumkin. Ya'ni bozor daromadliligidan kelib chiqqan holda aksiyadorni dividend ko'rinishidagi daromad bilan ta'minlash o'z-o'zidan qo'shib olishlardan himoya vazifasini o'taydi.

To'rtinchidan, bugungi kunda AJlari faoliyatini moliyalashtirishda milliy moliya bozorlaridan kapital jalb qilish bilan bir vaqtda xalqaro moliya

bozorlaridan kapital jalb qilish amaliyoti ham xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bunda aksiyalarni xalqaro fond birjalarida ochiq obuna tarzida joylashtirish (IPO) orqali xorijiy kapitalni jalb qilish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. AJlari tomonidan IPO o'tkazish uchun esa yillab tayyorgarlik ko'riladi, potentsial investorlar oldiga borib taqdimotlar o'tkaziladi. Taqdimotlar jarayonida investorni qiziqtiradigan eng asosiy jihatlardan biri esa bevosita aksiya daromadliligi ko'rsatkichidir. Shu boisdan oqilona dividend siyosatini yuritib borish o'z navbatida aksiyalarni xalqaro fond birjalariga olib chiqish uchun asos vazifasini bajaradi, deya olamiz.

Ko'plab mamlakatlarda aksiyadorlarga dividend to'lashning tartibi, shakllari va o'ziga xos jihatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda mazkur jarayonni tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan amalga oshiriladi va unga asosan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

Dividend jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir. Oddiy aksiyalar egalari dividendlar olish huquqiga ega ega hisoblanadi. Imtiyozli aksiyalar egalari esa dividendlarni, shuningdek jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqiga ega. Imtiyozli aksiyalar o'z egalariga jamiyat foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'i nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

Aksiyadorlik jamiyati tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdori va (yoki) qiymat (tugatilish qiymati) jamiyat ustavida belgilab qo'yilishi lozim. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati qat'i pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Agar imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori va tugatilish qiymatini belgilash tartibi jamiyat ustavida ko'rsatilgan bo'lsa ham imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendning miqdori va tugatilish qiymati belgilangan deb hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati ustavida imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan yoki to'liq to'lanmagan, miqdori ustavda aniqlangan dividendning jamg'arib borilishi va keyinchalik to'lanishi belgilab qo'yilishi mumkin.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umu-

miy yig'ilishida jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbati bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

Agar jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarni oddiy aksiyalarga ayirboshlash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyat ustavi imtiyozli aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqini nazarda tutishi mumkin. Bunda ushbu imtiyozli aksiyaning egasi o'ziga tegishli imtiyozli aksiya ayirboshlanishi mumkin bo'lgan oddiy aksiyalar bo'yicha ovozlardan sonidan oshib ketmaydigan miqdordagi ovozlarga ega bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali ko'paytirilayotganda jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylash-tirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

Aksiyadorning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi, dividendlar olishi va jamiyat tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi jamiyat aksiyadorlarining reyestri asosida amalga oshiriladi.

Aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra yoki moliyaviy yil natijalariga ko'ra, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek jamiyat ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Dividendlarni to'lash muddati va tartibi jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmazligi lozim.

Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'i belgilangan dividendlarni to'lash uchun etarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarning

egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat etarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyat tomonidan jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra jamiyat ixtiyorida qoladi.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart.

Jamiyat aksiyadorlarining reyestridan olingan, jamiyat tomonidan tasdiqlangan ko'chirma hamda jamiyat buxgalteriyasining hisoblangan dividendlar summasi va ular hisoblangan sana to'g'risidagi ma'lumot-nomasi ayirboshlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

Dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda jamiyatning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. To'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to'lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Aksiyador jamiyat tomonidan hisoblangan dividendlar va penyalar to'lanishini sud tartibida talab qilishga haqli. Aksiyadorning talablari sud tomonidan qanoatlantirilganda dividendlar jamiyat tomonidan to'lanmagan taqdirda, jamiyatga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etish yoki bankrot deb e'lon qilish tartib-taomili qo'llaniladi.

Quyidagi holatlarda aksiyadorlik jamiyatlari dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga va to'lashga mumkin emas:

- ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

- agar dividendlar to‘lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;

- agar sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo‘lsa.

Bunda ko‘rsatilgan holatlar tugatilgach, jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to‘lashi shart.

Aksiyadorlik jamiyatlari dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e‘lon qiladi. Bunda emitent to‘lanadigan dividendlar miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e‘lon qiladi.

Dividendlarga soliq solish soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi va bunda soliq solish bo‘yicha imtiyozlar belgilanishi mumkin.

Jahon xo‘jaligi amaliyotida dividendlarning turli xil tiplari ma‘lum. Ular quyidagilar:

- davriylik va doimiylik asosida to‘lanadigan *muntazam dividendlar*;
- ma‘lum bir davrda yuqori foyda olingan holatlarda to‘lanadigan *qo‘shimcha dividendlar*;
- qo‘shimcha ravishda bir marta to‘lanadigan *maxsus dividendlar*;
- korxonani yoki uning alohida bir qismini tugatish holatlari yuzaga kelganda to‘lanadigan *likvidatsion dividendlar*.

Kompaniya o‘zi uchun qulay bo‘lgan davrda aksiyadorlarga yo‘naltirilgan pul oqimini ko‘paytirishning usullaridan biri har chorak yoki yarim yilda to‘lanadigan muntazam dividendlardan tashqari qo‘shimcha dividendlarni e‘lon qilishdan iboratdir. Qo‘shimcha dividendlar to‘lanishini e‘lon qilar ekan, kompaniya sarmoyadorlarni bu hol muntazam to‘lovlar hajmining oshishini bildirmasligi to‘g‘risida ogohlantiradi. Bu usul ayniqsa daromadi tebranib turuvchi kompaniyalarga juda qo‘l keladi. Qo‘shimcha dividendlardan foydalanish kompaniyaga muntazam dividendlarning barqarorligini saqlab turish imkonini beradi va bundan tashqari aksiyadorlarga firma ishi yurishayotganligini sezish uchun sharoit yaratadi. Biroq, agar kompaniya doimiy ravishda qo‘shimcha dividendlarni to‘layversa, ularning ma‘nosini yo‘qqa chiqaradi. Bunda qo‘shimcha dividendlar kutilayotgan to‘lovlarga aylanadi. Agar qo‘shimcha (maxsus) dividendlardan to‘g‘ri

foydalana bilsa, ular firmaning hozirgi va kelgusi ahvoli haqida ijobiy axborotni bozorga uzatishga qodirdir.

15.2. Aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatining amaldagi holati tahlili

Amaldagi tartibga ko‘ra, AJlari moliya yilining birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Shundan kelib chiqqan holda “Xorazm shakar” qo‘shma korxonasi AJ misolida dividend tahlilini ko‘rib chiqamiz (15.2-jadval).

15.2-jadval


“Xorazm shakar” qo‘shma korxonasi AJ tomonidan e‘lon qilingan dividendlar haqida ma‘lumot

№	Oddiy aksiya bo‘yicha		Aksiyalar umumiy soni	Dividend to‘lash to‘g‘risidagi qaror qaysi davr yakuniga ko‘ra	Dividend to‘lash tugallanishi	Umumiy dividend miqdori
	So‘mda	Aksiya daromadligi, foizda				
1	13521,40	135,2	1420000	moliya yili	21.02.2014	19200388000
2	9498,7	94,98	1420000	1-chorak	23.06.2014	13488154000
3	3 184,96	63,69	2840000	moliya yili	25.04.2015	9045286400
4	5056,18	101,12	2840000	yarim yillik	20.09.2015	14359551200
5	3065,22	61,3	2840000	9 oylik	21.12.2015	8705224800

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Xorazm shakar” qo‘shma korxonasi AJi tomonidan 2014 moliya yilida 1,42 mln dona oddiy aksiya bo‘yicha ikki marta va 2015 moliya yilida esa 2,84 mln dona oddiy aksiya bo‘yicha 3 marta dividend to‘lovlari amalga oshirilgan. AJi imtiyozli aksiyalar muomalaga chiqarmagan. Bunda aksiyalar soni o‘zgarishi amaldagi qonunchilik asosida aksiyalar nominal bahosi bo‘yicha belgilab qo‘yilgan maksimal qiymatdan kelib chiqqan holda aksiyalarni maydalash hisobiga yuz bergan va va bugungi kunda AJi aksiyasi nominal bahosi 5000 so‘mni tashkil etadi. Jadvalda keltirilgan aksiya daromadligi ko‘rsatkichi e‘lon qilingan dividend miqdorining aksiya nominaliga nisbatan foizda

aniqlangan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich qo‘shma korxonada dividend miqdori ancha yuqoriligini ko‘rsatib turibdi.


Rivojlangan mamlakatlarda dividendlarni to‘lash aniq sanalar bo‘yicha quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi (15.2-rasm):



15.2-rasm. Xalqaro amaliyotda dividend to‘lash jarayoni sxemasi

Bunda dividendlarni e‘lon qilish vaqti aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori asosida direktorlar kengashi tomonidan dividend summasi va to‘lash muddatlari belgilanish vaqtini o‘zida aks ettiradi. Eks-dividend yoki reestr yopilish sanasi qaysi sanadagi reestr bo‘yicha dividend to‘lanishini anglatadi va bu sanada odatda, aksiyalar kursi e‘lon qilingan dividend miqdoriga kamayadi. Registratsiyadan o‘tish sanasiga qadar aksiyadorlar ro‘yxatdan o‘tishi lozim bo‘ladi va dividendlarni to‘lash sanasida esa registratsiyadan o‘tgan aksiyadorlarga dividend cheklari yuboriladi.

Milliy amaliyotda esa dividend to‘lash jarayoni quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etiladi (15.3-rasm).



15.3-rasm. “Xorazm shakar” qo‘shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati misolida dividend to‘lash jarayoni bosqichlari

Bunda reestr aksiyadorlar umumiy yig‘ilishidan uch ish kuni oldin tuziladi va aynan shu reestrga kiritilgan aksiyadorlarga dividend to‘lanishi milliy qonunchilikda belgilab qo‘yilgan. Dividend to‘lash to‘g‘risidagi umumiy yig‘ilish qarori qabul qilinishi dividend e‘lon qilinganligini anglatadi va qarorda dividend to‘lashning boshlanish va tugallanish sanalarini belgilash shart. Fikrimizcha, dividend to‘lash jarayonini ketma-ketligini xalqaro tajaribaga uyg‘unlashtirish lozim.

“O`ztemiryo`l konteyner” AJ tomonidan e`lon qilingan 32-muhim fakt⁹⁴

EMITENT NOMI	
1.	To`liq: «O`ztemiryo`l konteyner» aksiyadorlik jamiyati
	Qisqartirilgan: «O`ztemiryo`l konteyner» AJ
	Birja tikerining nomi: * <u>UTYK</u>
ALOQA MA'LUMOTLARI	
2.	Joylashgan yeri: 100060, Toshkent.sh, T.Shevchenko ko`chasi,7
	Pochta manzili: 100060, Toshkent.sh, T.Shevchenko ko`chasi,7
	Elektron pochta manzili * info@utk.uz
	Rasmiy veb-sayti: * www.utk.uz
MUHIM FAKT TO`G`RISIDA AXBOROT	
	Muhim faktning raqami: 32
	Muhim faktning nomi: Qimmatli qog`ozlar bo`yicha daromadlarni hisoblash
	Emitentning qaror qabul qilgan organi: Aksiyadorlarning yillik umumiy yig`ilishi
	Qaror qabul qilingan sana: 29.09.2020
	Emitent organi majlisi (yig`ilishi) bayonnomasi tuzilgan sana: 08.10.2020
3.	Oddiy aksiyalar bo`yicha dividendlarni hisoblash * <u>3 000,00</u>
	bir dona aksiyaga so`mda: 3 000,00
	bir dona aksiyaning nominal qiymatiga (%da): 300
	Imtiyozli aksiyalar bo`yicha dividendlarni hisoblash * <u>0</u>
	bir dona aksiyaga so`mda: 0
	bir dona aksiyaning nominal qiymatiga (%da): 0
	Boshqa qimmatli qog`ozlar bo`yicha daromadlarni hisoblash * <u>0</u>
	bir dona qimmatli qog`ozga (so`mda): 0
	bir dona qimmatli qog`ozning nominal qiymatiga (%da): 0

⁹⁴ <http://openinfo.uz/ru/facts/39546/>

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni to'lashni boshlash va tugash sanasi	Boshlash sanasi	Tugash sanasi
oddiy aksiyalar bo'yicha:	08.10.2020	07.12.2020
imtiyozli aksiyalar bo'yicha:	-	-
boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha:	-	-
Qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan daromadni to'lash shakli (pul mablag'lari va boshqa mol-mulk):	Pul mablag'lari	

AJlari to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va muvofiqlashtirish markazi va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda 32-muhim fakt sifatida e'lon qilib boradi.

Mamlakatimizda dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga nisbatan to'lov manbaida undiriladigan 5 foizlik soliq stavkasi amal qilib kelmoqda. AJlari aksiyalari nominal bahosi tahlil qilinganda ayrimlarida bir so'mlik, shuningdek Universal sug'urta aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan bir tiyinlik aksiya muomalaga chiqarilganligini ko'rishimiz mumkin. AJlariga xorijiy investorlarni jalb qilish masalasi qo'yilgan vaqtda aksiya nominal bahosining bunday pastligi taklif jarayonida ma'lum bir muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki bir so'mlik yoki bir tiyinlik aksiyani xorijiy investorlarga erkin almashtiriladigan valyutada taklif qilish o'ziga xos qiyinchilik tug'diradi. Keyin keltirilayotgan nominal bahodagi aksiya bo'yicha dividend miqdori haqida so'z yuritish yana bir o'ziga xos jihat. Aynan shundan kelib chiqqan holda aksiya nominal bahosi bo'yicha minimal miqdorni ham belgilash lozim.

Ma'lumki, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi asosida taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning AJ dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishi, shuningdek, zarurat tug'ilganda sof foydaning muayyan qismini AJni rivojlantirish ehtiyojlariga yo'naltirishning tushuntirilishi va iqtisodiy asoslanishini e'lon qiladi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatida dividendlarni hisoblashning shaffof mexanizmini ochib beruvchi dividend siyosati to'g'risidagi nizom ishlab chiqiladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi (15.4-jadval).

**O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi aksiyadorlik jamiyatida
2019 yilning sof foydasini taqsimlash bo'yicha taklif⁹⁵**

№	Foydaning taqsimlanishining yo'nalishi	2019 yil uchun	2018 yil uchun
		%	%
1	Dividendlar to'lanishi	65,6165%	52,2286%
	<i>Shu jumladan davlat ulushi bo'yicha</i>		
	Aksiyalar miqdori		
	1 aksiya uchun dividend		
2	Zahira fondini shakllantirish	5,0000%	0%
3	12% lik ijtimoiy to'lovlarni hisobga olgan holda moliyaviy natijalarni shakllantirishda ishtirokchilarni va boshqaruv organlarining mukofoti	4,0935%	4,0000%
4	Rivojlanish va innovatsiya fondiga ajratilgan mablag'	4,0000%	6,2014%
5	Taqsimlanmagan mablag'ni keyingi kapitallashtirish uchun qoldirish	21,3000%	37,5700%
	Jami	100,00%	100,00%

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyulda-gi 176-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan "Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga asosan aksiyadorlik jamiyatlarida oxirgi uch yilda hisoblangan va to'langan dividendlar, shu jumladan qarzdorlik miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar, aksiyadorlar tomonidan dividendlarni olish uchun bog'lanish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar korporativ veb-saytda joylashtirilishi shart. Bu bora-da O'zbekiston respublika Tovar-xomashyo birjasi amaliyoti e'tiborga molik (15.5-jadval).

⁹⁵ <http://www.uzex.uz/uz/pages/public-data-on-accrued-dividends>

**O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi aksiyadorlik jamiyati
dividend to‘lovlari tahlili⁹⁶**

To‘lov yili	Dividend to‘langan davr	Oddiy bir aksiya uchun dividend (so‘m)	Dividend to‘lash uchun yo‘naltirilgan sof foyda %	Dividend to‘lash uchun yo‘naltirilgan sof foyda, so‘m	Muomala-dagi aksiyalar soni	Dividend-lar taqsimlangan AUYNING sanasi
2020	2019	2490,0	76,135%	62 215 488 600	24 986 140	22.05.2020
2019	2018	550,0	52,23%	13 742 377 000	24 986 140	24.05.2019
2018	2017	230,0	65,07%	5 746 812 200	24 986 140	25.05.2018
2017	2016	200,0	61,99%	4 997 228 000	24 986 140	26.05.2017
2016	2015	160,00	60,61 %	3 997 782 400	24 986 140	27.05.2016
2015	2014	190,00	51,68%	4 747 366 600	24 986 140	15.05.2015
2014	2013	180,00	52,01%	4 497 505 200	24 986 140	20.06.2014
2013	2012	160,01	51,20%	3 998 212 100	24 986 140	21.06.2013
2012	2011	99,51	52,00%	2 486 322 000	24 986 140	22.06.2012
2011	2010	50,70	51,00%	1 266 818 070	24 986 140	10.06.2011
2010	2009	31,61	70,00%	789 701 900	24 986 140	11.06.2010
2009	2008	43,81	90,00%	1 094 742 700	24 986 140	12.06.2009

O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi aksiyadorlik jamiyati dividend to‘lash siyosati birja va uning aksiyadorlari o‘rtasidagi manfaat-larning o‘zaro mutanosibligi, kompaniya investision jozibadorligini va kapitallashuvini oshirish oshirish, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Birjaning Ustavi va uning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan aksiyadorlarning huquqlarini hurmat qilish va ularga rioya qilishga asoslanganligi yuqoridakeltirilgan dividend tahlilidan ayon bo‘lmoqda.

O‘z navbatida “Mikrokreditbank” ATBdagi dividend siyosati tahlili quyidagicha (15.6-jadval).

“Mikrokreditbank” ATB tomonidan 2014-2019 yillar yakunlari bo‘yicha bank aksiyalariga hisoblangan va to‘langan dividendlar tahlili esa investitsion jozibadorlik masalasi kun tartibida mavjud emasligidan dalolat beradi.

O‘rganishlar, o‘tkazilgan tahlillar va tadqiqotlarimiz natijasi sifati quyidagi xulosalar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

⁹⁶ <http://www.uzex.uz/uz/pages/public-data-on-accrued-dividends>

**“Mikrokreditbank” ATB tomonidan 2014-2019 yillar yakunlari bo‘yicha
bank aksiyalariga hisoblangan va to‘langan dividendlar to‘g‘risida
ma‘lumot⁹⁷**

№	Yillar yakuni bo‘yicha	Hisoblangan (oddiy va imtiyozli)	To‘langan (oddiy va imtiyozli)
1	2013 yil yakuni	Oddiy aksiyalarga hisoblanmagan	0
		Imtiyozli aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida	Bir dona imtiyozli aksiyaga 213,60 so‘m
2	2014 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
3	2015 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
4	2016 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
5	2017 yil yakuni	Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividendlar hisoblanmagan	0
6	2018 yil yakuni	Oddiy aksiyalarga hisoblanmagan	0
		Imtiyozli aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida	Bir dona imtiyozli aksiyaga 213,60 so‘m
7	2019 yil yakuni	Oddiy aksiyalarga hisoblanmagan	0
		Imtiyozli aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida	Bir dona imtiyozli aksiyaga 213,60 so‘m

Birinchiidan, AJlarining samarali dividend siyosati qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish, aholi daromadlarini oshirish va o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, qo‘shib olishlardan himoyalanih, IPO o‘tkazish orqali aksiyalarni xalqaro fond birjalarida joylashtirish natijasida xorijiy kapital jalb qilishga xizmat qiladi.

⁹⁷ <https://mikrokreditbank.uz/about/stock-holders/divid/divident.html>

Ikkinchidan, AJlari faoliyatiga xorijiy investorlarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda aksiyalar nominal bahosi bo'yicha minimal miqdorni qonunchilikda belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Chunki aksiya nominal bahosi qanchalik past bo'lsa, o'z navbatida dividend miqdori ham past bo'ladi. Natijada aksiyani erkin almashtiriladigan valyutada xorijiy investorga taklif etish jarayonida ma'lum bir murakkablik yuzaga kelishi mumkin.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Dividend siyosatining mazmun-mohiyati, tashkiliy xususiyatlariga izoh bering.
2. Foizli daromadlar va dividendlarning o'xshash va farqli jihatlarini keltiring.
3. Oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend to'lash tartibidagi o'zaro farqli va umumiy jihatlar haqida fikringizni bayon eting.
4. Dividend turlarining o'zaro farqli xususiyatlarini ko'rsating.
5. Dividend to'lash bosqichlarini ketma-ketlik asosida izoh bering.
6. Dividend to'lash amaliyotida xususiy aksiyalarni sotib olish amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaling.
7. O'z vaqtida to'lanmagan dividendlar bo'yicha aksiyador tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatlar.
8. Foydani taqsimlash mexanizmida dividend hisoblash tartibi.
9. Foydani taqsimlash mexanizmida turli fondlarga ajratmalar bo'yicha talablar.
10. Dividendlarni soliqqa tortish tartibi.
11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan dividend to'lanishi haqida qaror qabul qilish mumkin bo'lmagan holatlar.

Testlar

1. **Aksiyador va aksiyadorlik kompaniyasi o'rtasidagi nizolarga sabab bo'luvchi eng asosiy holat qaysi javobda berilgan?**
 - a) foydani taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar;
 - b) aksiyani qaytarib olib qo'yish bilan bog'liq holatlar;
 - c) qo'shib olish bilan bog'liq munosabatlar;
 - d) aksiya kursining o'zgarishi bilan bog'liq holatlar.

2. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy natija shakllanishi tartibi qaysi qonunchilik hujjatida berilgan?

- a) “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;
- b) Soliq kodeksi;
- c) “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi Nizom;
- d) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun.

3. Aksiyadorlik jamiyatlarida zaxira fondi qacha miqdorda tashkil etiladi?

- a) ustavida nazarda tutilgan, ammo ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda;
- b) ustav kapitalining 25 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda;
- c) balans qiymatining 25 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda;
- d) sof aktivlarning 15 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda.

4. Aksiyadorlik jamiyatlarida hisobot davri bo‘yicha foydani taqsimlash bo‘yicha qaysi boshqaruv organi tomonidan ishlab chiqiladi?

- a) kuzatuv kengashi;
- b) minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi;
- c) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- d) ijroiya organi.

3. Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar qanday holatlarda to‘lanishi mumkin?

- a) faqatgina barcha xarajatlar qoplangandan so‘ng, muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar va olingan kreditlar bo‘yicha foizlar, soliqlar va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘langandan so‘ng to‘lanadi;
- b) imtiyozli aksiyalar bilan bir vaqtda to‘lanadi;
- c) davlat tomonidan ruxsat berilgan holatlarda to‘lanadi;
- d) muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar va olingan kreditlar bo‘yicha foizlar bo‘yicha majburiyatlar qoplangandan so‘ng to‘lanadi.

4. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to‘lash bo‘yicha vaqt oraliqlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- a) yilning har choragida, har yarim yilda yoki yiliga bir marta;
- b) har yarim yilda, yiliga bir marta yoki har besh yilda bir marta;
- c) har chorakda, yiliga to'rt marta yoki har ikki yilda bir marta;
- d) aksiyadorlik jamiyati tomonidan istalgan vaqt oralig'i olinishi mumkin.

5. Dividend to'lash to'g'risida qaror qabul qilish tartibini bilasizmi?

- a) kuzatuv kengashi tavsiyasiga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilinadi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan mustaqil qaror qabul qilinadi va dividend miqdori belgilanadi;
- c) kuzatuv kengashi tomonidan dividend miqdori belgilanadi va ijro etuvchi organ bu haqda qaror qabul qiladi;
- d) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyrug'i asosida dividend to'lanadi.

6. Ustav kapitali to'liq shakllanmagan bo'lsa, dividendlar to'lanadigan paytda to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) belgilari bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida shunday belgilar paydo bo'lsa, sof aktivlarining qiymati uning ustav va zaxira fondlari summasidan kam bo'lsa aksiyadorlik jamiyat qanday qaror qabul qilishi mumkin emas?

- a) dividend to'lash to'g'risida;
- b) qarz mablag'i jalb qilish to'g'risida;
- c) mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish to'g'risida;
- d) asosiy vosita sotib olish to'g'risida.

7. Dividendlar necha foizlik stavkada soliqqa tortiladi?

- a) dividend summasiga nisbatan 5 foiz;
- b) dividend summasiga nisbatan 10 foiz;
- c) dividend summasiga nisbatan 4 foiz;
- d) O'zbekistonda olinadigan barcha dividendlar soliqqa tortilmaydi.

8. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori qanday aniqlanadi?

- a) ustavda qat'i pul summasida yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilab qo'yiladi;
- b) foydadan kelib chiqqan holda umumiy yig'ilish tomonidan belgilanadi;

c) qat'i tartibda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan belgilanadi;

d) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida aksiya nominal qiymatiga nisbatan 5 foiz qilib belgilangan.

9. Amaliyotda keng tarqalgan dividend to'lash shakli to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) pul shaklidagi dividendlar;
- b) avtomatik reinvestitsiyalash;
- c) aksiyalar orqali to'lash;
- d) xususiy aksiyalarni sotib olish.

10. Dividend siyosatida EPS ko'rsatkichi o'zida nimani ifodalaydi?

- a) bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda miqdorini;
- b) dividend to'lash uchun mo'ljallangan umumiy summani;
- c) imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'i belgilab qo'yilgan dividend miqdorini;
- d) reinvestitsiyalash miqdorini.

11. Oqilona dividend siyosati orqali erishish mumkin bo'lgan natijalar qaysi javobda berilgan?


- a) IPO orqali kapital jalb qilish uchun asos, qo'shib olinishidan himoya, aholining aksiyalar orqali daromadlarini oshirish;
- b) aksiyadorlik jamiyati moliyaviy mustaqilligi, kreditga talabning ortishi;
- c) yangi loyihalar uchun asos, xarajatlarni optimallashtirish imkoni, manfaatlar kuchayishi;
- d) xorijiy kapitalga talabning pasayishi, korporativ obligatsiyalar daromadliligining ortishi.

12. Belgilangan vaqtda olinmagan dividendlarni aksiyador qancha muddat davomida talab qilib olishi mumkin?

- a) uch yil ichida;
- b) uch oy ichida;
- c) olti yil ichida;
- d) olti oy ichida.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Korporativ boshqaruvda dividend siyosati bo‘yicha klaster shakllantiring.



2. Dividend to‘lanishi bosqichlari bo‘yicha sxemani aniq aksiyadorlik jamiyati misolida shakllantiring ketma-ketlik asosida shakllantiring.

№	Bosqichlar nomlanishi	Mas’ullar
1.		
2.		
...		

3. Dividendlarning muntazam to‘lab borilishi va foydaning muntazam reinvestitsiyalanishining oqibatlari bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Dividendlarning muntazam to‘lanishi	Foydaning muntazam reinvestitsiyalanishi
1.	1.
2.	2.
...	...

XVI bob. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI BAHOLASH

16.1. Korporativ boshqaruv tizimini baholashning tashkiliy jihatlari

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash orqali kuzatuv kengashi, ijroiya organi faoliyat samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu o'z navbatida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini baholash turli mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bunda korporativ boshqaruv tizimini baholash Korporativ boshqaruv kodeksi asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda Kodeks tavsiyalarini joriy etish monitoringini amalga oshirish uchun aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash o'tkaziladi. Baholashni amalga oshirish uchun mustaqil tashkilotni jalb qilish tavsiya etiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash yiliga kamida bir marta o'tkaziladi. Bunda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash aksiyadorlik jamiyatiga mulkiy munosabat orqali bog'liq bo'lmagan tashkilot bilan tegishli shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash quyidagi tashkilotlar tomonidan o'tkazilishi mumkin:

- fond birjasi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari;
- shtatida tegishli korporativ boshqaruvchi yoki qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi attestati bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
- akkreditatsiyadan o'tgan reyting agentliklari;
- Biznes va tadbirkorlik oily maktabi (Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi);
- Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази.

Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining qarori bo'yicha tanlov asosida o'tkaziladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tomonidan tasdiqlanadigan savolnoma asosida o'tkaziladi. O'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil

baholash natijalari aksiyadorlik jamiyati saytida shunday baholashni o'tkazgan tashkilot xulosasi bilan birgalikda e'lon qilinadi.

Davlat nomidan aksiyador sifatida ishtirok etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi mahalliy davlat hokimliklari va boshqa davlat tashkilotlari aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholashni o'tkazish uchun o'z mablag'i hisobidan mustaqil tashkilotni jalb qilish huquqiga ega. Aksiyadorlik jamiyatida o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organida ular nomidan ishtirok etayotgan shaxslarni mukofotlash miqdorini aniqlash uchun qo'llaydi.

Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi O'zR Davlat raqobat qo'mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tomonidan 2016-yil 25-iyulda tasdiqlangan va 9 ta baholash yo'nalishiga jamlangan yuzta savoldan tarkib topgan savolnoma asosida baholanib kelinmoqda. Bunda baholash yo'nalishlari quyidagilar:

16.1-jadval

Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun savolnoma yo'nalishlari bo'yicha qo'yiladigan ballar chegarasi

№	Yo'nalish	Savollar soni	Ballar	
			mini-mum	maksi-mum
1	Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini baholash	13	-135	135
2	Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishini baholash	37	-360	360
3	Aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tuzilmasining muvofiqligini baholash	3	-30	30
4	Lavozimlarga tanlovni baholash	5	-45	45
5	Hisobotlarning MHXS va XASga o'tishini baholash	3	-50	50
6	Boshqaruvning zamonaviy tizimlari joriy etilishi baholash (ISO, ERP, ITTKI va boshq.)	5	-55	55
7	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320
8	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150
9	Boshqa yo'nalishlarni baholash	25	-205	55
JAMI		100	-1200	1200

1. Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini baholash.
2. Kodeks tavsiyalariga amal qilinishini baholash.
3. AJ tashkiliy tuzilmasi muvofiqligini baholash.
4. Tanlov o'tkazilishini baholash.
5. MHXS va XASga muvofiq e'lon qilishga o'tishni baholash.
6. Zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishini baholash (ISO, ERP, ITTKI va b.).
7. Axborot siyosatini baholash.
8. Moliyaviy natijalarni baholash.
9. AJ faoliyatining boshqa yo'nalishlarini baholash.

Korporativ boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash yo'nalishlari bo'yicha savollar soni qo'yiladigan ballar quyidagi jadvalda keltirilgan (16.1- yuqoridagi jadvalda).

Har bir yo'nalish bo'yicha qo'yilgan masalalarni quyida ko'rib chiqamiz.

Birinchi yo'nalish hisoblangan korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini baholash bo'yicha savollar 13 ta bo'lib, ular bo'yicha maksimal ball 135 ballni, minimal ball esa -135 ballni tashkil etadi. Bunda Ichki hujjatlarning to'liq ishlab chiqilganligi va joriy etilganligi uchun (25; -25), shuningdek AJ ichki hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash miqdorining korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari bilan bog'liqligi belgilanganligi uchun (50; -50) natijaga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yuqori ballar belgilangan (16.2-jadval).

16.2-jadval

Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini baholash bo'yicha savollar hamda ular bo'yicha umumiy ballning taqsimlanishi

№	I. Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini baholash bo'yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1.	AJda korporativ boshqaruv kodeksini joriy etish bo'yicha ishchi guhuh tashkil etilganmi?	5	-5
2.	Quyidagi hujjatlar ishlab chiqilganmi? "Axborot siyosati to'g'risida"gi nizom, "Ichki nazorat to'g'risida"gi nizom, "Dividend siyosati to'g'risida"gi nizom, Manfaatlar to'qnashuvi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizom, AJ ustaviga kiri-	25	-25

	tiladigan o'zgarishlar loyihasi yoki yangi tahrirdagi ustav, "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomga o'zgartirishlar loyihasi yoki yangi tahrirdagi nizom, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga o'zgartirishlar loyihasi, "Taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risida"gi nizomga o'zgartirishlar loyihasi (zarur holatlarda), "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomga o'zgartirishlar loyihasi, "Boshqaruv va nazorat organlarini mukofotlash to'g'risida"gi nizom (mavjud holatda)ga o'zgartirishlar loyihasi		
3.	AJ ustavi qonunchilikka va korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiq keladimi?	10	-10
4.	"Axborot siyosati to'g'risida"gi nizom korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini o'z ichiga olganmi?	5	-5
5.	"Ichki nazorat to'g'risida"gi nizom korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini o'z ichiga olganmi?	5	-5
6.	"Dividend siyosati to'g'risida"gi nizom korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini o'z ichiga olganmi?	5	-5
7.	"Manfaatlar to'qnashuvi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizom korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini o'z ichiga olganmi?	5	-5
8.	"AJ aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom qonunchilikka va korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiq keladimi?	5	-5
9.	"AJ kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom qonunchilikka va korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiq keladimi?	5	-5
10.	"AJ ijroiya organi to'g'risida"gi nizom qonunchilikka va korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga muvofiq keladimi?	5	-5
11.	"Taftish komissiyasi to'g'risida"gi nizom qonunchilikka muvofiq keladimi?	5	-5
12.	AJ ichki hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash miqdorining korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari bilan bog'liqligi belgilanganmi?	50	-50
13.	Kodeks tavsiyalariga rioya qilish to'g'risidagi xabar shakli aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanganmi?	5	-5
JAMI		135	-135

Korporativ boshqaruv tizimini baholashda ikkinchi yo‘nalish hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishini baholash bo‘yicha savollar jami 37 tani tashkil etadi. Ular bo‘yicha maksimal va minimal ball miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan (16.3-jadval).

16.3-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishini baholash bo‘yicha savollar hamda ular bo‘yicha umumiy ballning taqsimlanishi

№	Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishini baholash savollari	Maksimal ball	Minimal ball
1	AJ korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini o‘z faoliyatida qabul qilish to‘g‘risida axborot e‘lon qilinganmi?	10	-10
2	«Comply or explain» («rioya qil va tushuntir») prinsipi bo‘yicha axborot e‘lon qilinganmi?	50	-50
3	Axborotlarni maxfiy axborotlar va tijorat siriga kiritishning aniq mezonlari belgilanganmi?	10	-10
4	AJ saytida yoki boshqa manbalarda oshkor qilinishi majburiy bo‘lgan axborotlarning qonunchilikda belgilangan davlat tilida hamda rus va ingliz tillaridagi tarjimalari e‘lon qilinishi ta‘minlanganmi?	50	-50
5	Ijroiya organini mukofotlash va kompensatsiyalar miqdori to‘g‘risidagi axborot (bayonnoma, AUY yoki kuzatuv kengashi qarori va boshq.) e‘lon qilish ta‘minlanganmi?	5	-5
6	AJ saytida AJ aksiyadorlik kapitali tuzilmasi (20 foizdan ortiq ulushga ega aksiyadorlar) to‘g‘risidagi ma‘lumot e‘lon qilinganmi?	5	-5
7	Sof foydaning (yaqin yil uchun) taklif etilayotgan taqsimlanishi asosnomasi AJ saytida e‘lon qilinishi ta‘minlanganmi?	10	-10
8	AUY qarori bilan belgilangan miqdorda homiylik yoki tekinga yordam ko‘rsatish tartibi va bu borada qaror qabul qilish huquqi kuzatuv kengashiga berilganmi?	5	-5
9	AJ joriy xo‘jalik faoliyatiga doir bitimlarni belgilash masalalari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqilishi ta‘minlanganmi?	5	-5

10	AJ ichki audit xizmatiga ustav kapitalining 50 foizdan ortig'i AJga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan ichki nazoratni amalga oshirish bo'yicha vakolat berilganmi?	5	-5
11	Boshqa korxonalar boshqaruv organlarida AJ vakillarining ovoz berish tartibi belgilanganmi?	10	-10
12	AJ aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxslarga to'ldirilgan byulletenlardan o'z hisobidan nusxa olish imkoniyati taqdim etilganmi?	5	-5
13	Jamiyat ichki hujjatlarida AJ ichki nazorat organlari a'zolari tarkibi va malakasiga nisbatan talablar mavjudmi?	10	-10
14	Kuzatuv kengashi a'zolarining nechtasi mustaqil a'zolar hisoblanadi?	20	-20
15	AJ saytida aksiyadorlarning xat yoki elektron so'rov yuborish (qayta aloqa) imkoniyati mavjudmi?	5	-5
16	Aksiyadorlarga elektron pochta orqali ovoz berish (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek AUYni videokonferentsaloqa rejimida o'tkazish imkoniyati yaratilganmi?	10	-10
17	"AUY to'g'risida"gi nizomda aksiyadorlarga AUY o'tkazilgunga qadar kun tartibi bo'yicha zaruriy axborotlarni, shu jumladan kun tartibiga nisbatan kuzatuv kengashi pozitsiyasi to'g'risida axborotlarni taqdim etish nazarda tutilganmi?	5	-5
18	Aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro aloqaga javobgar bo'linma tashkil etilganmi yoki alohida xodim belgilanganmi?	5	-5
19	AJ ustavida 1%dan kam bo'lmagan oddiy aksiyalar egalariga kuzatuv kengashi yig'ilishini chaqirishni talab qilish huquqi taqdim etilganmi?	5	-5
20	AJ ichki hujjatlarida aksiyadorlarga ovoz berish jarayonida birgalikdagi pozitsiyani shakllantirish uchun aksiyadorlik kelishuvini tuzish bo'yicha imkoniyat nazarda tutilganmi?	5	-5
21	AJ ustavida minoritar aksiyador asoslanmagan tarzda hujjatlarni talab qilish maxfiy axborotlar, tijorat siridan foydalanish yo'li bilan AJ boshqaruv organlari faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozimligi nazarda tutilganmi?	5	-5

22	Qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishida aksiyadorlarga ustav kapitalidagi ulushiga mos ravishda imtiyozli sotib olish huquqi taqdim etilishi ustavda nazarda tutilganmi?	5	-5
23	Yillik AUY kun tartibiga takliflar kiritish uchun ustavda qancha muddat nazarda tutilgan?	10	-10
24	Yillik AUYda ijroiya organi rahbari, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi raislari, shuningdek auditorlik tashkiloti vakili shaxsan ishtirok etishi amalga oshirilganmi (kuzatilganmi)?	10	-10
25	"Kuzatuv kengashi to‘g‘risida"gi nizomda kuzatuv kengashi a‘zosi vazifasidan ozod qilinganda AJ kuzatuv kengashi raisining yig‘ilish tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq faoliyat tartibi va funksiyalari keltirilganmi?	5	-5
26	AJda o‘rta muddali (5 yilgacha) va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi tasdiqlanganmi?	5	-5
27	AJda boshqaruv metodlari, jumladan SWOT, GAP tahlil va boshqa yondashuvlar, maxsus dasturiy mahsulotlar va boshqalar qo‘llanilyaptimi?	10	-10
28	"Kuzatuv kengashi to‘g‘risida"gi nizomda kuzatuv kengashi a‘zolariga nomzodlarga nisbatan malaka talablari belgilanganmi?	10	-10
29	Kuzatuv kengashi qoshida AJ qo‘mitalari (ishchi guruhlar) tuzilganmi ?	10	-10
30	So‘rovnoma o‘tkazish yo‘li bilan, yoki videokonferentsaloqa rejimida kuzatuv kengashi majlislarini o‘tkazish tartibi belgilanganmi?	5	-5
31	AUY raisiga AUY audio va videoyozuvini amalga oshirish va Internet tarmog‘ida translyatsiya qilish huquqi berilganmi?	5	-5
32	AJ ijroiya organi rahbari yoki a‘zolarining malakasini oshirish qachon amalga oshirilgan?	10	-10
33	AUYda AJ boshqaruv va nazorat organlari hisobotlari mazmuni va shakliga talablar belgilanganmi?	10	-10
34	Ijroiya organi a‘zolarini saylash masalasi bo‘yicha ovoz berishda aksiyadorlar vakillari sifatida ishtirok etuvchi ijroiya organi a‘zolari huquqlari chegaralanganmi?	5	-5
35	AJ tomonidan odatda navbatdagi AUY qaysi sanada o‘tkazilishi ustavda nazarda tutilganmi?	5	-5

36	AJda kuzatuv kengashi qoshidagi qo‘mitalar faoliyatini tartibga soluvchi hujjat tasdiqlanganmi?	5	-5
37	AJda korporativ maslahatchi lavozimi mavjudmi?	5	-5
JAMI		360	-360

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlarining namunaviy tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan edi. Barcha aksiyadorlik jamiyatlari o‘z tashkiliy tuzilmalarini tasdiqlangan namunaviy tuzilmaga muvofiqlashtirishi lozim edi.

Shundan kelib chiqqan holda korporativ boshqaruv tizimini baholashda uchinchi yo‘nalish sifatida hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tuzilmasining namunaviy tuzilmaga muvofiqligini baholash belgilangan. Bunda tegishli savollar quyidagi jadvalda keltirilgan bo‘lib, aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasining tarmoq xususiyatlari inobatga olinganligini ko‘rish mumkin (16.4-jadval).

16.4-jadval

AJ tashkiliy tuzilmasining namunaviy tuzilmaga muvofiqligini baholash bo‘yicha savollar hamda ular bo‘yicha ballar taqsimoti

№	AJ tashkiliy tuzilmasining namunaviy tuzilmaga muvofiqligini baholash bo‘yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1	AJ tashkiliy tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi №PF-4720 sonli farmoniga muvofiqmi?	10	-10
2	Tashkiliy tuzilma yangilangandan so‘ng lavozim yo‘riqnomalari yangilanganmi?	10	-10
3	Yangilangan tashkiliy tuzilma haqida aksiyadorlar va investorlarni xabardor qilish amalga oshirilganmi?	10	-10
JAMI		30	-30

Ijroiya organi rahbari va a‘zolarini tanlov asosida tayinlash aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat samaradorligini oshirishda va o‘z navbatida korporativ boshqaruv sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan

kelib chiqqan holda korporativ boshqaruv tizimini baholashda mazkur masalaga ham alohida e'tibor qaratiladi va to'rtinchi yo'nalish sifatida belgilangan. Tanlov asosida ijroiya organi rahbari va a'zolarini tayinlash bo'yicha savollar va ular bo'yicha ballar taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan (16.5-jadval).

16.5-jadval

Tanlov asosida ijroiya organi rahbari va a'zolarini tayinlash bo'yicha savollar va ular bo'yicha ballar taqsimoti

№	Tanlov asosida ijroiya organi rahbari va a'zolarini tayinlash bo'yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1	Ustavda ijroiya organi rahbari va a'zolarini tanlov asosida tanlab olish me'yor (norma)lari bilan belgilanganmi?	5	-5
2	Ijroiya organi rahbari va a'zolari bo'yicha tanlovni o'tkazish yuzasidan ichki hujjatlar tasdiqlanganmi?	10	-10
3	Ijroiya organi rahbari va a'zolarini konkurs asosida tanlab olish to'g'risida e'lon berilganmi?	10	-10
4	Konkurs asosida tanlab olish to'g'risidagi hujjatda nomzodlarni baholash uchun ball tizimi nazarda tutilganmi?	10	-10
5	Tanlov o'tkazilganmi?	10	-10
JAMI		45	-45

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 2015-2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazishi belgilangan. Bu amaliyot xorijiy investorlarni jalb qilishda va ular uchun ham tushunarli "til"da bayon etilishiga xizmat qiladi. Keltirilgan jihatlar asosida moliyaviy hisobotlarni Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tkazish korporativ boshqaruv tizimini baholashda beshinchi yo'nalish sifatida belgilangan. Unda asosiy yo'nalishlar sifatida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tuzilgan AJ moliyaviy hisobot-

lari korporativ axborotlar yagona portalida e'lon qilinganligi (20; -20 ball), aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlari xalqaro audit standartlari bo'yicha auditdan o'tkazilganligi (20; -20 ball) kabilar belgilangan (16.6-jadval).

16.6-jadval

MHXS va xalqaro audit standartlariga o'tishni baholash savollari va ular bo'yicha ballar taqsimoti

№	Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga va xalqaro audit standartlari asosida auditdan o'tkazilishini baholash bo'yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1	MHXS asosida tuzilgan AJ moliyaviy hisobotlari korporativ axborotlar yagona portalida e'lon qilinganmi?	20	-20
2	MHXS bo'yicha AJ xodimlari malakasi oshirilganmi?	10	-10
3	AJning MHXSga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar XAS bo'yicha auditdan o'tkazilganmi?	20	-20
JAMI		50	-50

Korporativ boshqaruv tizimini baholashda oltinchi yo'nalish sifatida aksiyadorlik jamiyatida zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishini baholash belgilangan. Bunda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO), Korxonalarda resurslarni rejalashtirish (ERP), Tizimli tahlil va dasturlar ishlab chiqish (SAP) tizimlaridan foydalanish korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimiga zamoniy boshqaruv tizimlarining joriy etilganligini baholash savollari va ballari taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan (16.7-jadval).

Aksiyadorlik jamiyatlari shaffofligi va axborotlar oshkoraligini ta'minlash korporativ boshqaruv oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu boisdan korporativ boshqaruv tizimini baholashda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan holda eng yuqori ball (320; -170 ball) ajratilgan.

Aksiyadorlik jamiyatida zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishini baholash

№	Zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishini baholash bo'yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1	AJ boshqaruv organlari yig'ilishlarida zamonaviy boshqaruv tizimlari (ISO, ERP, SAP va boshq.)ni joriy etish masalalari ko'rib chiqilganmi?	5	-5
2	AJ sifat menejmenti tizimi sertifikatiga egami?	20	-20
3	Sifatni boshqarish tizimi bo'yicha tashqi audit o'tkazilganmi?	10	-10
4	AO rahbariyati tarkibida sifat menejmenti tizimiga javobgar vakil belgilanganmi?	10	-10
5	AJda yangi mahsulot ishlanmalari ma marketingi qanday tartibda moliyalashtiriladi?	10	-10
JAMI		55	-55

Bunda davlat tilida, ingliz va rus tillarida barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan AJ ustavi, "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom, "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizom, "Taftish komissiyasi to'g'risida"gi nizom, bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari va nomzodlarga talablar to'g'risida ma'lumotlar, AJda o'tkazilgan ommaviy tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) haqida ma'lumotlar, press-revizlar va boshqa kundalik faoliyatga doir axborotlar, AJda ishlab chiqariladigan mahsulotlar (ko'rsatiladigan xizmatlar, ishlar) ro'yxati va ular haqida ma'lumot, AJda o'tkazilgan ochiq tanlovlar (tenderlar) va auksionlar hamda ularni tashkil etish, tovarlarni yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish) haqida ma'lumotlar, shuningdek sayt xaritasi, affillangan shaxslar ro'yxati, boshqa shaxslar tomonidan sayt marejallaridan foydalanilganda korporativ veb sayt bo'yicha manbani majburiy tartibida ko'rsatish bo'lyicha talab, tuzilmaviy bo'linmalar, filiallar, vakolatxonalar, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari nomlanishi, ularning telefon raqamlari, manzili (pocha va elektron), ularning ish tartibi to'g'risida ma'lumotlar, "Manfaatlar to'qnashuvi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizom, "Kuzatuv kengashi qoshidagi

qo‘mitalar to‘g‘risida"gi nizom, "Ichki nazorat to‘g‘risida"gi nizom, "Axborot siyosati to‘g‘risida"gi nizom, "Dividend siyosati to‘g‘risida"gi nizom, kelgusi yil bo‘yicha AJ biznes rejasi, o‘tgan yil bo‘yicha AJ biznes rejasi, navbatdagi yil uchun AJ biznes rejasi, joriy yilda biznes reja ko‘rsatkichlaridan har birining bajarilishi haqida ma‘lumotlar ko‘rsatilgan holda jadval, o‘tgan oxirgi yilda biznes reja ko‘rsatkichlaridan har birining bajarilishi haqida ma‘lumotlar ko‘rsatilgan holda jadval, ikki yil oldingi biznes reja ko‘rsatkichlaridan har birining bajarilishi haqida ma‘lumotlar ko‘rsatilgan holda jadval, yakunlangan yil bo‘yicha yillik hisobot, yakunlangan yildan oldingi yil yillik hisoboti, ikki yil oldingi yil bo‘yicha yillik hisobot, Ijroiya organi tarkibi FIO, BIO va lavozimlari, elektron pochta manzillari bilan, FIO va asosiy ish joyi ko‘rsatilgan holda kuzatuv kengashi tarkibi, FIO, BIO va asosiy ish joyi bilan taftish komissiyasi tarkibi, FIO, BIO va lavozimi bilan ichki audit xizmati tarkibi, AJ investitsion jozibadorligi to‘g‘risida videorolik, oxirgi uch yilda hisoblangan dividendlar to‘g‘risida ma‘lumotlar, oxirgi uch yilda to‘langan dividendlar to‘g‘risida ma‘lumotlar, oxirgi yildagi muhim faktlar, har bitta chiqarilish uchun chiqarilish to‘g‘risida qarorlar, har bir chiqarilish bo‘yicha emissiya risolalari, oxirgi yakunlangan yil uchun ijroiya organi har bir a‘zosiga to‘lovlar to‘g‘risida ma‘lumotlar, oxirgi yakunlangan yil uchun kuzatuv kengashi har bir a‘zosiga to‘lovlar to‘g‘risida ma‘lumotlar, aksiyadorlar bilan bog‘lanish uchun ishonch telefon raqami, xorijiy investorlar bilan bog‘lanish uchun ishonch telefon raqami kabi ma‘lumotlar mavjudligiga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek aksiyadorlik jamiyati haqida OAV materiallarining AJ saytida mavjudligi hamda mutaxassislar, ekspertlar va konsultantlarning fundamental va texnik tahlil natijalari, sharhlari va prognozlari AJ saytida joylashtirilganligiga ham e‘tibor qaratiladi (16.8-jadval).

16.8-jadval

Axborot siyosatini baholash bo‘yicha savollar va ular bo‘yicha ballar taqsimoti

№	Axborot siyosatini baholash bo‘yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1	AJ saytida axborotlarni oshkor qilish davlat tilida to‘liqligi	100	-50
2	AJ saytida axborotlarni oshkor qilish rus tilida to‘liqligi	100	-50

3	AJ saytida axborotlarni oshkor qilish ingliz tilida to'liqligi	100	-50
4	AJ haqida OAV materiallarining AJ saytida mavjudligi	10	-10
5	Mutaxassislar, ekspertlar va konsultantlarning fundamental va texnik tahlil natijalari, sharhlari va prognozlari AJ saytida joylashtirilganmi?	10	-10
JAMI		320	-170

Har qanday tadbirkorlik subyekti kabi aksiyadorlik jamiyatlarida ham moliyaviy natija, ya'ni foyda ko'rsatkichi samaradorlikning eng asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda ham moliyaviy natijalarni hisobga olishda asosiy e'tibor daromadlilik (foydalilik) bo'yicha reja ko'rsatkichlarining bajarilishiga qaratiladi (16.9-jadval).

16.9-jadval

Moliyaviy natijalarni baholash savollari va ular bo'yicha ballar taqsimoti

№	Moliyaviy natijalarni baholash bo'yicha savollar	Maksimal ball	Minimal ball
1	Oxirgi hisobot davri yakunlari bo'yicha biznes rejadagi sof foyda ko'rsatkichi rejasi bajarilganmi? (Reja bo'yicha zarar bo'lsa, zararni kamaytirish hisobga olinadi)	50	-50
2	Oxirgi hisobot davri yakunlari bo'yicha biznes rejadagi aktivlar rentabelligi rejasi bajarilganmi? (Reja bo'yicha zarar bo'lsa, zararni kamaytirish hisobga olinadi)	50	-50
3	Oxirgi hisobot davri yakunlari bo'yicha debitorlik qarzlari hisobot davri boshi bilan taqqoslaganda pasayganmi?	25	-25
4	Oxirgi hisobot davri yakunlari bo'yicha kreditorlik qarzlari hisobot davri boshi bilan taqqoslaganda pasayganmi?	25	-25
JAMI		150	-150

Shuningdek, AJ faoliyatining boshqa yoʻnalishlari ham korporativ boshqaruv tizimini baholashda hisobga olinadi. Unda koʻriladigan savollar va ular boʻyicha ballar taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan (16.10-jadval).


16.10-jadval

AJ faoliyatining boshqa yoʻnalishlarini baholash savollari va ular boʻyicha ballar taqsimoti

№	AJ faoliyatining boshqa yoʻnalishlarini baholash savollari	Maksimal ball	Minimal ball
1	Kuzatuv kengashi majlisida ijroiya organining oxirgi chorak yakunlari boʻyicha hisoboti eshutilganmi (chorakdan keyin uch oy oʻtishi sharti bilan)?	0	-5
2	Kuzatuv kengashi majlisida ijroiya organining oxirgi chorak yakunlari boʻyicha samaradorlikning muhim koʻrsatkichlari natijalari koʻrib chiqilganmi (chorakdan keyin uch oy oʻtishi sharti bilan)?	0	-5
3	Kuzatuv kengashi majlisida ichki audit xizmatining oxirgi chorak yakunlari boʻyicha hisoboti eshutilganmi (chorakdan keyin uch oy oʻtishi sharti bilan)?	0	-5
4	Kuzatuv kengashi majlisida taftish komissiyasining oxirgi chorak yakunlari boʻyicha xulosasi koʻrib chiqilganmi (chorakdan keyin uch oy oʻtishi sharti bilan)?	0	-5
5	AJda kamida ikki nafar sertifikatlangan auditorlar (ichki audit xizmati) mavjudmi?	0	-5
6	Oxirgi yil davomida kuzatuv kengashi ichki audit xizmatining xarajatlar smetasini tasdiqlaganmi?	0	-10
7	Oxirgi yil davomida kuzatuv kengashi ichki audit xizmatini attestatsiyadan oʻtkazganmi?	0	-5
8	Oxirgi yil davomida ichki audit xizmati hisoboti tuzilmasi belgilangan talablarga mos keladimi?	0	-5
9	AJ rivojlanish strategiyasi boʻyicha amalga oshirilgan chora tadbirlar toʻgʻrisida ijroiya organi hisoboti koʻrib chiqilganmi?	0	-5
10	Kelayotgan yil (oxirgi yil davomida) uchun AJ biznes rejasi oʻz vaqtida maʼqullanganmi?	0	-10
11	Oxirgi yillik AUY oʻz vaqtida oʻtkazilganmi?	0	-5

12	AJning oxirgi yillik hisoboti o'z vaqtida e'lon qilinganmi?	0	-10
13	AJning oxirgi choraklik hisoboti o'z vaqtida e'lon qilinganmi (chorakdan keyin oy o'tgan sharoitda)?	0	-10
14	O'zR "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 103-moddasida belgilangan hujjatlarni saqlash ta'minlanganmi?	0	-10
15	Oxirgi yillik AUYda kuzatuv kengashi, ijroiya organi va taftish komissiyasi a'zolarini saylash bo'yicha masalalar ko'rib chiqilganmi?	0	-10
16	Kuzatuv kengashi tomonidan AUY (oxirgisi)ni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborotlar (materiallar) ro'yxati belgilanganmi?	0	-10
17	Kuzatuv kengashi tomonidan AUY (oxirgisi)ni o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar berish tartibi belgilanganmi?	0	-10
18	Kuzatuv kengashi tomonidan AUY (oxirgisi)ni o'tkazish jarayonida byulleten shakli tasdiqlanganmi?	0	-10
19	AUY (oxirgisi)ni o'tkazish to'g'risidagi axborot OAVda o'z vaqtida e'lon qilinganmi?	0	-10
20	AUY (oxirgisi)ni o'tkazish to'g'risidagi axborot aksiyadorlarga elektron pochta orqali o'z vaqtida yuborilganmi?	0	-10
21	Kuzatuv kengashi barcha a'zolari majlislarda ishtirok etganligi bo'yicha bayonnomani imzolash amalga oshirilganmi (oxirgi yil davomida)?	0	-10
22	AJ aksiyalari birja kotirovkasi mavjudmi?	25	-10
23	Zaxira kapitali miqdori qonunchilikdagi talablarga mos keladi?	5	-10
24	AJ qimmatli qog'ozlari birja kotirovka ro'yxatiga kiritilgan?	25	-10
25	AJ yillik hisoboti (dastlabkisi) kuzatuv kengashi tomonidan o'z vaqtida tasdiqlanganmi?	0	-10
JAMI		55	-205

Keltirilgan yo'nalishlar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari guruhlanadi (16.1-rasm):



16.1-rasm. Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, baholash natijalari quyidagilardan iborat:

- umumiy to‘plangan ballar miqdori minus 600 balldan past bo‘lsa – qoniqarsiz;
- umumiy to‘plangan ballar miqdori minus 0 dan past bo‘lib, minus 600 dan past bo‘lmasa - quyi;
- umumiy to‘plangan ballar miqdori 600 balldan past bo‘lib 0 balldan past bo‘lmasa - qoniqarli;
- umumiy to‘plangan ballar miqdori 600 ball yoki undan baland bo‘lsa – yuqori.

16.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlili⁹⁸

2016–2017-yillarda Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan 107 ta aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo‘yicha o‘rtacha ballar va ularning eng yuqori bahoga nisbatan foizi quyidagi jadvalda keltirilgan (16.11-jadval).

O‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini har bir yo‘nalish bo‘yicha quyidagicha bo‘lgan:

1. Kodeksni joriy etishga tayyorlanish taomillarini baholash. 16.11-jadvaldan ko‘rinib turganidek, aksiyadorlik jamiyatlari Kodeksni joriy etishga tayyorlanish taomillarini muvaffaqiyatli bajarganlar. Baholangan 107 ta aksiyadorlik jamiyatidan 11tasi (10,2%) barcha talab etiladigan taomillarni bajargan va mazkur yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori – 135 ball to‘plagan. Aksiyadorlik jamiyatlarining uchdan ikki qismi mumkin

⁹⁸ Mazkur paragraf Ш.Абдужабборовнинг “Корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш нимани кўрсатди?” (// Корхонани бошқариш. – Тошкент, 2017. - №10. <https://e.management.mcfz.uz/-article.aspx?aid=594590>) мақоласи асосида киритилди.

bo'lgan eng yuqori ballning 85 foizini oldi. Umuman, mazkur yo'nalish bo'yicha o'rtacha ball 111,5 ballni (82,6 foiz) tashkil etdi.

16.11-jadval

Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari, ballarda⁹⁹

№	Yo'nalish	Mumkin bo'lgan yuqori ball	Olingan o'rtacha baho	Eng yuqori bahoga nisbatan foizda
1	Kodeksni joriy etishga tayyorlanish taomillarini baholash	135	111,5	82,6
2	Kodeks tavsiyalariga amal qilinishini baholash	360	55,6	15,4
3	AJ tashkiliy tuzilmasi muvofiqligini baholash	30	14,68	48,9
4	Tanlov o'tkazilishini baholash	45	-11,5	-25,6
5	MHXS va XASga muvofiq e'lon qilishga o'tishni baholash	50	28,72	57,4
6	Zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishini baholash (ISO, ERP, ITTKI va b.)	55	-16,2	-29,5
7	Axborot siyosatini baholash	320	-22,24	-7,0
8	Moliyaviy natijalarni baholash	150	13,62	9,1
9	AJ faoliyatining boshqa yo'nalishlarini baholash	55	-28,1	-51,1
	Jami:	1200	146,8	12,2

2. Kodeks tavsiyalariga amal qilinishini baholash. Kodeks tavsiyalariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha baholash natijalari ancha past bo'ldi. Vaholanki, bu korporativ boshqaruv tizimining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. 107ta aksiyadorlik jamiyatidan birortasi eng yuqori – 360 ball ololmadi. O'rtacha baho 55,6 ball (eng yuqori bahoning 15,4 foizi²)ni

⁹⁹ <https://e.management.mcf.ru/article.aspx?aid=594590> Управление предприятием. №10. 2017

tashkil etdi. Atigi bitta aksiyadorlik jamiyati 320 ball (88,9 foiz) to'plab, eng yuqori bahoga yaqinlashdi va faqat 16ta AJ (har yettinchisi) 100 (27,7 foiz) va undan ko'p ball to'plashga muvaffaq bo'ldi.

Mazkur yo'nalishda ichki hujjatlarni Korporativ boshqaruv kodeksi-ning yig'ilishlarga, kuzatuv kengashining majlislariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish chog'ida aksiyadorlarning huquqlariga rioya qilish, bunda zamonaviy aloqa va kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga doir tavsiyalariga moslashtirish borasidagi tavsiyalari ko'proq bajarilgan. Xususan, deyarli barcha aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro munosabatlar uchun mas'ul xodimlar tayinlangan (93,3 foiz), ovoz berishda ular umumiy nuqtayi nazarni shakllantirishlari uchun aksiyadorlar kelishuvlari tuzish imkoniyatlari ko'zda tutilgan (94,4 foiz), istak bildirgan aksiyadorlarga to'ldirilgan byulletenlarning nusxalari berilgan (97,2 foiz). 98ta aksiyadorlik jamiyatining veb-saytida teskari aloqa ishlaydi, u orqali aksiyadorlar yozma va elektron so'rovlar yuborishlari mumkin.

Elektron pochta orqali ovoz berish, shuningdek umumiy yig'ilishni videokonferentsiya aloqasi tarzida o'tkazish imkoniyati yaratilgani deyarli barcha aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, aslida aksiyadorlik jamiyatlarining 28 foizidagina bu imkoniyat haqiqatda bor. Faqat 29ta AJning (27,1 foiz) yillik umumiy yig'ilishida bir vaqtning o'zida ijroiya organi rahbarlari, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi raislari hamda auditorlik tashkilotining vakillari ishtirok etgan. 73 foiz aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradigan AJ boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzasi (hisoboti)-ning shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablar belgilanmagan.

O'rta muddatli va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi AJlarning 38,9 foizidagina tasdiqlangan, AJlarning faqat 12,9 foizida zamonaviy boshqaruv usullari, shu jumladan SWOT, GAP-tahlil va boshqa yondashuvlar, maxsus dasturiy mahsulotlar va hokazolar qo'llaniladi. Korporativ qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilishga ehtiyoj borligiga qaramay, korporativ maslahatchi lavozimi AJlarning 13,9 foizidagina joriy etilgan.

3. AJ tashkiliy tuzilmasi muvofiqligini baholash. Aksiyadorlik jamiyatlarining 90 foizi o'z tuzilmasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmoni talablariga muvofiq holga keltirgan. 47,7 foiz aksiyadorlik jamiyatlarida tuzilmadagi lavozimlarning har biri bo'yicha lavozim yo'riqnomalari yangilangan. Shu bilan birga, har beshinchi aksiyadorlik jamiyatida bu ish haligacha oxiriga yetkazilmagan yoki umuman boshlanmagan.

4. Tanlov o'tkazilishini baholash. Ijroiya organi rahbari va a'zolarini tanlov o'tkazish orqali lavozimga tayinlash baholanganda, aksiyadorlik jamiyatlariga ko'plab savollar tug'ildi. Deyarli barcha (99,1 foiz) AJlar o'z ustavlariga tanlov o'tkazish to'g'risida band kiritgan, biroq, 80ta AJda tanlov o'tkazish bo'yicha ichki hujjatlar baholash davrida tasdiqlanmagan bo'lgan. Faqat 6ta aksiyadorlik jamiyatidagina rahbarlar tanlov asosida lavozimga tayinlangan, 59ta AJda lavozimga tayinlashda faqat bitta nomzodning arizasi ko'rilgan, 42ta AJda esa tanlov o'tkazilmagan yoki o'tkazilganlik to'g'risida axborot yo'q. Natijada, mazkur yo'nalish bo'yicha eng ko'p **+45 ball** to'plash mumkin bo'lgan bir paytda, o'rtacha baho **-11,5 ballni** tashkil etgan.

5. MHXS va XASga muvofiq e'lon qilishga o'tishni baho-lash. O'rganish natijasida aksiyadorlik jamiyatlari hisobotlarni MHXS va xalqaro audit standartlariga muvofiq e'lon qilishga mas'uliyat bilan yondashganlari ma'lum bo'ldi. 86ta AJ moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq tuzgan va Korporativ axborot yagona portalida e'lon qilgan, 99ta AJda MHXSga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar xalqaro audit standartlari bo'yicha auditdan o'tkazilgan. Shu bilan birga, 66ta AJda xodimlarning MHXS bo'yicha malakalari oshirilmagan.

6. Zamonaviy boshqaruv tizimlari (ISO, ERP, ITTKI va boshq.) joriy etilishini baholash. Baholash jarayonida zamonaviy boshqaruv tizimlarini tatbiq etish aksiyadorlik jamiyatlarining zaif joyi ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu masala faqatgina 37,0 foiz aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari yig'ilishida ko'rib chiqilgan. Faqat har uchinchi aksiyadorlik jamiyatida amaldagi sifat menejmenti tizimining sertifikatini bor. 70ta aksiyadorlik jamiyatida SMT bo'yicha tashqi audit o'tkazilmagan. AJlarning yarmidan ko'pida SMT talab etadigan jarayonlarni ishlab chiqish (tatbiq qilish) va ishchi holatda saqlash uchun rahbariyat vakili yo'q.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ishlanma va marketing mahsu-lotlarini moliyalashtirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Faqat 6 foiz AJlarda bu maqsadlarga sof foydaning kamida 10 foizi yo'naltirilgan, 67 foiz AJlarning hujjatlarida bunday yo'nalishlarni moliyalashtirish to'g'risida ko'rsatma yo'q yoki bu haqida axborot taqdim etilmagan. Bu yo'nalishda eng yuqori baho **+55 ball** bo'lgan paytda, aksiyadorlik jamiyatlari olgan o'rtacha baho **-16,2 ballni** tashkil etgani bejiz emas.

7. Axborot siyosatini baholash. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborot siyosati masalalariga ham yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Mazkur yo'nalish bo'yicha **+320 ball** olish mumkin bo'lsa-da, o'rtacha baho **-22,24 ballni**


tashkil etgan. Bu hol rasmiy saytlarda davlat tilida joylashtirilishi talab etiladigan axborotning ko'p qismi e'lon qilinganligiga qaramay (ikkita jamiyatning saytlaridagina oshkor etilishi lozim bo'lgan axborotning yarmi yo'q) kuzatilmoqda. Baholangan AJlar, asosan, axborotni ingliz tilida e'lon qilish talabi bajarilmaganligi tufayli ballarni yo'qotgan (92ta AJda joylashtirilishi talab etiladigan axborotning 20 va undan ortiq pozitsiyasi ta'minlanmagan). 72 foiz jamiyatlarning saytida fundamental va texnik tahlil to'g'risida axborot (ko'pchilik AJlarda bu nimaligini bilmaydilar, hatto), mutaxassislar va ekspertlarning prognozlari va fikrlari yo'q.

AJlarning 82 foizi uchun korporativ boshqaruv tizimini baholash chog'ida yuqori ball olish imkoniyatini beradigan yo'nalish – OAV bilan olib boriladigan ishni faollashtirish. Tahlil 60ta AJ bo'yicha OAVda jamiyat faoliyati to'g'risida e'lon qilingan materiallar yo'qligini, 29 AJda so'nggi bir yilda faqat bittadan material e'lon qilinganini ko'rsatdi.

8. Moliyaviy natijalarni baholash. Biznes-rejada belgilangan moliyaviy natijalarga erishish har bir aksiyadorlik jamiyati uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. O'rganilgan 107 AJdan 69tasi oxirgi hisobot davri yakunlari bo'yicha belgilangan sof foyda ko'rsatkichlarini bajarishning ud-dasidan chiqqan, 52tasi esa bu ko'rsatkichni 10 va undan ortiq foizga oshirib bajargan. Rentabellik bo'yicha biznes-rejadagi prognoz ko'rsatkichlari 62ta AJda bajarilgan, 32ta AJda debitorlik qarzlari kamayishiga erishilgan. Shu bilan birga, 38ta AJda sof foyda bo'yicha prognoz bajarilmagan, 40ta AJ rejadagi rentabellik darajasiga chiqmagan. Umuman olganda, o'rganilgan AJlarda mazkur yo'nalish bo'yicha o'rtacha baho atigi **13,9 ballni** tashkil etdi, vaholanki mumkin bo'lgan eng yuqori baho **150 ballni (9,1 foiz)** tashkil etadi.

9. AJ faoliyatining boshqa yo'nalishlarini baholash. AJ faoliyati yo'nalishlari ichida O'zR Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qarorida belgilangan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari asosida baholash talabi yetarlicha bajarilmaganligi ayniqsa ko'zga tashlanadi. Xususan, 59,8 foiz AJlarning kuzatuv kengashi yig'ilishida o'rganilgan davrdan oldingi oxirgi chorak yakunlari bo'yicha SMK natijalari ko'rib chiqilmagan. 74,1 foizida ijroiya organining AJni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risidagi hisoboti tinglanmagan yoki strategiya tasdiqlanmagan. Faoliyatning boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'rganilgan AJlar olgan o'rtacha baho **-28,1 ballni** tashkil etdi, olish mumkin bo'lgan eng yuqori baho esa **+55 ballni** tashkil etadi.

Umuman olganda, o‘rganilgan 107 ta aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimiga berilgan o‘rtacha baho **146,8 ballni** tashkil etdi, baholash shkalasi bo‘yicha bu qoniqarli holat. Ammo, buni kasalxona bemorlari bo‘yicha o‘rtacha harorat desa bo‘ladi. Olingan ballar bo‘yicha AJlar qanday taqsimlanganini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin (16.2-rasm).



16.2-rasm. Qimmatli qog‘ozlar makaziy depozitariysi tomonidan korporativ boshqaruv tizimini baholash o‘tkazilgan 107 ta aksiyadorlik jamiyatining olingan ballar bo‘yicha taqsimlanishi¹⁰⁰

Faqat to‘rtta AJda korporativ boshqaruv tizimi yuqori baho (600 balldan ko‘p) olgan, qolgan 103 ta AJda tizim holati qoniqarli (600 dan past, ammo 0 dan yuqori) deb baholangan. Shulardan 45 ta AJ 100 va undan yuqori ball, 58 ta AJ 100dan past ball olgan.

«Trastbank» xususiy aksiyadorlik tijorat banki misolida korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo‘yicha xulosani ko‘rib chiqamiz¹⁰¹. Xulosa “PREMIUM FINANCE” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tayyorlangan.

“PREMIUM FINANCE” MChJ investitsiya maslahatchisi sifatida o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2019 yil 27 mayda berilgan 1365-sonli Litsenziya asosida amalga oshiradi.

¹⁰⁰ Ш.Абдужабборов. Корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш нимани кўрсатди? // Корхонани бошқариш. – Тошкент, 2017. - №10. <https://e.management.mcf.uz/article.aspx?aid=594590> асосида тузилди.

¹⁰¹ <https://trustbank.uz/upload/medialibrary/189/korp-uzb.pdf>

2021 yil 19 fevraldagi I/V-sonli shartnomaga asosan “Transbank” xususiy aksiyadorlik bankida 2020 yil yakunlari bo`yicha korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash o`tkazildi. Mustaqil baholash O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jumladan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish Komissiyasi tomonidan (2015 yil 31 dekabrda) 9-sonli bayonnoma tasdiqlangan Korporativ boshqaruv Kodeksiga muvofiq amalga oshirildi.

“Transbank” xususiy aksiyadorlik bankida korporativ boshqaruv tizimi holati to`g`risida mustaqil xolisona fikrni shakllantirish baholash o`tkazilishining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

“Transbank” xususiy aksiyadorlik banki korporativ boshqaruv tizimini baholash O`zbekiston Respublikasi Davlat raqobati qo`mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy – ta`lim markazi tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan Savolnoma asosida amalga oshiriladi.

“PREMIUM FINANCE” MChJ faqat “Transbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, hisobotlar, ma`lumotlar va boshqa materiallar asosida Bankning korporativ boshqaruv tizimi holati to`g`risida shakllantirilgan o`z nuqtai nazarini ifodalaganligi uchun javobgar hisoblanadi.

“Transbank” xususiy aksiyadorlik banki taqdim etilgan hujjatlar, hisobotlar, ma`lumotlar va boshqa materiallarning to`liqligi, mazmuni va ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi. Olingan hujjatlar, hisobotlar, ma`lumotlar va boshqa materiallarning asl nusxaligi va ishonchligi tekshirilmadi va e`tiroz bildirilmadi.

Shuni ta`kidlab o`tish joizki, “Transbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan taqdim qilingan hujjatlar, hisobotlar, ma`lumotlar Bank korporativ boshqaruv tizimi holati to`g`risida mustaqil fikr ifodalash uchun yetarli asos bo`lib xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko`ra “Transbank” xususiy aksiyadorlik banki korporativ tizimining haqiqiy bahosi 982 ballni yoki foiz ko`rinishida 81,83 % ni tashkil etadi va “PREMIUM FINANCE” MChJ tomonidan “Transbank” xususiy aksiyadorlik banki korporativ boshqaruv tizimiga “yuqori” darajadagi baho berildi, bunda baholash yo`nalishlari quyodagi ko`rinishga ega:

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki korporativ boshqaruv tizimini baholashning yakuniy jadvali

№	Yo`nalishlar	Savollar soni	Ehtimolli ballar		Haqiqiy baho
			Quyi	Yuqori	
1	Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik ko`rish jarayonini baholash	13	-135	135	135
2	Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga amal qilinishini baholash	37	-360	360	290
3	Bank tashkiliy tuzilmasini baholash	3	-30	30	25
4	Konkurs tanlovi o`tkazilishini baholash	5	-45	45	-25
5	Bank hisobotlarini MHXS va auditning xalqaro standartlariga muvofiq oshkor qilinishini baholash	3	-50	50	50
6	Boshqaruvning zamonaviy tizimlarini joriy etilishini baholash (ISO, ERP, NIOKR va boshqalar)	5	-55	55	40
7	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320	267
8	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150	150
9	Bank faoliyatining boshqa yo`nalishlarini baholash	25	-205	55	50
Jami		100	-1200	1200	982
Foiz ko`rinishida yakuniy baho					81.83%

Ko`rib turganimizdek, 2020 yil yakuni bo`yicha bankda korporativ boshqaruv tizimi yuqori baholangan.

Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash bo`yicha mavjud xalqaro yondashuv va usullar haqida quyida to`xtalib o`tamiz¹⁰²:

Standard & Poor's reyting agentligining korporativ boshqaruvni baholash uslubiyoti GAMMA (Governance, Accountability, Management Metrics & Analysis)ning muhim tarkibiy qismlari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) aksiyadorlarning ta`siri;
- 2) aksiyadorlarning huquqi;

¹⁰² Суюнов Д.Х., Хошимов Э.А. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – Тошкент, 2018. - №2.

3) shaffoflik, audit va risklarni boshqarishning korporativ tizimi;

4) direktorlar kengashining faoliyati, strategik jarayonlar va mukofotlash tizimining samaradorligi.

Mazkur metodika Standard & Poor's reyting agentligi tomonidan 2007-2011 yillarda qo'llanilgan.

Korporativ boshqaruvni baholashning GMI (Governance Metrics International) uslubiyotida esa asosiy elementlar direktorlar kengashi tarkibi to'g'risidagi qonunchilik, moliyaviy shaffoflik va tashqi nazorat, aksiyadorlar huquqlari, mulkchilik tuzilmasini bozor orqali nazorat qilish imkoniyati, ijroiya organlarining vakolatlari, korporativ etika kodeksining mavjudligi hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasining «Ekspert RA» reyting agentligi tomonidan ishlab chiqilgan korporativ boshqaruvni baholash metodologiyasi esa aksiyadorlar huquqi, boshqaruv va nazorat organlari faoliyati, axborotlarni oshkor qilish, boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlariga rioya etish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat kabilarni qamrab oladi. Rossiya axborot agentligi «PRAYM-TASS»ning korporativ boshqaruvni baholash metodikasi kompaniyaning moliyaviy shaffofligi va kompaniyaning moliyaviy hisobotlari bilan bog'liq axborotlarni oshkor qilish; aksiyadorlik kapitali tarkibi va kompaniya aksiyalari bozori; aksiyadorlar huquqlari va kompaniyadagi korporativ boshqaruv risklari; direktorlar kengashi va kompaniya menejmenti faoliyatini baholashdan tashkil topgan.

Rossiya Federatsiyasi Davlat mulkini boshqarish bo'yicha federal agentlik tomonidan davlat ulushi bo'lgan kompaniyalarda aksiyadorlar huquqlari; direktorlar kengashi; ijroiya organi; shaffoflik va axborot ochiqligi; risklarni boshqarish, ichki nazorat va ichki audit; korporativ ijtimoiy mas'uliyat, biznes etikasi va komplaens orqali korporativ boshqaruv tizimi baholanadi. Bunda baholash natijalari foizlarda ifodalanib, 100% - a'lo darajadagi sifatni, 0% - past sifatni ifoda etadi. AJ direktorlar kengashiga korporativ boshqaruv bo'yicha minimal sifat darajasi 65 foizdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi.

Yeumoney jurnali renkingi uchun korporativ boshqaruvni baholash metodologiyasi 29 ta savolni qamrab oluvchi qismlari quyidagilar:


- mulkchilik tuzilmasi shaffofligi va aksiyadorlar huquqi;

- moliyaviy shaffoflik;

- direktorlar kengashi tarkibi va kengash qarorlarini qabul qilish jarayoni;

- aksiyadorlar bilan munosabatlar va kompaniya menejmenti manfaatlari.

KPMG tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya “pentagon” nomi bilan atalib, har biri beshta elementni o‘z ichiga oluvchi uchta komponentdan tarkib topgan (16.3-rasm):



16.3-rasm. Korporativ boshqaruv tizimini bahokashning KPMG metodologiyasi

PwC esa korporativ boshqaruvni baholash metodologiyasining muhim komponentlari sifatida aksiyadorlarning huquqlari; direktorlar kengashi; shaffoflik va axborot oshkorligi; risklar, nazorat va ichki audit; etika va barqaror rivojlanish kabilar belgilangan.

Nemis korporativ boshqaruv komissiyasi (DVFA Kommission) korporativ boshqaruv bo‘yicha umumiy ballarni shakllantirishda quyidagi elementlar bo‘yicha salmoq ko‘rsatkichlari belgilangan (16.13-jadval):

16.13-jadval

Nemis Korporativ boshqaruv komissiyasi (DVFA Kommission)ning korporativ boshqaruvni baholash metodologiyasi

Umumiy ballar taqsimoti	KB reyting darajalari
Aksiyadorlar va AUY – 10 %	100%-90% - a'lo darajada;
Menejment kengashi (ijroiya organi) – 20 %	90%-80% - juda yaxshi;
Kuzatuv kengashi – 40 %	80%-70% - yaxshi;
Shaffoflik va boshqaruv – 15 %	70%-60%- qoniqarli.
Hisobot va audit -15 %	

2004 yilda Osiyo taraqqiyot banki loyihasining bir qismi sifatida BearingPoint konsalting kompaniyasi tomonidan Xitoy Xalq Respublikasida davlat korxonalarini uchun Korporativ boshqaruv reyting indeksi (Corporate Governance Rating Index (CGRI)) ishlab chiqildi. Ushbu indeks xitoy korxonalarining korporativ boshqaruv bo'yicha xalqaro va milliy standartlarga qay darajada amal qilishini baholash imkonini beradi. Bunda davlat ulushi 100 foiz bo'lgan hamda davlat ulushi 100 foizdan kam bo'lgan korxonalar uchun ikkita alohida CGRI –skoring mexanizmi amal qiladi (16.14-jadval):

16.14-jadval

Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida XXR davlat korxonalarini uchun Kkorporativ boshqaruv reyting indeksi (Corporate Governance Rating Index (CGRI))

KATEGORIYA	Davlat ulushi 100% bo'lgan korxonalar		Davlat ulushi 100 foiz bo'lmagan korxonalar	
	Salmoq (%)	Savollar soni	Salmoq (%)	Savollar soni
1. Direktorlar kengashi roli	30	22	25	22
2. Shaffoflik va axborot ochiqligi	30	18	25	19
3. Audit	30	24	20	20
4. Manfaatdor tomonlar va korporativ fuqarolik	10	8	10	8
5. Aksiyadorlarga birdek munosabat	0	0	20	15
Jami	100	72	100	84

Yuqoridagilardan ayon bo'lmoqdaki, korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Bunda har bir mamlakat, har bir korporativ tuzilma mustaqil yondashishi mumkinligini qayd etish lozim.

16.3. Samaradorlikning asosiy va qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari

Korporativ boshqaruv tizimida ijro organi faoliyatini baholash uchun quyidagi samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlari aniqlanadi:

1. Foizlar, soliqlar va amortizatsiya chegirilmagan holatdagi foyda.
2. Xarajat va daromadning o'zaro nisbati.
3. Jalb qilingan kapital rentabelligi.

4. Aksiyadorlik kapitali rentabelligi.
5. Aksiyadorlar investitsiyasi rentabelligi.
6. Aktivlar rentabelligi.
7. Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti.
8. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.
9. Kreditorlik qarzlarning kunlik aylanuvchanligi.
10. Debitorlik qarzlarning kunlik aylanuvchanligi.
11. Qoplash koeffitsiyenti (to'lovga qobiliyatligi).
12. Dividend chiqishi koeffitsiyenti.
13. Debitorlik qarzdorlikning pasayish ko'rsatkichi.

Samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari esa quyidagilar:

1. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti.
2. Asosiy vositalarning yangilash koeffitsiyenti.
3. Mehnat unumdorligi.
4. Fond qaytimi.
5. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti.
6. Energiya samaradorligi (mahsulot tannarxi strukturasi energiya xarajati ulushi).
7. Jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmida innovatsion mahsulotning ulushi.
8. Har bir ishchi hisobga olingan holda xodimlarni o'qitish xarajati.
9. Kadrlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti.
10. Investitsiya dasturining pul ko'rinishidagi ijrosi indikatori.
11. Quvvatlarni ishga tushirish parametrlarini bajarish indikatori.
12. Eksport parametrlarini bajarish ko'rsatkichi.

«O'zbekiston respublika valyuta birjasi» AJning 2020 yildagi samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini ko'rib o'tamiz (16.15-jadval).

16.15-jadval

«O'zbekiston respublika valyuta birjasi» AJning 2020 yildagi samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari bo'yicha

MA'LUMOTI¹⁰³

№	Ko'rsatkichlar	Ulushi	Prognoz	Haqiqiy ko'rsatkich	Bajarish foizi
			(maq-sadli) ko'rsatkich		
	A	B	C	D	E

¹⁰³ <https://uzrvb.uz/uzl/ozrvb-azhning-2020-yildagi-samaradorlikning-muhim-ko>

1.	Foizlar, soliqlar va amortizatsiya (ushlab) chegirib qolinmasidan olingan daromad (EBITDA - Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization)*	10	20,00		
2.	Xarajatlar va daromadlarning o'zaro nisbati (CIR - Cost Income Ratio)*	10	0,39		
3.	Jalb qilingan kapital rentabelligi (ROCE - Return on Capital Employed)*	10	0,50		
4.	Aksiyadorlik kapitali rentabelligi (ROE - Return On Equity)*	10	0,60		
5.	Aksiyadorlarning investitsiyalari rentabelligi (TSR - Total Shareholders Return)*	10	0,30		
6.	Aktivlarning rentabellik koeffitsienti	10	0,40	1,08	270,38
7.	Mutloq likvidlik koeffitsienti	10	3,00	45,15	1 505,25
8.	O'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsienti (yoki moliyaviy mustaqilligi)	10	15,00	121,63	810,90
9.	Kreditorlik qarzi aylanuvchanligi kunlarda	5	20,00	2,32	861,36
10.	Debitorlik qarzi aylanuvchanligi kunlarda	5	20,00	1,40	1 425,72
11.	To'lovga qobillik (qoplash) koeffitsienti	10	20,00	118,71	593,57
12.	Dividend mahsuli (miqdori) (yoki dividend hosili)**				
Jami		100			

* Yil oxiri natijalariga ko'ra moliyaviy hisobot xalqaro standartlarga ko'ra e'lon qilinganidan so'ng hisoblanadi

** Dividend mahsuli (miqdori) (yoki dividend xosili) dividend hisoblanganda to'ldiriladi.

Xorijiy amaliyotda boshqaruv kengashi samaradorligini baholash uchun ma'lum bir jihatlar belgilanadi. Uni quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin (16.16-jadval)

**Aksiyadorlik kompaniyalarida Kengash samaradorligini ta'minlash
uchun zarur bo'lgan jihatlar¹⁰⁴**

№	Asosiy jihatlar	Har bir jihat tavsifi
1.	Mas'uliyatlilik / amalga oshiruvchanlik	Kengashning har bir a'zosining mas'uliyatli bo'lishi, kompaniya missiyasi, qiymati va strategiyasi uchun ham zarur hisoblanadi
2.	Xususiyatlilik, ya'ni xarakterga ega bo'lish	Kengashning o'z xarakteri bor. Samarador kengashlar faoliyati har bir direktorning adolatliligiga bog'liq bo'ladi. Ularning shaxsiy jihatlari kengashning holatida aks etadi va tashkilotga ham to'liqligicha ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan, kompaniyalar ham xarakterga ega. Kuchli kompaniyalar o'z navbatida kuchli xarakterga ega hisoblanadi.
3.	Hamkorlik	Kengash bir jamoa sifatida faoliyat yuritadi va bunda har bir a'zo ma'lum bir o'rin hamda ahamiyatga ega hisoblanadi. Samarali jamoada barcha munosabat va aloqalar boshqalarga ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan
4.	Kompetentlik	To'g'ri tashkil qilingan kengash yetarlicha tajriba, bilim va ko'nimlarga ega bo'lib, bu jihatlarni ular xavfsizlikni, ishonchlilikni va mukammallikni ta'minlash uchun qo'llashadi.
5.	Ijodkorlik	Ayrim shaxslar bu jihatni "qolipdan tashqari fikrlash" deb ham nomlaydi. Ya'ni bunda an'anaviy fikrlarni qo'llashga urinishdan ko'ra, noan'anaviy fikr yuritishni rag'batlantirish lozimligi ta'kidlanadi. Ammo, bunda ijodkorlik kengash samaradorligini ta'minlovchi oxirgi o'rindagi jihat hisoblanadi.
6.	Hissadorlik	Yutuqlarga intiluvchan kengash kompaniyaning to'liq potentsialiga erishishga intiladi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik kompaniyalarida boshqaruv sifatiga alohida e'tibor qaratiladi.

¹⁰⁴ Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 390-391.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholash yo'nalishlarini sanab o'ting.
2. Aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasining namunaviy tuzilmaga muvofiqligini baholash yo'nalishlari.
3. Axborot siyosati bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash.
4. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy natijalarining korporativ boshqaruv tizimini baholashdagi roli.
5. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar.
6. Xususiy kapital va qarz kapitali rentabelligini aniqlash tartibi.
7. Aktivlar rentabelligini aniqlash tartibi.
8. Likvidlilik koeffitsiyentlarini aniqlash tartibi.
9. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini aniqlash tartibi.
10. Dividend chiqishi koeffitsiyentini aniqlash tartibi.
11. Korporativ boshqaruv tizimini baholash mezonlari va yo'nalishlari.

Testlar

1. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

- a) fond birjasi, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shtatida tegishli korporativ boshqaruvchi attestati bo'lgan auditorlik tashkilotlari; reyting agentliklari, Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi;
- b) aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan mustaqil yoki soliq maslahati tashkilotlari;
- c) iqtisodiyot vazirligi, moliya vazirligi, davlat raqobat qo'mitasi;
- d) investitsion fondlar, fond birjasi, soliq maslahati tashkilotlari.

2. Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash aksiyadorlik jamiyati qaysi boshqaruv organi qarori asosida amalga oshiriladi?

- a) kuzatuv kengashi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- c) ijroiya organi;
- d) taftish komissiyasi.

3. Korporativ boshqaruv tizimini baholash yo‘nalishi noto‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) xodimlar bilan mehnat munosabatlari tashkil etilish holati;
- b) korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini va kodeks tavsiyalariga amal qilinishini baholash;
- c) axborot siyosatini baholash, moliyaviy natijalarni baholash;
- d) MHXS va XASga muvofiq e‘lon qilishga o‘tishni baholash.

4. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda eng yuqori va eng past ball chegarasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) 1200; –1200;
- b) 100; –100;
- c) 600; –600;
- d) 1000; –1000.

5. Aksiyadorlik jamiyatlari namunaviy tashkiliy tuzilmasi qaysi qonunchilik hujjati bilan tasdiqlangan?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi №PF-4720 sonli farmonida;
- b) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda;
- c) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2015-yildagi №PQ-2455 sonli qarorida;
- d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2015-yildagi №PQ-2454 sonli qarorida.

6. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda eng yuqori ball qaysi yo‘nalishga ajratilgan?

- a) axborot siyosatiga;
- b) moliyaviy natijalarga;
- c) namunaviy tashkiliy tuzilmaga muvofiqligiga;
- d) faoliyatning boshqa yo‘nalishlariga.

7. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda axborot siyosatini baholash aynan qaysi jihatlar bo‘yicha belgilangan?

- a) davlat tilida, rus va ingliz tillarida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir axborotlarning aksiyadorlik jamiyati saytida va boshqa manbalarda oshkor qilinganligi;
- b) tijorat sirining e'lon qilinganligi yoki maxfiylik ta'minlanganligi;
- c) aksiyadorlik jamiyatlari haqida ommaviy axborot vositalarida muntazam maqolalar, ko'rsatuvlar berilganligi;
- d) korporativ boshqaruv tizimini baholashda axborot siyosatini baholash amalga oshirilmaydi.

8. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda moliyaviy natijalarni baholashda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi?

- a) biznes-rejada belgilangan prognoz moliyaviy natijalarga erishilganligi;
- b) raqobatchidan ustun kelinganligi;
- c) bozor segmenti egallanganli;
- d) aksiya kursi o'zgarish darajasi.

9. Aksiyadorlik jamiyati sifatni boshqarish tizimida e'tibor qaratiladigan asosiy jihat qaysi javobda berilgan?

- a) Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) sertifikatini olinganligi;
- b) mahsulot sifati bo'yicha iste'molchilar shikoyatlari mavjud emasligi;
- c) xodimlar qo'nimsizligi past darajada ekanligi;
- d) bankrotlik ehtimoli mavjud emasligi.

10. Aksiyadorlik jamiyat korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari qanday holatda qoniqarli hisoblanadi?

- a) 0 dan 600 ballgacha natija bilan baholanganda;
- b) – 600 dan 0 ballgacha natija bilan baholanganda;
- c) – 600 dan 600 ballgacha natija bilan baholanganda;
- d) 600 dan 1200 ballgacha natija bilan baholanganda.

11. Samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlarida EBITDA ko'rsatkichi qaysi ko'rsatkich?

- a) foizlar, soliqlar va amortizatsiya chegirilmagan holatdagi foyda;
- b) foizlar va soliqlar to'langunga qadar foyda;
- c) soliq to'langunga qadar foyda;
- d) sof foyda.

12. Samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlari no-to'g'ri berilgan javobni ko'rsating.

- a) mahsulot tannarxi, inflyatsiya darajasi;
- b) xarajat va daromadning o'zaro nisbati, jalb qilingan kapital rentabelligi;
- c) aksiyadorlik kapitali rentabelligi, aksiyadorlar investitsiyasi rentabelligi;
- d) aktivlar rentabelligi, mutlaq likvidlilik va moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlari.

Qo'shimcha topshiriqlar

1. Aniq aksiyadorlik jamiyati moliyaviy hisobotlari va boshqa ma'lumotlari asosida samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlarini va qo'shimcha muhim ko'rsatkichlarini aniqlang.

- foizlar, soliqlar va amortizatsiya chegirilmagan holatdagi foyda.
- xarajat va daromadning o'zaro nisbati.
- jalb qilingan kapital rentabelligi.
- aksiyadorlik kapitali rentabelligi.
- aksiyadorlar investitsiyasi rentabelligi.
- aktivlar rentabelligi.
- mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti.
- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.
- kreditorlik qarzlarning kunlik aylanuvchanligi;
- debitorlik qarzlarning kunlik aylanuvchanligi;
- qoplash koeffitsiyenti (to'lovga qobiliyatliligi);
- dividend chiqishi koeffitsiyenti;
- debitorlik qarzdorlikning pasayish ko'rsatkichi;
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning yangilash koeffitsiyenti;
- mehnat unumdorligi;
- fond qaytimi;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti;
- energiya samaradorligi (mahsulot tannarxi strukturasi energiya xarajati ulushi).

2. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha milliy va xorijiy amaliyotni o'zaro taqqoslang.

Milliy amaliyot bo'yicha baholash yo'nalishlari	AQShda	Yaponiyada	Germaniyada
Kodeksni joriy etishga tayyorlanish taomillarini baholash
Kodeks tavsiyalariga amal qilinishini baholash
AJ tashkiliy tuzilmasi muvofiqligini baholash
Tanlov o'tkazilishini baholash
MHXS va XASga muvofiq e'lon qilishga o'tishni baholash
Zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilishini baholash (ISO, ERP, ITTKI va b.)
Axborot siyosatini baholash
Moliyaviy natijalarni baholash
AJ faoliyatining boshqa yo'nalishlarini baholash

XVII bob. KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT

17.1. Davlat-xususiy sheriklik va korporativ ijtimoiy mas'uliyat umumiy jihatlari

Bugungi kunda mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ko'p jihatdan davlat va korporativ tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka bevosita bog'liq. Chunki ma'lum bir funktsiyalarini moliyaviy ta'minlash bilan bog'liq muammolar tufayli davlat xususiy sektor, xususan korporativ tuzilmalar bilan hamkorlik qilishi qator yillardan buyon jahon iqtisodiyotida o'z samarasini berib kelmoqda. Natijada davlat va xususiy sherikchilik munosabatlari qo'llanilayotgan sohalar doirasi tobora kengayib bormoqda.

Boshqa tomondan korporativ tuzilmalar faoliyatida biznes rivoji avvalo mulkdorlar manfaatdorligi uchun xizmat qilsa, istiqbolda manfaatdor tomonlar doirasi kengayib borishi kuzatilishi ayni haqiqat. Shunday sharoitda korporativ tuzilmalar faoliyatidan qonunan manfaatdor tomonlardan tashqari, ular faoliyat yuritayotgan hudud, davlat va jamiyatning ham manfaatdorligi yuzaga keladi. Bunda jamiyat manfaatdorligining ta'minlanishi borasidagi korporativ tuzilmalar xatti-harakati korporativ ijtimoiy mas'uliyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Natija esa davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ayrim loyihalar korporativ tuzilmalarning o'z tashabbusi asosida amalga oshirilishiga erishilishida namoyon bo'ladi.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariga ustuvorlik berilayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu borada avvalo huquqiy asoslar yaratildi, maktabgacha ta'lim, qurilish kabi sohalarda o'zaro sherikchilik munosabatlariga asoslangan amaliyotlar yo'lga qo'yildi. Jahon amaliyotida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari ko'plab sohalar va tarmoqlarni qamrab olganligi bois respublikamizda bu sohada e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar nihoyatda ko'p. Qo'shimcha ravishda korporativ boshqaruv sifatini oshirish orqali korporativ ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish natijasida davlatning ma'lum bir ijtimoiy funktsiyalari to'liq bajarilishiga erishish vazifasi ham oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari doirasida ham amal qilishi masalaning ijobiy hal bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan mazkur tadqiqot ishimizda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat masalalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat, uning amal qilish mexanizmlari xorijiy mamlakatlarda davlat, korporativ tuzilmalar, aholi, ilmiy tadqiqotchilar hamda olimlarning doimiy diqqat markazidagi masalalardan biridir. Bunda munozarali jihatlar ham mavjud ekanligini alohida qayd etib o'tish zarur.

Jumladan Nobel mukofoti laureati M.Fridmanga ko'ra, biznesning ijtimoiy mas'uliyati bu pul qilishdir, deya uni korporativ egoizm nazariyasi sifatida ham ifodalash mumkinligi qayd etiladi. Shuningdek kambag'allik uchun kurash davlatning ishi bo'lib, xususiy biznesning funktsiyasi emasligi va biznesning asosiy ishi aktsiyadorlarning foydasini oshirish ekanligini korporativ ijtimoiy mas'uliyat sifatida ilgari suradi¹⁰⁵.

I.Yu.Belyaeva va M.A.Eskandarovlar boshchiligidagi olimlar guruhi korporativ ijtimoiy mas'uliyatning kompaniyalar faoliyatidagi roli, korporativ ijtimoiy mas'uliyat modellari, davlatning ijtimoiy funktsiyalarini bajarishda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyatli jihatlari va xalqaro standartlari, ijtimoiy investitsiyalash mexanizmlari alohida xususiyatlari, ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashda davlat va xususiy sektor hamkorligi, davlat va xususiy sektor hamkorligi ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi kabilarga batafsil e'tibor qaratgan¹⁰⁶.

Respublikamizdagi iqtisodchi olimlardan F.Raxmatullaeva korporativ ijtimoiy mas'uliyatni ichki va tashqi ijtimoiy mas'uliyatga bo'lgan holda o'rganib, tashqi korporativ ijtimoiy mas'uliyatning amal qilishi mamlakatning va hududlarning ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi xususida alohida to'xtalib o'tadi¹⁰⁷.

M.Sharipova tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyatning xalqaro tajribalari tahlil qilinib, manfaatdor tomonlarga alohida e'tibor qaratilgan. Evropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlar *2014/95/EI Ko'rsatmasiga (Directive 2014/95/EU)* rioya qilishga majburligi, unga ko'ra xalqaro yirik kompaniyalar (kamida 500 nafar xodimi bo'lgan) BMT Global shartnomasi, ISO 26000 (ISO), Germaniyaning barqarorlik kodeksi va IHTT ko'rsatmalari asosida yaratilgan nomoliyaviy, ijtimoiy va ekologik mas'uliyatlar

¹⁰⁵ Milton Friedman. The Social Responsibility of Business is Increase its Profits. The New York Times Magazine, 1970.

¹⁰⁶Под ред. И.Ю.Беляевой, М.А.Эскандарова. Корпоративная социальная ответственность. Учебник. – М.: “Кнорус”, 2018. – 316 с.

¹⁰⁷Рахматуллаева Ф. Корпоратив ижтимоий масъулият концепциясининг моҳияти ва ривожланиши. – Тошкент, 2016. – Biznes-Эксперт. – №7.

ma'lumotlarini o'z ichiga oluvchi yillik hisobotlarni tayyorlashga va ommaga taqdim etishga majburligi alohida qayd etiladi¹⁰⁸.

Bugungi kunga kelib qator xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan yirik kompaniyalar tomonidan aynan korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha alohida hisobotlar e'lon qilinayotganligini ham shu o'rinda alohida qayd etib o'tish zarur. Ularda aynan ijtimoiy sohalarga korporativ tuzilmalar xarajatlari va amalga oshirgan ishlari haqida batafsil axborotlar aks ettirilmoqda hamda keng jamoatchilikka oshkor qilinmoqda.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari iqtisodiyotda borgan sari kuchayib bormoqda. Bunda davlat-xususiy sherikchilik ma'lum bir loyihalar, xususan ijtimoiy va infratuzilma bilan bog'liq loyihalar davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkor sifatida amalga oshirilishiga asoslanadi. Bu jarayonda xususiy sektorda faoliyat ko'rsatuvchi korporativ tuzilmalar loyihani davlat bilan hamkorlikda amalga oshirish natijasida qo'shimcha foyda olishga intiladi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat esa bevosita ijtimoiy va ekologik loyihalarda korporativ tuzilmalarning o'z tashabbuslari asosida ishtirok etishi bois ko'pincha qo'shimcha foyda olishga qaratilmasligi bilan izohlanadi. Lekin korporativ tuzilmalarning ijtimoiy loyihalardagi faolligi qo'shimcha reklama vazifasini bajarishi o'tab beradi va bu o'z navbatida korporativ tuzilma nufuzining oshishiga xizmat qiladi. Keltirilayotgan mazkur jihatlar oxir-oqibat natijadorlikning o'sishini ham ta'minlaydi.

Davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyihalarda korporativ tuzilmalarning faol ishtiroki o'z navbatida o'zaro hamkorlikning kuchayishiga olib keladi. Bunda davlat-xususiy sherikchiligi va korporativ ijtimoiy mas'uliyatning umumiy hamda alohida xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin (17.1-jadval).

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat-xususiy sherikchiligi va korporativ ijtimoiy mas'uliyat bir-birini o'zaro to'ldirgan holda qator alohida va umumiy xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan har ikkala amaliyotda ham ijtimoiy sohalardagi va infratuzilma bilan bog'liq loyihalar amalga oshirilishi tufayli mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

¹⁰⁸Шарипова М.Корпоратив ижтимоий масъулият: ихтиёрийми ёки мажбурий?
<https://uzanalytics.com/siyosat/3874/>

Davlat-xususiy sherikchiligi va korporativ ijtimoiy mas'uliyatning umumiy va alohida xususiyatlari¹⁰⁹

Davlat-xususiy sherikchiligi alohida xususiyatlari	UMUMIY XUSUSIYATLAR	Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning alohida xususiyatlari
Davlat tashabbusi asosida xususiy sektorni ijtimoiy sohaga jalb qilish maqsad qilinadi	Ijtimoiy sohada ma'lum bir muammo hal qilinadi	Asosan korporativ sektor tashabbusi asosida amalga oshiriladi va foyda olish maqsad qilinmaydi
Davlat tomonidan belgilangan aniq sohalar bo'yicha amal qiladi	Ijtimoiy soha va infratuzilma bo'yicha loyihalar amalga oshiriladi	Korporativ boshqaruv yuqori organlari qarori asosida amalga oshiriladi
Davlat ma'lum bir sharoitlar yaratib berishi yoki ma'lum bir xarajatlarni qoplab berishi va xususiy sektor mablag'lari hisobiga amal qiladi	Har ikkala holatda korporativ tuzilma (xususiy sektor) mablag'lari yo'naltiriladi	Korporativ tuzilma mablag'lari hisobiga amal qiladi
Davlat nazorati va xususiy boshqaruv amal qiladi	Davlat umumiy va maxsus nazorati har ikkala holatda ko'zga tashlanadi	Korporativ boshqaruv doirasida hal qilinadi
Davlatning ijtimoiy soha va infratuzilma borasidagi ayrim funktsiyalari ijrosi ta'minlanadi, xususiy sektor qo'shimcha foydaga ega bo'ladi	Ham ijtimoiy, ham iqtisodiy naflilik kuzatiladi	Korporativ (xususiy) sektor ijtimoiy faolligi tufayli jamiyatdagi nufuzi oshib borishiga va ijtimoiy muammolar hal qilinishiga erishiladi
Investitsiyaviy hamkorlik yuzaga keladi	Investitsiya ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi ta'minlanadi	Korporativ (xususiy) sektor nufuzi va investitsiya jozibadorligi oshadi

Buning uchun davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida ochiqlik ta'minlash talab etiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bunday munosabatlar masofaviy tashkil etilishiga erishish lozim. Shuningdek davlat-xususiy

¹⁰⁹Муаллифлар томонидан тузилган.

shirikchilik munosabatlari oʻrnatiladigan soha va tarmoqlar doirasini kengaytirish maqsadga muvofiq. Chunki ayni vaqtda respublikamizda davlat-xususiy shirikchilik munosabatlari nihoyatda tor doirada qoʻllanilmoqda. Shuningdek bu borada alohida modellarga ham murojaat qilinayotgani yoʻq. Xalqaro amaliyotda davlat va xususiy sektor hamkorligi bazaviy modellari sifatida quyidagilarga guvoh boʻlish mumkin (17.2-jadval).

17.2-jadval

Davlat va xususiy sektor hamkorligi bazaviy modellari¹¹⁰

Bazaviy modellar	Mulkchilik	Boshqaruv	Moliyalashtirish
Operator modeli	Xususiy / Davlat	Xususiy	Xususiy
Kooperatsiya modeli	Xususiy / Davlat	Xususiy / Davlat	Xususiy / Davlat
Kontsessiya modeli	Davlat	Xususiy / Davlat	Xususiy / Davlat
Shartnoma modeli	Xususiy / Davlat	Xususiy	Xususiy
Ijara modeli	Xususiy	Xususiy / Davlat	Xususiy / Davlat

Keltirilgan 2-jadval maʼlumotlari koʻrsatishicha, bazaviy modellar sifatida operator, kooperatsiya, kontsessiya, shartnoma va ijara modellari davlat-xususiy shirikchilik xalqaro amaliyotida keng qoʻllanilmoqda. Bunda mulkka egalik qilish tartibi, loyihaning kim tomonidan boshqarilishi, moliyalashtirishdagi alohida jihatlarga eʼtibor qaratiladi. Mamlakatimizda xususiy maktabgacha taʼlim muassasalari boʻyicha amal qilayotgan davlat-xususiy shirikchilik munosabatlari shartnoma modeliga mos keladi. Bunda davlat maʼlum bir xarajatlarni oʻzaro shartnoma asosida qoplab berishi taʼminlanadi. Qolgan modellar boʻyicha mamlakatimizda davlat-xususiy shirikchilik munosabatlari deyarli kuzatilmaydi.

Korporativ ijtimoiy masʼuliyat boʻyicha esa iqtisodiyotda davlat ishtiroki yuqoriligi sababli alohida topshiriqlar asosida amal qilayotganini qayd etib oʻtishimiz lozim boʻladi. Bundan tashqari hududlar boʻyicha faoliyat koʻrsatayotgan biznes subʼektlari faoliyatida ham korporativ ijtimoiy masʼuliyat elementlari aksariyat holatlarda mahalliy hokimiyatlar topshiriqlari asosida amal qiladi. Mazkur holatda korporativ ijtimoiy masʼuliyatning amal qilish mexanizmi buziladi. Chunki korporativ ijtimoiy

¹¹⁰Под ред. И.Ю.Беляевой, М.А.Эскандарова. Корпоративная социальная ответственность. Учебник. – М.: “Кнорус”, 2018. – С. 283.

mas'uliyat ixtiyoriylik asosida, faoliyat to'liq izga tushib, daromadlilik muntazam ta'minlangachgina yo'lga qo'yish lozim bo'ladi.

Umumiy holda korporativ ijtimoiy mas'uliyatni korporativ tuzilmalar tomonidan avvalo xodimlar va ularning farzandlarini ijtimoiy himoya qilish, sog'lomlashtirish, faoliyat yuritayotgan hududni obodonlashtirish, ijtimoiy infratuzilmalarni ishga tushirish kabilarda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ilm-fan taraqqiyoti, innovatsion rivojlanish, hattoki futbol rivojlanishi ham korporativ ijtimoiy mas'uliyat bilan bevosita bog'liq ekanligini shu o'rinda alohida qayd etib o'tish lozim. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda xususiy sektor rivojiga to'liq erishishga e'tibor qaratish, buning uchun esa davlat va xususiy sektorning bir xil sharoitda faoliyat yuritishini ta'minlashimiz shart bo'ladi. Natijada biznes sub'ektlarining faoliyat yo'nalishlari kengayib borishi natijasida yurtimizda ham konglomeratlar tashkil etilishiga erishiladi.

Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari va korporativijtimoiy mas'uliyatning amal qilishi, alohida xususiyatlari borasidagi tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar va takliflar shakllantirildi:

Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining rivojlanishi mamlakatimizda ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat biznes sub'ektlari tomonidan ixtiyoriylik asosida ma'lum bir ijtimoiy loyihani o'z tashabbusi bilan amalga oshirishiga qaratiladi. Bunda korporativ tuzilmaning loyihalardagi ishtiroki ijtimoiy reklama vazifasini o'tab beradi.

Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari va korporativijtimoiy mas'uliyat investitsiya munosabatlarining kengayishiga sabab bo'ladi. Natijada biznes sub'ektlari ijtimoiy yoki iqtisodiy foyda olish imkoniyati yuzaga keladi, davlatning esa ma'lum bir xarajatlari qisqaradi.

Mamlakatimizda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari tor doirada amal qilmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda bunday munosabatlarni soha va tarmoqlar bo'yicha kengaytirish lozim.


Xususiy biznesda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'lamini oshirish maqsadida davlat va xususiy sektorning bir xil sharoitda ishlashini ta'minlash orqali xususiy biznes taraqqiyotiga erishish maqsadga muvofiq.

17.2. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat asosiy yo'nalishlari

Korporativ ijtimoiy ma'suliyat ko'p qirrali bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- investorlar, aksiyadorlar va kreditorlar oldidagi ularning mulki bo'yicha mulkiy javobgarlik;
- iste'molchilar va mijozlar oldidagi tovar va xizmatlar sifati bo'yicha javobgarlik;
- ishchi-xodimlar oldidagi ish o'rinlari, bandlik, mehnat muhofazasi bo'yicha javobgarlik;
- aholi oldidagi atrof-muhit muhofazasi va tabiat uchun javobgarlik;
- davlat ijtimoiy loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish va hamkorlikdagi taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha javobgarlik, boshqalar.

Biznes korporativ ijtimoiy ma'suliyat orqali o'z nufuzini oshirib borishga erishadi. Umuman korporativ ijtimoiy mas'uliyat va biznes nufuzi o'rtasida bog'liqlik mavjud (17.1-rasm).



-rasm. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat va biznes nufuzi bog'liqligi

Biznesda ichki va tashqi korporativ ijtimoiy mas'uliyat ajratib ko'rsatiladi. Bunda ichki korporativ ijtimoiy mas'uliyat quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- personalni rivojlantirish, xodimlar malakasini oshirish, xodimlar ish sharoitlarini yaxshilash;
- korporativ madaniyatni shakllantirish;

- xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish;
- yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim dasturlariga yo'naltirish;
- xodimlar va ularning oila a'zolari o'rtasida sport musobaqalari tashkil etish;
- moddiy yordam ko'rsatish;
- mehnat faxriylari hisoblangan sobiq xodimlarni qo'llab-quvvatlash;
- xodimlar farzandlarini bolalar oromgohlariga yuborish va boshqa bolalar dasturlari tashkil etish hamda boshqalar.

Tashqi korporativ ijtimoiy mas'uliyat yo'nalishlari sifatida esa quyidagilarga e'tibor qaratish biznes nufuzi oshishiga xizmat qiladi:

- atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq xatti-harakatlar va aksiyalar amalga oshirish;
- faoliyat yuritayotgan hudud infratuzilmasini rivojlantirish;
- nodavlat notijorat va xayriya fondlari bilan hamkorlik;
- tarixiy-madaniy ahamiyatga ega ob'ektlarni qo'llab-quvvatlash;
- sport, ta'lim, madaniyat va san'at loyihalariga homiylik qilish;
- davlat ijtimoiy loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish va boshqalar.

Nazorat savollari

1. Davlat-xususiy sheriklik va korporativ ijtimoiy mas'uliyatning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtaling.
2. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatdagi ustuvor jihatlar haqida ma'lumot bering.
3. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosiy yo'nalishlariga to'xtaling.
4. Ichki korporativ ijtimoiy mas'uliyatning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Xodimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha korporativ ijtimoiy mas'uliyat xususiyatlari
6. Tashqi korporativ ijtimoiy mas'uliyat yo'nalishlari haqida fikr bildiring.

XVIII bob. AKSIYADORLIK JAMIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

18.1. Aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida qayta tashkil etish masalalariga ham duch kelinadi. Bunda tashkiliy-huquqiy shakllarni o'zgartirish, boshqa korporativ tuzilmalar bilan o'zaro birlashish, qo'shib olish yoki ajralib chiqish amaliyotlari ko'p kuzatiladi.

Milliy qonunchilikka ko'ra aksiyadorlik jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda yuridik shaxslarni qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish faqat vakolatli davlat organlarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi, bundan qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish mustasno.

Jamiyat boshqa yuridik shaxsga qo'shib yuborish yo'li bilan qayta tashkil etilganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qo'shib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritgan paytdan e'tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning faoliyati tugatilganligi to'g'risidagi yozuvni kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyat o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi. Kreditor jamiyatdan majburiyatlarni tugatishni yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararlarning o'rnini qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabardor etish orqali talab qilishga haqli:

qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay;

bo'lish yoki ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran oltmish kundan kechiktirmay.

Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan jamiyatning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar javobgar bo'ladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qayta tashkil etish natijasida tugatlayotgan jamiyat qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan, shuningdek u yuridik shaxslarning yagona davlat reyestridan chiqarilganidan keyin yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi.

Yangi yuridik shaxsning unga o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir nechta jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan vujudga kelishi aksiyadorlik jamiyatlarining yoxud aksiyadorlik jamiyati va mas'uliyati cheklangan jamiyatning qo'shib yuborilishi deb e'tirof etiladi. Aksiyadorlik jamiyatini yuridik shaxslar bilan boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda qo'shib yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan jamiyat qo'shib yuborish haqida shartnoma tuzadi, unda qo'shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek har bir jamiyat aksiyalarini (ulushlarini) yangi yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir yuridik shaxsning kuzatuv kengashi yoki vakolatli organi qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etish to'g'risidagi, qo'shib yuborish shartnomasini tasdiqlash haqidagi va topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning (ishtirokchilarning) umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxsning ustavini tasdiqlash va kuzatuv kengashini saylash qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiy yig'ilishida amalga oshiriladi. Jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi yuridik shaxslarni qo'shib yuborish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Yuridik shaxslar qo'shib yuborilgan taqdirda ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar topshirish dalolatnomasiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

Bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o'tkazish jamiyatni qo'shib olish deb e'tirof etiladi.

Qo'shib olinayotgan jamiyat va qo'shib olayotgan yuridik shaxs qo'shib olish to'g'risida shartnoma tuzadi, unda qo'shib olish tartibi va shartlari, shuningdek qo'shib olinayotgan jamiyatning aksiyalarini (ulushlarini) qo'shib olayotgan jamiyatning aksiyalari va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir yuridik shaxsning kuzatuv kengashi yoxud vakolatli organi qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish to'g'risidagi va qo'shib olish shartnomasini tasdiqlash haqidagi masalani qo'shib olishda ishtirok etayotgan o'z jamiyati aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi. Qo'shib olinayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi yoxud vakolatli organi topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalani ham jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Mazkur yuridik shaxslar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiy yig'ilishi yuridik shaxsning ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Yuridik shaxslar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi qo'shib olish to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shib olinayotganda qo'shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq qo'shib olayotgan yuridik shaxsga o'tadi.

Jamiyat faoliyatini uning huquq va majburiyatlarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga o'tkazgan holda tugatish jamiyatni bo'lish deb e'tirof etiladi. Bo'lish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyatni bo'lish shaklida qayta tashkil etish, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxslarni tashkil etish hamda qayta tashkil etilayotgan jamiyatning aksiyalarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi haqidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Bo'lish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni bo'lish shaklida qayta tashkil etish, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxslarni tashkil etish hamda qayta tashkil etilayotgan jamiyatning aksiyalarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi haqida qaror qabul qiladi. Yangidan tashkil etilayotgan har bir yuridik shaxs

aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi uning ustavini tasdiqlash va kuzatuv kengashini saylash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Jamiyat bo'linganda uning barcha huquq va majburiyatlari taqsimlash balansiga muvofiq tashkil etilayotgan ikki yoki bir nechta yuridik shaxsga o'tadi.

Qayta tashkil etilayotgan jamiyatning faoliyatini tugatmagan holda, uning huquq va majburiyatlarining bir qismini o'tkazgan holda bir yoki bir nechta yuridik shaxsni tashkil etish jamiyatni ajratib chiqarish deb e'tirof etiladi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyatni ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish, ajratib chiqarish tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxsni tashkil etish, jamiyatning aksiyalarini ajralib chiqayotgan yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash imkoniyatlari hamda bunday ayirboshlash tartibi, taqsimlash balansini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish, ajratib chiqarish tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxsni tashkil etish, jamiyatning aksiyalarini ajralib chiqayotgan yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash imkoniyatlari hamda bunday ayirboshlash tartibi, taqsimlash balansini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Jamiyat tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs ajralib chiqqanda ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilgan jamiyat huquq va majburiyatlarining bir qismi taqsimlash balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi.

Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilgan holda yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakli etib o'zgartirilishga haqli. O'zgartirilayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyatni o'zgartirish, o'zgartirish tartibi va shartlari haqidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

O'zgartirilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni o'zgartirish, o'zgartirish tartibi va shartlari haqida qaror qabul qiladi. Jamiyatni o'zgartirish natijasida tashkil etilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari jamiyatning chiqib ketayotgan aksiyadorlari bilan hisob-kitoblar amalga oshirilganidan keyin ta'sis hujjatlarini tasdiqlaydi hamda qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxsning boshqaruv organlarini saylaydi (tayinlaydi).

Jamiyat o'zgartirilganida uning barcha huquq va majburiyatlari saqlanib qoladi.

Qonunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida faoliyatning ayrim turlarini faqat aksiyadorlik jamiyati shaklida amalga oshiruvchi tashkilotlarni tashkil etishga doir talablar belgilanishi mumkin.

18.2. Mamlakatimizda qo'shib yuborish, qo'shib olishga oldindan rozilik berish tartibi

Mamlakatimizda korporativ birlashishlar tartibi raqobat to'g'risidagi qonunchilik asosida tashkil etiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tuzish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarini qo'shib yuborish, qo'shib olish amaliyotlari O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Raqobat to'g'risida"gi Qonunlari, Vazirlar mahkamasining 2013-yil 27-dekabrdagi 344-sonli "Monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga va qo'shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi. Bunda O'zbekiston Respublikasining Xususiy-lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Davlat raqobat qo'mitasi) yoki uning hududiy organining xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishga, qo'shib olishga oldindan roziligi quyidagi hollarda zarur hisoblanadi (18.1-jadval):

Mamlakatimizda korporativ birlashish yoki qo'shib olishga ruxsat berish talablari va shartlari sifatida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga majburiy rioya etish, harakatlarni monopoliyaga qarshi organ qarorlari doirasida amalga oshirish, birlashmaning yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxsning ustun mavqeyi paydo bo'lishiga yoki kuchayishiga, shuningdek raqobatning cheklanishiga yo'l qo'ymaslik kabilar belgilangan. Mazkur holatlarning belgilab qo'yilganligini korporativ birlashishlar va qo'shib olishlarning kamchiligi sifatida yuqorida keltirilgan monopoliyaning oldini olishga qaratilganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Davlat raqobat qo‘mitasi yoki uning hududiy organi tomonidan qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga oldindan rozilik talab qilinadigan holatlar¹¹¹

№	Faoliyat sohasi	Holatlar tavsifi
1	Tovar bozorida	qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga oldindan rozilik berish to‘g‘risida ariza berish sanasida tegishli harakatlarni sodir etishda ishtirok etayotganlar aktivlarining jami balans qiymati eng kam oylik ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa yoki ular qo‘shib yuboriladigan yoki qo‘shib olinadigan yildan oldingi oxirgi kalendar yilda tovarlarni sotishdan olgan jami tushumi eng kam oylik ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa yoxud ulardan biri tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lsa
2	Moliya bozorida	qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga oldindan rozilik berish to‘g‘risida ariza berish sanasida tegishli harakatlarni sodir etishda ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati ekvivalentdagi miqdordan ortiq bo‘lsa (banklarga nisbatan – 450 mln AQSh dollari, sug‘urta kompaniyalariga nisbatan – 25 mln AQSh dollari, lizing kompaniyalariga nisbatan – 3 mln AQSh dollari va bank bo‘lmagan kredit tashkilotlariga, qimmatli qog‘ozlar bozori professional qatnashchilariga nisbatan – 400 ming AQSh dollari) yoxud bitim qatnashchilaridan biri moliya bozorida ustun mavqeini egallab turgan bo‘lsa

Korporativ birlashish va qo‘shib olishlar bo‘yicha oldindan rozilik olish uchun “monopoliyaga qarshi organga korporativ birlashish yoki qo‘shib olishga oldindan rozilik berish to‘g‘risida belgilangan shakldagi ariza; korporativ birlashish yoki qo‘shib olish to‘g‘risida qaror qabul qilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ta‘sis hujjatlari; ariza berish sanasidan oldingi ikki yil mobaynida har bir qatnashchi tomonidan amalga oshirilgan faoliyati turlari, ishlab chiqarilgan va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning nomlari, ularning hajmlari, amalga oshirilgan (oshiriladigan)

¹¹¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 27 dekabrda 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni qo‘shib yuborishga va qo‘shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida tuzildi.

harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar; amalga oshirilayotgan harakat har bir qatnashchisining moliyaviy hisoboti (ariza berish sanasidagi buxgalteriya balansi, oldingi ikki kalendar yil uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot) taqdim etiladi"¹¹².

18.3. Aksiyadorlik jamiyatlarini tugatish tartibi

Aksiyadorlik jamiyatining tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyati ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, tugatilayotgan jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyatni tugatish va tugatuvchini yoki tugatish komissiyasini (bundan buyon matnda tugatuvchi deb yuritiladi) tayinlash to'g'risidagi masalani aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni tugatish va tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qiladi. Jamiyat sudning qaroriga ko'ra tugatilayotganda tugatuvchini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

Davlat tugatilayotgan jamiyatning aksiyadori bo'lgan taqdirda, tugatish komissiyasi tayinlanadi va uning tarkibiga davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organning vakili kiritiladi.

Tugatuvchi jamiyatning tugatilishi haqida, shuningdek uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddatlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi. Kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish uchun muddat jamiyatning tugatilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi lozim.

Agar tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytga kelib jamiyat kreditorlar oldida majburiyatlarga ega bo'lmasa, uning mol-mulki ushbu "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish

¹¹²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 27 dekabrda 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'shib yuborishga va qo'shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

to'g'risida"gi Qonunning 100-moddasiga muvofiq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Tugatuvchi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini olish chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni jamiyatning tugatilishi to'g'risida yozma shaklda xabardor qiladi.

Kreditorlarning talablar qo'yishi uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, mazkur balansda tugatilayotgan jamiyat mol-mulking tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Oraliq tugatish balansini tugatilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar tugatilayotgan jamiyatdagi mavjud pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun etarli bo'lmasa, tugatuvchi jamiyatning mol-mulkini sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda kimoshdi savdosida sotishni amalga oshiradi.

Tugatilayotgan jamiyat kreditorlariga pul summalarini to'lash tugatuvchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida oraliq tugatish balansiga muvofiq, ushbu balans tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugaganidan keyin tugatuvchi tugatish balansini tuzadi, tugatish balansini tugatilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Tugatuvchi nazarda tutilgan tegishli tartib-taomillar tugallanganidan keyin jamiyat qimmatli qog'ozlari chiqarilishlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish yuzasidan zarur tadbirlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiradi.

Tugatilayotgan jamiyatning kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida quyidagi navbat bo'yicha taqsimlanadi:

birinchi navbatda qaytarib sotib olinishi lozim bo'lgan aksiyalar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi;

ikkinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblangan, biroq to'lanmagan dividendlarni va jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalar bo'yicha belgilangan tugatish qiymatini to'lash amalga oshiriladi;

uchinchi navbatda tugatilayotgan jamiyatning mol-mulkini oddiy aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash amalga oshiriladi.

Mol-mulkni har bir navbat bo'yicha taqsimlash avvalgi navbat bo'yicha mol-mulk to'liq taqsimlab bo'linganidan keyin amalga oshiriladi.

Agar jamiyatdagi mavjud mol-mulk hisoblangan, biroq to'lanmagan dividendlarni va jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatini imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan barcha aksiyadorlarga to'lash uchun etarli bo'lmasa, mol-mulk imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mol-mulkni tugatish qiymatining chet ellik investor bo'lgan aksiyadorga o'tkaziladigan qismini jamiyat xorijiy valyutaga ayirboshlab berishi shart.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ jamiyat tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni faqat jamiyatning qimmatli qog'ozlari chiqarilishlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan keyingina kiritadi.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

Nazorat savollari

1. Aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etish yo'nalishlari.
2. Aksiyadorlik jamiyatlarini qo'shib yuborish tartibi.
3. Aksiyadorlik jamiyatlarini qo'shib olish tartibi.
4. Aksiyadorlik jamiyatlarini bo'lish tartibi;
5. Aksiyadorlik jamiyatini ajratib chiqarish tartibi;
6. Aksiyadorlik jamiyatlarining o'zaro birlashish tartibi;
7. Aksiyadorlik jamiyatlarining qayta tashkil etilishiga ruxsat berish tartibi.
8. Aksiyadorlik jamiyatlarini tugatish tartibi.
9. Aksiyadorlik jamiyatlarini tugatishda aksiyadorlar bilan munosabatlar.

Testlar

1. Tashkiliy-huquqiy shaklni o'zgartirish, boshqa korporativ tuzilmalar bilan o'zaro birlashish, qo'shib olish yoki ajralib chiqish amaliyotlari aksiyadorlik jamiyatlarida umumiy holda qanday nomlanadi?

- a) qayta tashkil etish;
- b) korporativ birlashish;
- c) korporativ o'zgarish;
- d) korporativ tugatilish.

2. Aksiyadorlik jamiyatlari qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran necha kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor etishi shart?

- a) 30 kundan;
- b) 30 ish kunidan;
- c) 7 ish kunidan;
- d) 60 kundan;

3. Yuridik shaxslar qo'shib yuborilgan taqdirda ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar topshirish dalolatnomasiga muvofiq kimga o'tadi.

- a) yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga;
- b) tugatuvchiga;
- c) qo'shib yuborilgan yuridik shaxslar mulkdorlariga;
- d) ro'yxatdan chiqaruvchi davlat organiga.

4. Bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o'tkazish nima deb e'tirof etiladi?

- a) jamiyatni qo'shib olish;
- b) ajratib chiqarish;
- c) jamiyatni tugatish;
- d) jamiyatni bo'lish.

5. Qo'shib olish amaliyoti qanday hujjat asosida amalga oshiriladi?

- a) qo'shib olish to'g'risida shartnoma;
- b) ta'ris shartnomasi;

- c) qo‘shib olinayotgan subyektning tugatish shartnomasi;
- d) hamkorlik shartnomasi.

6. Qo‘shib olish tartibi va shartlari, shuningdek qo‘shib olinayotgan jamiyatning aksiyalarini (ulushlarini) qo‘shib olayotgan jamiyatning aksiyalari va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi qaysi hujjatda belgilab qo‘yiladi?

- a) qo‘shib olish to‘g‘risida shartnomada;
- b) yangi ustavda;
- c) qo‘shib olinayotgan subyektning tugatish shartnomasida;
- d) qo‘shma hamkorlik shartnomasida.

7. Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo‘shib olinayotganda qo‘shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatlari qaysi hujjatga muvofiq qo‘shib olayotgan yuridik shaxsga o‘tadi?

- a) topshirish dalolatnomasiga;
- b) qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomaga;
- c) qo‘shma yig‘ilish qaroriga;
- d) yangi ustavga.

8. Jamiyat faoliyatini uning huquq va majburiyatlarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga o‘tkazgan holda tugatish nima deb e‘tirof etiladi?

- a) jamiyatni bo‘lish;
- b) jamiyatni tugatish;
- c) ajratib chiqarish;
- d) nazoratdan chiqish.

9. O‘zbekiston amaliyotiga ko‘ra tovar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarning o‘zaro birlashuviga qanday holatlarda monopoliyaga qarshi organ roziligi talab etiladi?

- a) oxirgi kalendar yilda tovarlarni sotishdan jami tushumi EKOIHning yuz ming baravaridan ortiq bo‘lsa;
- b) ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati 450 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lsa;
- c) ishtirok etayotganlar aktivlarining jami balans qiymati eng kam oylik ish haqining ellik ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa

d) ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati 25 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa.

10. O'zbekiston amaliyotiga ko'ra tijorat banklarining o'zaro birlashuviga qanday holatlarda monopoliyaga qarshi organ roziligi talab etiladi?

a) o'zaro birlashayotgan banklar aktivlarining jami balans qiymati 450 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa;

b) ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati 25 million AQSh dollaridan ortiq bo'lsa;

c) bitim qatnashchilaridan biri moliya bozorida ustun mavqeini egallab turgan bo'lmasa;

d) O'zbekiston amaliyotiga ko'ra tijorat banklarining o'zaro birlashuviga yo'l qo'yilmaydi.

11. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ jamiyat tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni faqat qaysi holatda kiritadi?

a) qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan keyin;

b) tugatish to'g'risida bildirishnoma taqdim etilgandan so'ng;

c) bankrotlik qo'zg'atilib, tugatish komissiyasi o'z faoliyatini yakunlagach;

d) jamiyat mol-mulkining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi yakunlangach.

12. Aksiyadorlik jamiyatlari tugatilishida chiqarilgan aksiyalar qaysi hujjatga asosan bekor qilingan hisoblanadi?

a) emission qimmatli qog'ozlar yagona davlat reyestri;

b) tugatish komissiyasi qarori;

c) tugatish balansi;


d) bankrotlik xulosasi.

Qo‘shimcha topshiriqlar

1. Aksiyadorlik jamiyatni qayta tashkil etishda qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish tartiblarining alohida xususiyatlari bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

1.	Qo‘shib yuborish
2.	Qo‘shib olish
3.	Bo‘lish
4.	Ajratib chiqarish
5.	O‘zgartirish

2. Aksiyadorlik jamiyatini tugatish tartibi bo‘yicha klaster shakllantiring.



GLOSSARIY

Aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan emissiyaviy qimmatli qog‘oz; aksiyadorlik jamiyatlarida ulush munosabatini anglatuvchi qimmatli qog‘oz;

Aksiyador — aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan yuridik yoxud jismoniy shaxs;

Aksiyador nazariyasi – korporatsiya menejerlarining asosiy majburiyati aksiyadorlar boyligini (mulkini) maksimallashtirish;

Affillangan shaxslar – aksiyadorlik jamiyati bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar;

Aksiya – egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

Aksiyadorlar reyestri – ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga tegishli aksiyalarning nomi, soni, nominal qiymati va turi, shuningdek reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan ro‘yxati;

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi – aksiyadorlik jamiyatida eng yuqori boshqaruv organi;

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasi - aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yopilganidan keyin o‘n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuzilib, har ikkala nusxa ham umumiy yig‘ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig‘ilish kotibi tomonidan imzolanadigan bayonnoma;

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi – aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra uning o‘z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining (taftishchining) yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o‘tkaziladigan yig‘ilish;

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi – aksiyadorlik jamiyati eng yuqori boshqaruv organi;

Aksiyadorlik jamiyati – ustav kapitali aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti;

Aksiyadorlik jamiyati – ustav kapitali aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti;

Aksiyadorlik jamiyati muassislari – aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risidagi ta‘sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar;

Aksiyadorlik jamiyatini bo‘lish – jamiyat faoliyatini uning huquq va majburiyatlarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga o‘tkazgan holda tugatish;

Aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish – aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish;

Aksiyadorlik jamiyatning ustav kapitali – aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymati yig‘indisi;

Aksiyalar bo‘yicha opsiyonlar yoki fond opsiyonlari – bazaviy aktivlari aksiyalar bo‘lgan opsiyonlar;

Aksiyalarni maydalash – jamiyatning bir dona aksiyasini xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyasiga ayirboshlash;

Aksiyalarni yiriklashtirish – jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasini xuddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlash;

Aksiyalarning ochiq obunasi – qimmatli qog‘ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida o‘tkazilishi;

Avtomatik reinvestitsiyalash – aksiyadorlarga naqd pul shaklida dividend olish yoki uni qo‘shimcha aksiyalarga reinvestitsiya qilishdan birin tanlash huquqini taqdim etish;

Axborotlarni oshkor etish – aksiyadorlik jamiyatida faoliyatga doir axborotlarni, hisobotlarni ochiq e‘lon qilish;

Axborotni oshkor qilish – qimmatli qog‘ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni olish maqsadidan qat‘i nazar, axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta‘minlash;

Birlashish – ikki yoki undan ortiq kompaniyalar asosida yangi kompaniya vujudga kelishi;

Daromadlilikning ichki me‘yori (*Internal Rate of Return – IRR*) – NPV nolga teng bo‘lganda investitsion loyiha bo‘yicha pul oqimlarining sof joriy qiymatini aniqlashga xizmat qiluvchi diskontlashning koeffitsiyentlari yoki foiz stavkalari;

Davlat qimmatli qog‘ozlari – O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

Davlat unitar korxonasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan korxonasi;

Depo hisobvarag‘i – deponentning qimmatli qog‘ozlarini saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig‘indisi;

Depo hisobvarag‘idan ko‘chirma – deponentning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, depozitariy tomonidan beriladigan hujjat;

Depo hisobvarag‘idan ko‘chirma – aksiyadorning aksiyalarga bo‘lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan hujjatdir;

Depozit sertifikat – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

Diskontlash – pul mablag‘larini joylashtirish jarayonida kelgusida ma‘lum bir belgilangan summani olish uchun joylashtirish talab etiladigan pul mablag‘i miqdorini aniqlash;

Dividend – bu sotilgan aksiyalar, ulushlar, paylar soniga muvofiqlikda mulkdorlar o‘rtasida aniq bir davr bo‘yicha taqsimlanadigan korxonasi foydasining bir qismi.

Dividend siyosati – korxonaning bozor qiymatini va mulkdorlar turmush farovonligini oshirish maqsadida foydaning iste‘mol qilinadigan va reinvestitsiya qilinadigan qismlari o‘rtasidagi proporsiyani optimallashtirishga yo‘naltirilgan korxonasi moliyaviy siyosatining bir qismi;

Egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar – mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o‘z egasining ro‘yxatdan o‘tkazilishini talab etadigan qimmatli qog‘ozlar;

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar – bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar;

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri – ro‘yxatdan o‘tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining ro‘yxati;

Emitent – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo‘lgan yuridik shaxs;

Emitentning opsi – emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini opsiyonda ko‘rsatilgan muddatda qat’i belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

Fond birjasi – ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtda va belgilangan joyda o‘rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o‘tkazish orqali faqat qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs;

Gorizont birlashish va qo‘shib olish – bitta tarmoqda faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning o‘zaro birlashishi yoki qo‘shib olinish holatlari;

Ichki audit xizmati – aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatida moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun tashkil etiladigan korporativ nazorat organi;

Ichki audit xizmati – jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta’minlanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladigan hamda baholaydigan ichki nazorat organi;

Ijroiya organi – aksiyadorlik jamiyati joriy moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati yuklatilgan boshqaruv organi;

Ijroiya organi – aksiyadorlik jamiyatining kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolatini amalga oshiruvchi korporativ boshqaruv organi;

Imtiyozli aksiyalar – o‘z egalariga dividendlarni, shuningdek jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qo‘yilgan mablag‘larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar;

Investitsion kredit – faoliyat yuritayotgan korxonalarda loyihalar yoki dasturlarni amalga oshirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kredit (kredit liniyasi);

Investor – qimmatli qog‘ozlarni o‘z nomidan va o‘z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

IPO – aksiyalarni ochiq obuna tartibida ommaviy joylashtirish amaliyoti;

Jamiyatning boshqaruv organlari – aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi;

Kapital bahosi– ma'lum bir kapital manbasidan foydalanish hisobiga to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summa va kapital hajmi o'rtasidagi nisbatning foizdagi ifodasi;

Kapital qo'yimlar byudjetini tuzish – korxonada uzoq muddatli investitsiyalarni rejalashtirish va boshqarish jarayoni;

Kapital tuzilmasi – bu qarz kapitali va xususiy kapitalning o'zaro yig'indisi;

Kapitalizatsiyalash – olinadigan daromadlarni reinvestitsiya-lash jarayoni.

Kompaniya ustidan nazoratni qo'lga olish – kompaniya boshqaruvining bir guruh aksiyadorlar qo'lidan boshqasiga o'tishi.

Konglomerat qo'shib olish – faoliyat yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lmagan kompaniyalarning biri tomonidan ikkinchisining qo'shib olinishi;

Korporativ boshqaruv – bu mulk shaklidan qat'i nazar amaldagi huquqiy-me'yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma'lum bir tamoyillari asosida korxonaga maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir;

Korporativ boshqaruv – bu mulk shaklidan qat'i nazar amaldagi huquqiy-me'yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma'lum bir tamoyillari asosida korxonaga maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir;

Korporativ boshqaruv – korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir;

Korporativ boshqaruv obyekti – korporativ munosabatlar va korporativ mulk;

Korporativ boshqaruv prinsiplari – hisobdorlik, shaffoflik, adolatlilik, ochiqlik, qonuniylik;

Korporativ boshqaruv subyektlari – emitent sifatida aksiyadorlik jamiyatlari, aksiyadorlar, ya'ni investorlar, korporativ tuzilma menejerlari, davlat, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar;

Korporativ boshqaruv subyektlari – korporativ munosabatlarga kirishuvchi subyektlar, emitent sifatida aksiyadorlik jamiyatlari, aksiyadorlar, ya'ni investorlar, korporativ tuzilma menejerlari, davlat, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar.

Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi – past qiymatda investitsiyalar jalb qilish, aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlarni maksimallashtirish.

tirish, kompaniyaning bozordagi ulushi va kapitallashuv darajasini oshirib borishdir;

Korporativ boshqaruvning prinsiplari – qonuniylik, adolatlilik, hisobdorlik, javobgarlik, oshkoralik, shaffoflik;

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat – korporatsiya faqatgina aksiyadorlardan iborat emas, shu boisdan qaror qabul qilishda ishchilar, kreditorlar, iste'molchilar va umuman butun jamiyat manfaatlari ham inobatga olinishi kerak;

Korporativ maslahatchi – aksiyadorlik jamiyatining ustaviga asosan kuzatuv kengashiga hisobdor va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajarish uchun joriy etiladigan lavozim;

Korporativ moliya – korxonaning pul mablag'lari doiraviy aylanishi jarayonida kapital, daromadlar va pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq keng doiradaga pul munosabatlarini qamrab oluvchi moliya tizimining mustaqil sohasi;

Korporativ nizolar – korporativ munosabatlar subyektlari o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligi, ziddiyatlar;

Korporativ obligatsiyalar – ochiq aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilgan tijorat banklari tomonidan chiqariladigan qarz munosabatini anglatuvchi obligatsiyalar;

Kuzatuv kengashi – aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradigan korporativ boshqaruv organi;

Kuzatuv kengashi – qonun va aksiyadorlik jamiyati ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolati doirasiga kiritilgan masalalardan tashqari aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi boshqaruv organi;

Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat;

Milliy birlashishlar – bitta davlatda joylashgan kompaniyalarning o'zaro birlashishi;

Minoritar aksiyadorlar — aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig'ilish kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish natijalariga ta'sir o'tkazmaydigan aksiyalar egalari;

Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi – minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida aksiyadorlik jamiyatida ularning orasidan tashkil etilishi mumkin bo‘lgan qo‘mita;

Moliya bozori – moliyaviy instrumentlar yordamida pul mablag‘lari oqimlarini investorlardan foydalanuvchilarga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi barcha bozor institutlari majmui;

Moliya bozori sig‘imi – aniq bir turdagi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha ularga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda mumkin bo‘lgan yillik (oylik) savdo ko‘lami;

Moliya-sanoat guruhleri - real sektor va moliyaviy sektor kompaniyalarining o‘zaro kapital almashishi (qarama-qarshi tarzda bir-birining aksiyalariga egalik qilish) asosida tashkil etiladigan birlashma;

Moliyaviy menejer – biznes egasining agenti sifatida mulkdor manfaatlarini uchun faoliyat yurituvchi shaxs;

Moliyaviy risklar – belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning noaniqligi sharoitida moliyaviy faoliyatdan ko‘zlangan maqsad natijalariga yo‘naltirilgan mulkdorlar yoki moliyaviy menejerlar tomonidan qabul qilingan muqobil moliyaviy qarorlarni tanlashning iqtisodiy zarar (moliyaviy yo‘qotish)lar keltirish ehtimoli;

O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari – emis-siyaviy qimmatli qog‘ozlar egalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag‘lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat‘i belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar;

Obligatsiya – qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog‘oz;

Ochiq aksiyadorlik jamiyati – qatnashchilari o‘zlariga tegishli aksiyalarini o‘zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati;

Ochiq obuna – aksiyadorlik jamiyatining o‘z aksiyalarini ochiq tartibda ommaviy joylashtirish amaliyoti;

Oddiy aksiyalar – o‘z egasiga dividendlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi ovoz beruvchi aksiyalar;

Oltin aksiya – qiymatga ega bo‘lmagan, boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan hamda garovga berilmaydigan, jamiyat ustav kapitalining miqdorini belgilashda va dividendlarni hisoblashda inobatga olinmaydigan maxsus huquqni taqdim etuvchi amaliyot;

Options – kelishilgan muddat davomida ma‘lum bir mukofot summasi hisobiga belgilangan miqdordagi tovarlar yoki moliyaviy instrumentlarni belgilangan narx bo‘yicha sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi bitim;

Overdraft – ta’minot rasmiylashtiruviziz mijoz hisobraqami bo’yicha mablag‘larning belgilangan limit ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan kredit shakli;

Ovoz berish byulleteni – aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida kun tartibidagi masalalar bo’yicha ovoz berish amalga oshiriladigan byulleten;

Ovoz berish yakunlari to‘g‘risida bayonnoma – ovoz berish yakunlari bo’yicha sanoq komissiyasi tomonidan tuzilib, bayonnoma jumladan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kvorumi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi va sanoq komissiyasining a’zolari tomonidan imzolanadigan hujjat;

Qaram jamiyat – ovoz berish huquqiga ega aksiyalarining yigirma foizidan ko‘prog‘iga boshqa xo‘jalik jamiyati egalik qiladigan xo‘jalik jamiyati;

Qayta tashkil etish – aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida amalga oshiriladigan tashkiliy jarayonlar;

Qimmatli qog‘ozlar bozori – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq munosabatlari tizimi;

Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari – qimmatli qog‘ozlar emitentlari, qimmatli qog‘ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, fond birjalari;

Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat – qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish bo’yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi;

Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo’yicha vakolatli davlat organi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi – qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

Qimmatli qog‘ozlar egalari reyestri – ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar egalari belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlarning nomi, miqdori, nominal qiymati va toifasi, shuningdek reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan ro‘yxati;

Qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasi – emitent va u chiqaradigan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek investorning

qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat;

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi – emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish;

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi – depozitariylarda depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlash, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi;

Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar – qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, meros qilib olish, ularni ustav fondiga kiritish va qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa aktlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi;

Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers – o'zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'i belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz;

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish – qimmatli qog'ozlarni bitimlar tuzish orqali ularning dastlabki egalariga berish;

Qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi – qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda boshqa shaxsning (qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning) topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlarni saqlash, hisobga olish va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni amalga oshiruvchi depozitariy;

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari – o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsiyonlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar;

Qimmatli qog'ozlarning muomalasi – qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar;

Qimmatli qog'ozning bozor qiymati – qimmatli qog'ozni ochiq bozorda sotish taklif qilinganda unga bo'lgan bo'lgan talab natijasida aniqlangan qiymat;

Qo'shib olish – bir kompaniyaning boshqa bir kompaniya ustidan nazorat o'rnatishi va o'zini ushbu kompaniyaning yangi egasi deb e'lon qilishi;

Qo'shib olish – bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o'tkazish;

Sanoq komissiyasi – ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro‘yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tuziladigan komissiya;

Sanoq komissiyasi – ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro‘yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tuzilib, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan komissiya;

Sho‘ba korxonasi – aksiyalarining nazorat paketlari xolding aktivlariga kiruvchi korxonasi;

Sho‘ba xo‘jalik jamiyati – bir (asosiy) xo‘jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo‘jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo‘lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo‘lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo‘jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo‘lgan holatdagi ikkinchi xo‘jalik jamiyati;

Sindikatsiyalashgan kredit – bitta qarz oluvchining keng ko‘lamli xo‘jalik dasturlari yoki yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishni moliyalashtirish maqsadida kreditorlar tomonidan o‘zaro birlashgan holda taqdim etiladigan uzoq muddatli kredit;

Sof aktivlar qiymati – buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari bo‘yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o‘rtasidagi farq;

Soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan engilliklar va soliq majburiyatlarini kamaytirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliqlar va majburiy ajratmalar bo‘yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turi;

SPO – aksiyalarni ikkilamchi ommaviy joylashtirish amaliyoti;

Taftish komissiyasi (taftishchi) – aksiyadorlik jamiyati moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadigan korporativ nazorat organi;

Taftish komissiyasi (taftishchi) – jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan saylanadigan ichki nazorat organi;

Transmilliy birlashishlar – turli davlatlarda joylashgan kompaniyalarning o‘zaro birlashishi;

Unitar korxonasi – o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijorat tashkiloti;

Ustav – aksiyadorlik jamiyati (mas’uliyati cheklangan jamiyat, boshqa xo‘jalik jamiyatlari)ning ta’ sis hujjati;

Ustav kapitali – aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topgan xususiy kapital;

Ustav kapitali – jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdori;

Vertikal qo‘shib olish – o‘zaro bog‘liq tarmoqlarda yirik kompaniya tomonidan biznesning quyi bosqichlaridagi kompaniya-larni o‘ziga jalb etish orqali faoliyatni tashkil etish;

Xolding – aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarining aksiyalari nazorat paketlari kiradigan aksiyadorlik jamiyati;

Yirik bitim – aksiyadorlik jamiyati tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etgan bitim;

Yirik bitim – jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi bitimlar;

Yopiq aksiyadorlik jamiyati – aksiyalari faqat o‘z ta’ sischilari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar o‘rtasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati

Yopiq obuna – aksiyadorlik jamiyatining o‘z aksiyalarini xususiy tarzda yopiq joylashtirish amaliyoti.

“KORPORATIV BOSHQARUV” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

“Korporativ boshqaruv” fanidan mustaqil ish alohida obyektlar bo‘yicha bajariladi. Professor-o‘qituvchi tomonidan respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari ro‘yxati tadqiqot obyektlari sifatida tuzib chiqiladi. Masalan, talabalar quyidagi aksiyadorlik jamiyatlaridan birini tadqiqot obyekti sifatida tanlashlari mumkin (1-jadval).

1-jadval

Mustaqil ishlar bo‘yicha obyektlar

№	Aksiyadorlik jamiyati nomi	AJ vebsayti
1.	Aloqabank	www.aloqabank.uz
2.	O‘zbekneftgaz	www.uzneftgaz.uz
3.	O‘zsanoateksport	www.uzsanoatexport.uz
4.	Davrbank	www.davrbank.uz
5.	Toshkentdonmahsulotlari	www.tdm.uz
6.	Trastbank	www.trastbank.uz
7.	O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi	www.uzrailpass.uz
8.	Turon sanatoriyasi	www.turonsan.uz
9.	O‘zbek Lizing Interneshnl	www.uzbekleasing.com
10.	O‘zmetkombinat	www.uzbeksteel.uz
11.	O‘zbekiston pochta	www.pochta.uz
12.	O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi	www.uzrvb.uz
13.	O‘zbekiston temir yo‘llari	www.railway.uz
14.	O‘zbekiston Shampani	www.champagne.uz
15.	O‘ztelekom	www.uztelecom.uz
16.	Uzvinosanoat-Xolding	www.vinsanoat.uz
17.	O‘zkimyosanoat	www.uzkimyosanoat.uz
18.	O‘zMED-lizing	www.uml.uz
19.	O‘zkabel	www.uzkabel.uz
20.	O‘zneftgazinformatika	www.uznginf.ungd.uz
21.	O‘ztransgaz	www.uztransgaz.uz
22.	Xorazmshakar	www.xorazmshakar.uz
23.	Xalqbanki	www.xalqbanki.uz
24.	O‘ztadbirkoreksport	www.uzte.uz
25.	O‘zBAT	www.bat.uz
26.	Sino	www.sino.uz
27.	O‘ZNEFTMAHSULOT	www.unm.uz
28.	O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing	www.agroleasing.uz
29.	MAXSUSENERGOGAZ	www.maxsus.uz

30.	O‘ztashqineftgaz	www.utng.uz
31.	O‘ZLITINEFTGAZ	www.liting.uz
32.	Uzneftgazkurilishinvest	www.uzngsi.uz
33.	ALLIANCE-LEASING	www.alliance-leasing.uz
34.	ASIA ALLIANCE BANK	www.aab.uz
35.	ALSKOM	www.alskom.uz
36.	Avtotexxizmat	www.avtotexxizmat.uz
37.	Ipotekabank	www.ipotekabank.uz
38.	O‘zeltexsanoat	www.uzeltexsanoat.uz
39.	O‘zbekengilsanoat	www.legprom.uz
40.	Olmalik kon metallurgiya kombinati	www.agmk.uz

Talaba tomonidan tadqiqot obyekti tanlangach, professor-o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan reja bo‘yicha ish olib boriladi. Buning uchun esa ma’lumotlarni olish uchun markazlashgan saytlar hamda aksiyadorlik jamiyati veb-saytiga murojaat qiladi.

Mustaqil ish kompyuterda Microsoft Word matn muharririda tayyorlanadi. Texnik talablar sifatda A4 formatda, atrofi chap tomondan 30 mm, yuqori va pastdan 20 mm, o‘ng tomondan 15 mm bo‘lishi talab etiladi. Matndagi oralik 1,0 intervalga teng bo‘ladi. Diagrammalarni Microsoft Excel dasturi vositasida tayyorlash va tegishli matnga kiritish maqsadga muvofiq.

MUSTAQIL TA’LIM PORTFOLIOSINI BAJARISH TARTIBI

«Korporativ boshqaruv» fanidan “Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimi va amal qilish mexanizmi (“.....” AJ misolida)” mavzusi bo‘yicha portfolio tarkibi:

Hujjatlar portfoliosi	Tashkiliy portfolio	Tahlil portfoliosi	Xulosa portfoliosi
“Kapital bozori va birja ishi” mutaxassisligi uchun			
1.1. Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimi: boshqaruv va nazorat organlari tarkibi	2.1. AJ kapitali tarkibi va ustav kapitalining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanishi	3.1. Korporativ boshqaruvda kapital bilan bog‘liq muhim faktlar va ularning mazmuni	4.1. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini

<p>hamda ularning faoliyat yoʻnalishlari</p> <p>1.2. Qabul qilingan ichki hujjatlar va ularda belgilab qoʻyilgan talablar, aksiyadorlar umumiy yigʻilishi bayonnomalari mazmuni</p> <p>1.3. Aksiyadorlik jamiyatida davlat ishonchli vakili va uning boshqaruvdagi ishtiroki</p>	<p>2.2. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan qimmatli qogʻozlar emissiyasi va ularning joylashtirilishi</p> <p>2.3. Xorijiy mamlakatlardagi korporativ tuzilmalar kapital tarkibi tahlili</p>	<p>3.2. AJda dividendlar tahlili i</p> <p>3.3. Aksiyadorlik jamiyati moliyaviy-xoʻjalik faoliyati va samaradorlikning muhim koʻrsatkichlari tahlili</p>	<p>baholash natijalari tahlili</p> <p>4.2. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati yuzasidan SWOT-tahlili</p> <p>4.3. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va faoliyatni takomillashtirish boʻyicha mening fikrim</p>
<p>“Korporativ moliya va qimmatli qogʻozlar bozori” mutaxassisligi uchun</p>			
<p>1.1. AJda korporativ boshqaruv tizimi: boshqaruv va nazorat organlari tarkibi hamda ularning faoliyat yoʻnalishlari</p> <p>1.2. Qabul qilingan ichki hujjatlar va ularda belgilab qoʻyilgan talablar, aksiyadorlar umumiy yigʻilishi bayonnomalari mazmuni</p> <p>1.3. Faoliyat turi oʻxshash chet el aksiyadorlik kompaniyasida korporativ boshqaruv tizimi</p>	<p>2.1. Ustav kapitali shakllanishi, aksiyalar taqsimlanishi va aksiyadorlar tarkibi</p> <p>2.2. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan qimmatli qogʻozlar emissiyasi va ularning joylashtirilishi</p>	<p>3.1. Eʼlon qilingan muhim faktlar va ularning mazmuni</p> <p>3.2. Aksiyadorlik jamiyati dividend siyosati va dividendlar tahlili</p> <p>3.3. Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy-xoʻjalik faoliyati va samaradorlikning muhim koʻrsatkichlari tahlili</p>	<p>4.1. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlili</p> <p>4.2. Aksiyadorlik jamiyati faoliyati yuzasidan SWOT-tahlili</p> <p>4.3. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va faoliyatni takomillashtirish boʻyicha mening fikrim</p>
<p>“Investitsiyalarni boshqarish” mutaxassisligi uchun</p>			

<p>1.1. AJda korporativ boshqaruv tizimi: boshqaruv va nazorat organlari tarkibi hamda ularning faoliyat yo‘nalishlari 1.2. Qabul qilingan ichki hujjatlar va ularda belgilab qo‘yilgan talablar, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bayonnomalari mazmuni 1.3. Faoliyat turi o‘xshash chet el aksiyadorlik kompaniyasida korporativ boshqaruv tizimi va investitsiya munosabatlari</p>	<p>2.1. Ustav kapitali shakllanishi, aksiyalar taqsimlanishi va aksiyadorlar tarkibi 2.2. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan qimmatli qog‘ozlar emissiyasi orqali investitsiya jalb qilish holati</p>	<p>3.1. Investitsiyalar bilan bog‘liq muhim faktlar va ularning mazmuni 3.2. Aksiyadorlik jamiyati dividend siyosatining investitsiyalar jalb qilishga ta’siri 3.3. Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy-xo‘jalik faoliyati va samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari tahlili</p>	<p>4.1. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlili 4.2. AJ faoliyatiga investitsiyalar jalb qilish hamda boshqa jihatlar yuzasidan SWOT-tahlili 4.3. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha mening fikrim</p>
---	--	--	---

Mustaqil ta’lim portfoliosida tanlab olingan obyekt bo‘yicha dastlab axborotlar to‘planadi. Shundan kelib chiqqan holda avvalo **hujjatlar portfoliosi** bajariladi. Unda aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimining tashkiliy jihatlari va bu boradagi xorij tajribasiga e’tibor qaratiladi. Bunda aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimi strukturasi sxema asosida keltiriladi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi, ijroiya organ faoliyatining tashkiliy xususiyatlari va yo‘nalishlari; Taftish komissiyasi va Ichki audit xizmati faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganib chiqiladi. Bunda “Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizom, “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizom, “Taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom, “Ichki nazorat to‘g‘risida”gi Nizom asosida masala tahlil qilinadi. Aksiyadorlik jamiyatida qabul qilingan ichki hujjatlar va ularda faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘yilgan talablar o‘rganiladi. Bunda ichki hujjatlar sifatida Ustav, Korporativ boshqaruv kodeksi, “Axborot siyosati to‘g‘risida”gi Nizom, “Sanoq komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom, “Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa hujjatlarga murojaat

qilish talab etiladi. Aksiyadorlik jamiyatida davlat ishonchli vakili va uning boshqaruvdagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratiladi. Hujjatlar portfoliosi esse shaklda elektron pochta orqali professor-o'qituvchiga yuboriladi.

Talaba tomonidan taqdim etiladigan ikkinchi portfolio **tashkiliy portfoliodir**. Unda davlatning aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalidagi ulushi va aksiyadorlar tarkibi tahlil qilinadi. Ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishda aksiyadorlik jamiyati ishtiroki baholanadi. Bunda korporativ veb-saytlar ma'lumotlari, davlat aktivlarini boshqarish markazi ma'lumotlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Faoliyat sohasi o'xshash xorijiy mamlakatlardagi korporativ tuzilmalarda davlat ishtiroki o'rganilib **referat tarzida** elektron pochta orqali professor-o'qituvchiga taqdim etiladi.

Uchinchi portfolio **tahlil portfoliosi** bo'lib, unda korporativ boshqaruvda davlat ishtiroki bilan bog'liq muhim faktlar va ularning mazmuni, davlat ulushidan kelib chiqqan holda dividendlarni davlat byudjetiga o'tkazish hamda dividendlarni soliqqa tortish amaliyoti, aksiyadorlik jamiyati moliyaviy-xo'jalik faoliyati va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari tahlili amalga oshirilib, **tahliliy hisobot** shaklida elektron tarzda professor-o'qituvchiga taqdim etiladi.

Va nihoyat to'rtinchi portfolio **xulosa portfoliosi**. Unda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlili hamda yuqorida bajarilgan portfoliolar asosida davlat ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati yuzasidan SWOT-tahlili amalga oshiriladi. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va aksiyadorlik jamiyati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha talaba o'z fikrini bayon etadi. Umumiy holatda mazkur portfolio **keys-stadi** tarzida taqdim etiladi.

Hujjatlar portfoliosi	Tashkiliy portfolio	Tahlil portfoliosi	Xulosa portfoliosi
1.1. Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimi: boshqaruv va nazorat organlari tarkibi hamda ularning faoliyat yo'nalishlari	2.1. Ustav kapitali shakllanishi, aksiyalar taqsimlanishi va aksiyadorlar tarkibi	3.1. E'lon qilingan muhim faktlar va ularning mazmuni 3.2. Aksiyadorlik jamiyati dividend siyosati va	4.1. Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlili 4.2. Aksiyadorlik

<p>1.2. Qabul qilingan ichki hujjatlar va ularda belgilab qo'yilgan talablar, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomalari mazmuni</p> <p>1.3. Faoliyat turi o'xshash chet el aksiyadorlik kompaniyasida korporativ boshqaruv tizimi</p>	<p>2.2. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning joylashtirilishi</p>	<p>dividendlar tahlili</p> <p>3.3. Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy-xo'jalik faoliyati va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari tahlili</p>	<p>jamiyati faoliyati yuzasidan SWOT-tahlili</p> <p>4.3. Aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari</p>
7 балл	8 балл	7 балл	8 балл

Mustaqil ta'lim portfoliosini taqdim etish va baholash tartibi

Portfolio turi	Taqdim etish shakli	Ball taqsimoti	Taqdim etish vaqti
Hujjatlar portfoliosi	Esse	7	Birinchi ONda
Tashkiliy portfolio	Referat	8	8-haftada
Tahlil portfoliosi	Tahliliy hisobot	7	Ikkinchi ONda
Xulosa portfoliosi	Keys-stadi	8	15-haftada

MUSTAQIL ISHNI TAYYORLASHDA FOYDALANISH TAVSIYA QILINADIGAN MANBALAR

1. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlari
2. www.cmda.gov.uz – Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi veb-sayti
3. www.uzse.uz – Toshkent respublika fond birjasi veb-sayti
4. www.openinfo.uz – Korporativ axborot yagona portali
5. Aksiyadorlik jamiyatlari veb-saytlari va ichki hujjatlari
6. www.davaktiv.uz – Davlat aktivlarini boshqarish markazi
7. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar
8. Xorijiy aksiyadorlik kompaniyalari va fond birjalari veb-saytlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1995 yil 21 dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2014 yil 6 may.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2015 yil 25 avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021 yil 25 fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni. 1998 yil 1 may.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 1999 yil 19 avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi”gi Qonuni. 2002 yil 5 aprel.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi “Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi “Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. <http://prezident.uz/uz/lists/view/1371>

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 октябрдаги ПФ-6096 сонли “Давлат иштирокидаги корхоналарни ислох қилишни жадаллаштириш ҳамда давлат активларини хусусийлаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 февралдаги ПФ-6167 сонли “Давлат активларини хусусийлаштириш жараёнларини янада жадаллаштириш тўғрисида” Фармони.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 268-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 27 dekabrda 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni qo‘shib yuborishga va qo‘shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 27 dekabrda 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar birlashmalarini tashkil etishga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni qo‘shib yuborishga va qo‘shib olishga oldindan rozilik berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

17. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T. “O‘zbekiston”, 2015. – 72 bet.

18. Каримов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005. – 528 бет.

19. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekistonning Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasidan. www.uza.uz

20. Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P 546.

21. Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. –204 с.

22. Хашимов А.А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш.: Иқтисод фанлари доктори илмий даражаси учун дисс.иши. – Т.: 2007. – 338 б.

23. Суюнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2007. – 319 б.

24. G20/OECD Principles of Corporate Governance. OECD 2015. <https://www.oecd.org/daf/ca/Corporate-Governance-Principles-ENG.pdf>

25. The Family Business Network, www.fbn-i.org/fbn/main.nsf/doclu/facts

26. Governance Challenges for Family-Owned Businesses, Practical Guide to Corporate Governance

27. EY Family Business Yearbook 2017

28. European Family Business Barometer, Sixth Edition, KPMG International, 2017

29. The Family Business Network, www.fbn-i.org/fbn/main.nsf/doclu/facts

30. John Ward, Creating Effective Boards for Private Enterprises (Family Enterprise Publishers, 1991); Kelin E. Gersick, John A. Davis, Marion McCollom Hampton, Ivan Lansberg, Generation to Generation: Life Cycles of the Family Business (Harvard University Press, 1997).

31. European Family Business Barometer, Sixth Edition, KPMG International, 2017

32. Дементьева А.Н. Модели корпоративного управления: опыт зарубежных стран и России. // *Право и управление. XXI век. 2008. №3.* – С.80. (74-82)

33. Дементьева А.Г. Эволюция корпоративных структур и система корпоративного управления. // *Менеджмент сегодня, 2008. - №1.* - С.3.

34. Mahoney P. The political economy of the securities act of 1933. UVA Law School, Legal studies working paper.#11. 2000. <http://ssrn.com/abstract=224729>.

35. Banner S. The origin of the New York stock exchange. Journal of legal studies. 1998. – P.1791-1860.

36. [Буянский С.Г.](#), [Трунцевский Ю.В.](#) Корпоративное управление, комплаенс и риск-менеджмент. – Москва, 2020. – 342 с.

37. Суюнов Д.Х. Акциядорлик жамиятларини ривожлантиришга замонавий назорат тизимини жорий қилиш йўллари. // Халқаро молия ва ҳисоб. 2020, №3.

38. Данельян А.А. Корпорация и корпоративные конфликты. Монография. – Москва, 2007. – С. 109. (192 с.)

39. G20/OECD Principles of Corporate Governance. OECD 2015. <https://www.oecd.org/daf/-ca/Corporate-Governance-Principles-ENG.pdf>

40. James C. Van Horne, John M. Wachowicz. Fundamentals of financial management . – 13th ed. – Pearson Education, 2009. – P. 9 (719)

41. В.В.Ковалёв, Вит.В.Ковалёв. Корпоративные финансы и учёт: понятия, алгоритмы, показатели. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2015. – Ст. 444 (1000)

42. Атаниязов Ж. Жаҳонда молия-саноат гуруҳлари шаклланиши ва ривожланишининг назарий-методологик асослари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2016. - №1.

43. Ш.Абдужабборов. Корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш нимани кўрсатди? // Корхонани бошқариш. – Тошкент, 2017. - №10. <https://e.management.mcf.uz/article.aspx?aid=594590> асосида тузилди.

44. Суюнов Д.Х., Хошимов Э.А. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – Тошкент, 2018. - №2.

45. Milton Friedman. The Social Responsibility of Business is Increase its Profits. The New York Times Magazine, 1970.

46. Под ред. И.Ю.Беляевой, М.А.Эскандарова. Корпоративная социальная ответственность. Учебник. – М.: “Кнорус”, 2018. – 316 с.

47. Рахматуллаева Ф. Корпоратив ижтимоий масъулият концепциясининг моҳияти ва ривожланиши. – Тошкент, 2016. – Biznes-Эксперт. – №7.

48. Шарипова М. Корпоратив ижтимоий масъулият: ихтиёрийми ёки мажбурий? <https://uzanalytics.com/siyosat/3874/>

49. Под ред. И.Ю.Беляевой, М.А.Эскандарова. Корпоративная социальная ответственность. Учебник. – М.: “Кнорус”, 2018. – С. 283.

50. http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/10_J_Atan_iyazov.pdf
 51. <http://openinfo.uz/ru/facts/39546/>
 52. <http://www.uzex.uz/uz/pages/public-data-on-accrued-dividends>
 53. <http://www.uzex.uz/uz/pages/public-data-on-accrued-dividends>
 54. <https://e.management.mcf.uz/article.aspx?aid=594590>
- Управление предприятием. №10. 2017
55. <https://trustbank.uz/upload/medialibrary/189/korp-uzb.pdf>
 56. <https://uzrvb.uz/uz/ozrvb-azhning-2020-yildagi-samaradorlikning-muhim-ko>
 57. www.dalal.uz – “DALAL STANDARD” МЧЖ veb-saytidan olindi.
 58. <https://uzse.uz/ipos/15>
 59. www.deponet.uz – Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси расмий вебсайти маълумотлари асосида тайёрланди.
 60. <http://www.doingbusiness.org/Methodology/Protecting-Minority-Investors>
 61. www.kvarts.uz – Kvarts aksiyadorlik jamiyati rasmiy veb-saytidan olindi.
 62. <https://mikrokreditbank.uz/about/stock-holders/divid/divident.html>
 63. <https://blog.calltouch.ru/cto-takoe-komplaens>
 64. [http://www.ey.com/Publication/vwLUAssets/Comparing-global-stock-exchanges-Eng/\\$FILE/Comparing-global-stock-exchanges-Eng.pdf](http://www.ey.com/Publication/vwLUAssets/Comparing-global-stock-exchanges-Eng/$FILE/Comparing-global-stock-exchanges-Eng.pdf)
 65. https://inventure.com.ua/news/world/rejting_top_10_ipo_zh_vsyu_istori

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I bob. KORPORATIV BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI ..	10
1.1. Korporativ boshqaruvning mohiyati, maqsadi va vazifalari.....	10
1.2. Korporativ boshqaruv ishtirokchilari. Korporativ boshqaruv va korporativ menejment.....	15
1.3. Korporativ boshqaruv prinsiplari.....	17
1.4. O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari. Korporativ boshqaruv kodeksining qo‘llanish xususiyatlari.....	19
II bob. KORPORATIV BOSHQARUVNING ZAMONAVIY USLUBLARI VA MODELLARI	29
2.1. Xalqaro darajada tan olingan korporativ boshqaruv modellariga umumiy tavsif.....	29
2.2. Anglo-amerika modeli xususiyatlari.....	31
2.3. Korporativ boshqaruvning nemis modeli.....	34
2.4. Korporativ boshqaruvning yapon modeli.....	37
2.5. Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli.....	40
III bob. KORPORATIV TUZILMA SIFATIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATI TASHKILY ASOSLARI.....	61
3.1. Aksiyadorlik jamiyatlarining vujudga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasi.....	61
3.2. Aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari va kamchiliklari.....	64
3.3. Aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy asoslari.....	66
IV bob. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI	77
4.1. Aksiyadorlik jamiyatlari tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv organlari tarkibi.....	77
4.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va uning vakolat doirasi.....	80
4.3. Kuzatuv kengashi va uning korporativ boshqaruvdagi roli.....	82
4.4. Ijroiya organi tashkiliy tuzilishi va faoliyat mexanizmi.....	92
V bob. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHINI TASHKIL ETISH, O‘TKAZISH VA RASMIYLASHTIRISH.....	103
5.1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining tashkil etilishi.....	103
5.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish va ovoz natijalarini rasmiylashtirish.....	109

5.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazishning amaldagi holati.....	113
---	-----

VI bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA NAZORAT TIZIMI.....125

6.1. Ichki nazorat tizimining tashkiliy jihatlar va amal qilish mexanizmi.....	125
6.2. Taftish komissiyasi faoliyat mexanizmi.....	128
6.3. Ichki audit xizmati faoliyat mexanizmi.....	134
6.4. Korporativ boshqaruvda komplens tizimi	139

VII bob. KORPORATIV NIZOLAR VA ULAR OLDINI OLISH VA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI SAMARALI BOSHQARISH.....149

7.1. Korporativ nizolar, ularning yuzaga kelish sabablari va tasniflanishi...	149
7.2. Manfaatlar to‘qnashuvini samarali boshqarish prinsiplari.....	156
7.3. Manfaatlar qarama-qarshiligi kelib chiqishining oldini olish.....	158
7.4. Manfaatlar qarama-qarshiligini boshqarish va bartaraf qilish.....	161

VIII bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA AXBOROTLAR OSHKORALIGI170

8.1. Korporativ boshqaruvda hisobdorlik, axborotlarni oshkor etish va shaffoflikni ta’minlashning tashkiliy xususiyatlari.....	170
8.2. Axborotlar oshkoraligini ta’minlash maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ veb-saytlarida e’lon qilinadigan axborotlar.....	173
8.3. Aksiyadorlik jamiyatlarining emitent sifatida axborotlarni oshkor etishlari bo‘yicha talablar.....	176

IX bob. MINORITAR AKSIYADORLAR VA ULARNING HUQUQLARINI TA’MINLASH185

9.1. Aksiyadorlarning huquqlari va ularga amal qilish.....	185
9.2. Minoritar aksiyadorlar va ular huquqlarini himoya qilish.....	189
9.3. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish.....	193

X bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA DAVLATNING ISHTIROKI.....200

10.1. Davlat va korporativ tuzilmalar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning iqtisodiy mohiyati.....	200
10.2. Oltin aksiya amaliyoti va uning O‘zbekistonda qo‘llanilish xususiyatlari.....	205
10.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ishtirokining amaldagi holati.....	211

XI bob. KORPORATIV MOLIYAVIY SIYOSAT VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	223
11.1. Korporativ moliyaviy munosabatlar tizimi.....	223
11.2. Korporativ moliyani boshqarishning tashkiliy xususiyatlari va konsepsiyalari.....	228
11.3. Korporativ moliyaviy siyosat asosiy yo‘nalishlari.....	241
11.4. Korporativ moliyaviy siyosatda xususiylashtirish amaliyoti.....	245
XII bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN BOG‘LIQ MUNOSABATLAR TIZIMI	265
12.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlar muomalasining nazariy va tashkiliy jihatlari.....	265
12.2. Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish hamda olish.....	271
12.3. Aksiyalarni ommaviy joylashtirishning iqtisodiy mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari.....	278
12.4. Mamlakatimizda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti.....	286
XIII bob. KORPORATIV BIRLASHMALAR VA ULARDA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMI	307
13.1. Korporativ birlashishlarning iqtisodiy mohiyati, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va amalga oshirilishi.....	307
13.2. Korporativ birlashmalarning turlari	314
13.3. O‘zbekistonda xoldinglar faoliyat mexanizmi.....	320
XIV bob. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN YIRIK BITIMLAR TUZISH	332
14.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida yirik bitimlar tuzish tartibi.....	332
14.2. Aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish.....	334
XV bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA FOYDANI TAQSIMLASH MEXANIZMI	345
15.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash va dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari	345
15.2. Aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatining amaldagi holati tahlili.....	355

XVI bob. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI BAHOLASH ...	367
16.1. Korporativ boshqaruv tizimini baholashning tashkiliy jihatlarini	367
16.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari tahlili	382
XVII bob. KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT	401
17.1. Davlat-xususiy sheriklik va korporativ ijtimoiy mas'uliyat umumiy jihatlarini.....	401
17.2. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat asosiy yo`nalishlari	407
XVIII bob. AKSIYADORLIK JAMIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH	409
18.1. Aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish.....	409
18.2. Mamlakatimizda qo`shib yuborish, qo`shib olishga oldindan rozilik berish tartibi.....	413
18.3. Aksiyadorlik jamiyatlarini tugatish tartibi.....	415
Glossariy	422
“Korporativ boshqaruv” fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish	434
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	441

**DILMUROD SUYUNOV
SAMARIDDIN ELMIRZAYEV**

KORPORATIV BOSHQARUV

Darslik

Muharrir: Begzod Keldiyorov
Sahifalovchi: Otabek Fayzullaev
Dizayner: Vasiliy Bursev

Bosishga ruxsat etildi 21.12.2020. Format 84x60 1/32.
«Times New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi.
Nashr bosma tabog'i 28.25.
Shartli bosma tabog'i 28.25. Tiraji 600.
Buyurtma № 29/12

«BROK CLASS SERVIS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Segizbaeva ko'chasi, 28-uy.